ISNN 3030-3907

2026/2
VOLUME 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/2 VOLUME 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Yo‘l harakati xavfsizligini oshirish usullariga oid ilmiy ishlar tahlili *Baynazarov Xayrullo Raximovich* *Nosirov Abdunabi Rustamovich* *Begboyev Fazlidin*	9
2	Naftalin qator uglevodorodlardan sulfokationit ajratib olish va oqova suvlarni tozalash *Ergasheva Yulduzoy Olimovna* *Beknazarov Hasan Soyibnazarovich*	17
3	Neyrodegenerativ kasalliklarni aniqlashda tibbiy axborotlarni qayta ishlashning intellektual algoritmlarini ishlab chiqish *O‘razmatov Tohir Quronbayevich* *Abdullayeva Umida Farxadovna*	26
4	Improving students’ functional literacy based on a collaborative approach in mother language lessons *Bakayeva Raykhon Izzatovna*	31
5	Dasturlash fanlarini o‘qitish misolida raqamli va texnologik kompetentlikni oshirish *Isomiddinov Ma’rufjon* *Murodova Zarina Rasulovna*	36
6	Tik silindr shakldagi rezervuarlarda benzin bug‘lanishining nazariy asoslari va o‘zbekiston sharoitida tahlili *Saxatov Bahodir Gulmurodovich* *Ashurov Murodullo Xolboyevich* *Oripova Lobar Norboyevna* *Boyqobilova Maxliyo Maxmudovna*	46
7	Ogahiyning tuyuqlarda badiiy sa’natlarni qo‘llash mahorati *Nurullayeva Guli Ortiq qizi*	53
8	Dorivor limono‘t (melissa officinalis) ning shifobaxshlik xususiyatlarini kimyoviy tarkibi orqali baholash *Egamberdiyev Dostonbek Usmonjon o‘g‘li* *Atabekova Xurshida*	59
9	Современное состояние получения железных коагулянтов из железосодержащих сбросных стоков гидрометаллургического производства *Хужаев Ш.Ш.* *Шарипов С.Ш.* *Шодикулов Ж.М.*	65
10	Пахтани майда ифлосликлардан тозалашда қозиқлари ритмли жойлаштирилган барабан конструкциясини асослаш ва унинг самарадорлигини баҳолаш *Джамолов Рустам Камолидинович* *Рахимов Рашид Хайдарович* *Карабаев Ибрагим Турдиевич*	73
11	Development of methodological approaches to assessing the competitiveness of pharmaceutical organizations, taking into account chemical aspects and regional charesteristics. *Ubaydulloeva Fariza Azamatovna* *Bazarova Nigina Sobirjonovna*	83
12	Роль учителя в формировании основных компонентов функциональной грамотности *Бакаева Райхон Изатовна*	90
13	Экспериментальное исследование химической активности фосфоритовых руд центрального кызылкума *Хужакулов Амиржон Муродович* *Хушвактова Дилшода Шавкат кизи* *Боймуродов Нажмиддин Абдукодирович* *Нормуминов Уйгун Шаймардон угли*	101

ISSN 3030-3907

14	Kenaf tolalarini sanoat miqyosida barqaror ishlab chiqarishda zamonaviy ivitish va dekortikatsiya texnologiyalarining samaradorligi *Fayzieva Mushtari Abdulla qizi* *Barotova Umida Mustafoqul qizi* *Farhodov Sunnatjon Umar o'g'li* *Samiyev Sardorjon Salimjon o'g'li* *Urunov Bekjon Jovli o'g'li*	108
15	"Survival engineering in termites: the living environment of anacanthotermes ahngerianus across seasons" *Akbarov Ilyos Farhod o'g'li*	117
16	Qovunni qayta ishlashda mexanizatsiyalashtirish ishlarining ahamiyati. *Xodiyev Ulug'bek Eshdavlatovich* *Toshmaxammatov Shamsiddin Toshniyoz o'g'li* *Xayrullayev Dilmurodjon Iskandar o'g'li*	134
17	Насос агрегатида тебраниш датчиги асосида ишловчи алгоритмнинг дискрет вақтли математик модели *Алимова Нодира Батиржановна* *Хаитова Азиза Рўзимаматовна*	138
18	Multimediali tarmoq elementlarining neyro-noravshan modellarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash *Fayzullayeva Barno Baxodirovna*	148
19	Этапы создания алгоритма распознавания лиц для поиска человека *Улугбек Уразкулович Турапов* *Акылбаев Мусабек Исламович* *Джантаева Шолпан Калмахановна*	155
20	Lotin tili va tibbiy terminologiya fanida "retseptning tuzilishi va qo'llanilishi" mavzusini oson, qiziqarli va samarali tushuntirish *Maxmudov Zafar Mardanovich*	165
21	Research and calculation of line parameters ring spinning machines *Dadakhanov Nurilla Karimovich*	173
22	Analysis of the stages of the formation of flakes (wealz oxide) in the process of waelz *Ro'ziqulov Qodirbek Musurmanovich* *Utanov Farrux Djabbarovich*	180
23	Ixtisoslanshitirilgan maktab o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini loyihalashtirishning tarkibiy komponentlari *Saidova Sumbuloy Otaboyevna*	187
24	Studying the coefficients of heat conductivity and thermal resistance of thermally resistant polymer coatings *Ruziyev Rufat Toshboyevich*	195
25	Новый подход к математическому моделированию процесса комбинированной (уз+ик) переработки сушки коконов тутового шелкопряда *Fu Yaqin* *Д.И.Самандаров* *Д.Д.Душанова* *Ж.Э.Сафаров* *Ш.А.Султанова* *А.Б.Усенов*	203
26	Chemical composition, biological properties, and research trends of acroptilon repens: a systematic review *Kholmuradov Bobur Bahrom o'g'li* *Ishimov Uchkun Jomuradovich*	212
27	Machine learning approaches for detecting real-time network irregularities in enterprise systems *Mirzayev Muhammadjon Muhammadayub o'g'li*	219

ISSN 3030-3907

	Egamberdiyev Mardonbek Muzaffar o‘g‘li	
28	Взаимосвязь науки с состоянием фундаментальных и прикладных исследований *Зайналов Ж.Р.* *Нурмухамедов А.М.* *Абдуллаева С.Ш.*	228
29	Иқ-спектроскопия усулида юқори ёғ кислоталари асосидаги присадкаларни дизель ёқилғилари физик-кимёвий хоссаларини яхшилашини ўрганиш *Фозилов Ҳасан Садриддин ўғли* *Фозилов Садриддин Файзуллаевич* *Ахророва Нигора Баходировна*	235
30	Texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatining nazariy-metodik tahlillari *Djurayeva Feruzaxon Abdumuxtorovna*	246
31	Singapur davlatida raqamli ta’lim: muammolar, yechimlar va istiqbolli takliflar *Isayev Bohodirjon Makhamatshoyevich*	251
32	Ishlab chiqarish korxonalarida qurilish materiallari ishlab chiqarishda xom-ashyoni maydalovchi uskunalarning maydalash yuzalarini yeyilishga chidamliligini oshirish va ish unumdorligini jadallashtirish *Muminov X.* *Muratov A.* *Malikov H.* *Aliyev J.*	256
33	Wavelet transformatsiyasi va rasmni siqishdagi qo‘llanilishi *Majidov Asadbek Obidjon o‘g‘li*	262
34	Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda sonning butun va kasr qismiga taalluqli masalalarni yechish kompetensiyalarini shakllantirish *Mamasidikov Baxodir Qobuljon o‘g‘li*	270
35	Matematik tahlil masalasini yechishda axborot texnologiyalari *Mirzaeva Manzura Maxmudovna*	278
36	Gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalashning nazariy modelini ishlab chiqish *Sultanova Dildora Ilhomjon qizi*	285
37	Adaptive ta’limda raqamli kontentni avtomatik moslashtirish algoritmlari: gibrid modellar va neyron tarmoqlari integratsiyasi *Raimov Ulug‘bek Yorqinbek o‘g‘li* *Maxammedova Muxtasar Mirzoxid qizi*	293
38	Sirdaryo viloyatidagi “eurasigazbeton” zavodida gollandiya texnologiyasi asosida gazablok ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish *Muminov X.* *Muratov A.* *Malikov H.* *Aliyev J.*	299
39	Mantiq algebrasidagi jegalkin ko‘phadini sodda holatga keltirish metodikasi *Zulfixarov Ilxom Maxmudovich*	304
40	Интегративная оценка нейрокогнитивных и структурно-функциональных изменений головного мозга при болезни паркинсона *Абдукодиров Элдор Исроилович* *Иноятова Ситора Ойбековна* *Маматова Шахноза Абдужалиловна* *Каримова Мухаббат Умаровна* *Махамадходжаева Мухаббат Абдусаттаровна* *Бобоев Кобил Камалович* *Бабакулов Шараф Хамракулович*	310
41	O`simlik moylarini gidratatsiyalash jarayonini tahlili *Xidirov J.E.*	319

ISSN 3030-3907

	Axmedov A.N. *Majidov K.X.*	
42	Шовқинни изоляцияловчи нотўқима матоларни маҳаллий хом ашёлардан олиш ва сифатини баҳолаш *Патхуллаев Сарваржон Убайдулла ўғли* *Акбаров Аббас Акрамовияч*	325
43	Разработка алгоритма профилактики прогрессирования и вторичных осложнений у пациентов с болезнью паркинсона *Абдукодиров Элдор Исроилович* *Таирова Дилярам Закировна* *Бабакулов Шараф Хамракулович* *Юлдашева Асал Саидмурод кизи.*	332
44	Adsorbentlar tayyorlash uchun navbahor bentonitining tarkibi va strukturasi o‘ziga xosligini o‘rganish *Abdikamalova Aziza Baxtiyarovna.* *Mamadoliyev Ikromjon Ilxomidinovich.* *Sitora Sirojiddinova Dilshodovna.* *Xaydarov Dilshod Mamarasulovich*	339
45	Управление персоналом в контексте цифровой трансформации *Кадирова Гавхарой Кутбидиновна*	351
46	Rejalashtirish va vazifalarni boshqarish tizimlarining nazariy asoslari *Bozorova Zulayho Nematillo qizi* *Mirzayeva Dilnoza Ulug‘bek qizi*	360
47	Система и алгоритмы интеллектуального мониторинга технического состояния промышленного оборудования на основе виброакустических сигналов *Юлдашев Мирзохид Махмуджонович*	367
48	Main directions of improving the water resources management system in uzbekistan *Ashurova Oltinoy Yuldashevna*	372
49	Guanidinxloridmetilakrilat (gxma) sintezlash jarayoni va korroziyaga qarshi xususiyatlari tadqiqi *Gafurova Gulnoz Alixonovna* *Sadikova Mashhura Idilloyevna*	382
50	Mashina detallari fanidan to‘g‘ri tishli silindirik reduktorni loyihalash mavzusidagi kurs loyihasini bajarishda kinematik hisobni va vallardagi momentlarni aniqlash tartibi. *Odinayev Akmal Ko‘charovich* *Ismaylov Haliq Shadmanovich* *Xurramov Ro‘ziboy Jo‘ra o‘g‘li*	388
51	Tuproq zichlanishini kamaytiruvchi iz yumshatkich tekislagichlarining energiya tejamkor parametrlari *Naurizbayev Alliyar Oserbayevich*	396
52	Maxsar yog‘i asosida tayyorlangan yangi surkov moyi sintezi va iq-spektroskopik tahlili *Omonkulov Olimjon Tulkinovich* *Axmedov Vohid Nizomovich* *Ikromov Ulug‘bek G‘afur o‘g‘li* *Isroilov Oltinbek Ixtiyor o‘g‘li*	405
53	Tabiiy tilni qayta ishlash (nlp) asoslari va qo‘llanilish sohalari *Orziqulova Zulfizar Murodjon qizi*	411
54	Automated control systems for open pit mining transport equipment: current state and development prospects *Makhmudov Sherzod Azamatovich* *Ismatov Adkhamjon Alibekovich* *Rakhimova Nozanin Allayor kizi*	418
55	Sulfatlangan va sulfirlangan yog‘lar, ularning xossalari va charm sanoatida qo‘llanilishi. *Niyozova R.N.*	428

ISSN 3030-3907

UO‘K: 656.13.027

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH USULLARIGA OID ILMIY ISHLAR TAHLILI

Baynazarov Xayrullo Raximovich
Andijon davlat texnika instituti “Transport logistikasi” kafedrasi dotsenti,t.f.f.d. (PhD), dotsent
ORCID: 0000-0002-1219-9059,
E-mail: avtodoroj2012@gmail.com,
Tel: +998900602044,
Nosirov Abdunabi Rustamovich
Andijon davlat texnika instituti mustaqil tadqiqotchishi,
Begboyev Fazlidin
Andijon davlat texnika instituti magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro va O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar, ularning amaliy qo‘llanilishi, mahalliy sharoitga moslashuv darajasi baholanadi.

Kalit so‘zlar: Yo‘l harakati xavfsizligi, fazoviy-statistik tahlil, GIS modellashtirish, agent-based modeling, IoT sensorlar, AI-based prediction, transport oqimi, favqulodda xizmatlar, raqamli boshqaruv tizimi.

Аннотация. В данной статье анализируются научные исследования, направленные на повышение безопасности дорожного движения. В частности, оцениваются методологические подходы, разработанные международными и узбекскими учеными, их практическое применение, уровень адаптации к местным условиям.

Ключевые слова: Безопасность дорожного движения, пространственно-статистический анализ, ГИС-моделирование, агентное моделирование, IoT-датчики, AI-based prediction, транспортный поток, экстренные службы, цифровая система управления.

Abstract. This article analyzes scientific research aimed at improving road safety. In particular, methodological approaches developed by international and Uzbek scientists, their practical application, and the degree of adaptation to local conditions are assessed.

Keywords: road safety, spatial-statistical analysis, GIS modeling, agent-based modeling, IoT sensors, AI-based prediction, traffic flow, emergency services, digital management system.

Kirish.

ISSN 3030-3907

Yo‘l harakati xavfsizligi zamonaviy shaharsozlik transport tizimining murakkablashuvi va aholi zichligining oshib borishi sharoitida global miqyosda eng dolzarb muammolardan biri sifatida tan olinmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 1,3 milliondan ortiq inson YTH oqibatida halok bo‘ladi, 20–50 million kishi esa turli darajadagi jismoniy shikastlanishlarni oladi [1]. Bu ko‘rsatkichlar nafaqat inson salomatligiga, balki iqtisodiy yo‘qotishlar, ijtimoiy barqarorlik va infratuzilma samaradorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida ham YTHlar soni va ularning og‘irligi transport tizimining holati, shahar infratuzilmasining sifati, boshqaruv tizimlarining samaradorligi hamda fuqarolarning yo‘l harakati madaniyatiga bog‘liq holda o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2025-yilgi ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, mamlakatimizda har kuni o‘rtacha 6 kishi vafot etmoqda va 24 kishi jarohatlanmoqda [2]. Bu holat yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

2024-yil 19-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-900-sonli Qonunida yo‘l harakati xavfsizligi tizimini takomillashtirish, YTHlarning oldini olish va javobgarlik mexanizmlarini mustahkamlash bo‘yicha huquqiy asoslar belgilab berilgan [3]. Shuningdek, UNICEF va Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan seminarlar davomida O‘zbekistonning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha milliy tizimini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

METODOLOGIYA. Tadqiqot tahliliy usullarga asoslanadi. Xalqaro va o‘zbekistonlik olimlar tomonidan 2020–2025-yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar tanlab olindi. Baholash mezonlari sifatida ilmiy yangilik darajasi, amaliy qo‘llash imkoniyati, qo‘llangan usullar (GIS, AI, agent asosli modellashtirish, statistik tahlil) hamda mahalliy sharoitga moslashuv darajasi belgilandi. Ushbu mezonlar tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyatini, metodologik yondashuvlarning samaradorligini hamda ularning real vaziyatlarda qo‘llanilish imkoniyatlarini kompleks baholashga xizmat qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI. Xalqaro miqyosda yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda quyidagi texnologik yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Sun‘iy intellekt va GIS asosidagi modellashtirish. Sayed A.S. va boshqalarning tadqiqot ishida [5] yo‘l harakati oqimini bashorat qilishda AI (sun‘iy intellekt) algoritmlarining samaradorligi o‘rganilgan.

Agent asosli modellashtirish yondashuvi. Xalqaro miqyosda transport oqimini simulyatsiya qilishda keng qo‘llanilib, har bir transport vositasi agent sifatida modellashtiriladi; bu metodika harakat dinamikasi, svetoforlar, piyodalar

ISSN 3030-3907

va tirbandlik holatlarini tahlil qilish hamda YTH ehtimoli yuqori bo‘lgan hududlarni fazoviy aniqlash imkonini beradi [7]. IoT va Agent asosli modellashtirish. Musa A.A. va boshqalar tomonidan taklif etilgan IoT-ITS (aqlli transport tizimlari) yondashuvi sensorlar orqali svetoforlar, piyodalar va transport vositalari o‘rtasidagi real vaqt rejimidagi monitoringni ta‘minlaydi [8]. Bu tizimlar xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash va tezkor javob berish imkonini yaratadi. Gonzalez-Cuevas A. va boshqalar esa agent asosli modellashtirish orqali favqulodda xizmatlar (tez tibbiy yordam, yong‘inga qarshi xizmat) yo‘nalishlarini optimallashtirishni taklif etadi. Ushbu yondashuv shahar infratuzilmasi va harakat dinamikasini kompleks hisobga olib, model qurilishiga asos bo‘ladi [9]. Respublikamiz shaharlarida tez yordam mashinalari harakatini simulyatsiya qilish uchun agent asosli modellarni ishlab chiqish va GIS bilan bog‘lash mumkin. Liu T., Yang J. va Yin Y. tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvda LLM-agentlar (katta til modeli agentlari) asosida transport tizimlarini modellashtirish taklif etilib, agent asosli modellashtirish va sun‘iy intellektning integratsiyasi orqali transport oqimini yanada real va moslashuvchan tarzda simulyatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan [10]. Hindawi agent asosli modellashtirish metodikasining transport simulyatsiyasidagi qo‘llanilishi, kalibrlash va verifikatsiya bosqichlarini batafsil tahlil qilib, shahar transport tizimlarida harakat dinamikasini real modellashtirish va xavfsizlikni baholashda ushbu yondashuvning afzalliklarini ko‘rsatib o‘tgan [11].

Chuqur o‘rganish (Deep Learning). Zhang Y. va boshqalarning tadqiqot ishida [12] YTH ehtimolini bashorat qilishda chuqur neyron tarmoqlar algoritmlaridan foydalaniladi. Bu yondashuv yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha baza statistikasi bilan birlashtirilsa, xavfli hududlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Lee J. va boshqalar esa aqlli svetoforlar orqali tirbandlikni kamaytirish va harakatni muvozanatlashni taklif etadi [13]. Svetoforlar real vaqt rejimidagi ma‘lumotlarga asoslanib ishlaydi va harakat zichligiga mos ravishda signal vaqtini o‘zgartiradi. V2I (Vehicle-to-Infrastructure) texnologiyasi – avtomobillar va yo‘l infratuzilmasi o‘rtasida real vaqt rejimida ma‘lumot almashuvini ta‘minlovchi innovatsion tizim bo‘lib, yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiya O‘zbekiston sharoitida raqamli transport strategiyasi bilan uyg‘unlashgan holda joriy etilishi mumkin. V2I tizimi haydovchiga ko‘rinmaydigan xavflar haqida ogohlantirish, signal vaqtlarini optimallashtirish va favqulodda xizmatlarga ustuvorlik berish imkonini yaratadi. Kwon H. va boshqalarning tadqiqot ishida [14] V2I texnologiyasi orqali transport vositalari va infratuzilma o‘rtasidagi xavfsizlik aloqalari tahlil qilingan. Bu texnologiya

ISSN 3030-3907

svetoforlar, yo‘l belgilari va signal tizimlari bilan avtomobillar o‘rtasida ma‘lumot almashish imkonini beradi.

Ijtimoiy xatti-harakatlar va xavfsizlik targ‘iboti yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda eng muhim omillardan biri bo‘lib, haydovchi va piyodalarning ongli qaror qabul qilishiga bevosita ta‘sir qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, qonunlar va texnologiyalar targ‘ibot kampaniyalari bilan birgalikda qo‘llanilganda samaradorlik keskin oshadi. Mishra B. va Dev S. tadqiqotlarida vizual dizayn (memlar) orqali xavfsizlik targ‘ibotini kuchaytirishni taklif etadi [15]. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaluvchi memlar orqali haydovchilarning xatti-harakatlariga samarali ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Gauld C. va boshqalarning tadqiqotlarida yosh haydovchilar orasida telefon ishlatishni kamaytirish uchun ijtimoiy me‘yorlar asosidagi xabarlar samaradorligi tahlil qilinadi [16]. Rusli R. va boshqalarning tadqiqotlarida esa yetkazib beruvchilar (mototsiklchilar) orasida xavfli harakatlar va YTH ehtimoli empirik tahlil qilinadi [17]. Global strategiyalar va tashabbuslar. 2020–2025-yillarda yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha global strategiyalar Bloomberg, Jahon banki va BMT tashabbuslari orqali amalga oshirilib, infratuzilma, qonunchilik, xulq-atvor va texnologik innovatsiyalarni qamrab olgan. Bu tashabbuslar O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun amaliy model bo‘la oladi. PLOS One yaqinda past va o‘rta daromadli mamlakatlarda yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish uchun mo‘ljallangan intervensiya strategiyalarini keng qamrovli tahlil qilib berdi. Tadqiqotda turli yondashuvlarning samaradorligi, ularning amaliy qo‘llanilishi va global hamda mahalliy sharoitlarda moslashuv darajasi baholangan [18]. Bu O‘zbekiston uchun moslashtirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishda asos bo‘la oladi.

ETSC 2022 hisobotlari – Yevropa Transport Xavfsizligi Kengashining (European Transport Safety Council) 16-yillik "PIN Road Safety Performance Index Report" tahlillari bo‘lib, Yevropa Ittifoqi va qo‘shni davlatlarda yo‘l harakati xavfsizligi ko‘rsatkichlarini baholaydi [19]. Jahon banki (2023) esa xavfsizlikka yo‘naltirilgan infratuzilma sarmoyalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qiladi [20]. O‘zbekiston transport strategiyasini ishlab chiqishda ushbu manbalardagi indikatorlar va investitsion modeldan foydalanish mumkin.

Barqarorlik va huquqiy muvofiqlik. Yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda barqarorlik va huquqiy muvofiqlik ikki asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Barqarorlik ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni qamrab olgan holda transport tizimining uzoq muddatli samaradorligini ta‘minlaydi. Huquqiy muvofiqlik esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali tizimning institutsional barqarorligini mustahkamlaydi. Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan 2024-yilda e ‘lon qilingan hisobotda [21] transport tizimining uglerod

ISSN 3030-3907

izini kamaytirish, piyodalar va velosipedchilar uchun xavfsiz infratuzilma yaratish, elektromobillarni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar belgilangan. Bu yondashuv O‘zbekistonning "Yashil infratuzilma" strategiyasi bilan uyg‘unlashadi.

UNECE tomonidan ishlab chiqilgan "Road Safety Legal Review: Uzbekistan" (2024) hisobotida O‘zbekistonning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konvensiyalarga muvofiqligi baholangan. O‘zbekiston 1968-yilgi Yo‘l harakati to‘g‘risidagi Vena konvensiyasiga a ‘zo bo‘lib, yo‘l belgilarining standartlashtirilishi, haydovchilik guvohnomalari tan olinishi va xavfsizlik kamarlaridan foydalanish bo‘yicha majburiyatlarni olgan. UNECE (2024) O‘zbekistonning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlarga muvofiqligini tahlil qiladi [22].

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlari. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan 2020–2025-yillar oralig‘ida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mahalliy sharoitga mos, amaliyotga yo‘naltirilgan va innovatsion metodikalarni o‘z ichiga oladi. Bu ishlar transport infratuzilmasi, xulq-atvor tahlili, raqamli texnologiyalar, fazoviy modellashtirish va huquqiy asoslarni qamrab oladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 2025-yil 20-fevralda qabul qilingan "Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida"gi O‘RQ-1033-sonli Qonun yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, javobgarlikni mustahkamlash va transport tizimini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu hujjat Jinoyat va Ma ‘muriy javobgarlik kodekslariga tegishli o‘zgartirishlar kiritgan holda xavfsizlikni ta‘minlashda kompleks yondashuvni belgilaydi [3].

Vohidov D.A. (2023) tomonidan ishlab chiqilgan nazariy tavsifalarda shaharda transport oqimini boshqarishning asosiy tamoyillari yoritib berilgan, tirbandlikni kamaytirish, harakatni muvozanatlash va svetoforlar hamda yo‘l infratuzilmasini optimallashtirish orqali xavfsizlikni oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar taklif etilgan [23].

Haqqulov B.A. va Xakkulov K.B. (2023) tomonidan yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish asosida yo‘l-transport ekspertizasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuv taklif etilgan. Tadqiqotda haydovchilarni tayyorlash sifati, YTH holatlarini texnik jihatdan baholash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali ekspertiza metodikasini yangilash zaruriyati asoslab berilgan [24]. Bo‘ronov Sh. va Sobirov N. (2024) tomonidan ta‘lim muassasalari joylashgan ko‘chalarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tadqiqotda zamonaviy chora-tadbirlar taklif etilib, diagnostik tahlil asosida xavf zonalari aniqlangan. Ushbu yondashuv fazoviy tahlil metodikasi bilan birgalikda maktab va universitet atrofidagi transport oqimini tartibga solish hamda YTH xavfini kamaytirishga xizmat qiladi [25].

ISSN 3030-3907

MUHOKAMA. Tahlil natijalariga ko‘ra, xalqaro tadqiqotlar texnologik innovatsiyalarga asoslangan bo‘lsa, mahalliy ishlar asosan nazariy va diagnostik yondashuvlarga tayanadi. GIS va agent asosli modellashtirish usullari amaliyotda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Mahalliy sharoitda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi bilan uyg‘unlashadi. Biroq texnik infratuzilma, kadrlar salohiyati va huquqiy asoslarni mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur.

XULOSA. Tahlil qilingan ilmiy ishlar yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha bir qator muhim xulosalar beradi:

– Fazoviy-statistik tahlil va real vaqt rejimidagi monitoring xavfli zonalarni aniqlashda samarali vosita sifatida o‘zini ko‘rsatdi;

– AI, GIS va IoT texnologiyalarining integratsiyasi transport tizimini raqamlashtirishda ustuvor yo‘nalish hisoblanadi;

– Mahalliy sharoitda agent asosli modellashtirish favqulodda xizmatlar marshrutlarini optimallashtirish imkonini beradi;

– Kelgusidagi tadqiqotlar AI-GIS integratsiyasi, mahalliy indekslar ishlab chiqish va ta‘lim modullarini yaratishga yo‘naltirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha global holat – 2023: hisobot. Jeneva: WHO, 2023. 84 b.
2. Gazeta.uz. Har kuni o‘rta cha 6 kishi halok bo‘lmoqda – YHXBB statistikasi // Gazeta.uz. 2025-yil 2-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi. O‘RQ-900-son Qonun [Matn] : “Yo‘l harakati to‘g‘risida” / 2024-yil 19-yanvar. – Toshkent : O‘zR Qonunchilik ma ‘lumotlari tizimi, 2024.
4. UNICEF O‘zbekiston. O‘zbekiston yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralarni ko‘rmoqda // UNICEF Uzbekistan. 2023.
5. Sayed A.S. et al. Artificial intelligence-based traffic flow prediction: a comprehensive review // Journal of Electrical Systems and Information Technology. 2023.
6. Sohaib M. et al. BIM-GIS and traffic microsimulation framework for urban safety // Innovative Infrastructure Solutions. 2024.
7. Bastarianto F.F., Hancock T.O., Choudhury C.F., Manley E. Agent-based models in urban transportation: review, challenges, and opportunities // European Transport Research Review. 2023. Vol. 15, Article 19.
8. Musa A.A. et al. Sustainable Traffic Management Using IoT-Oriented ITS // Sustainability. 2024.

ISSN 3030-3907

9. Gonzalez-Cuevas A. et al. Agent-Based Modeling for Priority Vehicle Mobility in Urban Networks // SIMUL. 2024.
10. Liu T., Yang J., Yin Y. Toward LLM-Agent-Based Modeling of Transportation Systems: A Conceptual Framework // arXiv. 2024. arXiv:2412.06681v1.
11. Hindawi Journal of Advanced Transportation. An Overview of Agent-Based Models for Transport Simulation and Analysis. 2022. Article ID 1252534.
12. Zhang Y., Wang H., Li J. Deep learning for accident prediction in urban traffic // Transportation Research Part C: Emerging Technologies. 2022. Vol. 140
13. Lee J., Park B., Kim H. Smart traffic light systems for urban safety enhancement // IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems. 2021. Vol. 22, No. 4.
14. Kwon H., Lee S., Choi J. Vehicle-to-Infrastructure communication for traffic safety optimization // Sensors. 2023. Vol. 23, No. 6.
15. Mishra B., Dev S. Road safety awareness using internet meme posts: the role of visual design // Journal of Road Safety. 2025. Vol. 36, No. 1.
16. Gauld C., Lewis I., White K.M. Investigating the efficacy of social norms messages to reduce smartphone use among young drivers // Journal of Road Safety. 2025. Vol. 36, No. 2.
17. Rusli R., Ahmad N., Ismail S. Risky behaviours of food delivery motorcycle riders during rush hours // Journal of Road Safety. 2025. Vol. 36, No. 3.
18. PLOS One. Effectiveness of interventions for preventing road traffic crashes in low- and middle-income countries: a systematic review // PLOS One. 2024. Vol. 19, No. 4.
19. European Transport Safety Council. Road Safety Performance Index Report 2022 // ETSC. Brussels, 2022. 48 p
20. World Bank. Investing in Safe Roads: Global Infrastructure Outlook // World Bank Report. Washington D.C., 2023. 52 p.
21. Asian Development Bank. Uzbekistan: Sustainable Transport and Road Safety Strategy. Manila: ADB, 2024.
22. United Nations Economic Commission for Europe. Road Safety Legal Review: Uzbekistan. Geneva: UNECE, 2024.
23. Vohidov D.A. Shaharda transport oqimini boshqarish asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2023. №5. B. 1033–1040.
24. Haqqulov B.A., Xakkulov K.B. Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish asosida yo‘l transport ekspertizasini takomillashtirish // CyberLeninka. 2023.

ISSN 3030-3907

25. Bo‘ronov Sh., Sobirov N. Ta‘lim muassasalari joylashgan ko‘chalarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash // Ilmiy Anjumanlar. 2024.

ISSN 3030-3907

NAFTALIN QATOR UGLEVODORODLARDAN SULFOKATIONIT AJRATIB OLISH VA OQOVA SUVLARNI TOZALASH

Ergasheva Yulduzoy Olimovna
Angren Universiteti "Davolash"fakulteti "Umumdavolash ishi" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: yulduzoy100@gmail.com
Tel: +998991310572
Beknazarov Hasan Soyibnazarovich
Termez Davlat Universiteti Magistratura bo'limi boshlig'I t.f.d., Proffessor:
orcid.org/0000-0002-5070-4773
E-mail: hasanbeknazarov130@gmail.com
Tel: +998946173762

Annotatsiya. Mazkur maqolada naftalin qator uglevodorodlar asosida sulfokationit olish texnologiyasi va uning oqova suvlarni tozalashdagi ahamiyati bayon etilgan. Sulfokationitlar ion almashinish xususiyatiga ega bo'lgan yuqori molekulyar birikmalar bo'lib, ular suv tarkibidagi og'ir metall ionlari, tuzlar va boshqa zararli aralashmalarni samarali ravishda ajratib olish imkonini beradi. Ishda sulfolanish jarayonining mexanizmi, sintez bosqichlari hamda hosil bo'lgan mahsulotning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sulfokationitlarning sanoat oqova suvlarini tozalashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Naftalin qatori, sulfokationit, sulfolanish reaksiyasi, ion almashinish, oqova suvlarni tozalash, og'ir metall ionlari, adsorbsiya, ekologik xavfsizlik.

Аннотация. В статье рассмотрена технология получения сульфокатионита на основе углеводородов нафталинового ряда и его значение в очистке сточных вод. Сульфокатиониты являются высокомолекулярными соединениями с ионообменными свойствами, способными эффективно удалять ионы тяжелых металлов, соли и другие вредные примеси из воды. Проанализированы механизм реакции сульфирования, стадии синтеза и физико-химические характеристики полученного продукта. Результаты исследования подтверждают высокую эффективность применения сульфокатионитов при очистке промышленных сточных вод.

Ключевые слова: Нафталиновый ряд, сульфокатионит, реакция сульфирования, ионный обмен, очистка сточных вод, ионы тяжелых металлов, адсорбция, экологическая безопасность.

Abstract. The article describes the technology for obtaining sulfocationite based on hydrocarbons of the naphthalene series and its importance in wastewater

ISSN 3030-3907

treatment. Sulfocationites are high-molecular-weight compounds with ion-exchange properties capable of effectively removing heavy metal ions, salts, and other harmful impurities from water. The mechanism of the sulfonation reaction, synthesis stages, and physicochemical characteristics of the obtained product are analyzed. The research results confirm the high efficiency of sulfocationites in industrial wastewater treatment.

Keywords: Naphthalene series, sulfocationite, sulfonation reaction, ion exchange, wastewater treatment, heavy metal ions, adsorption, environmental safety.

KIRISH.

Hozirgi davrda sanoatning jadal rivojlanishi, kimyo va neft-kimyo tarmoqlarining kengayishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida atrof-muhitga, ayniqsa suv resurslariga tushayotgan antropogen yuklama sezilarli darajada ortib bormoqda. Sanoat korxonalari, metallurgiya, energetika, farmatsevtika va neftni qayta ishlash majmualaridan ajralib chiqayotgan oqova suvlar tarkibida og‘ir metall ionlari, fenollar, aromatik uglevodorodlar, tuzlar va boshqa zaharli moddalarning mavjudligi ekologik muammolarni keskinlashtirmoqda. Suv resurslarining ifloslanishi nafaqat tabiiy ekotizimlarga, balki inson salomatligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli samarali, iqtisodiy jihatdan maqbul va ekologik xavfsiz tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.Oqova suvlarni tozalashning mavjud usullari mexanik, kimyoviy, fizik-kimyoviy va biologik metodlarga bo‘linadi. Biroq og‘ir metall ionlari va ayrim barqaror organik birikmalarni chuqur darajada ajratib olishda an’anaviy usullar yetarli samaradorlikni ta’minlay olmaydi. So‘nggi yillarda ion almashinish texnologiyalari suvni tozalashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ion almashinish jarayoni maxsus polimer asosli materiallar — ionitlar yordamida amalga oshiriladi. Ular tarkibidagi faol funksional guruhlar hisobiga eritmadagi ionlarni selektiv ravishda ushlab qolish xususiyatiga ega.Kationitlar, xususan sulfokationitlar, ion almashinish qatronlarining muhim turini tashkil etadi. Ularning tarkibida $–SO_3H$ (sulfo) funksional guruhlari mavjud bo‘lib, ular vodorod ionlarini metall kationlariga almashinish xususiyatiga ega. Bunday xossalar og‘ir metall ionlarini, jumladan mis, qo‘rg‘oshin, kadmiy, rux va boshqa ionlarni suv muhitidan samarali ajratib olish imkonini beradi. Sulfokationitlarning yuqori kimyoviy barqarorligi, mexanik mustahkamligi va qayta regeneratsiya qilinishi ularni sanoat miqyosida qo‘llash uchun qulay qiladi.Sulfokationitlar ishlab chiqarishda turli aromatik uglevodorodlar xomashyo sifatida qo‘llaniladi. Shular qatorida naftalin qator uglevodorodlari alohida ahamiyat kasb etadi. Naftalin va uning hosilalari ikki halqali aromatik tizimga ega bo‘lib, yuqori reaktivlik va sulfolanish reaksiyalariga

ISSN 3030-3907

moyilligi bilan ajralib turadi. Naftalin molekulasining aromatik tabiati elektrofil almashinish reaksiyalarini osonlashtiradi, bu esa sulfo guruhlarini kiritish jarayonini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Natijada polimer asosli yoki kondensatsion strukturalar hosil bo‘lib, ular ion almashinish materiallari sifatida qo‘llanilishi mumkin.Sulfolanish reaksiyasi aromatik tizimga sulfo guruhining kiritilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon odatda konsentrlangan sulfat kislota yoki oleum ishtirokida amalga oshiriladi. Reaksiya sharoitlari — harorat, reagentlar konsentratsiyasi va vaqt — hosil bo‘ladigan mahsulotning tuzilishi va funksional xossalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun sulfokationit sintezida optimal texnologik parametrlarni tanlash muhim ilmiy masala hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan sharoitlarda yuqori ion almashinish sig‘imiga ega, mexanik jihatdan mustahkam va kimyoviy barqaror material olish mumkin.Naftalin qator birikmalar asosida olingan sulfokationitlarning yana bir muhim jihati ularning selektivlik darajasidir. Ion almashinish jarayonida materialning tuzilishi, g‘ovakligi va funksional guruhlar zichligi muhim rol o‘ynaydi. Bu ko‘rsatkichlar suv tarkibidagi turli ionlarga nisbatan tanlab ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Ayniqsa sanoat oqova suvlarida uchraydigan og‘ir metall ionlarini ajratishda yuqori selektivlik ekologik samaradorlikni oshiradi.Bugungi kunda ekologik barqarorlik tamoyillari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish muhim yo‘nalishlardan biridir. Ion almashinish materiallari yordamida suvni qayta ishlash va qayta foydalanish imkoniyati suv resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xomashyo asosida sulfokationitlar sintez qilish va ularning tozalash samaradorligini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.Mazkur tadqiqotning maqsadi — naftalin qator uglevodorodlar asosida sulfokationit sintez qilish jarayonini o‘rganish, uning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash hamda oqova suvlarni tozalashdagi samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot davomida sulfolanish reaksiyasining mexanizmi tahlil qilinadi, optimal sharoitlar aniqlanadi va olingan mahsulotning ion almashinish sig‘imi hamda selektivligi o‘rganiladi.Shunday qilib, naftalin qator uglevodorodlar asosida sulfokationitlar olish va ularni oqova suvlarni tozalash jarayonida qo‘llash zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari suvni tozalash texnologiyalarini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ion almashinish jarayonlari va ionit materiallari kimyo fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib,

ISSN 3030-3907

ular XX asr o‘rtalaridan boshlab keng o‘rganila boshlagan. Dastlab tabiiy alumosilikatlar va zeolitlar asosida olib borilgan tadqiqotlar keyinchalik sintetik polimer ionitlar yaratish yo‘nalishiga o‘tgan. Sintetik ionitlar yuqori mexanik mustahkamlik, kimyoviy barqarorlik va yuqori ion almashinish sig‘imi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ilmiy manbalarda aromatik polimerlar asosida olingan kationitlar sanoat oqova suvlarini tozalashda samarali vosita sifatida e’tirof etilgan.Sulfokationitlar aromatik halqali birikmalarni sulfolash orqali olinadi. Ilmiy adabiyotlarda benzol, toluol, stirol va naftalin qator birikmalar asosida sintez qilingan ion almashinish qatronlari keng yoritilgan. Aromatik tizimga ega bo‘lgan uglevodorodlarning elektrofil almashinish reaksiyalariga kirishish qobiliyati ularni sulfo guruhlarini kiritish uchun qulay substratga aylantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki halqali aromatik tizimga ega bo‘lgan naftalin birikmalari bir halqali analoglariga nisbatan yuqori reaktivlik va funksional guruhlar bilan boyitish imkoniyatiga ega.Ilmiy manbalarda sulfolanish reaksiyasi mexanizmi elektrofil aromatik almashinish mexanizmi orqali amalga oshishi ta’kidlanadi. Konsentrlangan sulfat kislota yoki oleum ta’sirida aromatik halqaga $–SO_3H$ guruhi kiritiladi. Reaksiya harorati va reagentlar nisbati sulfo guruhlarning joylashuvi (α- yoki β-holat) va miqdoriga ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda yuqori harorat sharoitida ko‘p sulfolangan mahsulotlar hosil bo‘lishi, bu esa ion almashinish sig‘imining oshishiga olib kelishi qayd etilgan.Suvni tozalash sohasidagi ilmiy ishlarda sulfokationitlarning og‘ir metall ionlariga nisbatan yuqori selektivligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, mis (Cu^{2+}), qo‘rg‘oshin (Pb^{2+}), kadmiy (Cd^{2+}), nikel (Ni^{2+}) va rux (Zn^{2+}) ionlarini ajratishda ion almashinish jarayoni samarali natija beradi. Adabiyotlarda kationitlarning ion almashinish sig‘imi, kinetik ko‘rsatkichlari va regeneratsiya xususiyatlari keng tahlil qilingan. Shuningdek, polimer matritsaning g‘ovakligi va funksional guruhlar zichligi ion almashinish tezligi va selektivlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.So‘nggi yillarda ekologik toza va iqtisodiy jihatdan maqbul ionit materiallarini yaratish muhim ilmiy yo‘nalishga aylangan. Mahalliy xomashyo asosida sulfokationit sintez qilish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar yaratish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, naftalin qator uglevodorodlar asosida ion almashinish materiallari olish bo‘yicha tadqiqotlar ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ishlarning aksariyati sulfolanish jarayonining umumiy mexanizmini va tayyor mahsulotning ion almashinish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Biroq texnologik parametrlarni optimallashtirish, mahsulotning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish hamda real sanoat oqova suvlarida sinovdan

ISSN 3030-3907

o‘tkazish masalalari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur ish aynan shu yo‘nalishlarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur tadqiqotda naftalin qator uglevodorodlar asosida sulfokationit sintez qilish va uning oqova suvlarni tozalashdagi samaradorligini aniqlash maqsadida laboratoriya sharoitida tajribalar o‘tkazildi.

1. Sulfokationit sintezi

Sintez jarayoni aromatik birikmani sulfolash bosqichiga asoslandi. Dastlab xomashyo sifatida olingan naftalin ma’lum haroratda konsentrlangan sulfat kislota bilan aralashtirildi. Reaksiya aralashmasi mexanik aralashtirgich yordamida bir xil holatga keltirildi va belgilangan vaqt davomida ma’lum harorat oralig‘ida saqlandi. Reaksiya yakunlangach, hosil bo‘lgan massa sovitildi va neytrallash bosqichiga o‘tkazildi.

Keyingi bosqichda mahsulot suv bilan yuvildi hamda ortiqcha kislota qoldiqlaridan tozalandi. Olingan material quritilib, donador shaklga keltirildi. Shu tariqa $–SO_3H$ funksional guruhlariga ega bo‘lgan sulfokationit namunasi olindi.

2. Fizik-kimyoviy tahlil usullari

Sintez qilingan sulfokationitning asosiy xususiyatlari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

- Ion almashinish sig‘imi (mgekv/g) titrimetrik usulda aniqlandi;
- Namlik darajasi gravimetrik usul yordamida o‘lchandi;
- Mexanik mustahkamlik laboratoriya elaklaridan o‘tkazish orqali baholandi;
- Muhitning pH ko‘rsatkichi va barqarorligi aniqlashtirildi.

Ion almashinish sig‘imini aniqlashda standart kislota va ishqor eritmalari qo‘llanildi. Olingan natijalar asosida materialning faol markazlar soni va almashinish qobiliyati hisoblab chiqildi.

3. Oqova suvlarni tozalash tajribasi

Sulfokationitning amaliy samaradorligini baholash maqsadida sun’iy tayyorlangan og‘ir metall ionlari mavjud eritmalar hamda sanoat oqova suv namunalari bilan tajribalar o‘tkazildi. Eritmalar ma’lum konsentratsiyada tayyorlandi va ionit qatlamidan filtratsiya qilindi. Jarayon davomida kiruvchi va chiquvchi eritmalardagi metall ionlari miqdori atom-absorbsion yoki titrimetrik usullar orqali aniqlanib, tozalash samaradorligi foiz hisobida baholandi.

Tozalash darajasi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$\eta = \frac{C_0 - C}{C_0} \times 100\%$$

Bu yerda:

C_0—boshlang‘ich konsentratsiya,

ISSN 3030-3907

C — tozalashdan keyingi konsentratsiya.

4. Ma’lumotlarni qayta ishlash

Olingan tajriba natijalari statistik usulda qayta ishlandi. O‘rtacha qiymatlar va og‘ish ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Tajribalar kamida uch marotaba takrorlandi va natijalarning ishonchliligi ta’minlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot davomida naftalin qator uglevodorodlar asosida sulfokationit sintez qilinib, uning fizik-kimyoviy xossalari hamda oqova suvlarni tozalashdagi samaradorligi baholandi. Olingan natijalar sintez sharoitlari va mahsulotning funksional xususiyatlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Sintez jarayonining natijalari.Sulfolanish reaksiyasi konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida turli harorat va vaqt oralig‘ida olib borildi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, harorat oshishi bilan sulfo guruhlarining aromatik halqaga birikish darajasi ortadi. Biroq juda yuqori harorat sharoitida yon reaksiyalar ehtimoli kuchayib, mahsulotning mexanik mustahkamligi pasayishi mumkin. Optimal sharoitda olingan mahsulot bir xil tuzilishga ega, mexanik jihatdan barqaror va yaxshi donador strukturani namoyon etdi.

Sintez qilingan sulfokationitning ion almashinish sig‘imi titrimetrik usul bilan aniqlanganda, uning yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu natija material tarkibida faol $–SO_3H$ guruhlarining yetarli miqdorda mavjudligi bilan izohlanadi. Funksional guruhlar zichligi ion almashinish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, optimal sulfolanish sharoitida olingan namunalar maksimal ion almashinish sig‘imiga ega bo‘ladi.

Fizik-kimyoviy xususiyatlarning tahlili.Olingan sulfokationit namunalari namlik darajasi, g‘ovaklik va mexanik mustahkamlik bo‘yicha tahlil qilindi. Namlik ko‘rsatkichi materialning gidrofil xususiyatini tasdiqladi, bu esa ion almashinish jarayonida suvli muhit bilan samarali o‘zaro ta’sirni ta’minlaydi. G‘ovak struktura eritmadagi ionlarning faol markazlarga tez yetib borishini osonlashtiradi.

Mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichi sanoat sharoitida qo‘llash uchun muhim omil hisoblanadi. Tajribalar natijasida olingan mahsulotlar mexanik yuklamalarga nisbatan yetarlicha barqaror ekanligi aniqlandi. Bu esa ularni filtratsion kolonkalarda uzoq muddat qo‘llash imkonini beradi.pH muhitining ta’siri ham o‘rganildi. Kislotali muhitda ion almashinish jarayoni faolroq kechishi, neytral muhitda esa jarayon barqaror davom etishi kuzatildi. Juda ishqoriy muhitda esa funksional guruhlarning faolligi nisbatan pasayishi mumkinligi aniqlandi. Bu holat sulfo guruhlarning protonlangan shakliga bog‘liq.

ISSN 3030-3907

sifati bilan bevosita bog‘liqligi ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari OECD tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, unda raqamli savodxonlik shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyati bilan integratsiyada qaraladi. OECD hisobotlarida ta’kidlanishicha, zamonaviy mehnat bozori sharoitida dasturlash va algoritmik tafakkur ko‘nikmalari iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois ta’lim tizimida dasturlash fanlarini erta bosqichdan boshlab o‘qitish tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning dasturlash jarayonida muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanishini va bu ko‘nikmalar boshqa fanlarni o‘zlashtirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.Raqamli kompetentlikning tuzilmasi va baholash mezonlari European Commission tomonidan ishlab chiqilgan DigComp modeli asosida ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan. Ushbu modelda raqamli kompetentlik axborot savodxonligi, kommunikativ faoliyat, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal etish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali tavsiflanadi. Dasturlash fanlari ayniqsa kontent yaratish va muammoni algoritmik yo‘l bilan hal etish komponentlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi. Ilmiy maqolalarda DigComp mezonlari asosida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar o‘quvchilarning dasturiy loyihalar ustida ishlashi ularning raqamli mustaqilligini oshirishini ko‘rsatadi.Algoritmik tafakkur va computational thinking masalasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar alohida e’tiborga loyiqdir. Jeannette Wing o‘z tadqiqotlarida computational thinkingni universal intellektual kompetensiya sifatida tavsiflab, uni nafaqat kompyuter fanlari, balki tabiiy va ijtimoiy fanlar uchun ham metodologik asos deb hisoblaydi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, dasturlashni o‘rganish orqali o‘quvchilar abstrakt modellashtirish, dekompozitsiya, naqshlarni aniqlash va algoritm tuzish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning analitik tafakkurini rivojlantiradi.

Konstruktivistik pedagogika doirasida Seymour Papert tomonidan olib borilgan tadqiqotlar dasturlashning o‘quvchilarning mustaqil bilim qurish jarayonidagi rolini asoslab beradi. Papertning LOGO dasturlash muhiti asosida o‘tkazgan tajribalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar kompyuter bilan interaktiv ishlash orqali murakkab matematik tushunchalarni chuqurroq anglaydi. Bu ilmiy xulosalar dasturlashni faqat texnik ko‘nikma emas, balki kognitiv rivojlanish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda STEM integratsiyasi doirasida dasturlash fanlarining ahamiyati alohida qayd etiladi. Empirik kuzatuvlar dasturlashni fizika, matematika va muhandislik elementlari bilan integratsiya qilish o‘quvchilarning tizimli fikrlashini kuchaytirishini ko‘rsatadi. Raqamli muhitda loyiha asosida o‘qitish metodlari

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarda hamkorlik, kommunikativlik va innovatsion yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jihatlar ko‘plab ilmiy maqolalarda eksperimental natijalar bilan tasdiqlangan.Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli va texnologik kompetentlikni shakllantirish faqat texnik infratuzilma bilan cheklanmaydi, balki pedagogik strategiyalar va baholash mexanizmlarini takomillashtirishni ham talab etadi. Zamonaviy tadqiqotlar amaliy loyihalar, portfoliolar va jarayonli baholash tizimlari samaradorligini tasdiqlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchining faqat bilimini emas, balki real texnologik faoliyatini ham tahlil qilish imkonini beradi.Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili dasturlash fanlarini o‘qitish raqamli va texnologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatdan asoslangan samarali vositasi ekanini ko‘rsatadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar, konstruktivistik pedagogika nazariyalari va computational thinking yondashuvi mazkur yo‘nalishning metodologik poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar mazkur jarayonning kompleks xarakterga ega ekanini, ya’ni infratuzilma, pedagogik mahorat, metodik innovatsiyalar va baholash tizimi o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi zarurligini asoslaydi.

Dasturlash fanlarini o‘qitish misolida raqamli va texnologik kompetentlikni oshirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetentlik shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, raqamli kontent yaratish, texnologik vositalardan ongli foydalanish va muammolarni algoritmik asosda hal etish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Dasturlash fanlari aynan ushbu kompetensiyalarni tizimli ravishda shakllantirish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.Tadqiqot natijalariga ko‘ra, algoritmik tafakkur va computational thinking ko‘nikmalarining rivojlanishi o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Jeannette Wing tomonidan asoslangan yondashuv hamda Seymour Papert ilgari surgan konstruktivistik qarashlar dasturlashni shaxsning intellektual rivojlanish omili sifatida talqin etadi. Xalqaro miqyosda UNESCO, OECD hamda European Commission tomonidan ishlab chiqilgan konseptual hujjatlar raqamli kompetentlikni XXI asrning asosiy tayanch ko‘nikmasi sifatida e’tirof etadi.Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, dasturlash fanlarini samarali o‘qitish pedagogik metodlarning innovatsion xarakterga ega bo‘lishini, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishni, raqamli infratuzilmani rivojlantirishni va amaliyotga yo‘naltirilgan baholash tizimini joriy etishni talab etadi. Raqamli va texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni kompleks xarakterga ega bo‘lib, u nazariy bilim, amaliy faoliyat, axborot xavfsizligi

ISSN 3030-3907

madaniyati va ijodiy yondashuvning uyg‘unligini nazarda tutadi.Umuman olganda, dasturlash fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda shakllanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar ularning raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardosh shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va konseptual yondashuvlar ushbu jarayonning nazariy hamda amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Wing, J. M. Computational Thinking. Communications of the ACM, 2006.
2. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. New York: Basic Books, 1980.
3. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO Publishing, 2018.
4. OECD. The Definition and Selection of Key Competencies (DeSeCo). Paris: OECD Publishing, 2005.
5. OECD. Education 2030: The Future of Education and Skills. Paris: OECD Publishing, 2018.
6. European Commission. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
7. European Commission. DigCompEdu: European Framework for the Digital Competence of Educators. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
8. Voogt, J., Roblin, N. P. A Comparative Analysis of International Frameworks for 21st Century Competences. Journal of Curriculum Studies, 2012.
9. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

ISSN 3030-3907

UO‘K: 665.7:621.56

TIK SILINDR SHAKLDAGI REZERVUARLARDA BENZIN BUG‘LANISHINING NAZARIY ASOSLARI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TAHLILI

Saxatov Bahodir Gulmurodovich
Qarshi davlat texnika universiteti “ Neft-gaz ishi va ularni qayta ishlash texnologiyasi ” kafedrasi dotsenti texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),. Qarshi, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0009-7912-9109
E-mail: bahod@mail.ru
Ashurov Murodullo Xolboyevich
Qarshi davlat texnika universiteti “ Neft-gaz ishi va ularni qayta ishlash texnologiyasi ” kafedrasi dotsenti. Qarshi, O‘zbekiston ORCID: 0009-0003-3048-9345
E-mail: ashurov82mx@gmail.com
Oripova Lobar Norboyevna
Qarshi Davlat texnika universiteti neft va gaz muhandisligi va qayta ishlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti, texnika fanlari doktori (PhD). Qarshi, O‘zbekiston.
ORCID: 0009-0004-1674-8934
E-mail: oripovalobar74@gmail.com
Boyqobilova Maxliyo Maxmudovna
Qarshi davlat texnika universiteti “ Neft-gaz ishi va ularni qayta ishlash texnologiyasi ” kafedrasi tayanch doktoranti. Qarshi, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0008-7613-8547
E-mail:mahliyoboyqobilova@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi hududi keskin kontinental iqlimga ega. Yoz mavsumida havo harorati +40…+45 °C gacha yetadi. Rezervuar tomi va devorlarining qizishi ichki muhit haroratini oshiradi, natijada bug‘lanish intensivligi kuchayadi. Asosiy jarayonlar kichik va katta nafas olish orqali sodir bo‘ladi. Kichik nafas olish tashqi harorat o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, ichki gaz fazasining kengayishi yoki siqilishi natijasida yuzaga keladi. Katta nafas olish esa mahsulotni quyish va bo‘shatish jarayonida sodir bo‘ladi. Rezervuarlarda bug‘lanish jarayonlari issiqlik va massa almashinuvi qonunlariga asoslanadi. Asosiy jarayonlar kichik va katta nafas olish orqali sodir bo‘ladi. Kichik nafas olish tashqi harorat o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, ichki gaz fazasining kengayishi yoki siqilishi natijasida yuzaga keladi. Katta nafas olish esa mahsulotni quyish va

ISSN 3030-3907

bo‘shatish jarayonida sodir bo‘ladi. Agar sizda 500 m³ benzinli rezervuar bo‘lsa va harorat +20°C dan +40°C ga ko‘tarilsa: Taxminan 10–15 m³ benzin bug‘i hosil bo‘lishi mumkin.Klapan 1 soat ichida kamida 20–30 m³/soat bug‘ni chiqarish imkoniga ega bo‘lishi kerak.

Kalit so‘zlar: parafin, izoparafin, gaz fazasi, AI-80, AI-91 va AI-92, klapan turi, bosim ostida o‘tkazuvchanlik, vakuumda o‘tkazuvchanlik, rezervuar.

Аннотация. Территория Республики Узбекистан характеризуется резко континентальным климатом. В летний период температура воздуха достигает +40…+45 °C. Нагрев крыши и стенок резервуара приводит к повышению температуры внутренней среды, в результате чего интенсивность испарения возрастает. Основные процессы происходят за счёт малого и большого дыхания. Малое дыхание связано с изменением внешней температуры и возникает в результате расширения или сжатия газовой фазы внутри резервуара. Большое дыхание происходит в процессе налива и слива продукта. Процессы испарения в резервуарах основаны на законах тепло- и массообмена. Основные процессы протекают за счёт малого и большого дыхания. Малое дыхание связано с изменением внешней температуры и возникает в результате расширения или сжатия газовой фазы внутри резервуара. Большое дыхание происходит в процессе налива и слива продукта. При наличии резервуара с бензином объёмом 500 м³ и повышении температуры с +20 °C до +40 °C может образовываться примерно 10–15 м³ паров бензина. Клапан должен обеспечивать выпуск не менее 20–30 м³/ч паров в течение одного часа.

Ключевые слова: парафин, изопарафин, газовая фаза, АИ-80, АИ-91 и АИ-92, тип клапана, пропускная способность при избыточном давлении, пропускная способность при вакууме, резервуар.

Abstract. The territory of the Republic of Uzbekistan is characterized by a sharply continental climate. During the summer season, air temperatures reach +40…+45°C. Heating of the tank roof and walls leads to an increase in the temperature of the internal environment, resulting in intensified evaporation. The main processes occur due to small and large breathing. Small breathing is associated with changes in ambient temperature and arises as a result of expansion or contraction of the gas phase inside the tank. Large breathing occurs during product filling and withdrawal operations. Evaporation processes in tanks are based on the laws of heat and mass transfer. The main processes occur due to small and large breathing. Small breathing is associated with changes in ambient temperature and arises as a result of expansion or contraction of the gas phase inside the tank. Large breathing occurs during product filling and withdrawal operations. In the

ISSN 3030-3907

presence of a gasoline tank with a volume of 500 m³ and an increase in temperature from +20 °C to +40 °C, approximately 10–15 m³ of gasoline vapor may be generated. The valve must ensure the release of at least 20–30 m³/h of vapor within one hour.

Keywords: paraffin, isoparaffin, gas phase, AI-80, AI-91, and AI-92, valve type, throughput under overpressure, throughput under vacuum, tank.

KIRISH.

Benzin neftni qayta ishlash jarayonida olinadigan eng uchuvchan neft mahsulotlaridan biri hisoblanadi. U $C_5 – C_{12}$ oralig‘idagi parafin, izoparafin, naften va aromatik uglevodorodlardan tashkil topgan murakkab aralashmadir. Benzinning fizik-kimyoviy xususiyatlari, xususan, to‘yingan bug‘ bosimi, fraksion tarkibi, zichligi va haroratga sezuvchanligi uning saqlash jarayonidagi bug‘lanish intensivligini belgilaydi [11]. RVP (Reid Vapor Pressure – benzin kabi uchuvchi suyuqliklarning bug‘ bosimini ifodalaydi) rezervuarda saqlash davomida bug‘lanish darajasining asosiy ko‘rsatkichidir [5,11]. Harorat oshishi bilan bu ko‘rsatkich eksponensial ravishda ortadi. Yozgi mavsumda AI-80, AI-91 va AI-92 markali benzinlar bug‘lanish yo‘qotishining maksimal qiymatlariga yetadi. Bu esa iqtisodiy va ekologik jihatdan sezilarli zarar keltiradi [6,7].

USUL VA MATERIALLAR. Tik silindr shakldagi rezervuarlarda benzinning bug‘lanish jarayoni, ayniqsa yuqori harorat sharoitida, neft mahsulotlarining sezilarli miqdorda yo‘qotilishiga olib keladigan muhim fizik-kimyoviy hodisa hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhit haroratining keskin oshishi, quyosh nurlanishining rezervuar sirtiga bevosita ta’siri hamda kunlik va mavsumiy harorat tebranishlari rezervuar ichidagi bug‘-havo aralashmasi bosimi va tarkibining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi [10]. Natijada “nafas olish” jarayonlari kuchayib, benzinning yengil fraksiyalari atmosfera muhitiga chiqib ketadi [7].

Tuzilishiga ko‘ra silindrsimon vertikal rezervuarlar (RV): VI-1, VI-2, RV-10000, RV-20000 kabi belgilanishlarda uchraydi. Eng katta sig‘imli va eng keng tarqalgan rezervuar turi. 5 000 – 120 000 m³ gacha sig‘imda ishlab chiqariladi. Rezervuarlarda bug‘lanish jarayonlari issiqlik va massa almashinuvi qonunlariga asoslanadi. Asosiy jarayonlar kichik va katta nafas olish orqali sodir bo‘ladi. Kichik nafas olish tashqi harorat o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, ichki gaz fazasining kengayishi yoki siqilishi natijasida yuzaga keladi. Katta nafas olish esa mahsulotni quyish va bo‘shatish jarayonida sodir bo‘ladi. Rezervuarlarda bug‘lanish jarayonlari o`rganish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

1) Ansys dasturiy ta'minot paketidan foydalangan holda sinovlarni o‘tkazish va uni o‘rnatishdagi laboratoriya sinovlari bilan taqqoslash.

ISSN 3030-3907

2) Olingan ma'lumotlarni rezervuarlardan neft va neft mahsulotlarining bug‘lanishini hisobga olishning mavjud usullari bilan taqqoslash[7,8].

Shu sababli, mazkur jarayonlarni chuqur ilmiy asosda o‘rganish va matematik modellashtirish asosida baholash bug‘lanish yo‘qotishlarini kamaytirishga qaratilgan samarali texnologik yechimlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, suzuvchi tomli rezervuarlardan foydalanish, issiqlikni qaytaruvchi (reflektiv) qoplamalar qo‘llash, bug‘larni tutib qolish va qayta utilizatsiya qilish tizimlarini joriy etish hamda rezervuarlarni ekspluatatsiya qilish rejimlarini optimallashtirish benzin yo‘qotishlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi [8,9].

NATIJALAR. Nafas klapanning o‘tkazish qobiliyati. O‘tkazish qobiliyati odatda m^3/soat (kub metr/soat) yoki kg/soatda o‘lchanadi va quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Klapanning o‘lchami (diametri): katta diametrli klapan ko‘proq gaz o‘tkazadi.
2. Ichki bosim farqi: klapan ochilayotgan bosim farqi qancha ko‘p bo‘lsa, oqim shuncha kuchli bo‘ladi.
3. Klapanning konstruktsiya turi: masalan, flap tip, disk tip, membrana tip kabi. Naqshli va vakuum qismi uchun alohida ko‘rsatkichlar bo‘ladi.

O‘rtacha o‘tkazish ko‘rsatkichlari quyidagi taxminiy qiymatlar ko‘p uchraydigan neft mahsulotlari saqlanadigan rezervuarlar klapanlari uchun keltirilgan:

1-Jadval

№	Klapan turi	Diametri	Bosim ostida o‘tkazuvchanlik	Vakuumda o‘tkazuvchanlik
1.	Oddiy nafas klapani	DN50	100 – 200 m^3/ soat	60 – 120 m^3/soat
2.	Olovga chidamli klapan	DN80	300 – 600 m^3/ soat	200 – 300 m^3/ soat
3.	Yuqori sig‘imli klapan	DN100	1000–2000 m^3/ soat	700– 1200 m^3/ soat

DN (diametr nominal) – klapan quvuriga ulanadigan ichki diametrni bildiradi.

Qanday hisoblanadi?

O‘tkazish qobiliyati odatda quyidagicha aniqlanadi:

$Q = C \cdot (\Delta P/\rho)^{1/2}$

Bu yerda:

Q – o‘tkazish qobiliyati (m^3/soat)

ISSN 3030-3907

C – o‘tkazish koeffitsiyenti (klapanning modeli bo‘yicha)
ΔP– bosim farqi (Pa)
ρ – gazning zichligi (kg/m³)

Yana bir misol:

Agar sizda 500 m³ benzinli rezervuar bo‘lsa va harorat +20°C dan +40°C ga ko‘tarilsa:

Taxminan 10–15 m³ benzin bug‘i hosil bo‘lishi mumkin.

Klapan 1 soat ichida kamida 20–30 m³/soat bug‘ni chiqarish imkoniga ega bo‘lishi kerak.

Texnik hujjatlar va normativlar

O‘tkazish qobiliyati ko‘rsatiladi:

API 2000 (Bo‘shliq, bosim va vakuum klapanlari uchun) ГОСТ 15150 va ГОСТ Р 51330 (yong‘inga chidamlilik va xavfsizlik uchun) klapan ishlab chiqaruvchilarining pasport ma’lumotlarida.

Nafas klapanlarining o‘tkazish qobiliyatini belgilovchi omillar

Nafas klapanining qanday hajmda gaz (havo yoki bug‘) o‘tkaza olishi bir necha muhim parametrga bog‘liq:

1. Rezervuar hajmi va haroratning o‘zgarishi

Misol:

1000 m³ hajmdagi neft mahsuloti saqlanayotgan rezervuar tashqi harorat +10°C dan +40°C ga ko‘tariladi.

Bu: suyuqlik hajmining kengayishi va bug‘lanishning kuchayishiga olib keladi [8,9,10].

Bunday vaziyatda klapan tashqi bosimni o‘zgartirmasdan 1 soat ichida 500–1000 m³ gazni chiqarish imkoniga ega bo‘lishi kerak.

2. Yoqilg‘i turi va uning bug‘lanish xususiyatlari

Har xil neft va benzin mahsulotlarining bug‘lanish koeffitsiyenti (Reid pressure) har xil:

2-Jadval

№	Mahsulot turi	Bug‘ bosimi (kPa)	Bug‘ chiqishi
1	A-80 benzin	55–80 kPa	Tez bug‘lanadi
2	Dizel yoqilg‘i	2–7 kPa	Sekin bug‘lanadi
3	Neft	Juda past	Minimal chiqish

ISSN 3030-3907



1-rasm.Tik silindr shakildagi rezervuarda kichik va katta nafas olish jarayonida benzinning bug`lanish orqali yo`qotilishi

AP-42 metodikasiga muvofiq, bug‘lanish yo‘qotishlarining katta qismi nafas oluvchi klapanlar orqali amalga oshadi.

Markaziy osiyo mamlakatlarida vaziyat global vaziyatdan biroz farq qiladi, chunki bu bosqichda iqlim o‘zgarishi hali ham biznes uchun, ham aholi uchun ustuvor ahamiyatga ega emas, bu esa eng yaxshi jahon amaliyotlariga nisbatan neft va gaz sektorini dekarbonizatsiya qilishning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda [1,2].

O‘zbekiston Respublikasi hududi keskin kontinental iqlimga ega. Yoz mavsumida havo harorati +40…+45°C gacha yetadi. Rezervuar tomi va devorlarining qizishi ichki muhit haroratini oshiradi, natijada bug‘lanish intensivligi kuchayadi. Shamol tezligi ham bug‘lanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shamol ortishi bilan issiqlik almashinuvi jadallashadi va bug‘lanish tezligi ortadi [2,3,4].

3-Jadval

№	Fraksiya	Bug‘ bosimi (kPa)	Bug‘ chiqishi
1	C_5–C_6	30	12
2	C_7–C_8	30	8
3	C_9–C_{10}	30	5

XULOSA. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqlimi issiq va keskin kontinental bo‘lgan hududlarda, jumladan O‘zbekiston sharoitida, benzin bug‘lanishi bilan bog‘liq yo‘qotishlar nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki ekologik muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Atmosferaga chiqarilayotgan uglevodorod bug‘lari havoning ifloslanishiga, fotokimyoviy smog hosil bo‘lishiga hamda inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tik silindr shakldagi rezervuarlarda benzin bug‘lanishini kamaytirish masalasi texnologik, iqtisodiy va ekologik

ISSN 3030-3907

jihatdan dolzarb bo‘lib, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar neft mahsulotlarini saqlash samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saxatov B.G. Nordon gazni qayta ishlashga tayyorlash jarayonida sovutish qurilmalaridagi asoratlar // Pedagog respublika ilmiy jurnali.-O`zbekiston.2024 №7(11). 159-162 bet.
2. Saxatov B.G. Tabiiy gazni qayta ishlashda desorbsiya jarayonini samaradorligini oshirish// Sanoatda raqamli texnologiyalar.-Qarshi .2024 №4(2). 133-136 bet.
2. Saxatov B.G. Absorbsiya usulida H2S va CO2 dan tozalashda yutuvchi komponentlarning to‘yinish balansi me’yorlari// Sanoatda raqamli texnologiyalar.-Qarshi .2024 №4(2). 150-155 bet.
3. Saxatov B.G., Jurayev.E.I, Nordon gazni qayta ishlashga tayyorlash jarayonida sovutish qurilmalaridagi salbiy asoratlar// Development of science sentyabr 2025/9 Volume 3.205-211 p.
4. Saxatov B.G., Ashurov M.X.,Ismatova Sh,M.,Mirzayeva Sh.A.,Ko‘p fazali ajratgichlarning ichki jihozini moddalarning ajralish bosqichiga mos jixozlash va yengil uglvadorod gazlarni sovutish texnologiyasi asosida namlik va gaz kondensatni ajratib olish. 2025/12 Volume 3.241-245 p.
5. Н.Р. Юсупбеков, Х.С. Нурмухамедов, З.Г. Зокиров Кимѐвий технология асосий жараѐн ва курилмалари, Т.: «Шарк» 2003. 644 б.
6. А.И. Скобло, Ю.К. Молоканова, А.И. Иладимиров, В.А. Щелкунов – Процессы и аппараты нефтегазо-переработки и нефтехмии. –М.: Нефдра. 2000 год.
7. Борьба с потерями нефти и нефтепродуктов при их транспортировке и хранении. Абузова Ф. Ф., Бронштейн И. С., Новоселов В. Ф. и др. (1981, 248с.) https://share.google/DoKqn8WiOYjfiOpWL
8. Большаков Г. Ф. Восстановление и контроль качества нефте продуктов. Л ., «Недра», 1974. 320 с.
9. “Studies on the evaporation of crude oil and petroleum products…” — evaporation rate, time and component effect, Elizaryev va boshq. (2020) — Seasonal climatic changes influence on losses at oil tanks filling (konferensiya maqolasi, Bashkortiston misolida) EPA-450/4-88-004, 1988 — AQSh EPA standart hujjati:

ISSN 3030-3907

OGAHIYNING TUYUQLARDA BADIIY SA’NATLARNI QO‘LLASH MAHORATI

Nurullayeva Guli Ortiq qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi
E-mail: gulinurullayeva9@gmail.com
Tel: +998990839379

Аннотация. В данной статье проводится поэтический анализ туюков из дивана «Ta’viz ul-oshiqin» («Талисман влюблённых») Muhammad Rizo Ogahiy, одного из крупнейших представителей узбекской литературы XIX века. В исследовании систематизированы художественная структура туюков, особенности использования приёма таджнис, а также суфийские и философские смысловые пласты. Статья направлена на раскрытие своеобразия поэтики Огахия и освещение художественно-эстетического значения жанра туюк в классической узбекской литературе.

Ключевые слова: Огахий, туюк, таджнис, суфизм, божественная любовь, художественные приёмы, руджу‘, метафора, лирика, диван.

Abstract. This article provides a poetic analysis of tuyūqs from the divan *“Ta’viz ul-oshiqin” (The Amulet of Lovers)* by Muhammad Rizo Ogahiy, one of the prominent representatives of 19th-century Uzbek literature. The study systematizes the artistic structure of tuyūqs, the use of the literary device of paronomasia (tajnis), and their mystical and philosophical layers of meaning. The article aims to reveal the distinctive features of Ogahiy’s poetics and to highlight the artistic and aesthetic significance of the tuyūq genre in classical Uzbek literature.

Keywords: Ogahiy, tuyūq, tajnis, mysticism, divine love, literary devices, rujū‘, metaphor, lyric poetry, divan.

Annotatsiya. Bu maqolada XIX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri – Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” (Oshiqlar tumori) devonidagi tuyuqlar poetik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tuyuqlarning badiiy qurilishi, tajnis san’atining qo‘llanishi, tasavvufiy va falsafiy mazmun qatlamlari tartibga solingan. Maqola Ogahiy poetikasining o‘ziga xosliklarini ochib berish hamda mumtoz adabiyotimizda tuyuq janrining badiiy-estetik ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, tuyuq, tajnis, tasavvuf, ilohiy ishq, badiiy san’at, ruju’, istiora, lirika, devon.

KIRISH.

Turkiy hamda forsiy mumtoz adabiyoti tarixida asrlar davomida turli she’riy janrlar shakllanib, taraqqiy etgan, ammo ular orasida tuyuq alohida ahamiyat kasb

ISSN 3030-3907

etadi. Tuyuq atamasi “tuymoq” (hissiy bilmoq, sezmoq) ma’nosini anglatadi. Adabiy termin sifatida XIV asr oxiri va XV asr boshlaridan qo‘llanila boshlagan. Lekin XV asr o‘rtalarigacha tuyuqlar tajnissiz qofiyalangan, keyinchalik tajnisli qofiyalanish qat’iy qoida sifatida belgilangan. Bu, shubhasiz, uning o‘sha davrlarda to‘liq takomillashganidan dalolatdir. Tuyuq janri turkiy adabiyotda vujudga kelgan bo‘lib she’riy shakl sifatida ikki bayt (to‘rt misra)dan iborat. Janrning yana bir muhim belgisi ramali musaddasi maqsur vaznida yozilishidir. U ruboiydan mavzu ko‘lami ila ajralib tursa, murabba’dan ijodkor taxallusining qo‘yilmasligi bilan farqlanadi.

ADABIYOTLAR VA METODLAR. Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning devonidagi barcha tuyuqlarning mazmun-mohiyati to‘laqonli ravishda bayon etilgan. Tadqiqot davomida matnshunoslik hamda adabiyotshunoslikka oid metodlardan foydalanildi. Shu orqali devondagi tuyuqlarning satrma-satr ma’nosi, badiiy san’atlari va vositalari, shuningdek tasavvufiy, falsafiy va estetik jihatlari mavjud ilmiy manbalar asosida izohlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kishi g‘am daf’ig‘a gar mo‘l ichar yuz ming qadah *mul ham*,
Ko‘ngulda ishq zavqi bo‘lmasa afzun etar *mul ham*,
Shahodat olami asroridin hargiz xabar topmas,
Kishi to bo‘lmaguncha g‘ayb asrori bila *mulham*.

Ilk tuyug‘ida *mul ham* omonimi tajnis sifatida qo‘llanilgan. Ma’nosi quyidagicha: “Dard-u g‘amini yo‘qotish uchun ko‘nglida ishq zavqi bo‘lmagan har qanday kishi yuz ming qadah sharob ichsa ham befoyda, ya’ni may g‘amini yanada kuchaytiradi. Inson g‘ayb sirlaridan ilhomlanuvchi, rohat qiluvchi bo‘lmagunga qadar shahidlik (haq yo‘lida jon berish) olamining sir-u asrorlaridan hech qachon xabardor bo‘lolmaydi”.

G‘am yuki to qomatim *yo qilmadi*,
Ohim o‘tig‘a falak *yoqilmadi*,
Qilmadi rahme manga, xud o‘zgaga
Bilmadimkim, qildimu *yo qilmadi*.

Bu esa *yo qilmadi* tajnisiga qurilgan. “Toki g‘am yuki qaddimni egmagunicha osmon ohlarim o‘ti sababli yonmagan edi. Yorim menga rahm etmadi, o‘zgaga ham rahm qilganmi yo yo‘qmi uni ham bilmayman”, mazmunida bayon etilgan. Tajnisdan tashqari uchinchi va to‘rtinchi misralarda ruju’ san’ati ham alohida o‘rin egallagan.

Do‘stlar, hamrohlig‘ aylab *boringiz*,
Tundxo‘ yorim qoshig‘a *boringiz*,
Bir kecha bazmimg‘a kelturmak uchun,

ISSN 3030-3907

Bosh, ayoqig‘a qo‘yub *yolboringiz*.

Mazkur to‘rtlikda tajnis *boringiz* so‘zidir. Unda: “Do‘stlar, birgalikda tund (og‘irbosiq, vazmin) tabiatli ma’shuqam yoniga borib, bir kechagina bazmimga keltirish uchun oyoqlariga bosh qo‘yib yalining”, degan ma’no ifodalangan. Tundxo‘ yorim iborasi esa istiora san’atining yaqqol namunasidir.

Va’dayi lutf etma, ot javr aylab *o‘q* —
Kim, manga ul nasyadin bu yaxshi *o‘q*,
O‘tdi umrim va’dang ummedi bila,
Sabr qilmoq bo‘lg‘usidur muncha — *o‘q*.

Shoir navbatdagi *o‘q* tajnisli misralarini boshqa kishilar tomonidan va’da qilinadigan narsalarga umid ila boqmaslik lozimligini aytish bilan boshlagan bo‘lsa, kim menga samimiyat ila yaxshilik qila oladi? — degan ilinjda Yaratgan tomonidan tuhfa qilingan umrimizni kutish orqali zoye qilmasligimizni, duch keladigan barcha hayotiy sinovlar hamda qiyinchiliklarga sabr qilishlik eng to‘g‘ri qaror ekanligini ta’kidlab xulosalagan.

Bo‘ldi chun umring kunining vaqti *tush*,
Nafsi sarkash otini ko‘b chopma, *tush*,
Xobgoh etkil qanoat manzilin,
Yo‘qsa hargiz ko‘rmagung rohatni *tush*.

1. Tush — tush payti, kishi umrining o‘rtasi;
2. Tush — otdan tush, insofga kel (yoshingni o‘ylab ish qil);
3. Tush — tush ko‘rmoq (uyqu payti).

Bunda adib umrning oxirgi chegarasi yaqinlashganini inobatga olgan holda sarkash ot, ya’ni nafsni nazorat qilmasdan, unga bo‘ysunish zarar keltirishini hamda nafsni boshqarish va qanoatni qadrlash orqali inson haqiqiy baxt va xobgoh – ruhiy barqarorlikka erishishligini ta’kidlagan.

Uch baland aylab qanoatni *qanot* —
Kim, erning hirs aylamish qa'ri *qanot*,
Ilginga olib riyozat toshini,
Kibr-u naxvat boshin ul toshdin *qanot*.

1. Qanot — qush qanoti ma’nosida;
2. Qanot — egallab olgan, yoyilgan ma’nosida;
3. Qanot — qonatmoq ma’nosida qo‘llangan.

“Sen qanoatni, ya’ni nafsni tiyish, shukr qilishni o‘zingga qanot (odat) qil, sababi butun ahli dunyo hirs, ya’ni ochko‘zdirlar. Noshukurlik insonlarning fitratigacha singib ketgan. Tinimsiz mashaqqatli mehnat va sabr qilib, o‘z ruhiyatingni riyozat (o‘z-o‘zini tarbiyalash) orqali yuksaltirishga bel bog‘la. Shu

ISSN 3030-3907

orqali kibr-u naxvat – kibr, mag‘rurlik (boshi)ni qonat (yo‘q qil) degan”, - ma’noda kelyapti.

Dardi zahre soldi chinlar *qoshima*,
Kelmadi holim so‘rorg‘a *qoshima*,
G‘am yukin chekmakda, ey dil, chobuk o‘l,
Hargiz ushbu ishda boshing *qoshima*.

Satrlar bayoni:

Chin oshiqlar yuragimga misoli zahar kabi dardni soldi, ammo yonimga hol-ahvolimni so‘rashga u (yor) kelmadi. Ey dil, mana shunday qiyinchiliklarga chobuk (matonatli, pishiq, sabrli) bo‘l. Bu ish (boqiy muhabbatga erishish)da boshingni qashlama (ikkilanma, bosh tortma).

Kosa olsang qo‘lg‘a ichmakka *choqir*,
Ushbu maxmuringni bazminga *choqir*,
Muddayi xaylini tig‘i rashk ila,
Hech rahm etmay maning *komimcho qir*.

Navbatdagi bayt oshiqning kuchli ishtiyoqi bilan birgalikda e’tiborga ehtiyojini ifodalaydi: “Mehrli qadahni ilginga olgan bo‘lsang, o‘zingga mansub bo‘lgan mast (jazba holidagi solik)ni —meni — visol majlis (ma’rifat va ilohiy ishq suhbat)inga chorla. Da’vogarlik qilayotganlar to‘dasi yoki raqib oshiqlarni esa rashk tig‘ (qilich)i bilan, hech ikkilanishlarsiz, ko‘nglim tusaganchalik yo‘q qil (rad et)”. Bunda Haq ishqining majlisiga faqat sodiq kishilar (sidqu-safolar) kirishi, “riyokor”lar esa keskin yo‘q qilinishi zarurligi bildirilgan.

Chehrasining garchi muhriq nori bor,
Bergusi doim niholi nori bor,
Sig‘mag‘ung bazmi aro, ey muddaiy,
Telmurub turma bu yerda, nori bor.

1. Nor bor — yor jamolida tamg‘a bo‘lib turgan olovdek belgi (xol);
2. Nor (niholi) bor — ishq olovida yonayotgan go‘zal qomat (tashqi ko‘rinish)i;
3. Nori bor — (fe’l) nari bor, ket;

Ma’nosi: Yorning gul chehrasida olovga o‘xshash yorqinlik belgisi — xoli bor. U hadya qilgan har bir narsa (qarashi, so‘zi)ning mohiyatida doimo ishq olovining nafis niholi mavjud. (Bu yerda yor jamolining haroratli, jozibali va ko‘zni qamashtiruvchi go‘zalligi nazarda tutilgan). Ey ma’shuqaning ishqiga talabgor kishi, sen bu bazmda sig‘mayapsan (joy topa olmaysan) — bu yerda “sen bu davrada ortiqchasan” mazmunida kinoya bor. Unga intilma, havas bilan boqma, bu yerda ishqning lovullagan, kuydiruvchi (so‘nmas) olovi mavjud — kuyib qolasan.

ISSN 3030-3907

Ijodkor tuyuqlarning har birida so‘zning turli ma’nolarini uyg‘unlashtirish orqali mazmuniy teranlikni namoyon qilgan. Ogahiy poetikasida Ilohiy ishqni chin haqiqat darajasida ulug‘lash, oshiqning ruhiy kechinmalari bilan birga hayotning foniy (o‘tkinchi) ekanligi, nafsni jilovlash, riyozat, sabr va qanoat kabi umumbashariy g‘oyalarni ruhiy kamolotga eltuvchi vosita sifatida o‘z ifodasini topgan. Ogahiy tuyuqlarida, shuningdek, istiora, ruju’, kinoya va boshqa she’riy san’atlar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bularning barchasi adibning she’riyat olamidagi teran badiiy mushohadasini namoyon qilgan.

XULOSA. Ogahiy merosi, xususan, uning tuyuqlari tub mazmuni, badiiy yuksakligi va estetik teranligi bilan Lutfiy, Sakkokiy, Gadoiy, Navoiy, Atoyi, Sivosiy, va Bobur singari mumtoz shoirlarning ijodiy merosi qatoridan munosib o‘rin egallagan. Muhammad Rizo Ogahiy tuyuqlari o‘zbek klassik adabiyotining yorqin namunalari sifatida nafaqat go‘zal va yangi didni yuksaltiruvchi nafis misralar, balki falsafiy va tasavvufiy mazmuniyatni mujassam etgan ma’naviy xazinadir. Shoir hajm jihatidan uncha yirik bo‘lmasa-da, mazmunan boy janrda tajnis san’atidan ustomonlik bilan foydalanib, tasavvufiy muhabbat, sabr-matonat, qanoat, riyozat hamda ilohiy haqiqatga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlarni yuksak poetik mahorat bilan ifodalagan.

Ogahiy xalq dardini qalbiga singdirgan, so‘zini sayqallagan, she’riy ruhi bilan olamni yoritgan ma’rifatparvar shoirdir. Uning she’rlari ba’zan g‘amgin ohangga, ba’zan umid faryodiga o‘xshaydi. Uning tarixiy asarlari esa o‘z davrining ko‘zgusi bo‘lsa, kelajak avlodlar uchun ilm-fanning asosidir. U badiiy va ilmiy tafakkurni uyg‘unlashtirib, so‘zga badiiyat bag‘ishlagan, xalq bilan hamnafas bo‘lib, zamon ruhini kuylagan ma’rifatparvar sifatida adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan. Tahlillar davomida aniq aytolamizki, Ogahiy tuyuqlarining mavzusi keng ko‘lamli bo‘lib, zamonasing ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini yoritish bilan birga, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham mustahkam poydevor bo‘lib, xalqimizning ma’naviy boyliklarini e’zozlash, uni kelajak avlodlarga yetkazishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boltaboyev H., Qozoqboyeva D. O‘zbek adabiyoti tarixi va yangi o‘zbek adabiyoti (Mumtoz adabiyotga kirish va poetika asoslari). O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zMU, Mumtoz so‘z, 2023.
2. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr 1-yarmi). Darslik. — Toshkent: Noshir, 2019.
4. Tadjibayev M., Khodjamkulov U., Botirova Sh. Adabiy germenevtika va badiiy til poetikasi. — Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021.
5. Мажидий Р. Огахий лирикаси. — Тошкент: Фан, 1963.

ISSN 3030-3907

6. Мухаммад Ризо Огахий. Асарлар. 6 жилдик / Нашрга тайёрловчи С. Долимов. 1-2-жилдлар. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1972.
7. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
8. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1976.
9. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. — Тошкент: Фан, 1976.
10. Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият луғати. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.

ISSN 3030-3907

DORIVOR LIMONO‘T *(MELISSA OFFICINALIS)* NING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARINI KIMYOVIY TARKIBI ORQALI BAHOLASH

Egamberdiyev Dostonbek Usmonjon o‘g‘li.
Andijon Davlat Unversiteti, k.f.f.d.
Atabekova Xurshida.
Andijon Davlat Unversiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada dorivor limono‘tning shifobaxshlik xususiyatlari, shuningdek xalq tabobatida qo‘llanilishi hamda limono‘tning biologik faol komponentlarini, shu jumladan, ildizining vitaminlar tarkibini YuSSX (yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi) usulida tahlil qilinganda vitaminlarning miqdori B_1<C<B2 tartibda ortib borishi va ularning muhokamasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Dorivor limono‘t, vitaminlar, reaktivlar, eritmalar, kasallik, ekstraksiya, kimyoviy tarkib, antibakterial xususiyat.

Annotation. The article discusses the medicinal properties of lemon herb, its use in traditional medicine, and the biological active components of lemon herb, including its vitamin content. When analyzed using the High-Performance Liquid Chromatography (HPLC) method, the vitamin levels are found to increase in the order of B1 < C < B2, and this is discussed in the article.

Keywords: Medicinal lemon herb, vitamins, reagents, solutions, diseases, extraction, chemical composition, antibacterial properties.

Аннотация. В статье рассматриваются лечебные свойства лимонной травы, её применение в народной медицине, а также биологически активные компоненты лимонной травы, включая её витаминный состав. При анализе с использованием метода высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) установлено, что уровень витаминов увеличивается в порядке B1 < C < B2, и это обсуждается в статье.

Ключевые слова: Лечебная лимонная трава, витамины, реактивы, растворы, заболевания, экстракция, химический состав, антибактериальные свойств

KIRISH

Xalq tabobati va meditsinada ishlatiladigan ko‘plab dorivor preparatlar o‘simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Dorivor o‘simliklar inson salomatligini saqlashda va davolashda muhim o‘rin tutadi. Ularning tabiiy biologik faol moddalari, vitaminlar va minerallar bilan boy tarkibi inson organizmini ko‘plab kasalliklardan himoya qilishda yordam beradi. Bunday shifobaxsh noyob o‘simliklardan biri dorivor limono‘tdir. Yillar davomida limono‘t o‘zining tinchlantiruvchi, antibakterial va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari bilan mashhur

ISSN 3030-3907

shuningdek, xalq tabobatida asab tizimini tinchlantirish, uyquni yaxshilash va oshqozon-ichak faoliyatini normallashtirishda keng qo‘llanilgan.Shuningdek limono‘t ildizi tarkibidagi vitaminlar esa organizmda turli biologik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ular oziq moddalarining so‘rilishini osonlashtiradi, hujayralarni tiklash va metabolizmni normallashtirishda yordam beradi. Limono‘tda uchraydigan vitaminlar, xususan, B_1 (tiamin), C (askorbin kislotasi) va B_2 (riboflavin) organizmda o‘ta muhim biologik vazifalarni bajaradi.

Vitamin B_1 (tiamin) asab tizimining normal ishlashini ta’minlaydi va energiya ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Ushbu vitaminning yetishmasligi asab tizimida buzilishlarga va boshqa turli kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Vitamin C (askorbin kislotasi) kuchli antioksidant bo‘lib, organizmni erkin radikallardan himoya qiladi, immun tizimini mustahkamlaydi va qon tomirlarining elastikligini oshiradi. Shu bilan birga, vitamin C to‘qimalar va suyaklarning tiklanishida ishtirok etadi. Limono‘tning kimyoviy tarkibi uning shifobaxsh xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil hisoblanadi[1,2,3].

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib biz Andijon Davlat Unversiteti ,,Xalq tabobati va Tovarlar kimyosi’’ labaratoriyasida limono‘t (Melissa officinalis) ildizining ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini “yuqori samarali suyuqlik xromatogafiyasi” (YuSSX) usulida aniqladik. Quyida batafsil ma’lumotlar va ularning muhokamasi bilan tanishamiz.

TAJRIBA QISM.

Foydalanigan reaktiv va jihozlar. Vitamin B_{12} “Rhydburg Pharmaceuticals” (Germaniya), C vitamin “Carl Roth GmbH” (Germaniya), B_9 “DSM Nutritional Products GmbX” dan (Germaniya), B_1, B_2, B_3, B_6, PP vitaminlar “BLDPharm” (Xitoy) olingan. HPLC darajadagi tozalikda suv, asetonitril, kimyoviy toza markadagi sirka kislota va natriy gidroksidi reaktivlaridan foydalanildi.

Namunadagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini Yaponiyaning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografida amalga oshirildi [4].

Standart eritmalarni tayyorlash. C (CAS 50-81-7), B_1 (CAS 59-43-8), B_6 (CAS 58-56-0), B_3 (CAS 59-67-6), B_{12} (CAS 68–19–9) va PP (CAS 98-92-0) vitaminlarning eritmalari (100 mg/l) har bir vitaminning 5 mg dan miqdori 50 ml 0,1 N li HCl eritmasida eritib tayyorlanadi. B_2 (CAS 83-88-5) va B_9 (CAS 59-30-3) vitaminlarining standart eritmalari ushbu vitaminlarning 5 mg ni 50 ml 0,025% natriy gidroksid eritmasida eritib tayyorlandi. So‘ngra dastlabki B_1, B_6, B_3, B_{12}, PP vitaminlardan 200 mkl dan olib aralashtirildi va har bir vitaminning konsentratsiyasi 14.286 mg/l dan bo‘lgan eritma tayyorlandi. Shu tariqa 7.143,

ISSN 3030-3907

3.571, 1.786 mg/l dan standart eritmalar tayyorlandi. Vitamin C ning ham 286, 143, 71.5, 57.2 mg/l konsentratsiyali standart eritmalari tayyorlandi. Kalibrlovchi grafik tuzish uchun 0 mg/l konsentratsiya uchun toza suv ishlatildi.

Namuna ekstraktini tayyorlash. Suvda eruvchan vitaminlarni ekstraksiya qilish uchun tekshiriladigan namunadan 1 gr o‘lchab olinib, 50 ml hajmli konussimon kolbaga solindi va 25 ml 0,1 N li HCl eritmasi qo‘shildi. Aralashma GT SONIC-D3 (Xitoy) markali ultratovushli vannada 60 ^{o}C haroratda 20 daqiqa davomida ekstraksiya qilindi. So‘ngra aralashma sovitilib, filtrlandi hamda o‘lchov kolbasida suv bilan 25 ml ga yetkazildi. Ekstraktdan 1,5 ml miqdori 0,22 mkm li shpritsli filtrda filtrlanib vialaga solindi hamda analiz uchun foydalanildi.

XROMATOGRAFIK SHAROITLAR.

Vitaminlarni aniqlash. Standart eritmalar va namuna ekstrakti LC-40D nasosi, SIL-40 avtosampleri, SPD-M40 foto-diod matritsali detektoridan (PDA) iborat LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografi va LabSolutions ver. 6.92 dasturiy ta’minoti yordamida tahlil qilindi. Shim pack GIST C18 (150 × 4,6 mm; 5 mkm, Shimadzu, Yaponiya) teskari fazali kolonkasi hamda asetonitril (A) va sirka kislotaning suvdagi 0,25 % li eritmasi (B) dan tashkil topgan gradientli harakatchan faza (1-jadval) qo‘llanildi. In'ektsiya hajmi 10 mkl, oqim tezligi 0,6 ml/min va kolonka termostati harorati 40 °C etib belgilandi. Har bir vitaminning analitik signali (cho‘qqi maydoni) uchta to‘lqin uzunliklari 265, 291, 550 nm da qayd etildi (1-3 rasmlar). Vitamin C ni aniqlash uchun 15 daqiqali gradiyent ishlatildi (2-jadval) va analitik signal 265 nm to‘lqin uzunlikda o‘lchandi [4].

1-Jadval.

Vitaminlarni aniqlashda harakatchan faza gradiyent dasturi.

Vaqt, daqiqa	Atsetonitril (A), %	0,5 % li sirka kislota (B), %
0	0	100
3	0	100
14	20	80
17	50	50
18	0	100
25	Tugatish	


2-Jadval.

Vitamin C miqdorini aniqlashda harakatchan faza gradiyent dasturi.


Vaqt, daqiqa	Atsetonitril (A), %	0,5 % li sirka kislota (B), %
0	0	100
2	0	100

ISSN 3030-3907

6	50	50
6,01	0	100
15	Tugatish	



1-rasm. Vitaminlar standart eritmasining xromatogrammasi.



2-rasm. Vitamin C standart eritmasining xromatogrammasi.

OLINGAN NATIJALAR.

Namuna ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash. Namuna ekstrakti xromatogrammasi (3-4 rasmlar) olindi hamda natijalar asosida 100 g namuna tarkibidagi vitaminlar miqdorlari quyidagi formula bilan hisoblanib 3-jadvallarda keltirildi.

$$X = \frac{C_{vit} \cdot V_{ekstrakt}}{m_{namuna}} \cdot 100\ g$$


Bu yerda, X – 100 gram namuna tarkibidagi vitaminlarning miqdori, mg;

ISSN 3030-3907


C_{vit} – ekstrakt tarkibidagi vitaminning YuSSX usuli bilan aniqlangan konsentratsiyasi, mg/l;

$V_{ekstrakt}$ – namuna ekstraktining hajmi, l;

m_{namuna} – ekstrakt tayyorlash uchun tortib olingan namuna massasi.



3-rasm. Namuna ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash xromatogrammasi.



4-rasm. Namuna ekstrakti tarkibidagi vitamin C ni aniqlash xromatogrammasi.

3-jadval.

Ekstraktdagi vitaminlarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Vitamin	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Vitamin B_1	2,926	0,101	0,253
Vitamin B_3	5,587	0,101	0,253
Vitamin PP	7,733	0,015	0,038
Vitamin B_9	16,996	0,291	0,728
Vitamin B_2	19,15	0,99	2,475
Vitamin B_6	6,003	0,127	0,318

ISSN 3030-3907

Vitamin B_{12}	Aniqlanmadi	0	0,000
Vitamin C	4,14	0,924	2,310

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

1. Limonoʻtning kimyoviy tarkibi boʻyicha eksperimental tadqiqotlar uchun namuna olinib, olingan namunalarni suvli va spirtli ekstraktlari “Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati” ilmiy laboratoriyasida tayyorlandi.

2. Namuna ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori YuSSX usulida 100 gr namunadagi vitamin B_2 ning miqdori 2,475 mg boʻlishi aniqlandi va bu eng yuqori natija ekanligini koʻrsatdi.

3. Namuna ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori YuSSX usulida 100 gr namunadagi vitamin C ning miqdori 2.310 mg boʻlishi aniqlandi.

4. Limonoʻtning vitaminli tarkibidan kelib chiqib, vitaminlar majmuasi va biologik faol moddalari asosida tayyorlangan ekstraktlar yoki damlamalar turli kasalliklarni davolash jarayonida qoʻllash uchun amaliy ahamiyatga ega ekani ilmiy jihatdan izohlanib, ularning yuqori shifobaxsh salohiyati batafsil asoslab berildi.

ADABIYOTLAR

1. Alipieva, K., & Denev, P. (2018). Bioactive compounds in Melissa officinalis: A review of the literature. Food Chemistry, 259, 118-128.

2. I. I. Rakhimov (2017). Xalq tabobatida dorivor oʻsimliklarning roʻli. Toshkent: "Meditsina" nashriyoti.

3. N. G. Gʻulomov (2020). Dorivor oʻsimliklar va ularning biologik faol moddalarining tahlili. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.

4. Asqarov, I. R., Abdullayev, S. S. oʻgʻli, Mamatqulova, S. A., Abdulloyev, O. S., & Abdulloyev, S. X. (2024). SUVDA ERUVCHAN VITAMINLAR MIQDORINI YUSSX USULIDA ANIQLASH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH (CHILONJIYDA MISOLIDA). Fargʻona Davlat Universiteti, 30(5), 61. Retrieved from https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4679

ISSN 3030-3907

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОЛУЧЕНИЯ ЖЕЛЕЗНЫХ КОАГУЛЯНТОВ ИЗ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ СБРОСНЫХ СТОКОВ ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО ПРОИЗВОДСТВА

Хужаев Ш.Ш.
Джизакский политехнический институт
Шарипов С.Ш.
Навоийский государственный горно-технологический университет
Шодикулов Ж.М.
Навоийский государственный горно-технологический университет

Annotatsiya. Maqolada gidrometallurgiya ishlab chiqarishida hosil bo‘ladigan temir saqlovchi oqova suvlar va chiqindilardan temir koagulyantlarini olishning zamonaviy texnologiyalari tahlil qilingan. Ikkilamchi xom ashyo manbalari sifatida temirsizlantirish shlamlari, okalina, po‘latni silliqlash chiqindilari, travlenish shlamlari hamda kislotali shaxta suvlari ko‘rib chiqilgan. Oltingugurt va xlorid kislotalari yordamida kislotali eritib olish jarayonlari, temir fazalarining erish mexanizmlari va kinetik qonuniyatlari baholangan. Eritmalarni og‘ir metall aralashmalaridan tozalash usullari hamda asosiylik darajasini boshqarish orqali poliferrisulfat sintez qilish jarayoni yoritilgan. Sintez qilingan koagulyantlarning fizik-kimyoviy xossalari va asosiylik darajasining koagulyatsiya samaradorligiga ta’siri umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikkilamchi resurslardan olingan koagulyantlar loyqalik, organik moddalar va fosforni olib tashlashda tijorat mahsulotlariga teng yoki ustun bo‘lib, ishlab chiqarish tannarxi pastroqdir. Temir saqlovchi chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari aylanuvchi iqtisodiyot va yashil kimyo tamoyillariga mos keladi.

Kalit so‘zlar: temir koagulyantlari; poliferrisulfat; kislotali eritib olish; temir saqlovchi chiqindilar; gidrometallurgiya; oqova suvlarni tozalash; aylanuvchi iqtisodiyot.

Аннотация. В статье представлен обзор современных технологий получения железных коагулянтов из железосодержащих отходов и сбросных стоков гидрометаллургического производства. Проанализированы основные виды вторичного сырья, включая шламы обезжелезивания, окалину, шлифовальные отходы стали, шламы травления и кислые шахтные воды. Рассмотрены процессы кислотного выщелачивания с применением серной и соляной кислот, механизмы растворения железосодержащих фаз и кинетические особенности извлечения железа. Освещены методы очистки растворов от примесей тяжёлых металлов и особенности синтеза полиферрисульфата методом щелочного старения с регулированием степени основности. Обобщены данные о физико-химических свойствах

ISSN 3030-3907

синтезированных коагулянтов, распределении форм железа по методу Fe–Ferron и влиянии степени основности на эффективность коагуляции. Показано, что коагулянты, полученные из вторичных ресурсов, обеспечивают высокую степень удаления мутности, органических веществ и фосфора при сниженной себестоимости по сравнению с коммерческими аналогами. Сделан вывод о технологической и экономической целесообразности переработки железосодержащих отходов в коагулянты в рамках принципов циркулярной экономики и зелёной химии.

Ключевые слова: железные коагулянты; полиферрисульфат; кислотное выщелачивание; железосодержащие отходы; гидрометаллургия; очистка сточных вод; циркулярная экономика.

Abstract. This paper reviews modern approaches to producing iron-based coagulants from iron-containing wastes and effluents generated by hydrometallurgical processes. Major secondary raw materials, including de-ironing sludge, mill scale, steel grinding waste, pickling sludge, and acid mine drainage, are analyzed in terms of composition and processing potential. Acid leaching using sulfuric and hydrochloric acids, dissolution mechanisms of iron-bearing phases, and kinetic aspects of iron extraction are discussed. Methods for removing heavy metal impurities from solutions and the synthesis of polyferric sulfate via controlled alkaline aging are described. The physicochemical properties of the synthesized coagulants, iron speciation according to the Fe–Ferron method, and the influence of basicity on coagulation performance are summarized. The results demonstrate that coagulants derived from secondary resources achieve high removal efficiencies of turbidity, organic matter, and phosphorus, while reducing production costs compared to commercial products. The technological feasibility and economic viability of converting iron-containing wastes into coagulants are substantiated within the framework of circular economy and green chemistry principles.

Keywords: iron coagulants; polyferric sulfate; acid leaching; iron-containing waste; hydrometallurgy; wastewater treatment; circular economy.

ВВЕДЕНИЕ

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР. Гидрометаллургическое производство является одним из основных источников железосодержащих отходов, включая кислые шахтные воды, шлам обезжелезивания, окалину и отработанные кислотные растворы [1]. Ежегодно в мире образуется 10–12 млн тонн стальных шлифовальных шламов, а объёмы кислых шахтных вод исчисляются сотнями миллионов кубометров [2]. Эти отходы содержат значительные концентрации железа, достигающие 64% в окалине [3], что

ISSN 3030-3907

22. Togaev U., Khaitbaev K., Tilyabaev Z., Toshov K., Khaitbaev A.(2021b) Investigation of the attractive properties of compounds in Anacanthotermes turkestanicus. Nat. Volatiles & Essent. Oils; 8(7): 12564–12573.
23. Togaev U., Rakhmonkulova A., Sharma M., Agarwal S., Turaev A.S., Tillyabaev Z., Matchanov A., Khodja-Akhmedova K., Ruzmetov R., Abdullaev I., Mathur V. Whole Metagenomic Analysis of the Gut Microbiome of Higher Termites (Microcerotermes turkmenicus Luppova, 1976) in Uzbekistan. Acta Microbiol. Bulg. Volume 41, Issue 3, 2025 / Pages 341-346 / https://doi.org/10.59393/amb25410308
24. Tilyabayev Z., Haytbaev H., Togaev U.R. Main stages of development and use of plant protection products against harmful insects // International science project. - 2020. - № 3. - С. 22-28.
25. Ulugbek Togaev, Vartika Mathur, Shuhrat Turageldiev. (2023) Analysis of Cuticular Hydrocarbons in Anacanthotermes Turkestanicus: A Scientific Inquiry into Insect Cuticular Lipids. Conference: The International Conference on Energy-Earth-Environment-Engineering. Tashkent. 5.12.2023
26. Ulugbek Togayev, Zoitjon Tilyabayev, Hamid Haytbayev. (2021a) Investigation of the thermiticidal properties of naphthalene derivatives. № 3 (81)
27. Xusanov, A. K., & Toshtemirova, N. I. qizi. (2024). Research on termites (Insecta: Isoptera) in Uzbekistan. Andijan State University Proceedings.
28. З. Тилябаев, Х. Хаитбаев, Б.Н. Бабаев, У.Р. Тогаев (2020) Термитициды / Universum: химия и биология: электрон научный журнал. – № 5. – С. 42–46
29. Zafar, M. S., & Abdullaev, I. I. (2025). Biology and ecology of termites in Khorezm and Karakalpakstan, Uzbekistan. Proceedings of the International Conference on Health & Technology, 22–25. https://doi.org/10.5281/zenodo.17588209
30. Zhuginisov, T. I., Orazbaeva, S. M., Duysengaliev, E. S., Dawletmuratov, I. Z., & Isaev, R. T. (2022). Monitoring and prevention of termites of the genus Anacanthotermes in the conditions of Karakalpakstan. Science and Education in Karakalpakstan, 1(1), 54–57.

ISSN 3030-3907

31. Zhuginisov, T. I., Juginisov, T. I., Orazbaeva, S. M., Duysengaliev, E. S., Dawletmuratov, I. Z., & Isaev, R. T. (2022). Monitoring and prevention of termites of the genus Anacanthotermes in the conditions of Karakalpakstan. Science and Education in Karakalpakstan, 1(1), 54–57.

ISSN 3030-3907

QOVUNNI QAYTA ISHLASHDA MEXANIZATSIYALASHTIRISH ISHLARINING AHAMIYATI.

Xodiyev Ulug‘bek Eshdavlatovich
Guliston davlat universiteti
Toshmaxammatov Shamsiddin Toshniyoz o‘g‘li
Guliston davlat universiteti
Xayrullayev Dilmurodjon Iskandar o‘g‘li
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada qovunni qayta ishlashni mexanizatsiyalashtirish jarayonlarining mohiyati, hamda texnologik bosqichlari ifodalanadi. Qovunni tozalash, kesish, urug‘idan ajratish, quritish va qadoqlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib unumdorlikni oshirish, sifatini yaxshilash va mahsulot tannarxini kamaytirish masalalari yoritilgan. Mexanizatsiyalashgan qayta ishlash tizimlari qovun mahsulotlarini samarali ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qovunni qayta ishlash, mexanizatsiya, texnologik jarayon, uskunalar, ishlab chiqarish samaradorligi, texnika fanlari.

Abstract. The article highlights the essence of mechanization in melon processing and outlines its technological stages. Issues related to improving productivity, enhancing quality, and reducing production costs through the use of modern technologies in cleaning, cutting, seed removal, drying, and packaging of melons are discussed. Mechanized processing systems contribute to the efficient production of melon products.

Keywords: Melon processing, mechanization, technological process, equipment, production efficiency, engineering sciences.

Аннотация. В статье освещается суть механизации переработки бахчевых культур и описываются ее технологические этапы. Обсуждаются вопросы, связанные с повышением производительности, повышением качества и снижением себестоимости продукции за счет использования современных технологий очистки, нарезки, удаления семян, сушки и упаковки бахчевых культур. Механизированные системы обработки способствуют эффективному производству бахчевой продукции.

Ключевые слова: Переработка дыни, механизация, технологический процесс, оборудование, эффективность производства, инженерные науки.

KIRISH.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimida mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari zamonaviy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir sharoitda, qayta ishlash

ISSN 3030-3907

texnologiyalarining samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Qovun qishloq xo‘jaligida keng yetishtiriladigan va turli xil qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo hisoblanadi. Uni quritish, konservalash, sharbat va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirish orqali iqtisodiy qiymatini oshirish mumkin. Biroq an’anaviy, qo‘l mehnatiga asoslangan qayta ishlash jarayonlari yuqori vaqt sarfi, katta mehnat talabi va mahsulot sifatining bir xil bo‘lmasligi kabi muammolarni yuzaga keltiradi.

Shu sababli qovunni qayta ishlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish orqali ishlab chiqarish quvvatini oshirish, mahsulot yo‘qotilishini kamaytirish va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan texnologik tizimlarni yaratish zarurati vujudga kelmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi qovunni qayta ishlash jarayonlarida mexanizatsiyalashgan texnologik yechimlarni ilmiy tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil va solishtirma baholash usullaridan foydalanildi. Ilmiy-texnik adabiyotlar tahlil qilinib, qovunni qayta ishlashda qo‘llaniladigan mexanizatsiyalashgan qurilmalar ish faoliyati o‘rganildi.

Qovunni qayta ishlash texnologik jarayoni quyidagi bosqichlarga ajratildi:
xom ashyoni qabul qilish va dastlabki saralash;
- yuvish va dezinfeksiya qilish;
- po‘stini ajratish va bo‘laklash;
- urug‘ qismini ajratib olish;
- quritish yoki boshqa qayta ishlash jarayoni;
- qadoqlash va saqlash.

Har bir bosqich uchun mos mexanik uskunalar tanlanib, ularning texnik ko‘rsatkichlari — unumdorlik (kg/soat), energiya sarfi (kVt·soat) va mehnat sig‘imi o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar asosida mexanizatsiyalashgan va an’anaviy usullar samaradorligi o‘zaro taqqoslandi.

Tadqiqotlar natijasida mexanizatsiyalashgan qayta ishlash tizimlari qator ustunliklarga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, saralash va yuvish jarayonlarida avtomatlashtirilgan liniyalardan foydalanish orqali bir soat davomida qayta ishlanadigan mahsulot hajmi sezilarli darajada oshdi.

Kesish va urug‘idan ajratish bosqichida maxsus mexanik qurilmalar qo‘llanilishi natijasida:
- qo‘l mehnati ulushi 60–70 % ga qisqardi;
- ishlab chiqarish tezligi 3 barobarga oshdi;
- mahsulotning shikastlanish darajasi kamaydi.

ISSN 3030-3907

Quritish jarayonida konvektiv quritish texnologiyalaridan foydalanish orqali qovunning namlik miqdori me’yoriy darajaga tushirildi va mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlari saqlab qolindi. Qadoqlash jarayonida mexanizatsiya joriy etilishi bilan tannarxning 20 % gacha kamayishi kuzatildi.

Olingan natijalar mexanizatsiyalashgan texnologiyalarni qovunni qayta ishlash jarayonlariga tatbiq etish iqtisodiy va texnik jihatdan asosli ekanligini ko‘rsatadi. Qo‘l mehnati ustun bo‘lgan an’anaviy usullarda inson omilining yuqoriligi mahsulot sifatining notekis bo‘lishiga olib keladi. Mexanik qurilmalardan foydalanish esa texnologik jarayonlarning barqarorligini ta’minlaydi.

Shuningdek, mexanizatsiyalashgan tizimlarni joriy etish jarayonida energiya samaradorligini oshirish va texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sensorlar va avtomatik boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali quritish hamda qadoqlash bosqichlarini nazorat qilish mahsulot sifatini yanada oshiradi.

Kelajakda qovunni qayta ishlash jarayonlariga raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini integratsiya qilish ishlab chiqarish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Sensor texnologiyalar yordamida namlik darajasi, harorat va ishlash tezligi avtomatik nazorat qilinishi mumkin. Bu esa inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

Shuningdek, kichik va o‘rta quvvatli korxonalar uchun moslashtirilgan universal mexanizatsiyalashgan liniyalarni ishlab chiqish qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni hududiy darajada rivojlantirish imkonini beradi. Bu orqali qovunni faqat xom ashyo sifatida sotish emas, balki tayyor mahsulot sifatida bozorga chiqarish imkoniyati kengayadi.

Natijada, mexanizatsiyalashgan qayta ishlash texnologiyalari nafaqat texnik samaradorlikni oshiradi, balki mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Qovunni qayta ishlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish texnika fanlari doirasida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- mexanizatsiya mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi;
- mahsulot sifati barqarorlashadi va sanitariya talablariga javob beradi;
- ishlab chiqarish tannarxi kamayadi;
- texnologik jarayonlarning uzluksizligi ta’minlanadi.

ISSN 3030-3907

Shunday qilib, zamonaviy mexanik qurilmalarni joriy etish qovunni qayta ishlash sohasida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi va kelgusida avtomatlashtirish asosida yanada rivojlantirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shaumarov X. B, Islamov S. Y. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent., “Innovatsiya-Ziyo” 2020.
2. S. Y.Islamov, X. B.Shaumarov. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazish bo‘yicha O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011 yil. 192 бет.
3. Xazratkulov Javsurbek Zokirjon o‘g‘li, Xodiyev Ulug‘bek Eshdavlatovich (2025). Tarkibi boyitilgan granula shaklidagi omixta yemni ishlab chiqarish va ularni baliqlarni rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. (Jild: 4 Nashr: 4), 15-17b.
4. Xodiyev Ulug‘bek Eshdavlatovich (2025). Production of nutrient-enriched granulated compound feed and its effects on fish growth. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali. (Jild: 4 Nashr: 7), 3-5b.
5. O‘G, U. A. A. M., Eshdavlatovich, X. U. B., O‘G, J. R. I. M., Weizhou, Z., & Xueji, Y. (2025). EFFECT OF TEMPERATURE CHANGES ON FIBER QUALITY DURING STORAGE OF COTTON RAW MATERIALS. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(4), 112-115.
6. Negmatulloev, Z., Kholboev, B., Rakhmatullaev, R., Kuziyev, B., Khodiyev, U., & Saidkosimov, U. (2025). Effect of High-Pressure Flow Parameters from Hydrotechnical Facilities on the Environmental Reclamation Status of Agricultural Soil and its Productivity. In E3S Web of Conferences (Vol. 673, p. 01005). EDP Sciences.
7. Сулаймонов, Р. Ш., Унгаров, А. А., & Эшкувватов, Ш. Ф. (2024). 5ЛП ЛИНТЕРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Science and innovation, 3(Special Issue 52), 501-505.
8. Tuxtamishev, S. S., & Rayimov, F. T. (2024). OLXO ‘RI MEVALARINI QURITISH VA TSUKAT TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(7), 53-57.

ISSN 3030-3907

УДК 681.5:004.8

НАСОС АГРЕГАТИДА ТЕБРАНИШ ДАТЧИГИ АСОСИДА ИШЛОВЧИ АЛГОРИТМНИНГ ДИСКРЕТ ВАҚТЛИ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ

Алимова Нодира Батиржановна
Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети
Ўзбекистон, 100095, Тошкент, Университетская кўчаси.
E-mail: nali71@gmail.com
ORCID: 0009-0001-1939-6063
Хаитова Азиза Рўзимаматовна
Ўзбекистон Халқаро Исломшунослик академияси
Абдулла Қодирий кўчаси 11, 100011, Тошкент
E-mail: xaitovaaziza45@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3821-8965

Аннотация. Ушбу ишда насос агрегатига ўрнатилган тебраниш датчиги асосида ишловчи алгоритмнинг дискрет вақтли математик модели ишлаб чиқилган. Насос агрегатининг иш жараёнида юзага келадиган тебраниш сигналлари дискрет вақтда қайд этилиб, уларни қайта ишлаш усуллари таҳлил қилинган. Математик модель кириш сигнали, фильтрация, амплитудани баҳолаш ҳамда қарор қабул қилиш босқичларини ўз ичига олади. Таклиф этилган модель насос агрегатининг техник ҳолатини баҳолаш ва носозликларни эрта аниқлаш имконини беради. Модель ҳисоблаш жиҳатдан содда бўлиб, микроконтроллерлар ва саноат автоматлаштириш тизимларида қўллаш учун мос ҳисобланади.

Калит сўзлар: Насос агрегати, тебраниш датчиги, дискрет вақтли модел, математик моделлаштириш, сигнални қайта ишлаш, техник ҳолатни назорат қилиш

Аннотация. В данной работе разработана дискретно-временная математическая модель алгоритма, функционирующего на основе вибрационного датчика, установленного на насосном агрегате. Рассмотрены методы регистрации и обработки вибрационных сигналов, возникающих в процессе работы насосного оборудования. Модель включает этапы дискретизации входного сигнала, фильтрации, оценки амплитуды и принятия решения о техническом состоянии агрегата. Предложенный подход позволяет осуществлять контроль состояния насосного агрегата и своевременно выявлять отклонения в его работе. Модель отличается простотой вычислений и может быть реализована в микроконтроллерных и промышленных системах управления.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Насосный агрегат, вибрационный датчик, дискретно-временная модель, математическое моделирование, обработка сигналов, контроль технического состояния

Annotation. This paper presents a discrete-time mathematical model of an algorithm based on a vibration sensor installed on a pump unit. Vibration signals generated during the operation of the pump are sampled in discrete time and processed using appropriate signal processing methods. The proposed model includes signal discretization, filtering, amplitude evaluation, and decision-making stages. The developed approach enables effective monitoring of the pump unit condition and early detection of abnormal operating states. Due to its computational simplicity, the model is suitable for implementation in microcontroller-based and industrial automation systems.

Keywords: Pump unit, vibration sensor, discrete-time model, mathematical modeling, signal processing, condition monitoring

КИРИШ

Насос агрегатлари саноат, қишлоқ хўжалиги, энергетика ва коммунал соҳаларда кенг қўлланилади. Ушбу агрегатларнинг узлуксиз ва ишончли ишлаши механик қисмларнинг техник ҳолатига бевосита боғлиқ. Иш жараёнида подшипниклар, валлар ва корпус элементларида турли сабабларга кўра тебранишлар юзага келади. Бу тебранишлар ўз вақтида назорат қилинмаса, агрегатнинг носоз ҳолатга келиши ёки бутунлай ишдан чиқишига олиб келиши мумкин.

Шу сабабли насос агрегатларида тебраниш датчикларидан фойдаланиб, сигналларни қайта ишлайдиган ва агрегат ҳолатини баҳолайдиган алгоритмларни ишлаб чиқиш муҳим ҳисобланади.[1,2] Бу жараённи самарали ташкил этиш учун дискрет вақтли математик моделлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Тебраниш датчигидан олинадиган сигнал хусусиятлари

Тебраниш датчиги насос агрегатининг маълум нуқтасига ўрнатилади ва механик тебранишларни электр сигналига айлантиради. Датчик чиқишида ҳосил бўлган сигнал қуйидаги таркибий қисмлардан иборат бўлади:

- насоснинг нормал иш режимига хос бўлган фойдали сигнал;
- ташқи таъсирлар ва ўлчаш хатолари сабабли пайдо бўладиган шовқин.

Амалий ҳисоблашларда ушбу сигнал узлуксиз вақтдан дискрет вақтга ўтказилади, яъни маълум вақт оралиқларида намуна олинади.

Насос агрегатида тебраниш датчиги асосида ишловчи алгоритмнинг дискрет вақтли математик моделини тадқиқ этиш методологиялари

ISSN 3030-3907

Насос агрегатларининг ишончли ва узлуксиз ишлаши саноат жараёнларида муҳим аҳамиятга эга. Агрегат иши давомида юзага келадиган тебранишлар унинг техник ҳолати ҳақида муҳим маълумот беради. Шу сабабли тебраниш датчиклари орқали олинадиган сигналлар асосида ишловчи алгоритмларни ишлаб чиқиш ва уларнинг математик моделларини тадқиқ қилиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Тадқиқотнинг биринчи босқичида насос агрегатида ўрнатилган тебраниш датчигининг ишлаш принципи ўрганилади.[3,5] Датчик томонидан олинадиган сигналлар, одатда, узлуксиз вақтда ўзгарувчи аналог сигнал бўлиб, уларда шовқин ва ташқи таъсирлар мавжуд бўлиши мумкин. Шунинг учун сигналларни рақамли қайта ишлаш учун уларни дискрет вақтли кўринишга келтириш талаб этилади.


Кейинги босқичда аналог сигнални дискретлаш жараёни тадқиқ қилинади. Бу ерда намуналаш частотасини тўғри танлаш муҳим аҳамиятга эга, чунки жуда паст частота сигналнинг муҳим қисмларини йўқотиши мумкин, жуда юқори частота эса ҳисоблаш юкламасини оширади. Амалда Найквист теоремасига таянилган ҳолда оптимал намуналаш частотаси танланади.

Дискрет вақтли математик моделни қуришда тебраниш сигнали вақт қаторлари сифатида қаралади. Бу қаторлар орқали насос агрегатининг нормал ҳолати ва носозликка яқин ҳолатлари ўртасидаги фарқ аниқланади. Моделлаш жараёнида фарқлар тенгламалари, рекурсив муносабатлар ёки дискрет динамик тизимлардан фойдаланилади.

Тадқиқот методологиясининг муҳим қисми — экспериментал маълумотлар асосида модел параметрларини аниқлашдир. Бу мақсадда реал насос агрегатидан олинган тебраниш маълумотлари таҳлил қилинади, статистик усуллар ёрдамида ўртача қийматлар, дисперсия ва спектрал хусусиятлар ҳисобланади. Олинган натижалар назарий модел билан солиштирилиб, унинг адекватлиги баҳоланади.[4,6]

Шунингдек, алгоритмнинг самарадорлигини баҳолаш учун турли иш режимларида (нормал иш, қисман носозлик, авария ҳолати) тадқиқотлар олиб борилади. Бу усул насос агрегатида юзага келиши мумкин бўлган носозликларни олдиндан аниқлаш имконини беради. Қуйида насос агрегатига ўрнатилган, тебраниш датчик алгоритми келтирилган:

ISSN 3030-3907



ISSN 3030-3907

Бу ерда *a* симсиз алоқадан олинган бир бит ахборот (0 ёки 1),
i_1,i_2 – тебранишни ўлчашлар сони,
x_1, x_2 – ўлчашда меъёридан ошган холатлар сони,
k сенсордан олинган тебранишлар қиймати (аналог-рақамли ўзгартиргичдан олинган қиймат),
t ўлчашлар орасиздаги кутиш вақти.

Насос агрегатига ўрнатилган, тебраниш датчик алгоритмининг математик моделининг (дискрет вактли) таҳлил ва натижалари

1. Кириш – чиқишлар сигналлари ва ўзгарувчилар

Дискрет вақт:

$$t_n = n\Delta t,\ n = 0,1,2....$$

Кириш сигнали:
$v_n \in \{0,1\}$: $v_n = 1$ – тебраниш бор, $v_n = 0$ – йўқ.
Чиқиш:
$P_n \in \{0,1\}$: $P_n = 1$ – насос ишлайди, $P_n = 0$ – насос ўчирилган.

Ички санагичлар (кириш сигналидаги импульслар ёки ҳодисалар сонини автоматик равишда ҳисоблаш ва қайта ишлаш вазифасини бажаради).
k_n – “кутиш/тасдиқлаш вақти”
x_n – “тебраниш барқарорлиги”
Чегаралари

$$K_1 = 400,\ K_2 = 2000,\ X_2 = 2000$$

Агар сизда i ҳам (масалан $i < 2000$) бўлса, у одатда умумий циклни чеклаш / қайта ишга тушириш учун ишлатилади; асосий “тебраниш-ўчириш” модели k ва x билан тўлиқ ёпилади.

1-Жадвал.

Алгоритмда қўлланиладиган ўзгарувчилар ва параметрлар

№	Белгилаш	Бирлик	Тавсифи ва физик маъноси
1	Δt	с	Контроллернинг бир цикл вақти (scan time)
2	n	-	Дискрет вақт қадами рақами
3	t_n	с	Реал вақт, $t_n = n\Delta t$ _
4	A_n	mm/с ёки g	Тебраниш датчики ўлчаган амплитуда
5	A_{max}	mm/с ёки g	Рухсат этилган максимал тебраниш пороги
6	v_n	-	Бинар тебраниш сигнали (1 — бор, 0 — йўқ)
7	P_n	-	Насос ҳолати (1 — ишлайди, 0 — ўчган)

ISSN 3030-3907

8	k_n	қадам	Тебранишнинг узлуксиз давомийлигини ҳисобловчи санагич
9	x_n	қадам	Тебранишнинг барқарорлигини баҳоловчи санагич
10	K_1	қадам	Қисқа фильтр вақтига мос чегара
11	K_2	қадам	Узоқ давомийлик (авария) чегараси
12	X_2	қадам	Барқарор тебраниш учун тасдиқ чегараси

2.Вақт бўйича тасдиқлаш санагичи k_n

Тебраниш узлуксиз давом этса, k қадамма-қадам ўсади; тебраниш тўхтаса, k нолга тушади;

$$k_{n+1} = \begin{cases} min(k_n + 1, K_2), & v_n = 1 \\ 0, & v_n = 0 \end{cases}$$

Бу ерда:

$k_n \geqslant K_1$ бўлса – тебраниш “қисқа фильтр” дан ўтади,

$k_n \geqslant K_2$ бўлса – тебраниш етарлича узоқ давом этади.

2-Жадвал.

Тебраниш сигналини шакллантириш қоидаси

№	Шарт	Янгиланиш қонуни	Физик мазмуни
Тебраниш сигналини шакллантириш қоидаси			
1	$A_n \geqslant A_{max}$	$v_n = 1$	Тебраниш авариявий деб қабул қилинади
2	$A_n \geqslant A_{max}$	$v_n = 0$	Тебраниш рухсат этилган даражада
Тебраниш давомийлиги санагичи k_n динамикаси			
1	$v_n = 1$	$k_{n+1}=k_n + 1$	Тебраниш узлуксиз давом этмоқда
2	$v_n = 0$	$k_n + 1 = 0$	Тебраниш тўхтади, ҳисоб қайта бошланади

3.Барқарорлик / такрорланиш санагичи x_n

Тебраниш K_1 босқичидан ўтгачгина x ўссин:

$$x_{n+1} = \begin{cases} min(x_n + 1, X_2), & (v_n = 0 \wedge (k_n \geq K_1)) \\ 0, & v_n = 0 \end{cases}$$

3–Жадвал.

Тебраниш барқарорлигини баҳолаш санагичи x_n

№	Шарт	Янгиланиш қонуни	Физик мазмуни

ISSN 3030-3907

1	$v_n = 1$ ва $k_n \geqslant K_1$	$x_{n+1}=x_n + 1$	Тебраниш барқарор деб баҳоланади
2	$v_n = 0$	$x_n + 1 = 0$	Барқарорлик бузилди

4.Насосни ўчириш

Насосни ўчириш шартларини икки хил мезон билан белгиласа бўлади;

$$P_{n+1} = \begin{cases} 0, & (k_n \geq K_2) \vee (x_n \geq X_2) \\ P_n, & \text{акс ҳолда} \end{cases}$$

Бошланғич шартлари:

$$K_0 = 1, k_0 = 0, x_0 = 0$$

Агар контроллернинг бир қадами Δt секунд бўлса, у ҳолда

$$T_{K_1} = K_1 \Delta t, \quad T_{K_2} = K_2 \Delta t, \quad T_{X_2} = X_2 \Delta t$$

Масалан $\Delta t = 1\ ms = 0{,}001\ s$ бўлса:

$$T_{K_1} = 0{,}4\ s$$

$$T_{K_2} = 2{,}0\ s$$

4-Жадвал.

Насос агрегатини ўчириш бўйича қарор қабул қилиш

№	Шарт	Чиқиш таъсири	Тушунтириш
Насос агрегатини ўчириш бўйича қарор қабул қилиш			
1	$k_n \geq K_2$	$P_{n+1} = 0$	Тебраниш узоқ вақт давом этди
2	$x_n \geq X_2$	$P_{n+1} = 0$	Тебраниш барқарор авария ҳолати
3	Бошқа ҳолат	$P_{n+1} = P_n$	Насос иши давом этади
Бошланғич шартлар			
	Ўзгарувчи	**Қиймат**	**Изоҳ**
1	P_0	1	Насос иш ҳолатида ишга тушади
2	k_0	0	Давомийлик санагичи бошланғич қиймати
3	x_0	0	Барқарорлик санагичи бошланғич қиймати
Дискрет параметрларни реал вақтга боғлаш			
	Параметр	**Қадамларда**	**Реал вақт ифодаси**
1	Қисқа фильтр	K_1	$T_1 = K_1 \Delta t$
2	Узоқ давомийлик	K_2	$T_2 = K_2 \Delta t$

Математик моделнинг амалий аҳамияти

ISSN 3030-3907

Таклиф этилган дискрет вақтли математик модель насос агрегатининг ҳолатини реал вақт режимида назорат қилиш имконини беради. Модель ҳисоблаш жиҳатдан содда бўлгани сабабли уни микроконтроллерлар, PLC (Programmable Logic Controller) ёки саноат автоматлаштириш тизимларида қўллаш мумкин. Бу эса хизмат кўрсатиш харажатларини камайтириш ва авария ҳолатларининг олдини олишга хизмат қилади.

Тебраниш датчиги насос агрегатининг иши давомида ҳосил бўладиган механик тебранишларни электр сигналига айлантиради. Бу сигнал, одатда, аналог кўринишда бўлади. PLC эса рақамли қурилма бўлгани учун аналог сигнал аввал аналог-рақамли ўзгартиргич (ADC) орқали дискрет вақтли сигналга айлантирилади.[7,10] Шу нуқтада тизимнинг дискрет вақтли математик модели шаклланади. Дискретлаш жараёнида вақт оралиғи (Δt) PLC нинг цикл вақти ва процесснинг динамик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда танланади. Агар Δt жуда катта бўлса, тебраниш сигналидаги муҳим ўзгаришлар йўқолиши мумкин. Аксинча, жуда кичик қадам эса PLC процессорининг ортиқча юкланишига олиб келади. Шу сабабли намуна олиш частотаси амалиётда насос агрегатининг иш частотаси ва тебраниш спектрига мос ҳолда белгиланади.

Насос агрегатида тебраниш датчиги асосида PLC орқали ишловчи алгоритмнинг дискрет вақтли математик модели сигналларни дискретлаш, оддий дискрет тенгламалардан фойдаланиш ва тажрибавий маълумотлар асосида қарор қабул қилишга таянади.[8,9] Бундай ёндашув насос агрегатларининг ишончлилигини оширишга ва носозликларни эрта аниқлашга хизмат қилади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Хулоса қилиб айтганда, насос агрегатида тебраниш датчиги асосида ишловчи алгоритмнинг дискрет вақтли математик моделини тадқиқ қилишда сигналларни дискретлаш, математик моделлаш, экспериментал маълумотларни таҳлил қилиш ва натижаларни таққослаш асосий методологик йўналишлар ҳисобланади. Бу ёндашув насос агрегатларининг ишончлилигини ошириш ва техник хизмат кўрсатишни оптималлаштиришга хизмат қилади. Насос агрегатида тебраниш датчиги асосида ишловчи алгоритмнинг дискрет вақтли математик модели кириш сигнали, фильтрация, амплитудани баҳолаш, йиғиш ва қарор қабул қилиш босқичларидан иборат. Мазкур ёндашув насос агрегатининг техник ҳолатини баҳолаш ва унинг ишончли ишлашини таъминлаш учун самарали ҳисобланади.

ISSN 3030-3907

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Магомедов В.С. Исследование потенциала промышленного Интернета вещей. Международный научно-исследовательский журнал, №6 (96). С.78-80.
2. Starr, B.K.N. Rao, “Condition Monitoring and Diagnostic Engineering Management”, 2001, P. 65-88.
3. Bekchanov F.A. Nasos agregatini doimiy vibrodiagnostika qilish. Jurnal «Irrigatsiya va melioratsiya», 2020. №1(19). B. 37-41.
4. Glovatskiy O.Y., Ergashev R.R., Bekchanov F.A. Nasos agregatlarini diagnostika qilish natijalari. Jurnal «Irrigatsiya va melioratsiya», 2018. №1(11). B. 36-39.
5. Michael Volk. Pump Characteristics and Applications. 3rd Edition. CRC Press. 2014. P. 516 .
6. Mike Sadar. Turbidity Measurement: A Simple, Effective Indicator of Water Quality Change. Application Notes / Useful & Timely Information from HachHydromet.
7. Miralidharan V., Sugumaran V., Indira V. Fault diagnosis of monoblock centrifugal pump using SVM // Engineering Science and Technology, International Journal. 2014. №17. P. 152-157.
8. Mohamed Osman Awaleh, Youssouf Djibril Soubaneh. Waste Water Treatment in Chemical Industries: The Concept and Current Technologies. Awaleh and Soubaneh, Hydrol Current Res 2014, 5:1 DOI: 10.4172/2157-7587.1000164
9. Muralidharan, V., Sugumaran, V., Indira, “Fault diagnosis of monoblock centrifugal pump using SVM”, Engineering Science and Technology, an International Journal 17 (2014), P. 153-156.
10. Rao, Singiresu S. “Vibraciones mecánicas”, Quinta edición Pearson educación, México, 2012, P. 566-622.
11. Salom Abdul, “Internet of Things in Water Management and Treatment”, In book: Internet of Things for Sustainable Community Development, January 2020, P. 275-290.
12. А.М. Ниғматов, С.Т. Юнусова, Б.Д. Боймуродов. Интеллектуальная система обеспечивающая эффективную защиту насосного агрегата, O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, №28. B. 33-37.
13. А.М. Панфилов. Вибродиагностический контроль насосных агрегатов. Стратегия развития материалов и технологий. 2021. С. 163-166.

ISSN 3030-3907

14. А.Н. Карабаев. Повышение эффективности насосных станций. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 2. 2022. p. 1359-1362.
15. А.С. Галеев, Р.Н. Сулейманов, И.Г. Арсланов. Автономная система контроля и мониторинга работы насосных агрегатов канализационной насосной станции. Научный журнал “Технические науки - от теории к практике”. 2013.
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрельдаги ПФ-6200-сон “Сув ресурсларидан фойдаланиш соҳасида давлат бошқаруви ва назорат тизимини янада такомиллаштириш ҳамда сув хўжалиги объектлари хавфсизлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

ISSN 3030-3907

MULTIMEDIALI TARMOQ ELEMENTLARINING NEYRO-NORAVSHAN MODELLARINI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Fayzullayeva Barno Baxodirovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Mobil aloqa tehnologiyalari" kafedrasi assistenti
Tel: +998998907695

Annotatsiya. Ushbu maqolada multimediali tarmoqlar (MT) faoliyatining dinamik va noaniq sharoitlarda ishlash jarayonini matematik modellashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. MT sifat ko'rsatkichlarining tasodifiyligi va noravshanligi hisobga olingan holda neyron tarmoqlar hamda noravshan mantiqqa asoslangan gibrid model taklif etiladi. Ma'lumot uzatish marshrutlarini tanlash jarayoni noravshan matritsalar asosida ifodalanadi hamda max–min kompozitsiya yordamida optimal kanal aniqlanadi. Taklif etilgan algoritm statistik ma'lumotlarga bog'liq bo'lmagan holda maqbul qaror qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: multimediali tarmoq, neyron tarmoq, noravshan mantiq, max–min kompozitsiya, marshrut tanlash, tegishlilik funksiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается задача математического моделирования процесса функционирования мультимедийных сетей (МТ) в динамических и неопределённых условиях. С учётом случайности и нечёткости качественных показателей МТ предлагается гибридная модель, основанная на нейронных сетях и нечёткой логике. Процесс выбора маршрутов передачи данных описывается с использованием нечётких матриц, а оптимальный канал определяется с помощью max–min композиции. Предложенный алгоритм позволяет принимать рациональные решения без жёсткой зависимости от статистических данных.

Ключевые слова: мультимедийная сеть, нейронная сеть, нечёткая логика, max–min композиция, выбор маршрута, функция принадлежности.

Abstract. This paper addresses the problem of mathematical modeling of multimedia network (MN) operation under dynamic and uncertain conditions. Considering the randomness and fuzziness of quality parameters in multimedia networks, a hybrid model based on artificial neural networks and fuzzy logic is proposed. The process of data transmission route selection is represented using fuzzy matrices, and the optimal channel is determined through max–min composition. The proposed algorithm enables rational decision-making without strict dependence on statistical data.

Keywords: multimedia network, neural network, fuzzy logic, max–min composition, route selection, membership function.

ISSN 3030-3907

KIRISH

Hozirgi vaqtda multimediali tarmoqlar keng polosali xizmatlar, real vaqt rejimidagi ma’lumot almashinuvi va yuqori sifat talablariga ega bo‘lgan axborot oqimlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq tarmoq yuklamasining o‘zgaruvchanligi, tashqi omillar ta’siri va parametrlarning noaniqligi MT samaradorligini aniq baholashni murakkablashtiradi. MT ko‘rsatkichlari dinamik xarakterga ega bo‘lib, ular ichki va tashqi omillar ta’sirida o‘zgaradi. Shu sababli an’anaviy analitik modellar ko‘pincha yetarli aniqlikni ta’minlay olmaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun intellektual yondashuv —ya’ni neyron tarmoqlar va noravshan mantiq asosidagi gibrid model taklif etiladi.

MTining faoliyati mobaynida uning ko‘rsatkichlari dinamik xususiyatga ega bo‘lib ularga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar ta’sir etadi. Bunday o‘zgaruvchilar noravshanlik va tasodifiylikka ega bo‘ladilar. Shu nuqtayi nazardan bu jarayonlarni matematik ifodalash uchun hamda tarmoq faoliyatining samaradorligini oshirish uchun intellektual texnologiyalar usullarini: neyron tarmoq hamda noravshan mantiq usullaridan foydalanish zaruriyati tug‘iladi .

Shuning uchun MTning ishlash dinamikasi va tarmoqning samaradorligini shakllantirish uchun ularni qandaydir matematik apparat ko‘rinishida tavsiflash zarurati vujudga keladi. Shunga ko‘ra, MT boshqarish tizimi va umuman tizimni noravshan-to‘plamli matritsali berilishining imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz [73; 156-b.]. Bundan tabiiyki, MT funksional elementlarining aloqa funksiyalari hisobga olinadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda multimediali tarmoq (MT) faoliyatini baholash va so‘rovlar tushish intensivligini prognozlash uchun neyron–noaniq modellashtirish metodologiyasi qo‘llanildi. Mavzuni ilmiy o‘rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Multimediali tarmoqlar samaradorligini baholash bo‘yicha tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlar mavjud:

1.Analitik modellar — klassik navbatlar nazariyasi va ehtimollik modellariga asoslangan.

2.Neyron tarmoq modellar — dinamik va nochiziqli jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi.

3.Noravshan mantiq modellar — noaniq va ekspert baholarini matematik ifodalash imkonini yaratadi.

ISSN 3030-3907

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullar noaniqlik sharoitida yetarli moslashuvchanlikka ega emas, shu sababli gibrid model afzal hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Multimediali tarmoqlarda ma’lumotlar almashish jarayonini boshqarish modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$X(k+1) = f(x(k)\varkappa(k), \quad (1)$$

bu erda $\varkappa(k)$- kirish ma’lumotlarining vektori, $X(k+1)$- chiqish signalarining vektori, k=1,2,3,.,.,., diskret vaqt .


Ko‘p hollarda tarmoqning sun’iy neyron tarmoq modelini bitta yashirin qatlami ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$X(k+1) = (\omega^3)^T f\left[(\omega^2)^T f[(\omega^1)^T \cdot z(k)]\right], \quad (2)$$

bu erda $z(k)$= $[x(k),..x(k-m+1),u(k)..u(k-m+1]$, ω -vaqt koeffitsiyenti.

Dissertatsiya ishida aynan shu turdagi neyron tarmoq modelidan foydalanish taklif etilgan.

Umumlashgan holda MT jarayonning neyro-noravshan modeli ko‘rinishda tasvirlash mumkin (1- rasm).



1-rasm. MT faoliyatini umumlashtirilgan neyro-noravshan modelining strukturaviy sxemasi.

Bu yerda modelning kirishi sifatida MT sifat ko‘rsatkichlari olingan. Chiqish ko‘rsatkichlari sifatida esa ushbu ko‘rsatgichlarni belgilangan reglamentga mosligi tekshiriladi.

Neyron tarmoq usullaridan foydalanilganda muhim vazifalardan biri uning arxitekturasini to‘g‘ri tanlashdan iboratdir. Ya’ni kirish va chiqish yashirin neyronlar soni hamda qatlamlarining sonini to‘g‘ri aniqlash lozim.

ISSN 3030-3907

Odatda neyron tarmoq modelining arxitekturasi yechiladigan masalaga hamda unda qo‘llaniladigan mezonlarga bog‘liq. Ko‘p hollarda 3 qatlamli neyron tarmoq modeli keng qo‘llaniladi Bunda kirish qatlamidagi neyronlar soni MT sifat ko‘rsatgichlarini soniga tengdir.

Yashirin qatlamdagi neyronlar sonini aniqlash uchun quyidagi munosabatlardan foydalanamiz:

$$\frac{m \cdot N}{1+\log_a N} \leq m \cdot \left(\frac{N}{m}+1\right)(n+m+1)+m. \qquad (3)$$

bu erda n-kirish neyronlari, m-chiqish neyronlari, N-o‘qitish ma’lumotlar soni.

MTda uning faoliyatini bevosita baholash imkonini beruvchi aloqa kanallari va ma’lumotlar uzatish yo‘llarini tanlash hisoblanadi. Chunki MTlarda ma’lumotlar turli kanallardan uzatilishi mumkin. Shu munosabat bilan ma’lumotlar uzatilishining marshrutini tanlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunda foydalanuvchilar adreslarni marshrut ko‘rsatkichlarini $\pi_k \epsilon \Pi$ va mumkin bo‘lgan vaziyatlarni $c_k \epsilon C$ hisobga olgan holda model tuzishlari kerak bo‘ladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ma’lumotlarni uzatish marshrutlarini noravshan matritsa ko‘rinishida ifodalab olamiz.

$$M = \begin{matrix} l_1 \\ l_2 \\ l_3 \\ \vdots \\ l_i \end{matrix} \begin{vmatrix} l_1 & l_2 & l_3 & \dots l_i \\ 1 & \alpha_{12}\alpha_{13} & \dots & \alpha_{1i} \\ \alpha_{21} & 1 & \alpha_{23} & \dots \alpha_{2i} \\ \alpha_{31} & \alpha_{32} & 1 & \dots \alpha_{3i} \\ & & \vdots & \\ \alpha_{i1} & \alpha_{2i} & \alpha_{3i} & \dots 1 \end{vmatrix} \qquad (4)$$

Bu erda M-marshrutlar munosabatining matritsasi, l -ko‘rsatkich indeksi, α_{ij} tekislovchi funksiyasining sonli qiymati.

$$M(l_i l_j) < l_i l_j \ ga\ nisbatan\ yaxshi >, l_i l_j \epsilon L; x_2, \epsilon [0,1]$$

Hudda shunga o‘xshash xar bir aloqa kanallarining matritsalari tuzib olinadi va uni ma’lumotlar bazasi sharoitida shakllantiriladi. Bunda ma’lumotlar almashinuvi jarayonida hosil bo‘ladigan vaziyatlar ham hisobga olinadi.

$$M_k^{\pi} = \begin{matrix} \pi_1 \\ \pi_2 \\ \pi_3 \\ \vdots \\ \pi_q \end{matrix} \begin{vmatrix} \pi_1 & \pi_2 & \pi_3 & \dots \pi_j \\ 1 & b_{12}b_{13} & \dots & b_{1j} \\ b_{21} & 1 & b_{23} & \dots b_{2j} \\ b_{31} & b_{32} & 1 & \dots b_{3j} \\ & & \vdots & \\ b_{q1} & b_{q2} & b_{q3} & \dots 1 \end{vmatrix} \qquad (5)$$

bu erda π- vaziyatlarga tegishli marshrut ko‘rsatkichlari, b_{ij} tegishlilik funksiyasini qiymatlari ya’ni:

$$M_b(\pi_i \pi_j) < \pi_i \pi_j \ ga\ nisbatan\ yaxshi >, i, j = 1\overline{n}, b_{i\ j} \epsilon [0,1]$$

ISSN 3030-3907

Ma’lumotlarni prioritetli foydalanuvchiga uzatish uchun eng maqbul qarorni qabul qilish uchun yuqorida keltirilgan(2.10 hamda 2.11) matritsani birlashtiramiz va quyidagi yangi matritsani hosil qilamiz:

$$M_k^l = \begin{matrix}\pi_1\\ \pi_2\\ \pi_3\\ \vdots\\ \pi_q\end{matrix}\begin{vmatrix} l_1 & l_2 & l_3 & \dots l_j \\ \alpha_{12} & \alpha_{12}\alpha_{13} & \dots & \alpha_{1j} \\ \alpha_{21} & \alpha_{22} & \alpha_{23} & \dots \alpha_{2j} \\ \alpha_{31} & \alpha_{32} & \alpha_{33} & \dots \alpha_{3j} \\ & & \vdots & \\ \alpha_{q1} & \alpha_{qi}\alpha_{qi} & \dots & \alpha_{nj} \end{vmatrix} \quad (6)$$

Ushbu matritsani har bir qatori noravshan to‘plam bo‘lib, u quyidagi ma’noni anglatadi:

$L_{kn} =<$ Π ko‘rsatkich sharti bo‘yicha mumkin bo‘lgan marshrutlar sohasi, uning tegishlilik funksiyasi quyidagicha topiladi:

$$M(l_i)\epsilon[0,1], \alpha_{nj}\epsilon[0,1],$$

Tuzilgan matritsaga ko‘ra uning algoritmini shakllantiramiz va u quyidagicha:

1. Har bir aloqa kanallarini o‘tkazish qobiliyatlari asosida qat’iy imtiyoz va afzallikka ega matritsa tuzib olinadi:

$$R^s = R^p - (R^p)^{-1} \quad (7)$$

bu erda R^p noravshan afzallik munosabati, R^p=N_i^j; R^simtiyozga ega qat’iy bo‘lmagan munosabatlar.

Matritsa elementlarini tuzishda har bir elementga tegishlilik funksiyasidan foydalaniladi:

$M_R(x,y) = \max(0, M_R(x,y) - M_R(x,y)$ bu erda x, y o‘zgaruvchilarning qiymatlari.

2. 7 munosabatining to‘ldiruvchisini aniqlanadi: $\bar{R} = 1 - R^s$ va uning tegishlilik funksiyasi topiladi:

$$M_R(x,y) = 1 - M_R^s(x,y). \quad (8)$$

3. Alternativ muhimlikka ega bo‘lmagan qat’iy emas qismning to‘plami aniqlab olinadi va u matritsa qatori sifatida ko‘rsatiladi:

$M_R(y) = min[1 - M_R(x,y)], y\epsilon L$ yoki$M_R(y) = 1 - maxM_R(x,y)$

Buning natijasida (3) munosabat hosil bo‘ladi. Keyingi bosqichda yuqorida keltirilgan algoritm asosida qat’iymas munosabatlar matritsasi shakllantiriladi.

4.(4) va (5) matritsani *max-min* kompozitsiyasi aniqlanadi:

$$R_k = M_k^i M^{ji} \quad (9)$$

va uning tegishlilik funksiyasi $M_k(l_i l_j) = \max \quad \min[M_m(l_i \pi_j) M_{m\pi}(\pi_i \pi_j)]$

ISSN 3030-3907

5. Matritsadagi asosiy bo‘lamagan alternativ variantning qat’iymas qism to‘plami aniqlanadi. Buning natijasida ma’lumotlar almashinuvi kanalining mumkin bo‘lgan variantlari $M_k(\frac{l_i}{\pi_1\pi_2,..\pi_n})$ aniqlab olinadi.

6. (8) munosabat asosida multimediali tarmoqda ma’lumot uzatish kanali aniqlab olinadi.

XULOSA

Multimediali tarmoq elementlarini neyro-noravshan yondashuv asosida modellashtirish samarali natijalar beradi. Taklif etilgan model:

-multimediali tarmoq sifat ko‘rsatkichlarining noaniqligini hisobga oladi;

-ma’lumot uzatish marshrutini optimal tanlash imkonini beradi;

-statistik ma’lumotlar yetishmagan sharoitda ham ishlay oladi;

Shunday qilib, neyron tarmoq va noravshan mantiqni birlashtirgan gibrid model multimediali tarmoqlar samaradorligini oshirishda istiqbolli yechim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mukhammadiev J., Fayzullayeva B.B. Analysis of chromatic dispersion on the performance of a standard single mode fiber-optics communication systems. International conference on information science and communications technologies: applications, trends and opportunities icisct 2021

2. Fayzullayeva B.B., Abdullayeva H., Gafurov A. The main difficulties associated with the deployment of 5g networks. Recent advances in intelligent information and communication technologies” “ISPC-2022” 23nd, 24rd of November 2022, Tashkent,. -P.372-375

3. Siddikov I.K., Fayzullayeva B.B., Model of a multi-service network in the class of queuing system. Journal of northeastern university Volume 26 Issue 01, 2023 ISSN: 1005-3026 https://dbdxxb.cn/ -P.654-660

4. Siddikov I.K. Simulation of continuous-discrete systems with multiple synchronous interruptions. MUHAMMAD AL-XORAZMIY AVLODLARI ILMIY JURNALI №1(23), 2023. -P.7-10

5. Файзуллаева Б.Б. Алгоритм формализации динамики мультисервисных сетей на основе нейро-нечеткой технологии. Inovations in technology and science education)” SJIF 2023:5.305 VOLUME ISSUE 10 ilmiy jurnalining -2023 Tashkent.-C.517-527

6. Файзуллаева Б.Б. Мультисервис тармоқларида замонавий бошқариш усуллари. Ilm-fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Uzbekistan 2022-,Б. 60-63

7. Файзуллаева Б.Б. Мультисервис тармоқлар самарадорлигини баҳолашнинг имитацион моделлаштириш тизими. Akademik T.D. Radjabovning xotirasiga

ISSN 3030-3907

bag‘ishlangan “Zamonaviy ilm-fanning dolzarb muammolari, yutuqlari va innovatsiyalari” mavzusida respublika ilmiy-texnik anjumani Toshkent 2023-Б.13-17

8. Fayzullayeva B.B. MT faoliyati samaradorligining asosiy tavsiflari. International conference “Modern satellite multimedia and communication systems” xalqaro konferensiya. 23-24 okyabr. Toshkent 2023 B.85-89

9. Siddikov I.K. Fayzullayeva B.B. Management system models of multiservice networks building on a systematic approach. International Journal of Education, Social Science & Humanities xalqaro jurnal Volume-12| Issue-3| 2024 Published: |22-03-2024| -P.729-735.

10. Fayzullayeva B.B. Multimediali tarmoq qurilmalarining mantiqiy-vaziyatli modellari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. Materiallari to‘plami 20-may, 20.05.2024 30-son O‘zbekiston 2024. -B. 95-99.

11. Fayzullayeva B.B., Nazarov.M. Multimediali aloqa tarmoqlarini boshqarish tizimini obyektlari. O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi, “axborot xavfsizligi sohasida raqamlashtirish muammolari va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami, Toshkent, 2024-yil 17-may-B. 68-72

12. Siddikov I., Fayzullayeva B.B., Nazarov M. Adaptive identification of a neural system for control of nonlinear dynamic objects. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 29, June – 2024 -P.93-107

13. Branislav, I. A Survey of Gradient Methods for Solving Nonlinear Optimization Problems. AIMS Mathematics, 2020, Vol. 5(6), pp. 6137–6162.(aimsciences.org)

14. Sakovich, N.; Aksenov, D.; Pleshakova, E.; Gataullin, S. MAMGD: Gradient-Based Optimization Method Using Exponential Decay. Technologies, 2024, Vol. 12(9), Article No. 154, pp. 1–15.(MDPI)

ISSN 3030-3907

ЭТАПЫ СОЗДАНИЯ АЛГОРИТМА РАСПОЗНАВАНИЯ ЛИЦ ДЛЯ ПОИСКА ЧЕЛОВЕКА

Улугбек Уразкулович Турапов
Доцент кафедры, к.т.н. «Информационные системы и технологии», Ташкентский государственный аграрный университет
Республика Узбекистан
Акылбаев Мусабек Исламович
Проректор по науке, кандидат наук, профессор Университета дружбы народов, академика А. Каутбекова
Республика Казахстан
Джантаева Шолпан Калмахановна
Старший преподаватель Университета дружбы народов, академика А. Каутбекова

Аннотация. В данной статье представлена информация об актуальности проблемы идентификации разыскиваемого лица по базе данных, что является одним из направлений интеллектуального анализа данных в биометрических системах. Проанализированы существующие критерии распознавания человеческого лица. В статье авторы выражают мнение о том, что метод коэффициента корреляции является критерием с высокой вероятностью распознавания.

Ключевые слова: критерий, идентификация, интеллектуальный анализ, коэффициент корреляции, биометрическая система, робот, анализатор, автоматизированная система.

Abstract. This article presents information on the relevance of the problem of identifying a wanted person from a database, which is one of the areas of data mining in biometric systems. Existing criteria for human face recognition are analyzed. In the article, the authors express the opinion that the correlation coefficient method is a criterion with a high recognition probability.

Keywords: criterion, identification, data mining, correlation coefficient, biometric system, robot, analyzer, automated system.

Annotatsiya. Ushbu maqolada biometrik tizimlarda ma'lumotlarni qazib olish yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ma'lumotlar bazasida qidirilayotgan shaxsni aniqlash muammosining dolzarbligi to‘g‘risida ma'lumot berilgan. Inson yuzini tanib olishning mavjud mezonlari tahlil qilindi. Maqolada mualliflar korrelyatsiya koeffitsienti usuli tanib olish ehtimoli yuqori bo‘lgan mezon degan fikrni bildiradilar.

Kalit so‘zlar: mezon, identifikatsiya, qazib olish, korrelyatsiya koeffitsienti, biometrik tizim, robot, analizator, avtomatlashtirilgan tizim.

ISSN 3030-3907

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время вопрос идентификации изображения лица человека в биометрических системах, являющихся одним из элементов интеллектуального анализа данных, остается одной из актуальных проблем. Примерами биометрических характеристик человека являются лицо, мочка уха, отпечатки пальцев, зрачок, геометрия кисти, походка, голос.

В развитых в этой области странах, включая США, Российскую Федерацию, Китай, Японию, Южную Корею и другие, большое внимание уделяется созданию математической, программной и технической поддержки роботизированной системы анализа глаз, работающей в автоматическом режиме с использованием информационно-коммуникационных технологий для создания объекта, описывающего человека, сбора и обработки данных, разделения системы идентификации изображения лица на определенные этапы, преобразования изображений в пиксели и создания матрицы с числовыми значениями, а также базы данных на их основе.

В результате исследований в этой области в последние годы вопросы совершенствования методов и алгоритмов обработки изображений, оцифровки, распознавания изображений и их практического применения рассматривались Р. Гонсалесом, Л.А. Растригиным, Ю.И. Журавлёвым, Е.Патриком, У.Преттом, В.А. Софером, Ш.Ульманом, Я.А. Фурманом, В.А. Фурсовым, Е.В. Поповой, В.Н. Вапником, Г.С. Это рассматривалось в научных работах таких ученых, как А. Поспелов, В. Бургер, М.И. Салех, Б. Хорн, П. Харт, М.И. Шлезингер, В.М. Глушков и др.

Идентификация: сравнение образцов по схеме «1:N». Для идентификации человека система сравнивает биометрический образец со всеми шаблонами лиц, хранящимися в базе данных, и отвечает на вопрос «кто это?».На рисунке 1 показана общая схема распознавания лиц по изображению.

ISSN 3030-3907



Рисунок 1. Общая схема распознавания лиц.

Видео изображение

Полученное с камер изображение в виде цифровых данных передается на компьютер, который обрабатывает его с помощью специального алгоритма, определяющего местоположение области лица на основе его основных черт (глаза, рот, брови, нос и т. д.). Существует множество подобных методов, но все они могут быть разделены на две категории: методы, основанные на знаниях, полученных на основе человеческого опыта, и методы распознавания лиц, основанные на внешних признаках (методы, в которых система должна быть обучена путем обработки тестовых изображений). Классификация этих методов распознавания представлена на рисунке 2.

ISSN 3030-3907



Рисунок 2. Классификация методов распознавания лиц.

Представленные на рисунке 2 методы являются методами, основанными на знаниях, использующими информацию о чертах лица, его форме, структуре или цвете кожи. В этих методах выделяется определенный набор правил (черты лица), которые должны соответствовать выбранному шаблону, чтобы считаться человеческим лицом. Определить такой набор правил очень легко. Все правила учитывают состояние определенных черт лица человека или состояние этих черт в процессе сравнения, и принимаются во внимание все формализованные знания, которыми обладает человек. Например, основные правила:

- области глаз, носа и рта различаются по яркости относительно остальной части лица;
- глаза на лице всегда расположены симметрично друг относительно друга.

На основе этих и других подобных особенностей разрабатываются алгоритмы, проверяющие наличие правил в изображении во время

ISSN 3030-3907

выполнения. К той же группе методов относится и более общий метод — метод сравнения шаблонов. В этом методе, описывая характеристики отдельных областей лица, определяется их относительное положение, на основе которого затем сравнивается исходное изображение. Методы, основанные на знаниях, широко используются, и система работает хорошо, но хорошо они работают только в условиях хорошего разрешения, на изображениях без шума и с простым фоном.

В кадрах видеопотока данные получаются с камер, установленных в виде «различных углов и вращений лиц», при этом учитываются и внешние факторы, такие как освещение и фоновые помехи. Методы распознавания лиц по внешним признакам подходят к проблеме с другой стороны: они не пытаются точно формализовать процессы, происходящие в человеческом мозге, а стремятся косвенно выявить отличительные паттерны и особенности изображения лица с помощью математических статистических методов.

Отечественными учеными разработаны эффективные катализаторы нового поколения, усовершенствованы технологии переработки нефти и газа, получения на их основе продуктов органического синтеза, разработаны новые полимеры, лекарственные средства. Они позволяют в два раза снизить их себестоимость. Перечисление можно продолжать. Даже в эти критические годы для отечественной науки ученые за свои труды получили десятки международных премий и медалей, ряд из них награждены медалями Президента Республики Узбекистан.

В настоящее время в Узбекистане принимаются меры по активизации государственной инновационной политики, усилению инновационных ориентаций науки, улучшению ее финансирования.

Здесь архиважным является планирование хода изменения системы финансирования науки, обеспечение перехода к следующим формам финансирования базового и проектного исследования.

Бюджетное финансирование должно будет включать государственные инвестиции в создание лабораторий, поддержание инфраструктуры науки, подготовку и переподготовку кадров. Кроме того, государство будет финансировать фундаментальные исследования в сфере истории, археологии, языкознания, востоковедения, физики, науки о земле, а также программы государственного значения. Эти направления частным сектором финансироваться не будут – неприбыльно. Но для общечеловеческого и культурного развития такие исследования необходимы, так как конкурентоспособность государства – не только инновации, технологии и сильная экономики, но и гуманитарные компоненты – культура, образование и здоровье [3].

МЕТОДОЛОГИЯ. Финансирование научных программ предполагается через Фонд науки и инновационных фондов на период от 3 до 5 лет. Исполнители проектов будут отбираться по конкурсу из числа научных коллективов в стране и за рубежом по критериям научной результативности, квалификации, уровня оснащенности. Кроме того, фонды

ISSN 3030-3907

будут самостоятельно проводить мониторинг реализации проектов, подготовку ежегодных отчетов о результатах и оценку эффективности.

Фонд развития науки будет финансировать опытно-конструкторские направления. Государство планирует поэтапно увеличивать его финансирование. Если в 2017 году из общего объема финансирования науки из бюджета было выделено 7%, то в 2018-2023 годах этот уровень увеличился до 15%. Остальное финансирование будет восполняться за счет частных вложений от бизнес-структур, в частности, из венчурного фонда субъектов малого бизнеса.

Для обеспечения реализации результатов НИОКР необходимо в каждой программе предусматривать их внедрение на конкретных объектах. Поэтому участниками таких программ должны быть заинтересованные предприятия, согласные частично финансировать расходы на НИОКР и все расходы на внедрение. Без соблюдения таких условий программы и проекты не должны утверждаться и финансироваться государством. Государство не обязано нести расходы на НИОКР, результаты которых будут использоваться частными предприятиями в коммерческих целях.

В условиях инновационного развития более удачным представляется опыт стран ЕС, когда государство субсидирует преимущественно совместные проекты, выполняемые организациями обоих секторов, в частности, путем заказа научному финансовому институту, т.е. оплачивает получение инновационного продукта.

Большой интерес для Узбекистана представляют особенности финансирования науки, сложившиеся в США и Японии. Система финансирования в этих странах, в отличие от стран ЕС, приоритетно финансирует только те работы, которые являются опорными для инновационно развивающих предприятий. Это позволяет уйти от неудачного распыления средств и сконцентрировать их на ключевых направлениях, и в результате достичь значительных результатов за короткий срок (квартал, полугодие).

Частное финансирование науки предполагается осуществлять также через венчурные фонды. Вновь созданные венчурные фонды представляют собой наиболее эффективные для коммерциализации инновационных разработок, особенно высокотехнологичных.

Участие инновационного фонда, акционером которого на 100% является Правительство Республики Узбекистан, в венчурных фондах позволяет разделить риски с частными инвесторами, обеспечивая

ISSN 3030-3907

неконтрольное участие в уставном капитале на 49% и, тем самым, способствуя привлекательности фондов венчурного инвестирования.

Именно создание венчурного финансирования должно обусловить предпосылки системного взаимодействия науки и бизнеса в Узбекистане. По этому направлению созданы на территории Узбекистана венчурные фонды, а также осуществлены инвестиции в существующие зарубежные венчурные фонды «Wellington Partners Ventures III Technology Fund L.P.», Центрально-Азиатский фонд поддержки малых предприятий (CASEF, США), «Flagship Ventures Fund 2004 L.P.»[4].

Основными направлениями деятельности АО «Halik Private Equity» является инвестирование и привлечение инвестиций в компании, реализующие инновационные венчурные проекты, а также проекты по переносу, заимствованию и наращиванию передовых и инновационных венчурных технологий.

В Узбекистане созданы специализированные фонды, которые осуществляют инвестиции в следующих отраслях: информационные технологии, электроника и телекоммуникации.

Важным критерием инвестиционной политики по созданию фондов является не только обоснованная экономическая эффективность инновационного венчурного проекта, направленность инновационного проекта на наращивание технологического потенциала предприятия, повышение качества и рост объема производства продукции и услуг, но и укрепление взаимосвязи финансирования науки с результатами фундаментального и прикладного исследования.

Финансирование инновационно-венчурных проектов осуществляется путем приобретения акций, долей участия в компаниях, реализующих инновационные венчурные проекты. При инвестировании средств фондов предпочтение отдается взаимодополняющим технологиям, а также компаниям, находящимся на различных стадиях одного производственного цикла, либо реализующим идентичную продукцию. При этом фонды осуществляют свою деятельность 7 лет с правом пролонгации на 2 года [5].

Одной из проблем является необходимость поднятия престижа труда ученых, многие научные сотрудники заняты в других сферах деятельности, более выгодных. Недофинансирование и прекращение финансирования научных тем привело к оттоку молодых кадров из научной сферы.

За период с 2017 по 2021 год число научных сотрудников значительно сократилось.

ISSN 3030-3907

Уровень оплаты труда научных работников в научных экономических учреждениях бывшей академической системы стабильно ниже среднего уровня оплаты по республике и даже не выше, чем в системе образования. Так, в 2021 году среднемесячная номинальная зарплата одного активно работающего в целом по республике составляла не более 7,0 млн. сумов, тогда как в Институте экономики Министерства образования и науки (бывший академический институт) средняя зарплата молодого специалиста (экономиста или младшего научного сотрудника) составляет 5,0 млн. сумов, старшего научного сотрудника – 6 млн. сумов, а доктора наук, заведующего отделом – 8-9 млн. сумов плюс надбавка за ученую степень.

С целью стимулирования ученых Министерство образования и инновации принципиально должно решить вопрос с авторскими правами, чтобы результаты были собственностью ученых и научных коллективов. Ученые должны будут получать поддержку от замысла до воплощения. До 250 тысяч долларов обещает выделять государство на завершенный цикл, начиная с разработки бизнес-плана и заканчивая патентованием изобретений и опытно-конструкторской разработкой инноваций.

Финансирование научно-технической сферы в последние годы осуществляется в рамках бюджетных программ государства на текущие расходы.

При проверке Комитетом финансового контроля и государственных закупок Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан в 2024 году были выявлены нарушения следующего характера.

По бюджетной программе «Фундаментальные и прикладные научные исследования» за 2021-2023 годы 4 прикладных научных исследований не представлены на государственную экспертизу и отчеты по ним не утверждены, хотя фактическая оплата по ним была произведена.

ВЫВОДЫ. Имеются факты, что конкурсные заявки потенциальных поставщиков приводились в соответствие с требованиями законодательства уже после их сдачи в конкурсную комиссию. В результате таких действий неправомерно определен победитель конкурса.

Данные факты свидетельствуют о необходимости принятия мер по выявлению неэффективности и нецелевом использовании бюджетных средств, что может влиять на состояние научной сферы и производительность работников НИР.

Все проводимые мероприятия в научной сфере должны быть направлены на совершенствование системы управления наукой с целью

ISSN 3030-3907

концентрации бюджетных финансовых средств, кадрового и научно-технического потенциала на приоритетных направлениях науки.

Итак, в целях укрепления взаимосвязи науки с конкретными исследовательскими работами или инновационно развивающими предприятиями дается возможность выявить способность Республики в обозримые сроки осуществить структурно-технологическую модернизацию экономики, без чего невозможно повышение конкурентоспособности экспорта, включение национальной экономики в производственную кооперацию развитых стран, современную систему специализации и международного разделения труда. Этот процесс в очень слабой степени поддается объективному прогнозированию ввиду тесной взаимосвязанности реформы с политическими моментами между развивающимися соседними странами. Если исходить из предположения, что такая реструктуризация пойдет сравнительно успешно, то ее положительные результаты дадут о себе знать уже к прогнозируемому периоду. В таком случае значительно повысится заинтересованность партнеров в экономическом сотрудничестве с предприятиями, и финансово-кредитные институты окажутся открытыми для активного участия Республики. Они будут заинтересованы в обеспечении эффективной финансовой поддержки экономики в определенных мягких формах территориальных и мировых интеграционных процессов в области укрепления проводимых исследований.

ЛИТЕРАТУРА

1. Стратегия индустриально-инновационного развития Республики Казахстан на 2003-2015 годы.; Материалы Агентства по статистике при Президенте Республики Узбекистан за 2000-2023 годы.
2. Бланк И.А. Управление финансовыми ресурсами. - М.: Омега-Л, ООО «Эльга», 2011. - 324 с.
3. Создание новых казахстанских венчурных фондов: www.halikbank.kz., www.mybank.kz.
4. Гуртов В.К. Инвестиционные ресурсы / В.К.Гуртов. - М.: Экзамен, 2002.- 384 с.
5. Щадилов А.Ю. Процесс финансового оздоровления предприятия как необходимый элемент финансовой политики // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016. № 5-2. - С. 180-183.

ISSN 3030-3907

ИҚ-СПЕКТРОСКОПИЯ УСУЛИДА ЮҚОРИ ЁҒ КИСЛОТАЛАРИ АСОСИДАГИ ПРИСАДКАЛАРНИ ДИЗЕЛЬ ЁҚИЛҒИЛАРИ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХОССАЛАРИНИ ЯХШИЛАШИНИ ЎРГАНИШ

Фозилов Ҳасан Садриддин ўғли
Бухоро давлат техника университети
Фозилов Садриддин Файзуллаевич
Бухоро давлат техника университети
Ахророва Нигора Баходировна
Бухоро давлат техника университети

Аннотация. Мазкур мақолада дизель ёқилғиларида ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни аниқлашнинг такомиллаштирилган усули ишлаб чиқилди. Тадқиқот давомида қаттиқ фазали экстракция жараёни оптималлаштирилди, ҳамда сорбент тури, сорбент миқдори, элюэнт тури ва элюэнт ҳажмининг ажратиш самарадорлигига таъсири ўрганилди. Тажриба натижалари силикагел оптимал сорбент эканлигини, 1 г сорбент тўлиқ адсорбция учун йетарли эканлигини ва 10 см³ этанол оптимал элюэнт ҳажми эканлигини кўрсатди. Инфрақизил спектрометрия ёрдамида 1710 см⁻¹ тўлқин сонидаги карбонил (C=O) гуруҳининг ютилиш соҳаси асосий аналитик сигнал сифатида танланди. Абсорбент ва присадка концентрацияси ўртасида юқори даражада чизиқли боғланиш (R^2>0,99) аниқланди. Усул юқори аниқлик, такрорланувчанлик ва сезгирликка эга бўлиб, дизель ёқилғиларининг сифат назоратида қўллаш учун тавсия этилади.

Калит сўзи: дизель ёқилғиси, йейилишга қарши присадка, ёғ кислоталари, қаттиқ фазали экстракция, ИҚ-спектрометрия, карбонил гуруҳи, адсорбция, десорбция, калибрлаш тенгламаси, миқдорий таҳлил

Аннотация: В данной работе разработан усовершенствованный усул определения противоизносных присадок на основе жирных кислот в дизельных топливах. В ходе исследования была оптимизирована твердофазная экстракция, а также изучено влияние типа и количества сорбента, вида и объёма элюэнта на эффективность выделения присадок. Экспериментально установлено, что силикагель является оптимальным сорбентом, обеспечивающим 100 % адсорбцию и до 99 % десорбции. Оптимальное количество сорбента составило 1 г, а оптимальный объём элюэнта (этанола) - 10 см³. В качестве аналитического сигнала выбрана полоса поглощения карбонильной группы (C=O) при 1710 см⁻¹ в ИК-спектре. Установлена линейная зависимость между оптической плотностью и концентрацией присадки (R^2>0,99). Разработанный усул отличается высокой

ISSN 3030-3907

точностью, во производимостью и может быть рекомендован для контроля качества дизельных топлив.

Ключевые слова: дизельное топливо, противоизносная присадка, жирные кислоты, твердофазная экстракция, ИК-спектрометрия, карбонильная группа, адсорбция, десорбция, количественный анализ

Abstract: In this study, an improved method for the determination of fatty acid-based anti-wear additives in diesel fuels was developed. The solid-phase extraction procedure was optimized, and the influence of sorbent type and amount, as well as the type and volume of eluent, on extraction efficiency was investigated. The experimental results showed that silica gel is the optimal sorbent, providing up to 100% adsorption and 99% desorption efficiency. The optimal sorbent mass was found to be 1 g, while the optimal eluent volume (ethanol) was 10 cm^3. The absorption band of the carbonyl group (C=O) at 1710 cm^{-1} in the IR spectrum was selected as the main analytical signal. A strong linear relationship between absorbance and additive concentration was established (R^2>0.99). The proposed method demonstrates high accuracy and reproducibility and can be recommended for quality control of diesel fuels.

Keywords: diesel fuel, anti-wear additive, fatty acids, solid-phase extraction, IR spectroscopy, carbonyl group, adsorption, desorption, quantitative analysis

КИРИШ.

Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги, юк ташиш ва саноат тармоқларида дизель ёқилғисига бўлган талаб йилдан-йилга ортиб бормоқда. Дизель ёқилғиси ички бозорнинг асосий энергия ресурсларидан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ҳам паст олтингугуртли ва экологик тоза дизель ёқилғиларини ишлаб чиқаришга ўтиш жараёни жадаллашди. Бу эса ёқилғини чуқур гидротозалаш жараёнларидан ўтказишни талаб қилади. Гидротозалаш натижасида олтингугуртли бирикмалар билан бир қаторда табиий равишда мавжуд бўлган кислородли ва азотли гетеробирикмалар ҳам йўқотилади. Мазкур бирикмалар дизель ёқилғисининг табиий мойлаш хусусиятини таъминлаб келади, уларнинг камайиши эса ёнилғи аппаратлари-юқори босимли насослар, пуркагичлар ва ишқаланадиган жуфтликларида йейилиш жараёнининг кучайишига олиб келади. Маълумки, дизель двигателларининг ёқилғи тизимида алоҳида мойлаш тизими мавжуд эмаслиги, ишқаланадиган қисмлар айнан дизель ёқилғисининг ўзи ҳисобига мойланади. Шу сабабли дизель ёқилғисининг мойлаш хоссалари унинг эксплуатацион ишончлилигини белгиловчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

ISSN 3030-3907

Йейилиш жараёнларини камайтириш мақсадида дизель ёқилғиларига йейилишга қарши присадкалар қўшилади. Ўзбекистон ёқилғи бозорида ҳам хорижий компаниялар маҳсулотлари, ҳам маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг модификацияланган присадкалари қўлланилмоқда. Амалиётда кенг қўлланиладиган йейилишга қарши присадкалар асосан ёғ кислоталари ва уларнинг ҳосилаларига асосланади. Ёғ кислоталари таркибидаги карбоксил гуруҳи (–COOH) металл юзаларда адсорбцияланиб, ҳимоя плёнка ҳосил қилади ва ишқаланиш коэффицийентини камайтиради. Бироқ дизель ёқилғисига присадканинг ортиқча миқдорда қўшилиши бошқа функционал қўшимчалар билан ўзаро таъсирга киришиши ҳамда ёқилғининг оксидланиш барқарорлигини пасайтириши мумкин. Шу сабабли дизель ёқилғиларида йейилишга қарши присадкалар миқдорини тезкор ва аниқ назорат қилиш муҳим илмий-амалий вазифа ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида ёқилғи маҳсулотлари сифати давлат стандартлари ва техник регламентлар асосида назорат қилинади. Замонавий талаблар ёқилғининг экологик хавфсизлиги билан бир қаторда, унинг эксплуатацион хусусиятларига ҳам юқори талаб қўяди. Йейилишга қарши присадкаларни аниқлаш ва уларнинг миқдорини баҳолашда анъанавий трибологик синовлар кўп вақт талаб қилади. Шу сабабли тезкор инструментал усулларни жорий етиш долзарб ҳисобланади. Инфрақизил (ИҚ) спектрометрия функционал гуруҳларни аниқлаш имконини берувчи, оддий ва тезкор инструментал таҳлил усули ҳисобланади. Ёғ кислоталари таркибидаги карбонил (C=O) ва гидроксил (O–H) гуруҳлари ИҚ-спектрда аниқ ютилиш чўққиларини беради.

Шу боис мазкур ишда Ўзбекистон шароитида ишлаб чиқариладиган дизель ёқилғиларида ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни ИҚ-спектрометрия усули ёрдамида аниқлаш имконияти ўрганилди.

МАТЕРИАЛЛАР ВА УСУЛЛАР: Тадқиқот объекти сифатида Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ишлаб чиқарилган товар дизель ёқилғиси намуналари ҳамда ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкалар олинди. Присадкалар таркиби асосан C_{12}-C_{20} фракцияли ёғ кислоталаридан иборат бўлиб, улар дизель ёқилғисига амалиётда қўлланиладиган саноат концентрацияларида қўшилди. Тажрибалар давомида базавий дизель ёқилғиси ҳамда турли концентрациядаги присадка қўшилган намуналардан фойдаланилди.

Йейилишга қарши присадкаларни дизель ёқилғисидан ажратиб олиш учун қаттиқ фазали экстракция усули қўлланилди. Экстракция жараёнида

ISSN 3030-3907

сорбент сифатида алюминий оксиди ва силикагел ишлатилди. Ички диаметри 10 мм ва баландлиги 200 мм бўлган шиша колонкага маълум миқдорда адсорбент жойлаштирилди ва зичланди. Колонка орқали вакуум ёрдамида 50 см³ ҳажмдаги дизель ёқилғиси намунаси ўтказилди. Сўнгра колонкадан 2 см³ гексан билан ювиш амалга оширилди. Йейилишга қарши присадкалар 10 см³ этил спирти ёрдамида экстракция қилинди. Олинган экстракт айланувчи буғлаткич ёрдамида 50-60 °C ҳароратда ва пасайтирилган босим шароитида концентрлацияланди. Эритувчи тўлиқ ҳайдаб юборилгач, қолдиқ маълум ҳажмли ўлчов колбасига ўтказилди ва тетрахлорметан билан белгиланган ҳажмгача йетказилди. Ҳосил қилинган эритма аралаштирилиб, инфрақизил спектр олиш учун тайёрланди.

Инфрақизил спектрометрик таҳлил 4000-450 $см^{-1}$ тўлқин сонлари диапазонида Фоуриер-трансформ ИҚ-спектрометр ёрдамида амалга оширилди. Таҳлил жараёнида номинал оптик йўл узунлиги 0,5 мм бўлган кюветалардан фойдаланилди. Спектрларда ёғ кислоталарига хос бўлган карбонил (C=O) гуруҳининг 1710 $см^{-1}$ атрофидаги ютилиш чўққилари асосий аналитик сигнал сифатида танланди. Шунингдек, 2850-2950 $см^{-1}$ соҳадаги алифатик C–H боғлари тебранишлари ҳам қўшимча идентификация белгиси сифатида ҳисобга олинди.


Йейилишга қарши присадкалар миқдорини аниқлаш учун калибрлаш графиги тузилди. Бунинг учун маълум концентрациядаги стандарт эритмалар тайёрланиб, 1710 $см^{-1}$ тўлқин сонидаги ютилиш интенсивлиги ўлчанди. Олинган натижалар асосида ютилиш интенсивлиги ва присадка концентрацияси ўртасидаги чизиқли боғланиш аниқланди. Калибрлаш тенгламаси ёрдамида номаълум намунадаги присадка миқдори ҳисоблаб топилди.

Таклиф этилган усул дизель ёқилғиларида ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни тезкор ва сезгир аниқлаш имконини беради. Усул мураккаб кимёвий ишлов беришни талаб қилмайди, барқарор эмулциялар ҳосил қилмайди ва таҳлил вақтини сезиларли даражада қисқартиради. Шу сабабли мазкур усул ёқилғи сифатини назорат қилиш лабораторияларида қўллаш учун тавсия этилади.

НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ: Дизель ёқилғиси намунасининг ИҚ-спектри 4000-4500 $см^{-1}$ диапазонда қайд этилди. Спектр таҳлили натижасида 2956, 2914 ва 2848 $см^{-1}$ тўлқин сонларида алифатик C-H боғларининг валент тебранишларига хос интенсив ютилиш соҳлари кузатилди. Бу дизель ёқилғисининг асосий таркиби тўйинган ва тўйинмаган углеводородлардан иборат эканлигини тасдиқлайди.

ISSN 3030-3907

1712–1730 $см^{-1}$ соҳада аниқ ифодаланган ютилиш соҳаси карбонил (C=O) гуруҳига тегишли бўлиб, бу ёғ кислоталари ёки уларнинг ҳосилалари мавжудлигини кўрсатади. Мазкур сигнал йейилишга қарши присадканинг асосий диагностик белгиси сифатида танланди. 1465 $см^{-1}$ ва 1377 $см^{-1}$ атрофидаги соҳалар CH_2 ва CH_3 гуруҳларининг деформацион тебранишларига мос келади. 1245-1100 $см^{-1}$ оралиғида эса C–O боғларининг тебранишлари кузатилиб, бу ёғ кислоталари ҳосилалари (оддий эфир ёки мураккаб эфирлар) мавжудлигини тасдиқлайди.



1-расм. Қуйи молекулали полиэтиленни оксидлаб олинган ЮЁС ИҚ-спектри

1700 $см^{-1}$ атрофидаги соҳани батафсил таҳлил қилиш мақсадида присадкаларнинг 10 % ли тетрахлорметан эритмалари спектрлари ўзаро таққосланди. Спектрлар фрагментида барча намуналар учун 1710-1725 $см^{-1}$ оралиғида интенсив максимум кузатилди. Энг юқори интенсивлик Ҳитес 4140 намунасида қайд этилди, ГТ-16 ва Комплексал-ЕКО “Д” намуналари эса ўртача интенсивлик кўрсатди. Байкат намунасида карбонил соҳаси кенгроқ ва нисбатан паст интенсивликда намоён бўлди. Спектрларнинг устма-уст қўйилиши карбонил гуруҳининг ютилиш максимуми барча присадкалар учун яқин соҳада жойлашганлигини, аммо интенсивлик фарқлари уларнинг кимёвий таркиби ва концентрациясига боғлиқлигини кўрсатди.

Шундай қилиб, умумий ИҚ-спектрдаги 1712-1730 $см^{-1}$ соҳа ҳамда фрагмент спектрдаги максимумлар ўзаро мос келади ва йейилишга қарши присадкаларни идентификация қилиш учун асосий аналитик параметр

ISSN 3030-3907

сифатида фойдаланилиши мумкин. Мазкур тўлқин сонида ютилиш интенсивлиги присадка концентрациясига пропорционал равишда ўзгаради, бу эса миқдорий аниқлаш имконини беради.

Таклиф этилган усул асосида дизель ёқилғиларида йейилишга қарши присадкалар концентрациясини ИҚ-спектрометрия ёрдамида аниқлаш усули такомиллаштирилди, яъни биринчидан, қаттиқ фазали экстракция шароитлари танланди, бу эса дизель ёқилғисидаги ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни 10 мартагача концентрлаш имконини берди. Турли адсорбентлар - янги калцинацияланган алюминий оксиди, 7 % сув тутувчи алюминий оксиди ҳамда силикагел - ўзаро солиштирилди. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, силикагел қўлланганда присадкаларнинг ажралиб чиқиш даражаси 99 % дан юқори бўлди. Бу эса экстракция самарадорлигини сезиларли даражада оширди.

Иккинчидан, 99 % дан ортиқ ёғ кислоталарини ажратиб олиш учун оптимал элюэнт тури ва унинг миқдори танлаб олинди. Элюэнт сифатида турли қутблиликка эга эритувчилар-дихлорметан, метанол, этанол ва изопропанол таъсирлари ўрганилди. Олинган натижаларга кўра, этанол оптимал элюэнт сифатида танланди, чунки у юқори ажратиш самарадорлигини ва барқарор спектрал сигналнни таъминлади.

Учинчидан, олинган натижалар асосида саноат ишлаб чиқаришдаги тайёр концентрловчи картриж қўллаш мақсадга мувофиқ деб топилди. Бу усул таҳлилни соддалаштирди ва такрорланувчанликни оширди. Таклиф этилган усуликанинг метрологик кўрсаткичлари ҳисоблаб чиқилди. Усулнинг такрорланиш аниқлиги ва қайта ишлаб чиқариш аниқлиги юқори даражада эканлиги аниқланди. Корреляция коэффициенти (R^2) 0,99 дан юқори бўлиб, абсорбент ва присадка концентрацияси ўртасида чизиқли боғланиш мавжудлигини тасдиқлади.

Шундай қилиб, ишлаб чиқилган усул дизель ёқилғиларида ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни тезкор, сезгир ва ишончли аниқлаш имконини беради ҳамда ёқилғи сифатини назорат қилиш лабораторияларида қўллаш имкониятини беради.

Ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни дизель ёқилғисидан ажратиб олиш самарадорлиги қаттиқ фазали экстракция (ҚФЭ) усули ёрдамида ўрганилди. Жараённинг миқдорий тавсифи адсорбция ва десорбция даражалари орқали баҳоланди.

Адсорбция даражаси қуйидаги формула асосида ҳисобланди:

$$Kads = \frac{C_1 - C_2}{C_1} x100\%$$

ISSN 3030-3907

Десорбция даражаси эса:

$$K_{des} = \frac{3}{C_1 - C_2} x100\%$$

бу ерда: C_1 - бошланғич концентрация; C_2 - сорбентдан ўтгандан кейинги концентрация; C_3 - экстрактдаги концентрация.

1- жадвалда GT-16 присадкаси учун турли сорбентлар қўлланганда адсорбция ($К_{адс}$) ва десорбция ($К_{дес}$) даражалари келтирилган. Кўрсаткичлар фоизларда ифодаланган бўлиб, улар мос равишда сорбентнинг присадкани ушлаб қолиш қобилияти ва кейинчалик уни элюэнт ёрдамида қайта ажратиб олиш самарадорлигини билдиради.

1- жадвал

GT-16 присадкасининг адсорбция ва десорбция даражаси

Сорбент	Адсорбция даражаси, %	Десорбция даражаси, %
Алюминий оксиди (янги калцинацияланган)	100 ± 3	89 ± 3
Алюминий оксиди (7 % намлик)	89 ± 3	99 ± 3
Силикагел	100 ± 3	99 ± 3

Янги калцинацияланган алюминий оксидида адсорбция даражаси 100±3% ни ташкил этган, бу сорбентнинг юқори сирт фаоллиги ва ёғ кислоталарининг карбоксил гуруҳлари билан кучли ўзаро таъсирини кўрсатади. Бироқ десорбция даражаси 89±3 % бўлиб, присадканинг бир қисми сорбент сиртида мустаҳкам боғланиб қолганини билдиради. Бу амалий жиҳатдан муҳим, чунки тўлиқ десорбция юз бермаса, миқдорий аниқлаш натижалари паст баҳоланади. 7% намлик сақловчи алюминий оксидида адсорбция 89±3% гача камайган. Бу сув молекулаларининг сорбент сиртидаги фаол марказларни қисман банд қилиши билан изоҳланади. Бироқ десорбция даражаси 99±3% га йетган, яъни ушланган қисм яхши ажралган. Шунга қарамай, умумий самарадорлик адсорбция босқичидаги йўқотишлар сабабли пасайган. Силикагелда адсорбция 100±3% ва десорбция 99 ±3% ни ташкил етган. Бу сорбентнинг оптимал мувозанатли хусусиятларга эга эканини кўрсатади: у присадкани тўлиқ ушлаб қолади ва кейинчалик деярли тўлиқ ажратиб беради. Амалий натижа сифатида силикагел усули учун оптимал сорбент сифатида танланди.

ISSN 3030-3907

2- Жадвал

Ёғ кислоталари адсорбциясининг сорбент миқдорига боғлиқлиги

Намуна	Бошланғич С, %	0,5 г	1,0 г	1,5 г
Олеин кислотаси	1,00	0,50 ± 0,02	0,00 ± 0,02	0,00 ± 0,02
Стеарин кислотаси	1,00	0,45 ± 0,02	0,00 ± 0,02	0,00 ± 0,02
GT-16 эритмаси	1,00	0,50 ± 0,02	0,00 ± 0,02	0,00 ± 0,02

2- жадвалда сорбент миқдорининг адсорбцияга таъсири ўрганилган. Бошланғич концентрация 1,00% бўлган олеин кислотаси, стеарин кислотаси ва GT-16 эритмалари турли миқдордаги сорбент билан ишлов берилган. 0,5 г сорбент қўлланганда сорбентдан кейинги концентрация 0,45–0,50 % атрофида қолган. Бу сорбент сиртининг тез тўйиниб қолганини ва ёғ кислоталарининг бир қисми ёқилғида қолиб кетганини билдиради. Натижада адсорбция тўлиқ эмас. 1,0 г сорбент қўлланганда сорбентдан кейинги концентрация деярли 0,00 % га тенг бўлган. Бу 100% адсорбция юз берганини билдиради. Сорбент миқдорини 1,5 г гача ошириш натижани сезиларли яхшиламаган, яъни қўшимча сорбент ишлатиш иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқ эмас. Амалий натижа: 1 г силикагел оптимал миқдор сифатида белгиланди. Бу миқдор тўлиқ адсорбция учун йетарли ва ортиқча реагент сарфини талаб қилмайди.

3- жадвал

Турли элюэнтларда десорбция даражаси

Намуна	Дихлорметан	Метанол	Этанол	Изопропанол
Олеин кислотаси	0 ± 3	100 ± 3	100 ± 3	67 ± 3
Стеарин кислотаси	0 ± 3	99 ± 3	98 ± 3	61 ± 3
ГТ-16 эритмаси	0 ± 3	100 ± 3	100 ± 3	72 ± 3

3-жадвалда турли элюэнтларнинг десорбция самарадорлиги солиштирилган. Кўрсаткичлар ёғ кислоталарининг сорбентдан қай даражада ажралиб чиққанини фоизларда кўрсатади. Дихлорметанда десорбция 0 ± 3% ни ташкил етган. Бу унинг қутблилиги ва водород боғ ҳосил қилиш қобилияти ёғ кислоталарини силикагелдан ажратиш учун йетарли эмаслигини кўрсатади. Метанол ва этанол деярли 100% десорбция таъминлаган. Бу уларнинг юқори қутблилиги ва водород боғ ҳосил қилиш хусусияти билан изоҳланади. Изопропанол эса 61-72% атрофида натижа берган, бу унинг қутблилиги метанол ва этанолга нисбатан пастроқ эканини билдиради. Амалий натижа сифатида, хавфсизлик, иқтисодийлик ва самарадорликни ҳисобга олиб, этанол оптимал элюэнт сифатида танланди.

ISSN 3030-3907

4- жадвал

Этанол ҳажмининг десорбция даражасига таъсири

Намуна	5 см ³	10 см ³	15 см ³	20 см ³
Олеин кислотаси	96 ± 3	101 ± 3	100 ± 3	100 ± 3
Стеарин кислотаси	55 ± 3	98 ± 3	99 ± 3	98 ± 3
GT -16 эритмаси	95 ± 3	100 ± 3	100 ± 3	100 ± 3

4- жадвалда элюэнт ҳажмининг десорбция самарадорлигига таъсири кўрсатилган. 5 см³ этанол қўлланганда стеарин кислотасида десорбция атиги 55 ± 3 % ни ташкил етган. Бу ҳажм йетарли эмаслигини кўрсатади. 10 см³ ҳажмда эса барча намуналарда десорбция 98-101 % оралиғида бўлган. 15 ва 20 см³ ҳажмларда эса сезиларли ўзгариш кузатилмаган. Амалий натижа: 10 см³ этанол оптимал ҳажм сифатида танланди. Бу ҳажм тўлиқ десорбция таъминлайди ва ортиқча эритувчи сарфини олдини олади.

5- жадвал

Усул аниқлик кўрсаткичлари

Кўрсаткич	GT-16	Hitec 4140	Байкат
Такрорланиш (σ)	0,00033	0,00027	0,00037
Такрорланиш чегараси	0,0009	0,0008	0,0010
Қайта ишлаб чиқариш (σ)	0,0074	0,0070	0,0075
Қайта ишлаб чиқариш чегараси	0,002	0,002	0,002

5-жадвалда усулнинг метрологик кўрсаткичларини акс еттиради. Такрорланиш (σ) қийматлари 0,00027-0,00037 оралиғида бўлиб, бу натижаларнинг юқори аниқлик билан такрорланишини билдиради. Қайта ишлаб чиқариш кўрсаткичлари ҳам паст қийматларда бўлиб, турли шароитларда усулнинг барқарор ишлашини тасдиқлайди.

ХУЛОСА: Ўтказилган тадқиқотлар натижасида дизель ёқилғиларида ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни аниқлаш учун қаттиқ фазали экстракция ва инфрақизил (ИҚ) спектрометрия усулларининг комбинацияси самарали эканлиги аниқланди. Тадқиқот давомида сорбент тури, сорбент миқдори, элюэнт тури ва элюэнт ҳажмининг ажратиш самарадорлигига таъсири батафсил ўрганилди ҳамда оптимал шароитлар белгиланди. Сорбентларни солиштириш натижасида силикагел юқори адсорбция (100 % гача) ва деярли тўлиқ десорбция (99 % гача) даражасини таъминлаши аниқланиб, қаттиқ фазали экстракция учун енг мақбул сорбент сифатида танланди. Алюминий оксиди юқори адсорбция кўрсатган бўлсада, десорбция жараёнида маълум йўқотишлар кузатилди. Намлик сақловчи

ISSN 3030-3907

алюминий оксидида эса адсорбция самарадорлиги пасайгани қайд этилди. Бу натижалар сорбент сирт хусусиятлари ва уларнинг ёғ кислоталари билан ўзаро таъсири жараён самарадорлигига бевосита таъсир кўрсатишини тасдиқлайди. Сорбент миқдорининг таъсири ўрганилганда 1 г силикагел ёғ кислоталарини тўлиқ ушлаб қолиш учун йетарли эканлиги аниқланди. Сорбент миқдорини орттириш ажратиш самарадорлигини оширмади, бу эса усулнинг иқтисодий жиҳатдан асосланганлигини кўрсатади. Элюэнт танлаш жараёнида метанол ва этанол юқори десорбция самарадорлигини намоён етди. Хавфсизлик ва амалий қўллаш имкониятларини ҳисобга олиб, этанол оптимал элюэнт сифатида белгиланди. Элюэнт ҳажмининг таъсири таҳлили 10 $см^3$ этанол тўлиқ десорбция учун йетарли эканлигини кўрсатди. Ҳажмни ошириш натижага сезиларли таъсир кўрсатмади. Усулнинг метрологик кўрсаткичлари юқори аниқлик ва такрорланувчанликни тасдиқлади. Стандарт оғиш қийматларининг кичиклиги ҳамда қайта ишлаб чиқариш чегараларининг пастлиги ишлаб чиқилган усулнинг барқарор ва ишончли эканини кўрсатади. ИҚ-спектрометрик таҳлилда 1710 $см^{-1}$ тўлқин сонидаги карбонил (C=O) гуруҳининг ютилиш соҳаси асосий аналитик сигнал сифатида танланди. Абсорбент ва присадка концентрацияси ўртасида чизиқли боғланиш мавжудлиги аниқланиб, усулнинг миқдорий аниқлаш имконияти тасдиқланди.

Умуман олганда, ишлаб чиқилган усул дизель ёқилғиларида ёғ кислоталари асосидаги йейилишга қарши присадкаларни тезкор, сезгир ва ишончли аниқлаш имконини беради ҳамда ёқилғи сифатини назорат қилиш лабораторияларида қўллаш учун тавсия этилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Фозилов Ҳ.С. Нормал парафин углеводородларни оксидлаб юқори ёғ спиртлари олиш ва уларни дизель ёқилғисининг физик-кимёвий хоссаларини яхшилашда қўллаш//Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий техникавий журнал. Бухоро. 2021. №1. 110-115 б.

2. Фозилов С.Ф., Мавлонова А.С., Фозилов Ҳ.С., Ҳамроев Ш.Ғ., Рахимова М.Р. Противоизносные присадки в дизельное топливо и их развитие “Саноат инженериясининг долзарб муаммолари” республика илмий-амалий анжумани. 2021. 376-377 б.

3. Гришин Д. Ф. Депрессорные, противоизносные и антиокислительные присадки к гидроочищенным дизельным топливам с низким и ультранизким содержанием серы (Обзор) // Нефтехимия. 2017. Т. 57. №. 5. С. 489–502.

4. Митусова Т. Н., Полина Е. В., Калинина М. В. Современные дизельные топлива и присадки к ним. М.: Издательство «Техника», 2002. 64 с.

ISSN 3030-3907

5. Von Wielligh A. J., Burger N. D. L., Wilcocks T. L. Diesel engine failures due to combustion disturbances, caused by fuel with insufficient lubricity // Industrial Lubrication and Tribology. 2003. Т. 55, №. 2. С. 65–75.
6. Азев В. С., Середа А. В. Влияние соединений серы на противоизносные свойства дизельных топлив // Химия и технология топлив и масел. 2009. №. 3. С. 23–27.
7. Буров Е. А. Исследование эффективности действия функциональных присадок в дизельных топливах различного углеводородного состава: дис. кан. хим. наук: 02.00.13. М., 2015. 152 с.
8. Фозилов Ҳ.С., Туробжонов С.М., Фозиолов С.Ф. Синтез высших жирных спиртов из парафинов для улучшение смазывающие свойства дизельных топлив. «Назарий ва экспериментал кимё ҳамда кимёвий технологиянинг замонавий муаммолари» Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. Карши.2023-йил,20-октябр.413-415 б.

ISSN 3030-3907

TEXNIKA YO‘NALISHI TALABALARINI ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINING NAZARIY-METODIK TAHLILLARI

Djurayeva Feruzaxon Abdumuxtorovna
Andijon Davlat Texnika Instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel: +99888-273-00-99, e-mail:
E-mail: feruzaxondjurayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan metodik muammolar chuqur ilmiy-pedagogik tahlil qilinadi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish holati, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari hamda nazariya va amaliyot integratsiyasi masalalari yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili, kuzatish va tizimli yondashuv asosida mavjud metodik kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola texnika yo‘nalishi bo‘yicha yuqori malakali va innovatsion fikrlovchi mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: texnika ta’limi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, metodik muammolar, tadqiqotchilik kompetensiyasi, oliy ta’lim, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье представлен углубленный научно-педагогический анализ методологических проблем, возникающих в процессе подготовки студентов технических специальностей к научно-исследовательской деятельности. Исследование охватывает состояние организации научно-исследовательской деятельности в высших учебных заведениях, механизмы формирования научно-исследовательских компетенций студентов, а также вопросы интеграции теории и практики. На основе анализа научной литературы, наблюдений и системного подхода выявлены существующие методологические недостатки и разработаны научно-методические рекомендации по их устранению. Статья служит цели подготовки высококвалифицированных и инновационных специалистов в технических специальностях.

Ключевые слова: техническое образование, научно-исследовательская деятельность, методологические проблемы, научно-исследовательские компетенции, высшее образование, инновационный подход.

Abstract. This article provides a deep scientific and pedagogical analysis of methodological problems that arise in the process of preparing students of technical disciplines for research activities. The study covers the state of organization of research activities in higher education institutions, mechanisms for the formation

ISSN 3030-3907

of students' research competencies, and issues of integration of theory and practice. Based on the analysis of scientific literature, observation, and a systematic approach, existing methodological shortcomings were identified and scientific and methodological recommendations were developed to eliminate them. The article serves to train highly qualified and innovative specialists in technical disciplines.

Keywords: technical education, research activities, methodological problems, research competencies, higher education, innovative approach.

KIRISH.

Bugungi kunda texnika sohasida raqobatbardosh, innovatsion fikrlay oladigan va ilmiy-tadqiqot faoliyatini mustaqil olib bora oladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Texnika yo‘nalishi talabalari uchun ilmiy-tadqiqot faoliyati nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy muammolarni hal etish, yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligida qator metodik muammolar mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonida uchraydigan asosiy metodik muammolar tahlil qilinadi.

Texnika yo‘nalishi talabalari uchun ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonida bir qator metodik muammolar yuzaga keladi, chunki bu jarayon nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularni amaliyotda qo‘llash, ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish, tahliliy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish kabi murakkab vazifalarni o‘z ichiga oladi. Talabalarda ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiqot metodikasini tanlash, eksperiment natijalarini qayta ishlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun metodik qo‘llanmalar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur bo‘lsa-da, ko‘plab OTMlarda bu yo‘nalishda tizimlilik yetishmaydi. Texnika sohasidagi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligi ko‘pincha fragmentar bo‘lib qoladi hamda ularning kelgusida mustaqil izlanish olib borish, ilmiy yangilik yaratish va kasbiy faoliyatda innovatsion qarorlar qabul qilish salohiyatiga to‘liq ta’sir ko‘rsatadi.

Ularni bir necha asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin:

ISSN 3030-3907

1. Nazariy-metodologik muammolar;
2. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining metodik asoslarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
3. Pedagogik va psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi;
4. Virtual laboratoriyalar va texnologik resurslarning yetishmasligi;
5. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘quv jarayoniga integratsiyalanmaganligi;
6. Ilmiy natijalarni taqdim etish, baholash va rag‘batlantirish tizimining zaifligi;
7. Tashkiliy muammolar: ilmiy rahbarlik, mentorlik va hamkorlik tarmoqlari yo‘qligi.

Texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlashning metodik muammolari

1. Nazariy-metodologik muammolar. Nazariy-metodologik muammolar, avvalo, ilmiy-tadqiqot jarayonining konseptual asoslari bo‘yicha aniqlik yetishmasligi, xususan ko‘plab dasturlarda “ilmiy muammo”, “tadqiqot ob’ekti”, “predmet”, “maqsad-vazifalar”, “gipoteza” va “yangilik” kabi tayanch kategoriyalar operatsion ta’riflarsiz berilishi orqali namoyon bo‘ladi hamda bining natijasida, talaba muammoli vaziyatni aniqlashni mavzuga oddiy qiziqish bilan adashtiradi. Talaba gipotezani ilmiy asoslangan fakt sifatida emas, umumiy fikr sifatida tushunadi va yangilik darajasi, qo‘llanish sohasi hamda tekshirib ko‘rish imkoniyati kabi ilmiy yangilik mezonlarini aniqlashda qiynaladi.

Amerikalik olim, pedagogika va ijtimoiy fanlar metodologiyasi bo‘yicha yetakchi mutaxassis John W. Creswell ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha asarlarida talabalarning aynan nazariy va metodologik asoslarni noto‘g‘ri tushunishi ilmiy kompetensiya shakllanishiga jiddiy to‘siq bo‘lishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ko‘plab dastur va kurslarda “muammo”, “maqsad”, “gipoteza” kabi tayanch tushunchalarning aniq va operatsion ta’riflari berilmagani sababli talabalar ilmiy muammoni oddiy mavzu tanlash bilan adashtiradi, gipotezani esa tekshirish mumkin bo‘lgan ilmiy taxmin emas, umumiy fikr sifatida qabul qiladi.

Amaliy tomonda kichik loyihalar katta yordam beradi, chunki har semestrda bitta qisqa loyiha bajarilib, jamoada ishlash, ustoz-maslahatchi bilan muntazam uchrashish, hisobot yozish va og‘zaki taqdimot qilish amalda o‘rganiladi.

ISSN 3030-3907

O‘qituvchi topshiriq varag‘i, ma’lumot yig‘ish jadvali, tahlil uchun oddiy kalkulyator yoki elektron jadval hamda manbalarni tartibga solishga mo‘ljallangan bepul dasturlardan foydalanadi. Baholash jarayoni ham tushunarli ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak. Misol uchun, “savol aniqmi”, “rejada izchillik bormi”, “ma’lumot to‘g‘ri keltirilganmi”, “xulosa savolga javob berdimi” kabi ochiq mezonlarga javob berish kerak. Shunday oddiy, ammo izchil yondashuv talabaning ilmiy fikrlashini uyg‘otadi, mustaqil tahlil qilishga ko‘nikma beradi.

O‘zbekiston olimlari I. Saifnazarov, A. Muxtarov va A. Boboyev ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha qo‘llanmada tadqiqot “muammo–fakt–kuzatuv”dan boshlanishini, gipoteza (ilmiy faraz) esa ilmiy bilimning rivojlanish shakli sifatida faqat zarur shartlarga javob berganidagina qabul qilinishini ta’kidlaydi. Ular gipoteza fanda qabul qilingan qonunlarga mos bo‘lishi, mavjud faktik materialga zid kelmasligi, mantiqiy jihatdan izchil bo‘lishi va tasdiqlanishi (yoki rad etilishi) mumkin bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi, aks holda talaba “gipoteza”ni umumiy fikr bilan adashtirib yuboradi va tadqiqotning izchilligi buziladi.

METODOLOGIYA.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- oliy ta’lim muassasalarida texnika yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish tajribasini o‘rganish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtirokini kuzatish;
- muammolarni tizimli tahlil qilish va umumlashtirish.

Mazkur metodlar texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashdagi metodik kamchiliklarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda quyidagi metodik muammolar mavjud:

1. **Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish** – ilmiy-tadqiqotga oid nazariy bilimlar yetarli darajada amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlanmaydi.

2. **Ilmiy metodologiya bo‘yicha bilimlarning yetishmasligi** – talabalar tadqiqot dizayni, gipoteza qo‘yish, ma’lumotlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga to‘liq ega emas.

3. **Mustaqil tadqiqotga yo‘naltirishning sustligi** – o‘qitish jarayonida tayyor bilimlarni berishga ko‘proq e’tibor qaratilib, talabalarning mustaqil izlanishlari yetarli darajada rag‘batlantirilmaydi.

ISSN 3030-3907

4. **O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi** – ayrim hollarda ilmiy rahbarlik va tadqiqotga yo‘naltirish bo‘yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar yetarli darajada qo‘llanilmaydi.

Aniqlangan metodik muammolar texnika yo‘nalishi talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi va ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini joriy etish, loyiha va muammoli ta’lim usullaridan keng foydalanish muhimdir. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ilmiy-metodik salohiyatini oshirish, talabalarni ilmiy anjumanlar, grantlar va startap loyihalarga jalb etish ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshiradi.

XULOSA. Texnika yo‘nalishi talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda mavjud metodik muammolarni bartaraf etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, ilmiy metodologiyani tizimli o‘rgatish hamda mustaqil tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali texnika sohasida yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 4th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2014. P. 59–61.
2. Saifnazarov I., Muxtarov A., Boboyev A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2017. – 129 b. – B. 60–61; 84–85.
3. Abduqodirov A.A. *Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Muslimov N.A. *Kasbiy ta’lim metodikasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent, 2018.
6. Salimov B.S. Oliy ta’limda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish masalalari // *Pedagogika*. – 2022. – №2.
7. Zokirova D.X. Texnika yo‘nalishi talabalarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish // *Ta’lim va innovatsiya*. – 2021. – №3

ISSN 3030-3907

SINGAPUR DAVLATIDA RAQAMLI TA’LIM: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR

Isayev Bohodirjon Makhamatshoyevich
Andijon davlat texnika instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel: +99893-444-86-02, e-mail:
E-mail: bohodirjonisayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Singapur davlatida raqamli ta’lim tizimining shakllanishi, joriy holati va rivojlanish omillari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi, davlat siyosati, o‘qituvchi va o‘quvchilar kompetensiyalari hamda infratuzilma masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli ta’lim jarayonida uchrayotgan asosiy muammolar aniqlanib, ularning amaliy yechimlari va boshqa davlatlar, xususan O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli ta’limni joriy etishda Singapur tajribasining samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, Singapur ta’lim tizimi, EdTech, e-learning, Smart Education, LMS, raqamli kompetensiya.

Аннотация. В данном документе представлено текущее состояние и качественный анализ системы образования в Сингапуре. Рассмотрены вопросы интеграции цифровых технологий в образовательный процесс, государственной политики, компетенций преподавателей и учащихся, а также инфраструктуры. Выявлены серьезные проблемы, возникающие в процессе бухгалтерского учета и бухгалтерского образования, и разработаны предложения по принятию программных решений и другим вопросам государственного управления, а также системы образования Узбекистана. Сингапур демонстрирует внедрение бухгалтерского образования.

Keywords: digital education, Singapore education system, EdTech, e-learning, Smart Education, LMS, digital competence.

Annotation. This article analyzes the formation, current status and development factors of the digital education system in Singapore. The integration of digital technologies into the educational process, state policy, teacher and student competencies, and infrastructure issues are considered. Also, the main problems encountered in the digital education process are identified, their practical solutions are developed, and proposals are made for other countries, in particular, the education system of Uzbekistan. The results of the study show the effectiveness of Singapore's experience in implementing digital education

Ключевые слова: цифровое образование, система образования Сингапура, EdTech, электронное обучение, интеллектуальное образование, LMS, цифровая компетентность.

ISSN 3030-3907

KIRISH.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy ta’lim shakllari raqamli platformalar, onlayn kurslar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosidagi yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Bu jarayonda Singapur davlati dunyoda eng ilg‘or raqamli ta’lim tizimiga ega mamlakatlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Singapur hukumati ta’limni milliy taraqqiyotning asosiy omili deb biladi va “Smart Nation” strategiyasi doirasida raqamli ta’limni izchil rivojlantirib kelmoqda. Mamlakatda maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda raqamli texnologiyalar keng joriy etilgan. Ushbu maqolada Singapur raqamli ta’lim tizimi misolida muammolar, yechimlar va istiqbolli takliflar yoritiladi.[1]

Singapurda raqamli ta’lim tizimining umumiy tavsifi:

Singapurda raqamli ta’lim quyidagi asosiy yo‘nalishlarga tayanadi:

- **Milliy raqamli ta’lim siyosati** (*ICT in Education Masterplan*);
- **Yagona ta’lim platformalari** (*Student Learning Space – SLS*);
- **O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi**;
- **Innovatsion baholash tizimlari**.[2]



1-rasm. Singapur raqamli ta’lim ekotizimi

Singapur Ta’lim vazirligi tomonidan yaratilgan **Student Learning Space (SLS)** platformasi barcha maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari uchun bepul va majburiy hisoblanadi. Ushbu platforma orqali videodarslar, interaktiv topshiriqlar, testlar va tahliliy hisobotlar taqdim etiladi.[3]

Raqamli ta’limdagi asosiy muammolar

4. Zulfixarov, I. M. Mamasidiqov BQ Mexatronika va robototexnikada ikki karrali integralning mexanik tatbiqlari. Andijon mashinasozlik instituti xalqaro ilmiy-texnik anjuman.-2023 yil, 19-21.

5. Raximov.N.N, Mamasidikov.B “Maktab o‘quvchilarida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni yechish” mavzusidagi EURASIAN RESEARCH BULLETIN ilmiy jurnalida 11-soni.11.11.2023 y.

6. Mamasidikov B.Q Yuqori tartibli determinantni hisoblashni qulay usullari “Science and Education” scientific journal / www.openscience.uz Oktober 2023 / volume 4 ISSUE 10. 8-13

7. Mamasidikov B.Q. **“**Maktab o‘quvchilarida sonning butun va kasr qismlariga oid masalalarni yechish ko‘nikmasini shakllantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish” Monografiya // -AndMI, -2024. -102 b.

ISSN 3030-3907

MATEMATIK TAHLIL MASALASINI YECHISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Mirzaeva Manzura Maxmudovna
Andijon davlat texnika instituti, dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kompyuter dasturiy vositalaridan foydalanib matematik tahlil masalalarini yechish imkoniyatlari ko‘rilgan. “Axborot tizimlari” va “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” magistratura mutaxassisliklarida “Matematik tahlilda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning umumiy tushunchalari yoritilgan. Maqola texnika va iqtisodiyot yo‘nalishlarida dars beradigan matematik o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit qo‘zlar: matematik tahlil, funksiya, limitlar nazariyasi, funksiyalar uzluksizligi, ketma-ketlik, qatorlar, hosila, differensial, onlayn kalkulyator, online hisoblash, ilova dasturlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности решения задач математического анализа с использованием современного компьютерного программного обеспечения. Рассматриваются общие концепции преподавания предмета «Информационные технологии в математическом анализе» в рамках магистерских специальностей «Информационные системы» и «Информационные системы и технологии в экономике». Данная статья предназначена для преподавателей математики, работающих на технических и экономических факультетах.

Ключевые слова: математический анализ, функция, теория пределов, непрерывность функций, последовательность, ряд, производная, дифференциал, онлайн-калькулятор, онлайн-расчеты, приложения.

Annotation. This article discusses the possibilities of solving mathematical analysis problems using modern computer software. The article examines general concepts for teaching the subject "Information Technologies in Mathematical Analysis" within the framework of the master's degree programs "Information Systems" and "Information Systems and Technologies in Economics". This article is intended for mathematics teachers working in technical and economic faculties.

Key words: Mathematical analysis, function, limit theory, continuity of functions, sequence, series, derivative, differential, online calculator, online calculations, applications.

KIRISH.

“Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarorining 1- ilovasida

ISSN 3030-3907

belgilangan matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli dasturida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining matematik fanlar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini iqtisodiyotning real sohasidagi texnologiyalarda, shuningdek, amaliy hamda ilmiy faoliyatda qo‘llay olishini ta’minlash belgilangan. 2020 yil 24 yanvardagi Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomasida oliy ta’limda mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni ikki baravarga kamaytirish haqida ko‘rsatma bergan. Bunda mutaxassislikka bevosita aloqasi bo‘lmagan fanlarni qisqartirib, ular o‘rniga aynan har bir sohani o‘ziga tegishli zamonaviy bilimlarni berish nazarda tutilgan. Umumiy fanlar qatorida matematikaga taalluqli fanlar deyarli barcha oliy ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladi. Ularda sof matematik bilimlar beriladi. Texnika va iqtisodiyot yo‘nalishlarida nazariy bilim emas amaliy qo‘llash bo‘yicha bilimlar zarur. Matematik bilimlarni amaliy qo‘llash uchun matematik tuchunchalarni bilish etarli, qo‘lda hisoblash bo‘yicha malakaga hozirda ehtiyoj yo‘q. Negaki, internet orqali foydalaniladigan kompyuter dasturlari matematik hisoblashlar uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Ulardan foydalanish uchun matematika tarkibiga kiruvchi fanlarni o‘qitishga yangicha yondashuv zarur. “Matematik tahlilda axborot texnologiyalari” fani ana shunday matematik tahlil nazariyasini kompyuter dasturlari orgali amaliy tadbiq qilishga qaratilgan yangi zamonaviy bilim beradigan fan hisoblanadi. Hozirda bu fan Andijon davlat texnika institutining “Axborot tizimlari” va “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” magistratura mutaxassisliklarida tanlov fan sifatida kiritilgan. Texnika va iqtisodiyot barcha bakalavr yo‘nalishlarida matematika tarkibiga kiruvchi fanlar axborot texnologiyalari bilan birga o‘qitilishi zamon talabidir.

Bugungi kunda oliy ta’limning barcha sohalarida matematik hisoblashlarni talab etadigan fanlar mavzularini zamonaviy dasturiy vositalar imkoniyatlari bilan yug‘unlashtirish dolzarb masaladir. Negaki, hisoblash texnikasi hozirda juda katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, hisoblash jarayonlari anchagina murakkab operatsiyalardan iborat bo‘lgan matematikaning bo‘limlari uchun ham maxsus ilova dasturlar yaratilgan bo‘lib, ular yordamida ko‘p vaqt talab etiladigan hisoblash ishlari tez bajariladi va aniq natijalar olinadi. Biroq turli hisoblashlar bilan faoliyat olib boradigan iqtisodiy va texnik sohalarda hisoblashlar uchun zarur bo‘ladigan zamonaviy dasturlardan maksimal foydalanish etapli darajada emas. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanib maruzalar o‘qish faqat taqdimot slaytlari yordamida dars o‘tish bilan cheklanmoqda. Prezentatsiya orqali masalan, biror funksiya differensialini, integralini hisoblashni namoish qilishdan ko‘ra uni MatCAD, Matematika ilova dasturlarning o‘zida yoki online hisoblash usulida hisoblab ko‘rsatish va ularda ishlash texnikasini o‘rgatish qiziqroq va foydaliroq

ISSN 3030-3907

bo‘ladi. Nazariy bilimlarni berish bilan birda uni dasturiy vositalarning o‘zida bevosita ishlab ko‘rsatish, kelajakda har qanday mutahassisga ish faoliyatida, hech qiyinchiliksiz qo‘llash imkoniyatini beradi

Axborot texnologiyalari sohasiga tegishli bo‘lmagan nazariy fan dasturlarida, zarur hisoblashlar talab etiladigan o‘rinda qo‘llashga asqotadigan, kompyuter dasturiy vositalari imkoniyatlarini o‘rgatish nazarda tutilmagan. Shuning uchun aksariyat mavzular hisoblash texnikasi yaratilmagan davrda qanday bayon etilgan bo‘lsa shundayligicha bayon etilmoqda. Jumladan, bakalavrda matematik tahlil masalalarini yechishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘rilmagan. Vaholanki, hozirda matematik tahlil masalalari yechish texnologiyasi anchagina takomillashgan, unda murakkab matematik masalalarni tez va katta aniqlkda hal qilish mumkin. Uning imkoniytlarini o‘rgatish undan tadqiqot ishlarida foydalanish uchun zarurdir.

MATEMATIK TAHLIL MASALALARI. Matematik tahlil.– bu matematik funksiyalar, ularning hossalari va o‘zgarishini o‘rganadigan matematikaning bir bo‘limidir. Dastlab u “cheksiz kichiklar tahlili”deb yuritilgan, uning mohiyati hosilalar, limitlar va cheksiz kichik miqdorlar yordamida funksiyalarni o‘rganish edi. Matematik tahlil bu funksiyani tahlil qilish uchun yo‘l-yo‘riqlar va usullarni asoslab beradi. Funksiyani tahlil qilish deganda uning hossalari va o‘zgarishini aniqlash tushiniladi, ya’ni funksiya ko‘rinishi, aniqlanish sohasi, uzluzsizligi, uzlush nuqtalari, eng katta va eng kichik qiymatlari, ekstremum qiymatlari, funksiyani o‘sishi, kamayishi, funksiya qiymatlari yig‘indisi kabi ma’lumotlarni aniqlash, bu funksiyani tahlil qilish hisoblanadi. Ularni aniqlashda haqiqiy sonlar va limitlar nazariyasi, funksiyalar uzluksizlik shartlari, hosila, differensiallash qoidalari, aniqmas va aniq integrallarni hisoblash usullari qo‘llaniladi. Shularni ishlab chiqish, asoslash va tadbiq etish matematik tahlil fanining asosiy masalasidir. Uning asosiy tushunchalari: funksiya, ketma-ketlik, qatorlar, limit, hosila, differensial va integral.

Matematik tahlil asosida limitlar nazariyasi yotadi, negaki matematik tahlilning asosiy masalalari bo‘lgan hosila, differensiallash va integral hisob nazariyalari shu asosida yaratilgan. Matematik tahlil bir o‘zgaruvchili funksiyalar berilishini o‘rganishdan boshlab ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar differensiali va integraligacha nazariy asoslarni o‘rganadi. Bir o‘zgaruvchili funksiya deb bu kursda haqiqiy sonlar to‘plamini haqiqiy sonlar to‘plamiga akslantirish tushuniladi. Shu sababli kurs haqiqiy sonlar to‘plamini qurish bilan boshlanadi.

Matematik tahlil fani bakalavr “Axborot tizimlari” yo‘nalishida quyidagi mavzular bo‘yichcha o‘rgatiladi:

- To‘plamlar va ular ustida amallar.


ISSN 3030-3907

-Bir o‘zgaruvchining funksiyasi.
- Sonli ketma-ketlik va uning limiti
- Funksiya limiti Funksiya uzluksizligi
- Funksiyaning hosilasi va differensiali.
- Yuqori tartibli hosilalar Teylor va makloren formulalari.
Hosilaning geometrik va mexanik tadbiqlari
- Bir o‘zgaruvchili funksiyani tekshirish.
- Boshlang‘ich funksiya va aniqmas integral. Integrallash usullari
- Aniq integral. Xosmas integrallar.
Aniq integralning geometriya, mexanika va fizikaga tatbiqlari.
- Qatorlar nazariyasi

Ushbu yo‘nalish magistratura mutaxasisligida esa yuqoridagi mavzular “Matematik tahlilda axborot texnologiyalar” fanida zamonaviy axborot texnologiyalar orqali o‘rganiladi.

Matematika masalalarni hal qilishda kompyuter dasturiy vositalari. Matematik dasturiy paketlar oddiy hisob-kitoblardan tortib murakkab tenglamalarni yechishgacha bo‘lgan sonli va simvolli matematik hisoblarni bajarish uchun mo‘ljallangan dasturlardir. Eng ko‘p tanilgan dasturlar qatoriga Mathcad (professional paket), Maple va Mathematica (analitik hisoblar uchun), MATLAB (ilmiy va muhandislik hisoblari uchun)kiradi. Scilab va GNU Octave kabi bepul analoglar ham mavjud.

MathCad dasturida matematik tahlilga tegishli funksiya grafigini qurish, limitlar, hosila, aniq va aniqmas integrallar, ketma-ketliklar yigindisini hisoblash imkoniyatlari mavjud|(1-rasm). Ular quyidagi maxsus belgilar palitrasi orqali amalga oshiriladi:




1-rasm. MathCad dasturida matematik tahlilga tegishli funksiya

MathLab dasturi matritsaviy operatsiyar bajarish uchun kuchli qurol, lekin unda bir matematik ifodani boshqa shaklga o‘tkazadigan operatsiyalar bajarilmaydi. Unda matematik tahlilda o‘rganiladigan mavzulardan funksiya grafigini qurish va aniq integralni hisoblash inkoniyatlari mavjud. Ular mos ravishada plot(), quad() funksiyalari orqali amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Matematika masalalarni hal qilishda internet texnologiyalar. Hozirda matematika masalalarni hal qila oladigan 20 dan ortiq dasturlar internetda keng tarqalgan(2-rasm).



2-rasm. Matematika masalalar uchun ilova dasturlar.

Smartfon telefonlar orqali ham matematika masalalarni hal qilish mumkin (3-rasm). Masalan, quyidagi ilova dasturlar matematik masalalarni hal etishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda:

1. Photomath
2. MalMath: Step by step solver
3. Mathway
4. Mathpix
5. MyScript Calculator



3-rasm. Smartfonlar uchun ilova dasturlar.

Kelajakda mutahassis ish faoliyatida matematikadan foydalanish uchun uning asosiy tushunchalarni bilish, ulardan qayerlarda foydalanish mumkinligini bilish va hisoblash texnikasi orqali masalalar yechish texnologiyasini o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan 30-40 yil oldin berilgan sof matematika fanining o‘zini bilish bugungi kunda kamlik qiladi.

Matematik tahlil masalalarini online yechish texnologiyalari. Online texnologiyalarda matematik ifodlarni yozishda maxsus belgilardan foydalaniladi. Funktsiya bitta o‘zgaruvchi x bilan beriladi, qavslar(), **pi** - pi soni, **e** -eksponenta. Matematik amallar:

\+ — qo‘shish, - — ayirish, * — ko‘paytirish, / — bo‘lish, ^ — darajaga ko‘tarish.


Har bir saytda formulalar shu sayt uchun qabul qilingan belgilarga mos kiritiladi. Masalan ru.symbolab.com saytida maxsus formula kiritish paneli foydalaniladi (4-rasm).

ISSN 3030-3907




4-rasm. ru.symbolab.com saytida maxsus formula kiritish paneli.

Mat24.biz saytida formula kiritish qoidasi alohida mundarija boshida ko‘rsatilgan(5-rasm).




5-rasm. Mat24.biz saytida formula kiritish uchun ko‘rsatmaga o‘tish.

Funksiyani kiritishda math.semestr.ru saytida Ko‘rsatmalar(Инструкции) bo‘limidagi namunalardan foydalanish mumkin(6-rasm).



6-rasm. math.semestr.ru saytida formula kiritish uchun ko‘rsatmaga o‘tish.

$\int(lgx+\sqrt{x}-tgx-e^x+x^5)dx$ integralni math.semestr.ru, ru.symbolab.com, Mat24.biz saytilari orqali hisoblash uchun uni namunadagi funksiyalar orqali kiritish 7-rasmda ko ‘rsatilgan.



7-rasm. Noaniq integralni namunadagi funksiyalar orqali kiritishga misol.

Differensial tenglamalarni yechish uchun yaratilgan https://mathdf.com saytida quyidagi funktsiyalarga ruxsat beriladi:

sqrt - kvadrat ildiz,	sin — sin	sec — sekans
exp - e ni darajasi	cos — kosinus	csc — kosekans
lb - 2 asosga logarifm	tg — tangens	arcsec — ark sekans
lg - 10 asosga logarifm	ctg — kotangens	arccsc — ark kosekans
ln - natural logarifm	sh — giperbolik sinus	sech - giperbolik sekans
logP - P asosli logarifmi	ch — giperbolik kosinus	csch-giperbolik kosekans

ISSN 3030-3907

log7(x)–7 asosli logarifmi	th - giperbolik tangens	exsec — exsekans
rootP – P darajali ildizi	cth - giperbolik kotangens	excsc — excosekans
root3(x) – kub ildiz	arcsin — arksinus	versin — versinus
abs - absolyut qiymat	arccos — arkkosin	vercos — vercosinus
sgn – signum(ishora)	arctg — arktangens	haversin — haversine
	arcctg — arkkotangens	

XULOSA. Onlayn matematik kalkulyatorlar matematik tahlilning barcha masalalarini yechish bo‘yicha yetarli darajada imkoniyatga ega. Matematik tahlil masalalarini texnikada, iqtisodiyotda amaliy tadbiq qilish uchun matematik tahlil nazariyasidan asosiy tushinchalar va u bilan birga zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish talab etiladi. Zamonaviy texnologiyalar masalani tez va aniq hal eta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adilov B.B. Matematika fanlarini o ‘qitihda zamonaviy Axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. “Экономика и социум” №8(134) 2025.
2. Zulfixarov I.M. Hisob(Calculus) 1-qism,[darslik] – “Omadbek print number one” MCHJ,Andijon:2024.-245b.
3. Mirzayeva M.M. Yangiboyeva R.M. Aniq fanlarni zamonaviy o‘qitishning usullarini takomillashtirish.- “Zamonaviy ilm-fanda olima ayollarning o‘rni”, ilmiy-amaliy anjuman, Farg ‘ona, 2025, 292 b.
4. https://ru.symbolab.com › solver
5. https://math.semestr.ru/math/
6. https://math24.biz/

ISSN 3030-3907

GAMIFIKATSIYA ASOSIDA INTERAKTIV TA’LIM METODIKASINI LOYIHALASHNING NAZARIY MODELINI ISHLAB CHIQISH

Sultanova Dildora Ilhomjon qizi
Andijon davlat texnika instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi assisenti
E-mail: dsultanova2128@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalashning nazariy modeli ishlab chiqilgan hamda uning axborot tizimlarini loyihalash fanini o‘qitish jarayonidagi pedagogik samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, gamifikatsiya elementlari va interaktiv ta’lim texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasi nazariy jihatdan asoslandi. Empirik tadqiqotlar doirasida pedagogik tajriba, kuzatuv, so‘rovnoma va test sinovlari o‘tkazilib, gamifikatsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning talabalarning o‘quv motivatsiyasi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi hamda jamoaviy ishlash kompetensiyalariga ijobiy ta’siri aniqlangan. Tadqiqot natijalari gamifikatsiya asosidagi interaktiv ta’lim metodikasi axborot tizimlarini loyihalash kabi murakkab fanlarni o‘qitishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur ish natijalari oliy ta’lim muassasalarida raqamli va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘z: gamifikatsiya, interaktiv ta’lim, ta’lim metodikasi, nazariy model, axborot tizimlarini loyihalash, talaba markazli ta’lim, jamoaviy ishlash, raqamli ta’lim texnologiyalari, pedagogik samaradorlik.

Annotation. This article develops a theoretical model of designing interactive educational methodology based on gamification and analyzes its pedagogical effectiveness in the process of teaching the subject of information systems design. In the course of the research, the integration of modern pedagogical approaches, gamification elements and interactive educational technologies was theoretically substantiated. As part of the empirical research, pedagogical experiments, observations, questionnaires and tests were conducted, and the positive impact of classes organized on the basis of gamification on students' learning motivation, level of knowledge acquisition and teamwork competencies was determined. The results of the study show that interactive educational methodology based on gamification is an effective pedagogical tool in teaching such complex subjects as information systems design. The results of this work are of practical importance in the implementation of digital and innovative pedagogical technologies in higher education institutions.

Keywords: gamification, interactive education, educational methodology, theoretical model, information systems design, student-centered education, teamwork, digital educational technologies, pedagogical effectiveness.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данной статье разработана теоретическая модель проектирования интерактивной образовательной методологии на основе геймификации и проанализирована ее педагогическая эффективность в процессе преподавания предмета «Проектирование информационных систем». В ходе исследования теоретически обоснована интеграция современных педагогических подходов, элементов геймификации и интерактивных образовательных технологий. В рамках эмпирического исследования были проведены педагогические эксперименты, наблюдения, анкетирование и тестирование, и определено положительное влияние занятий, организованных на основе геймификации, на мотивацию к обучению, уровень усвоения знаний и компетенции в командной работе студентов. Результаты исследования показывают, что интерактивная образовательная методология, основанная на геймификации, является эффективным педагогическим инструментом в преподавании таких сложных предметов, как проектирование информационных систем. Результаты данной работы имеют практическое значение для внедрения цифровых и инновационных педагогических технологий в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: геймификация, интерактивное образование, образовательная методология, теоретическая модель, проектирование информационных систем, студентоцентрированное образование, командная работа, цифровые образовательные технологии, педагогическая эффективность.

KIRISH.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari qatori ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Ayniqsa, raqamli muhitda shakllanayotgan yosh avlodni o‘qitishda an’anaviy ma’ruza asosidagi yondashuvlar o‘z samaradorligini yo‘qotib, ta’lim jarayonini interaktiv, innovatsion va talaba markazli metodlar asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekistonlik olimlar ta’kidlaganidek, zamonaviy ta’lim jarayonida talabaning passiv tinglovchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etishi bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishning muhim omili hisoblanadi [2].

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham raqamli va interaktiv ta’lim texnologiyalarini joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash muhim vazifa sifatida qayd etilgan[1].

ISSN 3030-3907

Mazkur jarayonda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlardan biri sifatida gamifikatsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar gamifikatsiyani o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini maqsadli integratsiya qilish orqali talabalar motivatsiyasini kuchaytirish va ularning o‘quv faoliyatini faollashtirish vositasi sifatida talqin etadilar[3]. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq fanlarni o‘qitishda gamifikatsiya metodlari murakkab tushunchalarni soddalashtirish va amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi [4].

Pedagogik nuqtai nazardan gamifikatsiya interaktiv ta’lim metodlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u talabalarda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va muammoni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalliy tadqiqotlarda qayd etilishicha, guruhli va loyihaviy faoliyatga asoslangan darslar talabalarning ijtimoiy faolligi va kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [5]. Shu jihatdan gamifikatsiya elementlarini interaktiv ta’lim metodikasi bilan uyg‘unlashtirish ilmiy jihatdan asoslangan nazariy modelni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim amaliyotida gamifikatsiya metodlaridan foydalanish ko‘proq fragmentar xarakterga ega bo‘lib, ularning nazariy asoslangan, tizimli modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Holbuki, ta’lim jarayonida gamifikatsiyani samarali joriy etish uchun pedagogik maqsadlar, motivatsion mexanizmlar, o‘yin elementlari va kutilayotgan o‘quv natijalari o‘zaro uzviy bog‘langan holda loyihalanishi lozim [6].

Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilib, gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalashning nazariy modelini ishlab chiqishni maqsad qiladi. Taklif etilayotgan model talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish hamda jamoaviy ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni o‘z ichiga oladi.

USULLAR

Mazkur tadqiqotda gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalashning nazariy modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash maqsadida turli ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot usullari quyidagi jadvallarda tizimli ravishda bayon etiladi.

1-Jadval.

Tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy usullar

№	Usul nomi	Mazmuni	Tadqiqotdagi vazifasi

ISSN 3030-3907

1	Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish	Gamifikatsiya va interaktiv ta’lim bo‘yicha mahalliy va xorijiy manbalarni o‘rganish	Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish
2	Qiyosiy tahlil	An’anaviy va gamifikatsiyalangan ta’lim metodlarini solishtirish	Samarali metodlarni aniqlash
3	Umumlashtirish	Ilmiy qarashlar va tajribalarni tizimlashtirish	Nazariy xulosalar chiqarish
4	Modellashtirish	Gamifikatsiya asosidagi interaktiv ta’limning nazariy modelini ishlab chiqish	Tadqiqot obyektini tizimli ifodalash
5	Tizimli yondashuv	Ta’lim jarayoni komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash	Metodikaning yaxlitligini ta’minlash

Mazkur jadvalda keltirilgan empirik tadqiqot usullari gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasining pedagogik samaradorligini har tomonlama baholash imkonini berdi. Pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma usullari orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi, motivatsiyasi hamda jamoaviy ishlashga bo‘lgan munosabati aniqlandi. Pedagogik tajriba va test sinovlari esa metodikaning talabalarning bilim darajasiga ta’sirini obyektiv ravishda tahlil qilishga xizmat qiladi.

2-Jadval.

Empirik tadqiqot usullari

№	Usul nomi	Qo‘llanish shakli	Tadqiqotdagi ahamiyati
1	Pedagogik kuzatuv	Dars jarayonida talabalar faoliyatini tahlil qilish	Talabalar faolligi va jamoaviy ishni baholash
2	So‘rovnoma (anketa)	Talabalarning fikr va munosabatlarini aniqlash	Motivatsiya va qiziqish darajasini o‘lchash
3	Pedagogik tajriba	Tajriba va nazorat guruhlari bilan ishlash	Metodikaning samaradorligini tekshirish
4	Test sinovlari	Boshlang‘ich va yakuniy bilim nazorati	Bilim darajasidagi o‘zgarishni aniqlash
5	Loyihaviy ishlarni baholash	Axborot tizimi loyihalarini tahlil qilish	Amaliy ko‘nikmalarni baholash

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan empirik tadqiqot usullari gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasining amaliy samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma usullari orqali talabalarning dars jarayonidagi faolligi, motivatsiyasi hamda jamoaviy faoliyatga bo‘lgan munosabati

ISSN 3030-3907

tahlil qilindi. Pedagogik tajriba va test sinovlari yordamida esa talabalarning bilim darajasidagi o‘zgarishlar aniqlanib, metodikaning ta’lim sifati va natijadorligiga ijobiy ta’siri asoslab berildi. Loyihaviy ishlarni baholash orqali talabalar tomonidan egallangan amaliy ko‘nikmalar va kasbiy kompetensiyalarning shakllanish darajasi aniqlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta’minlandi.

3-Jadval.

Tadqiqotda qo‘llanilgan gamifikatsiya elementlari

№	Gamifikatsiya elementi	Tavsifi	Ta’limiy vazifasi
1	Missiyalar	O‘quv jarayonining bosqichlarga bo‘linishi	Bosqichma-bosqich o‘rganishni ta’minlash
2	Ball tizimi	Bajarilgan vazifalar uchun ball berish	Faollik va rag‘batni oshirish
3	Darajalar	O‘quvchi yutuqlariga ko‘ra daraja oshishi	Kompetensiyani rivojlantirish
4	Reyting jadvallari	Guruhlar natijalarini taqqoslash	Raqobat va hamkorlikni uyg‘unlashtirish
5	Tezkor fikr-mulohaza	O‘qituvchi va tengdosh baholashi	Xatolarni tezkor aniqlash

4-Jadval.

Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

№	Baholash yo‘nalishi	Baholash vositasi	Kutilayotgan natija
1	Nazariy bilimlar	Testlar	Mavzularni tushunish darajasi
2	Amaliy ko‘nikmalar	Loyiha hujjatlari, diagrammalar	Axborot tizimini loyihalash malakasi
3	Jamoaviy ishlash	Peer assessment, kuzatuv	Hamkorlik kompetensiyasi
4	Faollik	Darsdagi ishtirok tahlili	O‘quv jarayoniga jalb etilish
5	Motivatsiya	So‘rovnoma	O‘rganishga bo‘lgan qiziqish

Tadqiqot davomida keltirilgan jadvallar gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalash va uni amaliyotga tatbiq etish jarayonini tizimli ravishda yoritib berdi. Nazariy va empirik tadqiqot usullari, gamifikatsiya elementlari hamda baholash mezonlarining o‘zaro uyg‘unligi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Jadvallar asosida olingan natijalar talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, jamoaviy ishlash kompetensiyalari va o‘quv motivatsiyasida ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini

ISSN 3030-3907

ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv axborot tizimlarini loyihalash fanini o‘qitishda innovatsion va samarali metodika sifatida qo‘llash imkoniyatiga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalari gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini axborot tizimlarini loyihalash fanida qo‘llash talabalarning o‘quv faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, gamifikatsiya o‘quv jarayonida motivatsiyani kuchaytiruvchi samarali mexanizm hisoblanadi [2]. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, faollik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari bo‘yicha sezilarli farqlar kuzatildi.

Empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, gamifikatsiya elementlari (missiyalar, ball tizimi, darajalar va reyting jadvallari) bilan tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning fan mazmuniga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Bu holat talabaning o‘quv faoliyatida ichki motivatsiyaning kuchayishi bilan izohlanadi, chunki gamifikatsiya o‘yin mexanizmlari orqali o‘rganishni tabiiy va qiziqarli jarayonga aylantiradi [1].

Pedagogik kuzatuvlar natijasida gamifikatsiya asosida olib borilgan darslarda talabalar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik faollashgani aniqlandi. Guruhli loyiha ishlari jarayonida talabalar muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish, yechimlarni asoslash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, aynan jamoaviy faoliyatga asoslangan o‘qitish usullari kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [3].

Test sinovlari natijalari tahlili tajriba guruhida bilim darajasining barqaror o‘sishini ko‘rsatdi. Boshlang‘ich va yakuniy nazorat natijalari o‘rtasidagi ijobiy tafovut gamifikatsiya metodikasining ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Bu holat interaktiv va faol metodlar an’anaviy ma’ruza usullariga nisbatan yuqori natija berishini ko‘rsatadigan ilmiy qarashlar bilan mos keladi [4].

Natijalar muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasi talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalar, jamoada ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish va o‘z faoliyatini baholash kompetensiyalarini shakllantiradi. Axborot tizimlarini loyihalash fanining amaliy yo‘naltirilganligi mazkur metodikaning samaradorligini yanada oshiradi [5].

Shuningdek, olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va talaba markazli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati bilan uyg‘un ekanligini

ISSN 3030-3907

ko‘rsatadi [6]. Bu esa gamifikatsiya asosidagi metodikani oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalashning nazariy modelini ishlab chiqish va uni axborot tizimlarini loyihalash fanini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish masalalariga bag‘ishlandi. Tadqiqot davomida gamifikatsiyaning pedagogik imkoniyatlari, interaktiv ta’lim yondashuvlari hamda zamonaviy raqamli ta’lim talablari tizimli tahlil qilindi va ularning o‘zaro integratsiyasi asosida samarali nazariy model ishlab chiqildi.

O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari gamifikatsiya elementlariga asoslangan interaktiv ta’lim metodikasi talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda fan bo‘yicha bilimlarni ongli va barqaror o‘zlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, missiyalar, ball tizimi, darajalar, reytinglar va tezkor fikr-mulohaza kabi mexanizmlar ta’lim jarayonini talaba markazli tashkil etish imkonini berib, talabalarni mustaqil va jamoaviy faoliyatga faol jalb etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gamifikatsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar davomida talabalar axborot tizimlarini loyihalashning asosiy bosqichlarini chuqurroq anglab yetdilar, nazariy bilimlarni amaliy loyiha faoliyati bilan integratsiyalash imkoniga ega bo‘ldilar hamda jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini baholash kabi muhim kasbiy kompetensiyalarni shakllantirdilar. Bu holat mazkur metodikaning an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va talaba markazli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishini ko‘rsatdi. Bu esa gamifikatsiya asosidagi interaktiv ta’lim metodikasini oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etishning dolzarbligini yanada oshiradi. Umuman olganda, gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalashning ishlab chiqilgan nazariy modeli axborot tizimlarini loyihalash fanini o‘qitishda samarali pedagogik vosita sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, uni boshqa IT fanlariga moslashtirish va raqamli ta’lim platformalari bilan integratsiyalash istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi*. Toshkent, O‘zbekiston.S

ISSN 3030-3907

2. Saidahmedov, N. S. (2019). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent, O‘zbekiston: Fan.
3. Nazarova, X. I. (2022). Ta’lim jarayonida gamifikatsiya metodlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. *Pedagogik ta’lim*, 4(2), 45–49.
4. Qodirov, B. R., & Xolmatov, A. A. (2021). Axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda interaktiv metodlar. *Zamonaviy ta’lim*, 6, 33–37.
5. Jo‘rayev, R. X. (2020). *Oliy ta’limda interaktiv o‘qitish metodlari*. Toshkent, O‘zbekiston: O‘qituvchi.
6. Usmonov, D. A. (2021). Ta’limda innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi. *Ta’lim muammolari*, 3, 18–22.
7. Sultanova, D. I. (2025). Analysis of the current status of organization of project activity among higher education students. *International Journal of Informatics and Data Science Research*, 2(10), 108–109.
8. Sultanova, D. I. (2024). Gamifikatsiya asosida interaktiv ta’lim metodikasini loyihalab o‘qitish. *Development of Science*, 6, 119–125
9. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification. In *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference* (pp. 9–15). New York, NY: ACM. https://doi.org/10.1145/2181037.2181040
10. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification. In *Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences* (pp. 3025–3034). IEEE. https://doi.org/10.1109/HICSS.2014.377

ISSN 3030-3907

ADAPTIVE TA’LIMDA RAQAMLI KONTENTNI AVTOMATIK MOSLASHTIRISH ALGORITMLARI: GIBRID MODELLAR VA NEYRON TARMOQLARI INTEGRATSIYASI

Raimov Ulug‘bek Yorqinbek o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti axborot texnologiyalari kafedra assistenti
E-mail: uraimov0111@gmail.com
Maxammedova Muxtasar Mirzoxid qizi
Andijon Davlat Texnika Instituti talabasi
E-mail: maxammedovamuxtasar@gmail.com
ORCID: 0009-0009-9304-5980

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot raqamli ta’lim muhitida o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish uchun sun’iy intellekt algoritmlarini qo‘llash masalalarini o‘rganadi. Maqolada kollaborativ filtrlash, kontentga asoslangan tahlil va Item Response Theory (IRT) metodologiyalarini birlashtirgan gibrid adaptatsiya modeli taklif etiladi. Tadqiqotning asosiy yangiligi — o‘quvchining kognitiv holatini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi dinamik adaptatsiya zanjirini ishlab chiqishdir. Eksperimental natijalar taklif etilgan algoritm o‘quvchilarning materialni o‘zlashtirish tezligini o‘rtacha 25% ga oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: adaptive learning, machine learning, collaborative filtering, irt, knowledge tracing, raqamli kontent, shaxsiylashtirilgan ta’lim.

Abstract. This study examines the application of artificial intelligence algorithms for personalizing the learning process in a digital education environment. The paper proposes a hybrid adaptation model that integrates collaborative filtering, content-based analysis, and Item Response Theory (IRT) methodologies. The main novelty of the research lies in the development of a dynamic adaptation chain that enables real-time monitoring of learners’ cognitive states. Experimental results demonstrate that the proposed algorithm increases learners’ content acquisition speed by an average of 25%.

Keywords: adaptive learning, machine learning, collaborative filtering, IRT, knowledge tracing, digital content, personalized learning.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению вопросов применения алгоритмов искусственного интеллекта для персонализации учебного процесса в цифровой образовательной среде. В статье предлагается гибридная модель адаптации, объединяющая методы коллаборативной фильтрации, контентно-ориентированного анализа и теории отклика на задание (Item Response Theory, IRT). Основная научная новизна исследования заключается в разработке динамической адаптационной цепочки, позволяющей в режиме реального времени отслеживать когнитивное

ISSN 3030-3907

состояние обучающегося. Экспериментальные результаты показывают, что предложенный алгоритм повышает скорость усвоения учебного материала обучающимися в среднем на 25%.

Ключевые слова: адаптивное обучение, машинное обучение, коллаборативная фильтрация, IRT, отслеживание знаний, цифровой контент, персонализированное обучение

Kirish.

Raqamli ta’limning global miqyosda ommalashuvi o‘quv materiallarini individual ehtiyojlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. An’anaviy Massive Open Online Courses (MOOC) platformalarining asosiy kamchiligi shundaki, talabalarning 90% dan ortig‘i kursni oxirigacha yetkazmaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, buning asosiy sababi taqdim etilayotgan kontentning o‘quvchi bilim darajasi va o‘rganish sur’atiga mos kelmasligidir. Adaptive Learning Systems (ALS) ushbu muammoni hal etishda mashinali o‘rganish (Machine Learning) va ma’lumotlar tahlili (Data Science) yondashuvlaridan foydalanadi. Ushbu maqolada adaptiv ta’lim tizimlari uchun gibrid algoritmik model taklif etilib, uning samaradorligi empirik jihatdan tahlil qilinadi[2],[5].

Adaptatsiya jarayonining birinchi bosqichi o‘quvchining raqamli profili yoki “o‘quvchi modeli”ni shakllantirishdan iborat. Ushbu model quyidagi asosiy parametrlarni o‘z ichiga oladi:

Bilim darajasi(θ) — o‘quvchining fan bo‘yicha joriy kompetensiyasi;

O‘rganish uslubi — vizual, auditorial yoki matnli kontentga moyillik;

Psixofiziologik holat — diqqat darajasi va charchoq holati.

Mazkur parametrlar adaptiv algoritmlarga kontentni individual tarzda tanlash imkonini beradi.

Raqamli ta’lim kontenti quyidagi to‘plam sifatida ifodalanadi:

$$C = \{c1, c2, \dots, cn\}$$

Har bir c_i kontent elementi murakkablik vektori d_i va bilimlar grafigi (knowledge graph) orqali tavsiflanadi. Bu yondashuv kontentlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi[4],[6].

Ta’lim tizimlarida kontent tavsiya qilish uchun kollaborativ filtrlash metodlari keng qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqotda Singular Value Decomposition (SVD) asosidagi gibrid model taklif etiladi:

$$R = U\Sigma V^T$$

R — o‘quvchi–kontent o‘zaro ta’sir matritsasi,

U va V — latent xususiyatlar matritsalari,

Σ — singular qiymatlar matritsasi.

ISSN 3030-3907

Model o‘quvchining avvalgi faoliyati asosida unga mos bo‘lgan, ammo hali o‘rganilmagan kontentni bashorat qiladi[1].

O‘quvchi bilim darajasini aniqlash uchun 3-parametrli logistik model (3PL) qo‘llaniladi:

$$P_i(\theta) = c_i + \frac{1-c_i}{1+e^{-Da_{i(\theta-b_i)}}}$$

Bu yerda:

ai — savol diskriminatsiyasi,

bi — murakkablik darajasi,

ci — taxmin qilish ehtimoli,

D — skalalash konstantasi.

Har bir javobdan so‘ng θ qiymati qayta hisoblanib, tizim keyingi kontent murakkabligini avtomatik tarzda moslashtiradi.

Avtomatik Moslashtirish Arxitekturasi. Taklif etilgan adaptiv tizim to‘rt bosqichdan iborat:

Dastlabki diagnostika — Cold Start muammosini bartaraf etish uchun boshlang‘ich test;

Klasterlash — K-means algoritmi orqali o‘quvchilarni o‘xshash guruhlarga ajratish;

Dinamik traektoriya — Reinforcement Learning agenti yordamida optimal o‘rganish yo‘lini aniqlash;

Kontent generatsiyasi — NLP texnologiyalari asosida matnlarni soddalashtirish[7].

Tajriba “Informatika va Algoritmlar” kursi doirasida 1200 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi.

1-Jadval.

Algoritmlarning qiyosiy samaradorligi

Ko‘rsatkich	An’anaviy LMS	Faqat IRT	Gibrid model
Kursni bitirish darajasi	12%	45%	78%
O‘rtacha ball (100 lik)	62	74	89
O‘quv vaqtining tejalishi	0%	15%	30%
RMSE	1.25	0.89	0.65

2-Jadval.

Kontent turlari bo‘yicha adaptatsiya aniqligi

Kontent turi	Moslashuvchanlik koeffitsiyenti	Algoritm
Video darslar	0.82	Collaborative Filtering
Interaktiv testlar	0.94	IRT + BKT
Matnli materiallar	0.76	TF-IDF + NLP

ISSN 3030-3907

So‘nggi yillarda raqamli kontent hajmining eksponensial o‘sishi foydalanuvchilar uchun “tanlov haddan tashqari ko‘pligi” (digital content overload) muammosini keltirib chiqardi. Bu holat qaror qabul qilish jarayonida charchoqni yuzaga keltirib, foydalanuvchi qoniqishi va platformalarga bo‘lgan sodiqlik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, samarali tavsiya (recommendation) tizimlari foydalanuvchi faolligini oshirish, kontentni kashf etish jarayonini soddalashtirish hamda umumiy platforma qiymatini kuchaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Film va musiqa tavsiya tizimlarida keng qo‘llanilayotgan gibrid recommendation yondashuvlari adaptive ta’lim tizimlari uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, kontentga asoslangan filtrlash, kollaborativ filtrlash va xususiyatlar o‘xshashligi tahlilini birlashtirgan modellar ta’lim kontentini shaxsiylashtirishda yuqori aniqlik va moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ushbu yondashuvlar yordamida o‘quvchi ehtiyojlari, bilim darajasi va o‘rganish uslubi asosida individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish mumkin. Film tavsiya tizimlarida kontentga asoslangan filtrlash odatda TF-IDF vektorlashtirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu usul film tavsiflari (syujet, janr, mavzu)ni semantik jihatdan ifodalab, mazmuniy jihatdan o‘xshash obyektlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv adaptive ta’limda o‘quv materiallari — matnli darslar, videolar va interaktiv topshiriqlar — o‘rtasidagi semantik o‘xshashlikni aniqlash uchun qo‘llanilishi mumkin. Natijada, o‘quvchiga avvalgi o‘zlashtirilgan materiallar bilan mazmunan bog‘liq bo‘lgan yangi resurslar tavsiya etiladi[3].

Kollaborativ filtrlashda esa Truncated Singular Value Decomposition (SVD) yordamida foydalanuvchi–kontent matritsasi faktorizatsiya qilinadi va yashirin preferensiyalar aniqlanadi. Ta’lim kontekstida ushbu yondashuv o‘xshash bilim darajasi va o‘rganish xatti-harakatlariga ega o‘quvchilar guruhini aniqlash hamda yangi o‘quvchi uchun optimal o‘quv kontentini bashorat qilish imkonini beradi. Bu esa individual ta’lim traektoriyalarini avtomatik shakllantirishga xizmat qiladi.

Musiqa tavsiya tizimlarida raqsga moslik (danceability), energiya, balandlik (loudness), tempo va emotsional rang (valence) kabi raqamli audio xususiyatlar asosida o‘xshashlik hisoblanadi. Ushbu yondashuv adaptive ta’lim tizimlarida multimodal kontentni moslashtirish uchun samarali analog bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Masalan, ta’lim kontentida:

1. video darslar uchun vizual murakkablik darajasi,
2. audio materiallar uchun nutq tezligi va intonatsiya,

ISSN 3030-3907

3. test va mashqlar uchun kognitiv yuklama darajasi kabi parametrlar baholanib, o‘quvchining individual qabul qilish qobiliyatiga mos kontent formatlari tanlanadi.

Bu yondashuv o‘quvchilarning charchashini kamaytirib, materialni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Film va musiqa tavsiya tizimlarida qo‘llanilgan gibrid arxitekturalar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuvlar bir qator muhim ustunliklarga ega. Jumladan, ular:

Cold start muammosini kamaytiradi, chunki kontent va foydalanuvchi xususiyatlari birgalikda tahlil qilinadi;

1. tavsiyalar aniqligi va ishonchliligini oshiradi;
2. tizimning masshtablanish (scalability) imkoniyatlarini yaxshilaydi;
3. real vaqt rejimida moslashtirilgan tavsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur afzalliklar adaptive ta’lim tizimlari uchun ham muhim bo‘lib, o‘quvchi motivatsiyasini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish va kursni tark etish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Film va musiqa tavsiya tizimlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan gibrid modellar adaptive ta’lim tizimlari uchun universal va barqaror arxitektura yaratish imkonini beradi. Ushbu yondashuvda ta’lim kontenti alohida o‘quv birliklari sifatida emas, balki multimedia obyektlar majmuasi sifatida qaraladi. Bunda matnli materiallar, video darslar, audio resurslar va interaktiv topshiriqlar yagona adaptiv mexanizm orqali boshqarilib, foydalanuvchining xatti-harakati, bilim darajasi va o‘rganish dinamikasi asosida avtomatik tarzda moslashtiriladi. Natijada, ta’lim jarayoni an’anaviy statik modeldan voz kechib, moslashuvchan va real vaqt rejimida yangilanib boruvchi tizimga aylanadi[8].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, avtomatik moslashtirish mexanizmlari o‘quvchining nafaqat bilim darajasini oshirishga, balki uning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsiylashtirilgan kontent o‘quvchini haddan tashqari murakkab yoki juda sodda materiallardan himoya qilib, optimal kognitiv yuklama muhitini yaratadi. Bu esa o‘quvchining o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Taklif etilgan gibrid model o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rtacha 90% aniqlik bilan hisobga olishi, ta’lim samaradorligining sezilarli darajada oshishiga olib kelishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, adaptiv ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt algoritmlarining keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq muhim muammo — “Black Box” effekti — dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ya’ni, murakkab neyron tarmoqlar va gibrid modellar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ichki mexanizmini tushuntirish qiyinligi tizimga bo‘lgan ishonchni pasaytirishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ta’lim kabi ijtimoiy

ISSN 3030-3907

ahamiyatga ega sohalarda muhim hisoblanadi. Shu sababli, kelajak tadqiqotlarida Explainable Artificial Intelligence (XAI) texnologiyalarini adaptive ta’lim tizimlariga integratsiya qilish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. XAI yondashuvlari yordamida tavsiya va moslashtirish qarorlarining sabablari o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun tushunarli shaklda izohlanishi mumkin[6].

Xulosa qilib aytganda, adaptive ta’limda raqamli kontentni avtomatik moslashtirish pedagogika va sun’iy intellektning samarali sintezini ifodalaydi. Kontentga asoslangan filtrlash, kollaborativ filtrlash va xususiyatlar o‘xshashligini birlashtirgan gibrid modellar ta’lim platformalarini yuqori darajada shaxsiylashtirilgan, masshtablanadigan va kelajakda boshqa sohalarga — kitoblar, podkastlar, video kurslar hamda professional treninglarga — moslashuvchan bo‘lgan intellektual tizimlarga aylantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv intellektual jamiyatni shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Movie Recommendation System Methodology. ResearchGate, 2024.
2. Machine Learning in Adaptive Learning Systems. Springer, 2025.
3. Deep Knowledge Tracing for Student Performance Prediction. IEEE Xplore, 2024.
4. Item Response Theory and Its Applications in E-Testing. Springer Nature, 2024.
5. Personalized Learning Systems Using Artificial Intelligence. Elsevier, 2023.
6. Explainable Artificial Intelligence (XAI): Concepts, Taxonomies and Applications. ACM Computing Surveys, 2023.
7. Collaborative Filtering Recommender Systems. Springer, 2022.
8. Hybrid Recommendation Systems: Survey and Experiments. IEEE Access, 2023.

ISSN 3030-3907

SIRDARYO VILOYATIDAGI “EURASIGAZBETON” ZAVODIDA GOLLANDIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA GAZABLOK ISHLAB CHIQARISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Muminov X.
Toshkent kimyo texnologiya institute Yangiyer filiali dotsenti
Muratov A.
Toshkent kimyo texnologiya institute Yangiyer filiali magistranti
Malikov H.
Toshkent kimyo texnologiya institute Yangiyer filiali magistranti
Aliyev J.
Toshkent kimyo texnologiya institute Yangiyer filiali magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada EURASIGAZBETON korxonasida Gollandiya texnologiyasi asosida avtoklavlangan gazobeton (AAC – Autoclaved Aerated Concrete) ishlab chiqarish jarayonini ilmiy-texnologik jihatdan takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xom ashyo tarkibini optimallashtirish, alyuminiy kukuni dozasi va dispersligini nazorat qilish, aralashtirish va ko‘tarilish (rising) jarayonlarini raqamli monitoring qilish, avtoklav rejimlarini energiya tejamkorlik nuqtai nazaridan qayta sozlash hamda sifat nazoratini kuchaytirish orqali mahsulotning mustahkamlik, zichlik va issiqlik o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga erishildi. Taklif etilgan yechimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tannarxni kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: gazobeton, AAC, avtoklav, Gollandiya texnologiyasi, alyuminiy kukuni, zichlik, mustahkamlik, energiya samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы научно-технологического совершенствования процесса производства автоклавного газобетона (AAC – Autoclaved Aerated Concrete) на предприятии EURASIGAZBETON на основе голландской технологии. Оптимизация состава сырьевой смеси, контроль дозировки и дисперсности алюминиевой пудры, цифровой мониторинг процессов перемешивания и вспучивания (rising), корректировка режимов автоклавирования с точки зрения энергоэффективности, а также усиление системы контроля качества позволили улучшить показатели прочности, плотности и теплопроводности продукции. Предложенные решения обеспечивают повышение производственной эффективности и снижение себестоимости.

Ключевые слова: газобетон, AAC, автоклав, голландская технология, алюминиевая пудра, плотность, прочность, энергоэффективность.

Abstract. This article discusses the scientific and technological improvement of the autoclaved aerated concrete (AAC) production process at

ISSN 3030-3907

EURASIGAZBETON based on Dutch technology. Optimization of the raw material composition, control of aluminum powder dosage and dispersity, digital monitoring of mixing and rising processes, adjustment of autoclave curing regimes from an energy-efficiency perspective, and strengthening of quality control systems led to improved compressive strength, density, and thermal conductivity of the final product. The proposed solutions contribute to increased production efficiency and reduced manufacturing costs.

Keywords: aerated concrete, AAC, autoclave, Dutch technology, aluminum powder, density, compressive strength, energy efficiency.

Kirish.

Gazobeton (AAC) — past zichlikka, yuqori issiqlik izolyatsion xususiyatga va yetarli siqilish mustahkamligiga ega bo‘lgan zamonaviy qurilish materiali hisoblanadi. So‘nggi yillarda energiya tejamkor qurilish materiallariga talab ortib borayotganligi sababli AAC mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshmoqda.

EURASIGAZBETON zavodi Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritib, Gollandiya uskunalari va texnologik liniyalari asosida gazoblok ishlab chiqaradi. Mazkur texnologiya yuqori aniqlikdagi dozatorlar, avtomatlashtirilgan aralashtirish tizimi va zamonaviy avtoklav qurilmalariga asoslangan. Biroq ishlab chiqarish jarayonida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- zichlikning partiyalar bo‘yicha notekisligi;
- ko‘tarilish jarayonida pufakchalar bir tekis taqsimlanmasligi;
- energiya sarfining yuqoriligi;
- ba’zi bloklarda mikro yoriqlar paydo bo‘lishi.

Shu bois, ushbu tadqiqotning maqsadi — ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosda optimallashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Xom ashyo tavsifi

Gazobeton ishlab chiqarishda quyidagi asosiy komponentlar qo‘llanildi:

1. Portlandsement (CEM I 42.5N)
2. Oqartirilgan ohak
3. Kvarts qumi ($SiO_2 \geq 90\%$)
4. Alyuminiy kukuni (gaz hosil qiluvchi komponent)
5. Texnik suv

Kvarts qumi sharli tegirmonda 200–250 mkm disperslikka qadar maydalanib, suspenziya holatiga keltirildi.

TEXNOLOGIK JARAYON BOSQICHLARI

Dozalash va aralashtirish

Xom ashyo avtomatik dozatorlar orqali belgilangan nisbatlarda aralashtirildi.

ISSN 3030-3907

Gaz hosil qilish va ko‘tarilish

Alyuminiy kukuni ohak bilan reaksiyaga kirishib, vodorod ajratadi:

$$2Al+3Ca(OH)_2+6H_2O \rightarrow 3CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 6H_2O+3H_2\uparrow$$

Oldindan qotirish

Massa 35–45°C da 2–3 soat davomida ko‘tarildi.

Kesish jarayoni

Yarim qotgan massa simli kesish mashinasida standart o‘lchamlarga keltirildi.

Avtoklavlash

180–190°C haroratda, 1.0–1.2 MPa bosim ostida 10–12 soat davomida gidrotermal ishlov berildi.

TADQIQOT METODIKASI

- Zichlik (ρ) – GOST 12730 usuli
- Siqilish mustahkamligi – press usuli
- Issiqlik o‘tkazuvchanlik – λ-metr
- Mikrotuzilma – optik mikroskopiya
- Energiya sarfi – kWh/t hisobida

Eksperimentlar uch bosqichda amalga oshirildi:

1. mavjud texnologiya;
2. optimallashtirilgan dozalash;

energiya samarador avtoklav rejimi.

NATIJALAR.

Alyuminiy kukuni dozasi optimallashtirilishi

Alyuminiy kukuni 0.045–0.065% diapazonda sinovdan o‘tkazildi. Optimal qiymat 0.055% bo‘lib, quyidagi natijalarni berdi:

Ko‘rsatkich	Avval	Takomillashtirilgan
Zichlik (kg/m³)	620	580
Mustahkamlik (MPa)	3.2	3.8
λ (W/m·K)	0.16	0.14

Aralashtirish vaqtini optimallashtirish

Aralashtirish vaqti 3 minutdan 4.5 minutga oshirilganda massa bir xil dispers holatga ega bo‘ldi, pufakchalar teng taqsimlandi.

Avtoklav rejimini qayta sozlash

Avtoklav bosimi 1.2 MPa dan 1.0 MPa ga tushirilib, izotermik bosqich 12 soatdan 10 soatga qisqartirildi. Natijada:

- energiya sarfi 12–15% ga kamaydi;
- mahsulot mustahkamligi saqlanib qoldi;
- mikro yoriqlar kamaydi.

Mikrotuzilma tahlili

ISSN 3030-3907

Optik mikroskopiya natijasida optimallashtirilgan namunada g‘ovaklar diametri 0.5–1.5 mm oralig‘ida, bir tekis joylashgani kuzatildi. Bu issiqlik izolyatsion xususiyatni yaxshiladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, gazobeton sifatiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar:

1. alyuminiy kukuni dispersligi va dozasi;
2. massa harorati;
3. avtoklav bosimi va davomiyligi.

Gollandiya texnologiyasi yuqori avtomatlashtirish darajasiga ega bo‘lsa-da, mahalliy xom ashyo xususiyatlari (kvarts qumi granulometriyasi, ohak faolligi) jarayonni qayta sozlashni talab qiladi. Taklif etilgan optimallashtirish modeli quyidagilarni ta’minlaydi:

✓ zichlikning ±10 kg/m³ chegarada barqarorligi;
✓ mustahkamlikning 15–20% oshishi;
✓ energiya tejamkorlik.

Raqamli sensorlar yordamida real vaqt monitoring joriy etilishi ishlab chiqarish barqarorligini yanada oshiradi.

XULOSA

EURASIGAZBETON zavodida Gollandiya texnologiyasi asosida gazobeton ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarni berdi:

✓ Alyuminiy kukuni optimal dozasi 0.055% etib belgilandi.
✓ Aralashtirish vaqtini 4.5 minutga oshirish massa homogenligini yaxshiladi.
✓ Avtoklav rejimini optimallashtirish energiya sarfini 12–15% kamaytirdi.
✓ Mahsulot mustahkamligi 3.8 MPa gacha oshdi va issiqlik o‘tkazuvchanlik kamaydi.

Taklif etilgan texnologik yechimlar zavodda sanoat miqyosida joriy etilishi mumkin bo‘lib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va eksportbop sifatli gazoblok ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

AMALIY AHAMIYATI

1. Qurilish sohasida energiya tejamkor binolar barpo etish imkoniyati;
2. Mahalliy xom ashyodan samarali foydalanish;
3. Sanoat chiqindilarini qo‘shimcha komponent sifatida joriy etish istiqbollari;
4. Eksport salohiyatining oshishi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Committee for Standardization. EN 771-4:2011+A1:2015. Specification for masonry units – Part 4: Autoclaved aerated concrete masonry units. Brussels, 2015.
2. European Committee for Standardization. EN 12602:2016. Prefabricated reinforced components of autoclaved aerated concrete. Brussels, 2016.
3. International Organization for Standardization. ISO 6784:1985. Thermal insulation — Determination of thermal conductivity by guarded hot plate method.
4. ASTM International. ASTM C1693–19. Standard Specification for Autoclaved Aerated Concrete (AAC).
5. ASTM International. ASTM C495/C495M–12. Standard Test Method for Compressive Strength of AAC.
6. Autoclaved Aerated Concrete: Properties, Testing and Design / Narayanan N.; Ramamurthy K.. London: E & FN Spon, 2000.
7. Building Materials: Products, Properties and Systems / Mehta P.K.; Monteiro P.J.M.. 5th ed., Pearson Education, 2014.
8. Properties of Concrete / Neville A.M.. 5th ed., Pearson, 2011.
9. Lea's Chemistry of Cement and Concrete / Hewlett P.C. (Ed.). 4th ed., Elsevier Butterworth-Heinemann, 2004.
10. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. Qurilish materiallari bo‘yicha milliy me’yoriy hujjatlar va texnik reglamentlar, Toshkent, 2020–2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish agentligi. Gazobeton va yengil beton mahsulotlari bo‘yicha O‘zDSt standartlari to‘plami, Toshkent.
12. Construction and Building Materials. Autoclaved aerated concrete bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, Elsevier, 2015–2024.
13. Cement and Concrete Research. Gidrotermal qotish va tobermorit fazasi hosil bo‘lishi bo‘yicha maqolalar, 2010–2024.
14. EURASIGAZBETON. Ichki texnologik reglament va ishlab chiqarish hisobotlari (2023–2025).

ISSN 3030-3907

MANTIQ ALGEBRASIDAGI JEGALKIN KO‘PHADINI SODDA HOLATGA KELTIRISH METODIKASI

Zulfixarov Ilxom Maxmudovich
Andijon davlat texnika instituti Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti
E-mail: izulfixarov@mail.ru tel: +998916092928
ORCID: 0000-0002-8332-2923.

Annotatsiya. Ushbu maqola texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalaridagi “Sun’iy intellekt” ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Diskret tuzulmalar” fanini o‘qitish jarayonida mantiq algebrasidagi Jegalkin ko‘phadining matematik mohiyati hamda ifodalarning sodda holatga keltirish metodikasi aniq misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Oliy ta’lim, sun’iy intelekt, diskret tuzulma, mantiq algebrasi, mantiqiy funksiyalar, Jegalkin ko‘phadi, mantiqiy formula, kon’yunktsiya, simmetrik ayirma, soddalashtirish, algoritm.

Аннотация. В данной статье рассматривается математическая сущность многочлена Жегалкина в логической алгебре и методология упрощения выражений на конкретных примерах в процессе преподавания предмета «Дискретные структуры» студентам образовательной программы «Искусственный интеллект» в технических высших учебных заведениях.

Ключевые слова. Высшее образование, искусственный интеллект, дискретная структура, логическая алгебра, логические функции, умножение Жегалкина, логическая формула, конъюнкция, симметричное деление, упрощение, алгоритм.

Abstract. This article discusses the mathematical essence of the Zhegalkin polynomial in logical algebra and the methodology for simplifying expressions through specific examples in the process of teaching the subject "Discrete Structures" to students of the "Artificial Intelligence" educational program in technical higher education institutions.

Keywords. Higher education, artificial intelligence, discrete structure, algebra of logic, logical functions, Zhegalkin multiplication, logical formula, conjunction, symmetric division, simplification, algorithm.

KIRISH.

Mantiq algebrasi diskret matematikaning fundamental bo‘limlaridan biri bo‘lib, u algoritmlar nazariyasi, raqamli sxemalar, kriptografiya va sun’iy intellekt sohalarida keng qo‘llaniladi. Mantiqiy funksiyalarni turli ko‘rinishlarda ifodalash va soddalashtirish masalasi ushbu sohalarda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda

ISSN 3030-3907

amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli va 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarorlari ijrosi va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishida oz bo‘lsada o‘z hissamizni qo‘shish maqsadida ushbu maqolani yozishni maqsad qildik [1, 2, 3].

Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalaridagi “Sun’iy intellekt” ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Diskret tuzulmalar” fanini o‘qitish jarayonida mantiq algebrasidagi Jegalkin ko‘phadi mantiqiy funksiyalarni ifodalashning samarali usullaridan biri bo‘lib, u funksiya qiymatlarini algebraik ko‘rinishda ifodalash imkonini beradi. Biroq amaliy masalalarda ko‘phad tarkibidagi hadlar sonini kamaytirish va uni sodda holatga keltirish zarurati yuzaga keladi.

Ushbu maqolada texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalaridagi “Sun’iy intellekt” ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Diskret tuzulmalar” fanini o‘qitishda mantiq algebrasida keng qo‘llaniladigan Jegalkin ko‘phadi va uning matematik asoslari hamda ifodalarni sodda ko‘rinishga keltirish usullari tahlil qilinadi. Bundan tashqari Jegalkin ko‘phadini sodda holatga keltirish metodikasini ilmiy asosda yoritish hamda uning ta’lim jarayonidagi qo‘llanish imkoniyatlari yoritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jegalkin ko‘phadi nazariyasi rus matematigi I.I.Jegalkin nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u mantiqiy funksiyalarni algebraik ifodalar yordamida ifodalash g‘oyasini ilgari surgan. Ushbu yondashuv keyinchalik mantiq algebrasi va raqamli sxemalar nazariyasida keng rivojlantirilgan.

K.Rozenning “Diskret matematika va uning ilovalari” asarida Jegalkin ko‘phadi mantiqiy funksiyalarni ifodalashning asosiy shakllaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan. Muallif Jegalkin ko‘phadining yagonaligi va uni tuzish algoritmlarini misollar orqali tushuntiradi.

E.Mendelson va R.Grimaldi ishlarida esa Jegalkin ko‘phadi mantiqiy sxemalarni optimallashtirish bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Ushbu manbalarda mantiq amallariga asoslangan sxemalarning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Ushbu maqola muallifi kaminaga tegishli 2025 yilda chop etilga “Diskret tuzulmalar” nomli o‘quv qo‘llanmada mantiq algebrasida Jegalkin ko‘phadi va ularning tahlili bo‘yicha nazariy va amaliy ma’lumotlar berilgan.

So‘nggi yillarda e’lon qilingan ilmiy maqolalar va chop etilgan adabiyotlatda mantiqiy funksiyalarni soddalashtirishda kompyuter, algebra tizimlari va dasturiy

ISSN 3030-3907

vositalardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash imkonini beradi.

METODIK YONDASHUV. Jegalkin ko‘phadini sodda holatga keltirishda quyidagi muammolarni inobatga olish kerak:

1. Berilgan ifoda(ko‘phad)ning hajmi katta bo‘lmasligiga;
2. Amaliy sxemalarda (chinlik jadvali) ortiqcha mantiqiy elementlar sonining ko‘payib ketmasligiga;
3. Soddalashtirish va tahlil jarayonlarida murakkablashib ketmasligiga.

Jegalkin ko‘phadlarini algebraik soddalashtirish usuli mantiq algebrasining asosiy qonunlari va xossalari asosida amalga oshiriladi. Bu yondashuv kichik o‘lchamli ifodalar uchun qulay bo‘lib, qo‘lda hisoblashga mos keladi.

Ifodalarni soddalashtirish jarayonida mantiqiy funksiyalarni chinlik jadvali asosida tahlil qilish, mantiqiy funksiyani Jegalkin ko‘phadiga o‘tkazish, algebraik soddalashtirish amallari va ortiqcha hadlarni aniqlash va qisqartirish usullaridan foydalaniladi.

Usul, natija va muhokamalar.

Asosiy tushunchalar. Barcha mulohazalarni tadqiq qilish oson bo‘lishi uchun mantiqiy qonunlar yordamida biror umumiy standart ko‘rinishga keltirish mumkin.

1-ta’rif. Mantiqiy formulaning kon’yunktsiya va simmetrik ayirma amallari bilan ifodalangan shakliga *Jegalkin ko‘phadi* deyiladi [11].

Mantiqiy formulani Bul ifodasidan Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishiga keltirish uchun quyidagi 4 ta bosqich amalga oshiriladi [11]:

1) Berilgan formulani diz’yunktiv normal shakl**(**DNSh)ga keltirish;
2) Quyidagi formuladan foydalanib, diz’yunktsiya amalidan qutilish kerak

$$x \vee y = \overline{\bar{x} \wedge \bar{y}}$$

3) Inkor amalini simmetrik ayirma amali bilan almashtirish

$$\bar{x} = x \otimes 1$$

4) Hosil bo‘lgan ifodani soddalashtirishda quyidagi tenglikdan foydalaniladi

$$x \otimes x = 0$$

1-misol. $x \to y = \bar{x} \vee y$ ifodani Jegalkin ko‘phadiga o‘tkazamiz [11].

Yechish. Bunda yuqoridagi bosqichlardan foydalanamiz:

$$x \to y = \bar{x} \vee y = \overline{\bar{\bar{x}} \wedge \bar{y}} = \overline{x \wedge \bar{y}} = \big(x \wedge (y \otimes 1)\big) \otimes 1 =$$
$$= (x \wedge y \otimes x) \otimes 1 = x \wedge y \otimes x \otimes 1 .$$

2-ta’rif. O‘zgaruvchilarida inkor qatnashmagan kon’yunktsiyaga *monoton kon’yunktsiya* deyiladi [11].

Ko‘yunktsiya amali bilan birlashtirilgan o‘zgaruvchilar soniga *ko‘phad rangi* deyiladi.

ISSN 3030-3907

3-ta’rif. Ko‘phadda qatnashgan hadlarning eng katta rangi *Jegalkin ko‘phadi darajasi* deyiladi [11].

2-misol. $\alpha(A,B) = A \wedge B \to \left(\overline{A \vee \bar{B}}\right)$ formulani Jegalkin ko‘phadiga o‘tkazamiz [11].

Yechish. $x \to y = \bar{x} \vee y$ formuladan foydalanib implikatsiyani ochamiz. Bu yerda $x = A \wedge B, \quad y = \left(\overline{A \vee \bar{B}}\right)$ bo‘lsa, demak

$\alpha(A,B) = \left(\overline{A \wedge B}\right) \vee \left(\overline{A \vee \bar{B}}\right)$ bo‘ladi.

$\left(\overline{A \wedge B}\right) = \bar{A} \vee \bar{B}$ va $\left(\overline{A \wedge B}\right) = \bar{A} \wedge B$ - De Morgan qonunlaridan foydalansak

$$\alpha(A,B) = (\bar{A} \vee \bar{B}) \vee (\bar{A} \wedge B)$$

ko‘rinishga keltiramiz.

Yutilish (qisqartirish) qoidasiga ko‘ra:

$$(\bar{A} \vee \bar{B}) \vee (\bar{A} \wedge B) = \bar{A} \vee \bar{B}$$

Endi Jegalkin ko‘phadiga o‘tkazamiz: bunda,

$$\bar{A} = 1 \otimes A, \quad \bar{B} = 1 \otimes B, \quad A \vee B = A \otimes B \otimes A \wedge B$$

formulalardan foydalansak

$$\bar{A} \vee \bar{B} = (1 \otimes A) \otimes (1 \otimes B) \otimes (1 \otimes A) \wedge (1 \otimes B)$$

ko‘rinishga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hisoblaymiz:

$$(1 \otimes A) \wedge (1 \otimes B) = 1 \otimes A \otimes B \otimes A \wedge B\,.$$

Hammasini qo‘shsak:

$$(1 \otimes A) \otimes (1 \otimes B) \otimes (1 \otimes A \otimes B \otimes A \wedge B)$$

Bir xil hadlarni qisqartirsak

$$1 \otimes A \wedge B$$

ko‘rinishga keladi.

Demak,

$$\alpha(A,B) = 1 \otimes A \wedge B$$

ko‘rinishdagi Jegalkin ko‘phadiga hosil bo‘ladi [11].

Natijalari shuni ko‘rsatdiki, Jegalkin ko‘phadini sodda holatga keltirishda quyidagi bosqichlar samarali hisoblanadi:

- Hamma hadlarni standart tartibda yozish;
- Bir xil hadlarni qisqartirish ($x \oplus x = 0$);
- Yuqori darajali, ammo funksiya qiymatiga ta’sir qilmaydigan hadlarni aniqlash;
- Minimal hadlar to‘plamini saqlab qolish.

Natijada, soddalashtirilgan Jegalkin ko‘phadi hisoblash jihatdan ixcham va amaliy qo‘llash uchun qulay bo‘ladi. Bu raqamli sxemalarni loyihalashda mantiqiy elementlar sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

XULOSA. Mantiq algebrasida Jegalkin k**o‘**phadi mantiqiy funksiyalarni ifodalashning qulay va yagona shakli hisoblanadi. Uni sodda holatga keltirish metodikasi mantiqiy funksiyalarni optimallashtirish, hisoblash murakkabligini kamaytirish va ta’lim jarayonida talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalaridagi “Sun’iy intellekt” ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Diskremt tuzulmalar” fanini o‘qitish jarayonida mantiq algebrasidagi Jegalkin ko‘phadini sodda holatga keltirishda axborot texnologiyalaridan, algebraik tizimlar va dasturlash tillaridan samarali foydalanish o‘quv samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4708-sonli Qaror.
3. 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori.
4. Zulfixarov I.M, Matematikadan tadbiqiy misol va masalalarni yechishda sinergetik yondashuv metodikasi. Monografiya. Andijon -2024. -119 b. “Omadbek print number one” MCHJ.
5. Zulfixarov I.M, Po‘latov M. Increasing Students' Interest in MathematicsThrough Some Real-Life Examples. Belgiya. Eurasian Research Bulletin. Volume 35. September 2024. p.13-16.
6. Zulfixarov I.M, Po‘latov M. In practical lessons in mathematics some economic issues through exact integral solution methodology. Misir Egept. International Journal of Engineering Mathematics, Theory and Application (Online). 1687-6156. VOLUME 6 ISSUE 2.
7. Зулфихаров И.М, Атажонова С.Б. Роль современной дидактики в эффективной организации обучения математике. Казахстан университет дружбы народов имени академика А.Куатбекова. Шымкент. -12.04.2024.
8. Zulfixarov I.M, Atajonova S.B. Methodology of Explaining to Students the Organization of Bayes Networks with Mathematical Considerations in Practical Lessons in Mathematics. Innova Science Journal of Theory, Mathematics and Physics. Vol. 3, No. 4, 2024. P 40-45.

ISSN 3030-3907

9. Saidakhon Atajonova, Ilkhom Zulfikharov. Improving the methodology of effective organization of mathematics courses in technical universities. Scopus. AIP Conf. Proc. 3244, 020009 (2024). RESEARCH ARTICLE | OVEMBER 27.2024. https://doi.org/10.1063/5.0241836
10. Zulfixarov I.M, Atajonova S.B. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida extimollik va statistikaga oid ba’zi masalalarni echishda sienergetik yondashuv metodikasi. Tadqiqot.uz JTS. Техника фанлари. №1 (2024) 7-jild 1-son. 51-56 b. DOI. http://dx.doi.org/10.26739/2181-9696-2024-1
11. Zulfixarov I.M. Diskret tuzulmalar. [o‘quv qo‘llanma] – “Omadbek print number one” MCHJ. Andijon: –2025. –188 b.
12. Zulfixarov I.M. To‘plamlar & Kombinatorika. [monografiya] –“Omadbek print number one” MCHJ. Andijon: 2025. –106 b.

ISSN 3030-3907

ИНТЕГРАТИВНАЯ ОЦЕНКА НЕЙРОКОГНИТИВНЫХ И СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ ГОЛОВНОГО МОЗГА ПРИ БОЛЕЗНИ ПАРКИНСОНА

Абдукодиров Элдор Исроилович
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан
Иноятова Ситора Ойбековна
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан
Маматова Шахноза Абдужалиловна
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан
Каримова Мухаббат Умаровна
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан
Махамадходжаева Мухаббат Абдусаттаровна
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан
Бобоев Кобил Камалович
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан
Бабакулов Шараф Хамракулович
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье проведена всесторонняя оценка когнитивных, психологических и нейровизуальных характеристик пациентов с болезнью Паркинсона на различных стадиях заболевания. В исследование включены 175 участников, из них 155 пациентов с диагнозом болезнь Паркинсона. Использовались шкалы UPDRS, MMSE, RAVLT, BDI и HAM-D для нейропсихологического тестирования. Нейровизуальная диагностика включала МРТ и методику DTI. Результаты показали тесную взаимосвязь между степенью нейродегенерации и выраженностью когнитивных и психоэмоциональных нарушений. Комплексная оценка позволяет выработать индивидуальные подходы к лечению и реабилитации больных.

Ключевые слова: Болезнь Паркинсона, нейропсихологическое тестирование, МРТ, DTI, когнитивные нарушения, депрессия, шкала UPDRS, шкала MMSE, нейровизуальная оценка.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Mazkur maqolada Parkinson kasalligining turli bosqichlarida bemorlarning kognitiv, psixologik va neyrovizual xususiyatlari chuqur o‘rganildi. 175 nafar ishtirokchi (shundan 155 nafari Parkinson kasalligiga chalingan bemorlar) baholandi. Baholash Unified Parkinson's Disease Rating Scale (UPDRS), Mini Mental State Examination (MMSE), Rey Auditory Verbal Learning Test (RAVLT), Beck va Hamilton depressiya shkalalari yordamida o‘tkazildi. Neyrovizual diagnostika uchun MRI, jumladan DTI texnologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqot Parkinson kasalligida kognitiv va ruhiy buzilishlarning neyrodegeneratsiya bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqladi. Kompleks baholash bemorlarning individual reabilitatsiya va monitoring strategiyalarini ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Parkinson kasalligi, neyropsixologik testlar, MRI, DTI, MMSE, UPDRS, kognitiv buzilish, depressiya, neyrovizual tahlil.

Abstract. This study presents a comprehensive analysis of the cognitive, psychological, and neurovisual characteristics of patients with Parkinson's disease at various stages. A total of 175 participants were examined, including 155 patients diagnosed with Parkinson’s disease. Neuropsychological assessments were performed using the Unified Parkinson’s Disease Rating Scale (UPDRS), Mini Mental State Examination (MMSE), Rey Auditory Verbal Learning Test (RAVLT), Beck Depression Inventory (BDI), and Hamilton Depression Rating Scale (HAM-D). Neuroimaging involved MRI and Diffusion Tensor Imaging (DTI). The findings revealed a strong correlation between disease progression, neurodegeneration, and cognitive-emotional impairments. Comprehensive evaluation supports individualized treatment and rehabilitation strategies.

Keywords: Parkinson’s disease, neuropsychological tests, MRI, DTI, MMSE, UPDRS, cognitive impairment, depression, neurovisual analysis.

ВВЕДЕНИЕ.

Болезнь Паркинсона (БП) представляет собой хроническое прогрессирующее нейродегенеративное заболевание центральной нервной системы, сопровождающееся двигательными, вегетативными и психическими нарушениями. Хотя классически БП описывается через моторные симптомы, вызванные дегенерацией дофаминергических нейронов, современные исследования указывают на более сложный патогенез. В частности, когнитивные и психоэмоциональные расстройства могут проявляться уже на ранних стадиях заболевания [1]. Нейропсихологическая оценка имеет решающее значение для прогнозирования развития деменции и определения качества жизни пациента. Нейровизуализационные методы, прежде всего магнитно-

ISSN 3030-3907

резонансная томография (МРТ), позволяют выявить структурные и функциональные изменения мозга. В данной работе проводится сопоставительный анализ нейропсихологических и нейровизуализационных показателей при различных клинических стадиях БП.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. В исследовании приняли участие 175 человек: 155 пациентов с БП и 20 здоровых лиц (контроль). На основании шкалы Хён и Яра пациенты были разделены на группы:

1. **I группа (Легкая стадия – I–II):** 55 пациентов.
2. **II группа (Средняя стадия – III):** 50 пациентов.
3. **III группа (Тяжелая стадия – IV–V):** 50 пациентов.
4. **IV группа (Контроль):** 20 здоровых лиц, сопоставимых по полу и возрасту.

Инструментарий оценки:

1. **Клинический:** Унифицированная шкала оценки болезни Паркинсона (**UPDRS**).
2. **Когнитивный:** Краткая шкала оценки психического статуса (**MMSE**), тест слухоречевого заучивания Рея (**RAVLT**), тест речевой беглости (**VFT**).
3. **Аффективный:** Шкала депрессии Гамильтона (**HAM-D**) и опросник депрессии Бека (**BDI**).
4. **Нейровизуализация:** МРТ 1.5 Тесла. Оценивались показатели черной субстанции (substantia nigra), фронтальной и темпоральной коры, базальных ганглиев и желудочковой системы. Использовалась методика диффузионно-тензорной томографии (DTI) для оценки интегральности проводящих путей. Статистический анализ выполнен в программе SPSS 26.0 (значимость при $p < 0,05$).

РЕЗУЛЬТАТЫ. Согласно (Таблице 1) анализ данных показывает прогрессивное нарастание двигательного дефицита от легкой к тяжелой стадии болезни Паркинсона (БП). Статистически значимый разрыв между II и III группами свидетельствует о качественном скачке в дегенерации моторных функций, когда компенсаторные механизмы дофаминергической системы истощаются. Минимальные баллы в контрольной группе подтверждают отсутствие экстрапирамидной симптоматики у здоровых лиц.

Когнитивный профиль пациентов демонстрирует отчетливое снижение ментальной активности по мере прогрессирования БП. Если на легкой стадии показатели остаются в рамках возрастной нормы, то в III группе средний балл (21,6) соответствует уровню умеренных когнитивных расстройств, граничащих с начальной деменцией. Это указывает на распространение

ISSN 3030-3907

нейродегенеративного процесса на корковые структуры головного мозга **(Таблице 2)**.

Таблица-1.

Сравнительная характеристика двигательных нарушений по шкале UPDRS

Группа обследуемых	Суммарный балл по шкале UPDRS (M ± SD)
I группа (Легкая стадия)	18,4 \pm 3,2
II группа (Средняя стадия)	34,6 \pm 4,1
III группа (Тяжелая стадия)	52,1 \pm 5,7
IV группа (Контроль)	3,2 \pm 0,6

Таблица-2.

Мониторинг когнитивного статуса пациентов по шкале MMSE

Группа обследуемых	Интегральный балл MMSE (M ± SD)
I группа (Легкая стадия)	27,8 \pm 1,4
II группа (Средняя стадия)	25,3 \pm 1,8
III группа (Тяжелая стадия)	21,6 \pm 2,2
IV группа (Контроль)	29,5 \pm 0,9

Таблица-3.

Нейровизуализационные маркеры дегенерации черной субстанции (МРТ)

Группа обследуемых	Относительная плотность Substantia nigra (ед.)
I группа (Легкая стадия)	0,86 \pm 0,05
II группа (Средняя стадия)	0,72 \pm 0,07
III группа (Тяжелая стадия)	0,59 \pm 0,08
IV группа (Контроль)	0,94 \pm 0,04

Согласно (Таблице 3) данные МРТ-морфометрии объективизируют структурную основу заболевания. Наблюдается линейная зависимость между клинической стадией и снижением интенсивности сигнала от черной субстанции. В тяжелой стадии плотность Substantia \ nigra снижена почти на 40\% по сравнению с контролем, что служит надежным биомаркером гибели

ISSN 3030-3907

дофаминергических нейронов и может быть использовано для объективного контроля прогрессирования БП.

Таблица-4.

Оценка функции памяти по результатам теста RAVLT

Группа обследуемых	Непосредственное запоминание (баллы)	Отсроченное воспроизведение (баллы)
I группа (Легкая стадия)	10,2 \pm 1,3	8,1 \pm 1,1
II группа (Средняя стадия)	8,4 \pm 1,5	6,2 \pm 1,4
III группа (Тяжелая стадия)	6,1 \pm 1,2	3,8 \pm 1,0
IV группа (Контроль)	12,6 \pm 1,4	10,4 \pm 1,2

При анализе **(Таблице 4)** Тест RAVLT выявляет дефицит слухоречевой памяти, который становится критическим в III группе. Особенно страдает отсроченное воспроизведение (3,8 балла), что указывает на нарушение процессов консолидации памяти и дисфункцию гиппокампального круга. Данные изменения подтверждают, что нейропсихологический дефицит при БП выходит за рамки чисто исполнительных функций.

Таблица-5.

Психоэмоциональный профиль пациентов (шкалы HAM-D и BDI)

Группа обследуемых	Шкала депрессии Гамильтона (HAM-D)	Опросник депрессии Бека (BDI)
I группа (Легкая стадия)	8,6 \pm 1,9	10,1 \pm 2,3
II группа (Средняя стадия)	13,4 \pm 2,1	17,2 \pm 3,1
III группа (Тяжелая стадия)	17,8 \pm 2,7	24,6 \pm 3,8
IV группа (Контроль)	5,1 \pm 1,3	6,8 \pm 1,6

Результаты тестирования которые приведены в **(Таблице 5)** свидетельствуют о высоком уровне коморбидной депрессии у пациентов с БП. Рост показателей по шкале BDI до 24,6 балла в тяжелой группе указывает на клинически выраженную депрессию. Параллельное нарастание баллов по обеим шкалам подчеркивает связь психоэмоциональных нарушений с общим

ISSN 3030-3907

нейродегенеративным фоном и требует обязательной психофармакотерапии в комплексе с основным лечением.

АНАЛИЗ И ОБСУЖДЕНИЕ. Результаты исследования подтверждают гипотезу о том, что при БП дегенерация носит системный характер. Снижение плотности substantia nigra прямо коррелирует с тяжестью моторного дефицита (UPDRS) и когнитивным снижением (MMSE). При тяжелой стадии (III группа) когнитивные функции приближаются к пограничным значениям деменции, что подтверждается резким снижением показателей отсроченного воспроизведения по тесту RAVLT.

Особое внимание заслуживает рост аффективных расстройств: показатели по шкале BDI в III группе (24,6) указывают на депрессию средней и тяжелой степени. Это подчеркивает необходимость ранней психологической поддержки и мультидисциплинарного подхода с участием неврологов, нейропсихологов и специалистов по реабилитации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Проведенное исследование подтверждает, что изолированное использование клинических шкал не позволяет в полной мере оценить мультифокальный характер патологического процесса при болезни Паркинсона. Комплексный мультимодальный подход, объединяющий нейропсихологическое тестирование и высокотехнологичную нейровизуализацию, является на сегодняшний день наиболее эффективным инструментом объективного мониторинга заболевания.

Использование морфометрического анализа МРТ позволяет визуализировать прогрессирующую атрофию компактной части черной субстанции и базальных ганглиев, что служит прямым индикатором нейродегенерации. Применение диффузионно-тензорной томографии (DTI) открывает возможности для оценки микроструктурных повреждений белого вещества и функциональной разобщенности корково-подкорковых связей еще до появления грубых анатомических дефектов. Выявленные изменения фракционной анизотропии в нигростриарном пути коррелируют с темпами моторного и когнитивного снижения.

Динамика показателей шкал MMSE, RAVLT и BDI в сочетании с данными нейровизуализации позволяет сформировать целостный «портрет» прогрессирования БП:

5. **MMSE:** фиксирует общую траекторию когнитивного снижения, позволяя вовремя диагностировать переход от легких расстройств к деменции.
6. **RAVLT:** выступает специфичным инструментом оценки дисфункции гиппокампа и лобных долей, выявляя дефицит оперативной памяти и способности к обучению.

ISSN 3030-3907

7. **BDI:** объективизирует аффективный фон, который зачастую является предиктором ухудшения моторных функций и снижения приверженности к терапии.

Интеграция данных методов позволяет отойти от стандартизированных протоколов лечения в пользу персонализированных терапевтических программ. На основании комплексной оценки для каждого этапа болезни разрабатывается индивидуальный план:

8. **На ранних этапах:** акцент на нейропротекцию и раннюю когнитивную реабилитацию.
9. **На развернутых стадиях:** прецизионная коррекция дофаминергической терапии и активная психофармакотерапия депрессивных состояний.

Таким образом, внедрение сочетанного нейропсихологического и нейровизуализационного мониторинга в клиническую практику позволяет не только объективно верифицировать стадию БП, но и значительно повысить качество жизни пациентов за счет своевременной коррекции немоторных и структурно-функциональных нарушений.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Abdukodirov, E. I., Naimov, O. Y., Matmurodov, R. J., Khalimova, H. M., & Muminov, B. A. (2023). Dynamic assessment of levels of depression and anxiety impairment in Parkinson's disease. *Movement Disorders*, 38.
2. Abdukodirov, E. I., Raimova, M. M., & Alixonov, S. A. (2023). Transcranial magnetic stimulation therapy in early and late stages of Parkinson's disease. *European Journal of Modern Medicine and Practice*, 3(1), 31–36.
3. Abduqodirov, E. I. (2025). Parkinson kasalligida klinik shakllar bo‘yicha neyrokognitiv va afffektiv buzilishlarning namoyon bo‘lishi: Kompleks neyropsixologik tahlil. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 15(10), 289–294.
4. Abduqodirov, E. I. (2025). Parkinson kasalligining klinik shakllarida immunologik, psixologik va neyrovizual o‘zgarishlarning kompleks tahlili. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 12(7), 24–26.
5. Abduqodirov, E. I., Matmurodov, R. J., & Babakulov, Sh. Kh. (2026). Integrated neurocognitive and structural-functional brain changes in Parkinson's disease. *Journal of Neurological Sciences of Uzbekistan*, 4(1), 12-19.
6. Abduqodirov, E., Matmurodov, R., Juraev, R., Naimov, O., Muminov, B., Khalimova, K., & Daminova, H. (2023). Glial neurotrophiz factor as a differential marker of Parkinson’s disease and vascular parkinsonism. *Movement Disorders*, 38(289), 120.

ISSN 3030-3907

7. Abduqodirov, E., Matmurodov, R., Muminov, B., Daminova, H., Khalimova, K., Naimov, O., & Juraev, R. (2023). Aspects of early detection of Parkinson's disease in ambulatory settings. *Movement Disorders*, 38(478), 203.
8. Amonov, B., Juraev, R. M., Matmurodov, R. J., Khalimova, K., & Abdukodirov, E. I. (2024). Analysis of risk factors affecting the development of vascular parkinsonism by gender. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122, 106867.
9. Amonov, B., Matmurodov, R., Abdukodirov, E., & Khalimova, K. (2021). Sleep disorders as a predictor of Parkinson's disease in Uzbek nationality. *Journal of the Neurological Sciences*, 429, 118350.
10. Isroilovich, A. E., Abdullayeva, M. B., Matmurodov, R. J., Khalimova, K. M., Muminov, B. A., & Naimov, O. Y. (2022). The role and importance of gliah neurotrophical factors in early diagnosis of Parkinson disease. *Texas Journal of Medical Science*, 5, 1–6.
11. Jumanazarova, Sh. R., Abduqodirov, E. I., Matmurodov, R., Kalanov, A. B., Mamatova, Sh. A., & Inoyatova, S. O. (2025). Clinical and paraclinical aspects of extrapyramidal disorders in patients with cerebrovascular pathology. *Movement Disorders*, 4(157), S977.
12. Juraev, R., Abduqodirov, E., Matmurodov, R., & Khalimova, K. (2019). Initial manifestations of Parkinson's disease in Uzbek nationality. *Journal of the Neurological Sciences*, 405, 302–303.
13. Khalimova, K. M., Matmurodov, R. J., Turapov, X. R., Muminov, B. A., & Abdukodirov, E. I. (2023). Assessment of indicators of anxiety and depression in patients after COVID-19. *World Bulletin of Public Health*, 20(1), 140–144.
14. Matmurodov, R. J., & Abduqodirov, E. I. (2024). Transformation of clinical forms of neuropathy in the post-covid period. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122, 106867.
15. Matmurodov, R., & Abduqodirov, E. (2020). Depression in various forms of parkinsonism and striatal hyperkinesis. *Movement Disorders*, 35, S335.
16. Matmurodov, R., & Abduqodirov, E. (2020). Early predictors of Parkinson's disease and prognosis in relatives. *Movement Disorders*, 35, S207.
17. Matmurodov, R., Abduqodirov, E., Kalanov, A., Babayeva, F., & Jamalova, S. (2025). Myofascial pain syndromes in parkinsonism. *Movement Disorders*, 4(S977), 156.
18. Matmurodov, R., Jumanazarova, S., Abduqodirov, E., & Abdullayeva, M. (2025). Analysis of statistical data on patients with Parkinson's disease. *Movement Disorders*, 4(1), S801.

ISSN 3030-3907

19. Matmurodov, R., Khalimova, K., & Abduqodirov, E. (2019). Cardiovascular disorders in parkinsonism depending on the form of the disease. *Journal of the Neurological Sciences*, 405, 198–199.
20. Matmurodov, R., Muminov, B., Khalimova, K., Yunusov, O., Juraev, R., & Abdukodirov, E. (2024). Transformation of clinical forms and stages of Parkinson's disease against the background of Covid-19 infection. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122, 106867.
21. Muminov, B., Matmurodov, R., & Abduqodirov, E. (2022). Level of glial neurotrophic factor in the blood plasma depending on the duration of Parkinson's disease. *Movement Disorders*, 37, S586.
22. Muminov, B., Matmurodov, R., Abdukodirov, E., & Khalimova, K. (2021). Influencing factors on cognitive function in Parkinson's disease. *Journal of the Neurological Sciences*, 429, 118400.
23. Naimov, O., Abduqodirov, E., Matmurodov, R., & Khalimova, K. (2019). Constipation as a predictor of Parkinson's disease in persons of Uzbek nationality. *Journal of the Neurological Sciences*, 405, 302.
24. Naimov, O., Matmurodov, R., Abduqodirov, E., & Khalimova, K. (2020). The incidence of non-motor disorders in Parkinson's disease and vascular parkinsonism. *Parkinsonism & Related Disorders*, 79, e25.
25. Naimov, O., Matmurodov, R., Khalimova, K., & Abdukodirov, E. (2024). Specific features of behavioral disorders in Parkinson's disease. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122, 106867.
26. Tairova, D. Z., & Abduqodirov, E. I. (2024). Parkinson kasalligida klinik simptomlarni shakllanishida immunologik omillarning roli. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (17), 110–112.
27. Абдуқодиров, Э. И., Иноятова, С. О., Каланов, А. Б., & Абдуллаева, М. Б. (2026). Актуальные проблемы орофасциальной боли: перспективы терапии. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 85(2), 208–224.
28. Абдуқодиров, Э. И. (2025). Паркинсон касаллигида цитокинлар профили ва клиник кўрсаткичлар. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (28), 200–205.

ISSN 3030-3907

UDK 664.8 (075.3)

O`SIMLIK MOYLARINI GIDRATATSIYALASH JARAYONINI TAHLILI

Xidirov J.E.
Qarshi davlat texnika universiteti,
Axmedov A.N.
Qarshi davlat texnika universiteti
Majidov K.X.
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada o`simlik moylarini gidratatsiyalash jarayonini tahlil qilingan, natijada o‘simlik moylarini gidratatsiyalash jarayonida, ular tarkibidagi fosfolipidlar miqdori va tashkil etuvchi qismlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib jarayonni tashkil etish va o‘tkazishda muhim o‘rin egallashi belgilandi.

Kalit so‘zlar: O‘simlik moylari, paxta moyi, gidratatsiyalash jarayoni, fosfolipidlar hosilalari.

Аннотация. В данной научной статье анализируется процесс гидратации растительных масел, в результате которого установлено, что в процессе гидратации растительных масел особое значение имеет количество фосфолипидов и их составляющих компонентов, играющих важную роль в организации и проведении процесса.

Ключевые слова: Растительные масла, хлопковое масло, процесс гидратации, производные фосфолипидов.

Abstract. This scientific article analyzes the process of hydration of vegetable oils, as a result of which it was established that in the process of hydration of vegetable oils, the amount of phospholipids and their constituent components, which play an important role in the organization and implementation of the process, are of particular importance.

Key words: Vegetable oils, cottonseed oil, hydration process, phospholipid derivatives.

KIRISH.

Paxta urug‘i moyining tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari navga, yetishtirilgan hududga, urug‘ning saqlanish sharoitlariga va moy ajratish usullariga bog‘liq holda sezilarli darajada o‘zgaradi. Paxta misellasini qayta ishlashning texnologik zanjirida avvalo uning gidratatsiyasi, keyin esa ishqoriy tozalash (rafinatsiyasi) amalga oshirilishi kerak [1-2]. Bu esa turli maqsadlarda foydalaniladigan alohida mahsulotlarni olish imkonini beradi [3].

ISSN 3030-3907

Gidratatsiya jarayonining maqsadi — suv yordamida fosfolipidlarni ajratib olishdir [4]. Shu sababli o‘simlik moylarini, jumadan, xom paxta moyini gidratatsiyalash jarayonini o‘rganish va tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot usullari. O‘simlik moylarini baholashda, hamda ularning kimyoviy tarkibini aniqlashda zamonaviy fizik-kimyoviy usullardan foydalaniladi [5-6].

Ishning maqsadi – O`simlik moylarini gidratatsiyalash jarayonini tahlil etishga qaratilgan.

Tadqiqot obyektlari – O‘simlik moylari, kimyoviy tarkibi, fosfolipidlar, ularning hosilalari.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Rafinatsiya moylardan hamroh moddalar hamda ayrim begona aralashmalarni chiqarib tashlashga qaratilgan jarayonlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqsadda turli usullardan foydalaniladi bo‘lib, ularning asosida ayrim reagentlarning alohida moddalarga nisbatan tanlab ta’sir ko‘rsatish xususiyati yotadi.

Rafinatsiyaga yuborilayotgan moy va yog‘larning sifati turlicha bo‘lishi, shuningdek, rafinatsiyalangan mahsulotga qo‘yiladigan talablarning xilma-xilligi har bir alohida holatda rafinatsiya texnologik siklining turli bosqichlarini qo‘llash yoki ayrim operatsiyalarning turli kombinatsiyalaridan foydalanishni talab etishini ko‘rsatadi.

O‘simlik moylaridan qutbli lipidlarni chiqarib tashlash texnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari **orasida** termik faollashtirish, kimyoviy polyarizatsiya, sirt-aktiv moddalar ishtirokida polyarizatsiya, elektromagnit faollashtirish, mexanik faollashtirish, ultrafiltratsiya, fermentlardan foydalanish**,** shuningdek ushbu usullarning kombinatsiyalashgan holda qo‘llanilishi eng keng tarqalgan hisoblanadi.

Sirt-aktiv moddalar (PAV) sifatida suyultirilgan suv–fosfolipid emulsiyalari, T1 turidagi emulgatorlar (glitserin bilan qayta eterifikatsiyalangan triatsilglitserinlar), TF turidagi emulgatorlar (T1 va fosfolipid konsentrati aralashmasi), uglerod atomlari soni 16–22 bo‘lgan karboksil kislotalar tuzlari, shuningdek turli gidrotrop qo‘shimchalar qo‘llaniladi.

Ushbu usul yordamida olib borilgan gidratatsiya natijasida moyning rang soni va kislota soni kamayadi**,** fosfolipid konsentratining chiqishi ortadi**,** bunda u fosfolipidlarning yuqori massaviy ulushi bilan tavsiflanadi. Biroq, mazkur usul glikolipidlarni**,** shuningdek mustahkam assotsiatsiyalar va kompleks birikmalar hosil qiluvchi gidratlanmaydigan fosfolipidlarni ajratib tashlashda kam samarali hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Elektromagnit faollashtirish usuli elektromagnit maydonning moy tarkibidagi fosfolipidlarning assotsiatsiyalanish va mitsella hosil bo‘lish jarayonlariga ta’siriga asoslanadi. Elektromagnit maydon ta’siri natijasida gidratlanmaydigan fosfolipidlarning nisbiy qutbliligi ortadi, bu esa fosfolipid molekulalarining metallar, sovunlanmaydigan moddalar va glikolipidlar, shuningdek boshqa hamroh lipidlar bilan hosil qilgan murakkab komplekslaridagi vodorod yoki koordinatsion bog‘lanishlarning zaiflashuvi yoki qisman uzilishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Biroq, elektromagnit faollashtirish usulini tahlil qilgan holda shuni ta’kidlash joizki, mazkur ishlov berish ko‘p valentli metall ionlarini nofaol komplekslarga bog‘lashni ta’minlamaydi, demakki, ularni moy tarkibidan chiqarib tashlash imkonini bermaydi.

Shuningdek, elektromagnit faollashtirish usulining glikolipidlarga ta’siri hozirgi kungacha yetarlicha o‘rganilmagan.

Ultrafiltratsiyadan foydalanib qutbli lipidlarni chiqarib tashlash usuli yarim o‘tkazuvchan membranalarning kam qutbli va noqutbli erituvchilarda (geksan, neft efiri va boshqalar) qutbli lipidlar tomonidan hosil qilinadigan yirik assotsiatsiyalarni ushlab qolish qobiliyatiga asoslanadi. Ushbu usul mehnat talab etuvchi bo‘lib, moy tarkibidan erituvchini chiqarib tashlash uchun katta moddiy va energetik xarajatlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, mazkur usul glikolipidlarni ajratib tashlashda kam samarali hisoblanadi.

O‘simlik moylaridan gidratlanmaydigan fosfolipidlarni chiqarib tashlashning yangi yo‘nalishlaridan biri fermentativ texnologiyani qo‘llash hisoblanadi. Ushbu usul fosfolipid komplekslariga fermentlar — fosfolipazalar bilan ishlov berishga asoslanadi.

Mazkur usul moyni ferment preparati bilan qayta ishlashni o‘z ichiga oladi, buning natijasida fosfolipidlar o‘zlarining lizo-shakllariga aylanishi sodir bo‘ladi. Bu holat ularning gidrofil xossalarining kuchayishiga olib keladi va suvli fazaga tez o‘tishini ta’minlaydi.

Yana bir istiqbolli, biroq sanoatda keng tarqalishga hali erishmagan usullardan biri mexanokimyoviy faollashtirish usuli hisoblanadi.

Eritmalarni yuqori tezlikda aralashtirish jarayonida ultratovush qurilmalarida kuzatiladigan hodisalarga o‘xshash kavitatsiya jarayonlari yuzaga kelishi mumkinligini inobatga olgan holda, mexanokimyoviy ishlov berishda qo‘llaniladigan apparatlar fizik-kimyoviy jarayonlarning faollashtiruvchilari sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.


ISSN 3030-3907

Mavjud gidratatsiya jarayonining nazariy konsepsiyalari hamda kungaboqar moylaridan qutbli lipidlarni chiqarib tashlashning asosiy usullari haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, mavjud usullarning hech biri muammoning universal yechimi hisoblanmaydi, ayniqsa qiyin rafinatsiyalanadigan moylarda hamroh lipidlarni beqarorlashtirish vazifalariga nisbatan.

Bu holat yangi yondashuvlarni izlash zaruratini belgilaydi, ular «tarkib – xossa – beqarorlashtirish usuli» zanjiridagi qonuniyatlarni aniqlashga asoslangan bo‘lishi va zamonaviy paxta navlari urug‘lari moylaridagi qutbli lipidlarning asosiy guruhlariga nisbatan qo‘llanilishi lozim.

Ma’lumki, fosfolipidlar, fosfor kislotaning assimmetrik diesterlari sifatida, quyidagi umumiy kimyoviy formulaga ega:

Bu formula 1,2-diatsil-sn-glitserol-3-fosfat hosilalarini bildiradi.




Bu yerda:

R – atsillangan, alkillangan va alkenil-efirli glitserin, diollar, aminodiollar hosilalari;

R^1 – azotli asoslar, aminokislotalar, mioinozit, glitserin va h.k.

Shuningdek, kengroq strukturaviy formula quyidagicha:



Bu yerda R_1 va R_2 — to‘yingan va to‘yinmagan uglevodorod qoldiqlari (yog‘ kislotalari qoldiqlari);

R^+ — azotli asoslar (etanolamin, dietiletanolamin, trietanolamin), aminokislotalar (serin), polialkohol qoldiqlari (glitserin, inozitol).


O‘simlik moylaridagi fosfolipidlarning tuzilishi va xossalari haqida ma’lumotlar quyidagicha baholanadi.

Ma’lumki, o‘simlik moylaridagi fosfolipidlar asosan letitsin (36–38%) va kefalin (61–62%) dan iborat. Bundan tashqari, fosfatidlar tarkibida oz miqdorda (1,5–2%) inozitolfosfatidlar mavjud.

ISSN 3030-3907


Letitsinning ikkinchi komponenti — bu glitserinning efiri bo‘lib, uning ikki gidroksil guruhi yog‘ kislotalari bilan eterifikatsiyalangan, uchinchisi esa fosfor kislotasi bilan bog‘langan. Fosfor kislotasining bir valentligi xolin bilan eterifikatsiyalangan.

Letitsinning strukturaviy formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Letitsin — tabiiy sirt-aktiv modda (SFM) hisoblanadi va shu sababli u yaxshi emulsiyalovchi xususiyatga ega.

Aksincha, kefalin tarkibida, xolin o‘rniga fosfor kislotasining bir valentligi kolamin bilan eterifikatsiyalangan. Kefalin formulasining ko‘rinishi quyidagicha:



Gidratatsiyaga yaroqli fosfolipidlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Fosfatidilxolinlar va ularning lizohosilalari;

Fosfatidiletanolaminlar;

Fosfatidilinozitollar;

Fosfatid va polifosfatid kislotalar.

Gidratatsiyaga yaroqsiz (gidratatsiyalanmaydigan) fosforli moddalar esa quyidagilar:

Neytral bo‘lmagan kislotali fosfatid shakllari (fosfatid va polifosfatid kislotalari);

Lipo hosilalari: linofosfatid kislotalar, lipofosfatidilserinlar, lizofosfatidiletanolaminlar;

Murakkab glikolipidlar;

Metallarning kislotali fosfatid shakllari bilan tuzlari;

Fosfatid va polifosfatid kislotalarning stiren va alifatik spirtlar bilan birikmalari.

Gidratatsiyalanish darajasiga ko‘ra, asosiy fosfolipid turlari quyidagi kamayish tartibida joylashadi: letsitinlar → kefalinlar → fosfatidilserinlar → fosfatidilinozitollar.

ISSN 3030-3907

Aniqlandi: yog‘-kislotali tarkib gidratatsiyaga yaroqsiz fosfatidlarda gidratatsiyaga yaroqli fraksiyalar tarkibiga nisbatan ko‘proq to‘yingan yog‘ kislotalarini o‘z ichiga oladi.

Gidratatsiyalanadigan fosfatidlardan farqli o‘laroq, gidratatsiyalanmaydigan fosfatidlar tarkibida kul moddalari ancha ko‘p bo‘ladi. Bu esa, ularning tarkibida kislotali xossalarga ega birikmalar borligini va metallar bilan faol reaksiyaga kirishishini ko‘rsatadi.

Gidratatsiyalanadigan va gidratatsiyalanmaydigan fosfolipidlardagi ishqoriy metallarning umumiy miqdori 0,47–0,54% ni tashkil qiladi. Gidratatsiyalanmaydigan fosfolipidlar fraksiyasida ishtirok etuvchi metallar orasida kalsiy va magniy katta ulushni tashkil etadi.

XULOSA.

O‘simlik moylarini gidratatsiyalash jarayonida, ular tarkibidagi fosfolipidlar miqdori va tashkil etuvchi qismlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib jarayonni tashkil etish va o‘tkazishda muhim o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rukovodstvo po tekhnologii i pererabotke rastitel'nykh masel i zhirov. [Guide to technology and processing of vegetable oils and fats] / Red.kol. A.G. Sergeyev i dr. L.: VNIIZH, 1975. T.II. S. 240-245.
2. Arutyunyan N.S., i dr. Technology of fat processing. [Fat processing technology]. Moscow: Pishchepromizdat. 1999.
3. Arutyunyan N.S., Kornena Ye.P., Nesterova Ye.A. Rafinatsiya masel i zhirov.[Refining of oils and fats]. Sankt-Peterburg GIORD, 2004 - 288s.
4. Arutyunyan N.S., Yanova L.I., Arisheva Ye.A. Laboratornyy praktikum po tekhnologii pererabotki zhirov. [Laboratory practical training on fat processing technology]. – M.: Agropromizdat,1991.-160 s.
5. Rukovodstvo po metodam issledovaniya, tekhnokhimicheskomu kontrolyu i uchetu proizvodstv v maslozhirovoy promyshlennosti [Guide to research methods, technochemical control and accounting of production in the oil and fat industry]/Pod red. V.P.Rzhekhina, A.G.Sergeyeva-L.:VNIIZH, 1974 - T-VI. 311s.
6. Ismatov S.Sh., Mamatqulov F.G., Research of changes in the quality indicators of bleached cottonseed oil and its products. Austrian Jornal of Techical and Natural Sciences. -Austrian, 2019, №3-4. –P. 16-17

ISSN 3030-3907

ШОВҚИННИ ИЗОЛЯЦИЯЛОВЧИ НОТЎҚИМА МАТОЛАРНИ МАҲАЛЛИЙ ХОМ АШЁЛАРДАН ОЛИШ ВА СИФАТИНИ БАҲОЛАШ

Патхуллаев Сарваржон Убайдулла ўғли
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти Саноат технологиялари ва механика факултети декани.
E-mail: sarvarjon0606@gmail.com
Tel.: 90 025-06-06.
Акбаров Аббас Акрамовияч
Ўзбекистон илмий-синов ва сифат назорати маркази ДМнинг Синов лабораториялар фаолиятини мувофиқлаштириш ва ривожлантириш бўлими бош мутахассиси.
E-mail: info@uztest.uz
Tel: 94 007-13-89.

Аннотация. Ушбу мақолада маҳаллий хом ашёлар асосида шовқинни изоляцияловчи нотукима матоларни олиш технологияси ва уларнинг акустик ҳамда физик-механик хоссаларини баҳолаш масалалари ёритилган. Пахта чиқиндилари, ипак саноати қолдиқлари ва табиий полимерлар асосида олинган нотукима материалларнинг шовқин ютиш коэффициенти, ҳаво ўтказувчанлиги ва зичлиги тадқиқ этилди. Олинган натижалар мазкур материалларни қурилиш ва саноат соҳаларида қўллаш имкониятини кўрсатди.

Калит сўзлар: нотўқима мато, шовқин изоляцияси, маҳаллий хом ашё, пахта чиқиндилари, акустик хоссалар.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы получения нетканых материалов, изолирующих шум, на основе местного сырья и оценки их акустических и физико-механических свойств. Были исследованы коэффициент шумопоглощения, воздухопроницаемость и плотность нетканых материалов, полученных на основе хлопковых отходов, остатков шелковой промышленности и природных полимеров. Полученные результаты показали возможность применения этих материалов в строительстве и промышленности.

Ключевые слова: нетканый материал, шумоизоляция, местное сырье, хлопковые отходы, акустические свойства.

Annotation. This article covers the issues of obtaining non-woven fabrics that isolate noise based on local raw materials and assessing their acoustic and physical and mechanical properties. Noise absorption coefficient, air permeability and density of non-woven materials obtained on the basis of cotton waste, silk industry residues and natural polymers were researched. The results obtained showed the possibility of applying these materials in the construction and industrial sectors.

ISSN 3030-3907

Keywords: non-woven fabric, noise insulation, local raw materials, cotton waste, acoustic properties.

КИРИШ.

Саноатлашув ва урбанизация жараёнлари натижасида атроф-муҳитда шовқин даражаси сезиларли даражада ортиб бормоқда. Шовқин инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатиб, меҳнат унумдорлигини пасайтиради. Ҳозирги кунда шовқин муаммоси саноат, транспорт ва маиший муҳитда долзарб ҳисобланади. ДБС (децибел шкаласи) бўйича 60 дБ дан юқори шовқин инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатади. Шу сабабли шовқинни камайтирувчи самарали ва арзон материаллар яратиш муҳим вазифа ҳисобланади.Нотукима матолар юқори ғовакли тузилиши туфайли акустик тўлқинларни сўндириш қобилиятига эга. Айниқса, маҳаллий хом ашёлардан олинган нотукима материаллар иқтисодий ва экологик жиҳатдан мақбулдир. Шу сабабли самарали ва экологик хавфсиз шовқинни изоляцияловчи материалларга бўлган талаб ошиб бормоқда. Тадқиқот мақсади – маҳаллий хом ашёлар асосида шовқинни изоляцияловчи нотўкима матоларни олиш ва уларнинг сифат кўрсаткичларини баҳолаш. Асосий вазифалар**:** маҳаллий толали хом ашё турларини таҳлил қилиш; нотукима мато олиш технологиясини ишлаб чиқиш; олинган материалларнинг акустик ва физик хоссаларини аниқлаш;уларни амалда қўллаш имкониятларини баҳолаш. [1]. Тадқиқот объекти сифатида қуйидаги маҳаллий хом ашёлар танланди: пахта толаси ва пахта чиқиндилари; ипак ишлаб чиқариш қолдиқлари; табиий боғловчи моддалар (крахмал, латекс). Нотукима матолар механик ва игнали усулларда шакллантирилди. Сифат кўрсаткичларини баҳолашда қуйидаги усуллар қўлланилди: шовқин ютиш коэффициентини аниқлаш; зичлик ва қалинликни ўлчаш; ҳаво ўтказувчанлигини баҳолаш; намликка чидамлиликни текшириш. [2]

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА МУҲОКАМА. Экспериментал тадқиқотлар лаборатория шароитида олиб борилди. Тадқиқот учун маҳаллий хом ашёлар - пахта толаси чиқиндилари ва ипак саноати қолдиқлари асосида уч хил нотукима мато намунаси тайёрланди. Намунага таъсир этувчи асосий параметрлар сифатида қалинлик, зичлик ва толалар нисбати танланди. Нотукима матолар игнали-механик усулда шакллантирилиб, кейинчалик табиий боғловчи моддалар ёрдамида мустаҳкамланди. Ҳар бир намуна учун ўлчамлар 300×300 мм қилиб олинди ва эксперимент такрорланувчанлигини таъминлаш мақсадида ҳар бир параметр бўйича камида уч марта ўлчов ўтказилди. Матоларнинг шовқин ютиш қобилияти 500–2000 Гц частота

ISSN 3030-3907

диапазонида аниқланди. Ушбу диапазон маиший ва саноат шовқинларининг асосий қисмига тўғри келади.

Шовқин ютиш коэффициенти (α) қуйидаги формула орқали аниқланди:

$$\alpha=W_{yutilgan}/W_{tushgan}$$

бу ерда:$W_{yutilgan}$ – материал томонидан ютиб олинган энергия, $W_{tushgan}$ – тушган акустик энергия.

Матонинг ҳажмий зичлиги қуйидаги формула билан ҳисобланди:

$$\rho=m/V$$

бу ерда: m – намуна массаси (кг),V – намуна ҳажми (м³).

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, пахта ва ипак чиқиндилари асосида олинган нотукима матолар юқори ғовакли тузилишга эга бўлиб, 500–2000 Гц частота диапазонида шовқин ютиш коэффициенти 0,45–0,65 ни ташкил қилди. Бу кўрсаткичлар қурилишда қўлланиладиган айрим анъанавий материаллардан устун эканлигини кўрсатади.Матоларнинг зичлиги ошиши билан шовқин ютиш хусусияти ҳам яхшиланди, бироқ ҳаво ўтказувчанлик маълум даражада камайди. Бу эса материални аниқ қўлланиш соҳасига мослаштириб танлаш зарурлигини кўрсатади.

Хом ашё турлари сифатида**:** пахта толаси чиқиндилари (60–70%); ипак чиқиндилари (20–30%); табиий боғловчи моддалар (10%). Нотукима матолар игнали-механик усул ёрдамида шакллантирилди.

Нотукима матонинг физик-механик кўрсаткичлари аникланди. Бунда калинлик, зичлик ва хаво утказувчанлигига намуна аралашмаларининг таъсири аникланди.

1-жадвал

Нотукима матоларнинг асосий параметрлари

№	Намуна тури	Қалинлик, мм	Зичлик, кг/м³	Ҳаво ўтказувчанлик, см³/см²·с
1	Пахта асосида	12	85	320
2	Пахта–ипак	15	95	280
3	Ипак чиқиндиси	18	110	240

Эксперимент натижалари шуни кўрсатдики, паст частоталарда (500 Гц) материалнинг тузилиши ва ғоваклилиги ҳал қилувчи омил бўлса, юқори частоталарда (1000–2000 Гц) зичлик ва қалинликнинг таъсири ортиб боради.

Олинган натижалардан шу куриниб турибки пахта ипак аралашмали нотукима матонинг курсаткичлари юкори экан. Бу нотукима намуналарини шовкин ютилиш коэффициенти ва матонинг хажмий зичлиги аникланди. [3]

ISSN 3030-3907

2-жадвал

Шовқин ютиш коэффициенти (α)

Частота, Гц	Пахта	Пахта–ипак	Ипак
500	0,42	0,48	0,51
1000	0,55	0,61	0,65
2000	0,58	0,64	0,69

Олинган натижалардан кўриниб турибдики, частота ошиши билан нотукима материалларнинг шовқин ютиш коэффициенти ҳам ортади. Айниқса, ипак чиқиндилари қўшилган намуналар энг юқори самара кўрсатди. Ипак чиқиндилари қўшилган нотукима матолар энг юқори акустик самарадорликни намоён қилди. Бу ҳолат ипак толаларининг майинлиги ва бир текис тақсимланиши натижасида материалнинг ички ғовакли тузилиши яхшиланиши билан изоҳланади.

Пахта асосидаги намуна ҳаво ўтказувчанлиги бўйича юқори кўрсаткичга эга бўлди, бироқ шовқин ютиш коэффициенти нисбатан паст бўлди. Пахта–ипак аралаш намуналар эса акустик ва физик хоссаларнинг мувозанатли комбинациясини таъминлади. Эксперимент натижалари зичликнинг ошиши билан шовқин ютиш коэффициентининг ошишини, бироқ маълум чегарадан сўнг ҳаво ўтказувчанликнинг камайишини кўрсатди. Бу эса нотукима материалларни қўллаш соҳасига қараб оптимал параметрларни танлаш зарурлигини кўрсатади. Олиб борилган экспериментал тадқиқотлар асосида:маҳаллий хом ашёлар — пахта ва ипак саноати чиқиндилари асосида олинган нотукима матолар юқори акустик самарадорликка эга экани аниқланди. Материалнинг шовқин ютиш қобилияти унинг зичлиги, қалинлиги ва толалар нисбатига бевосита боғлиқ экани экспериментал равишда исботланди.Ипак чиқиндилари қўшилган нотукима матолар 1000–2000 Гц диапазонида 0,65–0,70 гача бўлган шовқин ютиш коэффициентини таъминлади.Пахта–ипак аралаш нотукима материаллар акустик самарадорлик ва ҳаво ўтказувчанлик ўртасида оптимал мувозанатга эга экани билан ажралиб туради.Тадқиқот натижалари маҳаллий хом ашёлардан фойдаланиб, иқтисодий самарали ва экологик тоза шовқинни изоляцияловчи материаллар ишлаб чиқариш имконияти мавжудлигини кўрсатди.

Шовқин ютиш жараёнининг математик модели ишлаб чикилди. Нотукима матоларда шовқин ютиш жараёни асосан акустик тўлқинларнинг ғовакли муҳит ичида тарқалиши ва энергиянинг ишқаланиш ҳамда иссиқлик алмашинуви ҳисобига сўндирилиши билан боғлиқ. Шу сабабли шовқин

ISSN 3030-3907

ютиш коэффициенти материалнинг физик параметрлари орқали ифодаланиши мумкин.

Моделлаштиришда қуйидаги параметрлар қабул қилинди: ρ - материалнинг ҳажмий зичлиги, кг/м³; d - материал қалинлиги, м; σ - ҳаво оқимига қаршилик , Па·с/м²; f - акустик тўлқин частотаси, Гц; c - ҳавода овоз тарқалиш тезлиги, м/с.

Акустик сўндириш коэффициенти ғовакли нотукима материалларда акустик тўлқиннинг амплитудаси экспоненциал қонуният бўйича камаяди:

$$I_{(x)}=I_{0e}^{-2\beta x}$$

бу ерда:I_0- кирувчи акустик интенсивлик, β - акустик сўндириш коэффициенти, x - материал қалинлиги бўйича масофа.

Акустик сўндириш коэффициенти β ни қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$\beta=k\cdot(\sigma\rho/\ c)\cdot f$$

бу ерда: k — тажрибавий коэффициент (0,8–1,2 оралиғида).

Шовқин ютиш коэффициентининг модели ишлаб чикилди. Материалнинг шовқин ютиш коэффициенти α қуйидаги кўринишда ифодаланади:

$$\alpha(f)=1-e^{-2\beta d}$$

Ушбу ифодани юкоридаги формулага қўйсак:

$$\alpha(f)=1-\exp(-2k\cdot(\sigma/\rho\ c)\cdot f\cdot d$$

Бу тенглама шовқин ютиш коэффициентининг частота, қалинлик ва зичликка боғлиқлигини аниқ ифодалайди.

Модел асосида ҳисобланган натижалар экспериментал маълумотлар билан таққосланди. 1000–2000 Гц диапазонида ҳисобланган α қийматлари экспериментал натижалардан 8–12% орасида фарқ қилди, бу эса моделнинг амалиёт учун етарли аниқликка эга эканлигини кўрсатади.

Зичлик ортиши билан ρ ўсиши натижасида α қиймати маълум оптимал нуқтагача ортади, кейин эса ҳаво ўтказувчанлик пасайиши сабабли ўсиш секинлашади. Бу ҳолат экспериментал кузатувлар билан тўлиқ мос келади. Таклиф этилган математик модел: нотукима матоларнинг оптимал қалинлиги ва зичлигини олдиндан ҳисоблаш; маҳаллий хом ашёлар асосида ишлаб чиқариладиган материаллар учун акустик самарадорликни прогноз қилиш; қўшимча экспериментлар сонини камайтириш имконини беради. Маҳаллий пахта ва ипак чиқиндилари асосида олинган нотукима матолар учун шовқин ютиш коэффициентини физик параметрлар орқали ифодаловчи соддалаштирилган математик модел таклиф этилди ва унинг экспериментал натижалар билан мувофиқлиги исботланди. Ҳисоблаш учун қуйидаги

ISSN 3030-3907

қийматлар қабул қилинди:k=1(тажрибавий коэффициент), c=343 м/с (ҳавода овоз тезлиги), σ=8000 Па·с/м^2 (нотукима мато учун ўртача қиймат) [4]

3-жадвал

Модел асосида шовқин ютиш коэффициентини ҳисоблаш

№	Материал тури	Зичлик ρ, кг/м³	Қалинлик d, мм	Частота f, Гц	Ҳисобланган α	Экспериментал α
1	Пахта асосида	85	12	500	0,40	0,42
2	Пахта асосида	85	12	1000	0,52	0,55
3	Пахта асосида	85	12	2000	0,56	0,58
4	Пахта–ипак	95	15	500	0,46	0,48
5	Пахта–ипак	95	15	1000	0,59	0,61
6	Пахта–ипак	95	15	2000	0,63	0,64
7	Ипак чиқиндиси	110	18	500	0,49	0,51
8	Ипак чиқиндиси	110	18	1000	0,63	0,65
9	Ипак чиқиндиси	110	18	2000	0,67	0,69

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики: ҳисобланган ва экспериментал қийматлар ўртасидаги фарқ **5–10%** дан ошмайди; частота ва қалинлик ошиши билан α\alphaα қиймати мунтазам ортади; зичлиги юқорироқ бўлган ипак чиқиндили материаллар энг юқори акустик самарадорликни таъминлайди. Бу ҳолат таклиф этилган математик моделнинг нотукима матолар учун етарли аниқликка эга эканлигини тасдиқлайди. Таклиф этилган математик модел асосида ҳисобланган шовқин ютиш коэффициенти қийматлари экспериментал натижалар билан 90–95% мос келиши аниқланди, бу моделни амалиётда қўллаш имконияти мавжудлигини кўрсатади.

ХУЛОСА. Маҳаллий хом ашёлар асосида ишлаб чиқарилган нотукима матолар шовқинни изоляция қилишда самарали экани аниқланди. Ушбу материаллар экологик тоза, иқтисодий жиҳатдан мақбул ва импорт ўрнини

ISSN 3030-3907

босувчи маҳсулот сифатида катта истиқболга эга. Олинган натижалардан қурилиш, машинасозлик ва маиший соҳаларда кенг фойдаланиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Сафаров Б.Ш. Нотукима материаллар технологияси. – Тошкент: Фан, 2020.
2. Кузнецов В.Н. Акустические материалы и их свойства. – Москва: Легпром, 2019.
3. ISO 10534-2: Acoustics – Determination of sound absorption coefficient.
4. Абдуллаев А.А. Маҳаллий хом ашёлардан нотукима материаллар олиш. – Самарқанд, 2021.

ISSN 3030-3907

РАЗРАБОТКА АЛГОРИТМА ПРОФИЛАКТИКИ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ И ВТОРИЧНЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ У ПАЦИЕНТОВ С БОЛЕЗНЬЮ ПАРКИНСОНА

Абдукодиров Элдор Исроилович
Ташкентский государственный медицинский университет
Таирова Дилярам Закировна
Ташкентский государственный медицинский университет
Бабакулов Шараф Хамракулович
Ташкентский государственный медицинский университет
Юлдашева Асал Саидмурод кизи.
Институт фармацевтического образования и исследований

Аннотация. В данной статье разработан алгоритм профилактики для пациентов после болезни Паркинсона. Болезнь Паркинсона является хроническим дегенеративным заболеванием центральной нервной системы, характеризующимся замедлением движений, мышечной ригидностью, тремором и нарушением равновесия. На этапе после лечения важно разрабатывать эффективные профилактические меры, направленные на улучшение качества жизни пациентов. Данное исследование охватывает основные подходы к уходу за пациентами после болезни. Профилактические меры включают: регулярный прием лекарств, назначенных врачом; повышение физической активности для поддержания мышечной силы и равновесия; логопедическую терапию для устранения проблем с речью и глотанием; сбалансированное питание и профилактику запоров; психологическую поддержку для улучшения эмоционального состояния. Также важны адаптация условий в доме, создание безопасной среды и усиление социального общения, что играет важную роль в повседневной жизни пациента.

Ключевые слова: болезнь Паркинсона, профилактика, алгоритм, немоторные симптомы, реабилитация, физиотерапия, упражнения.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Parkinson kasalligidan keyingi bemorlarni profilaktika qilish algoritmi ishlab chiqildi. Parkinson kasalligi markaziy asab tizimining surunkali degenerativ kasalligi bo‘lib, asosan harakatlar sekinlashuvi, mushaklarning qattiqlashuvi, titroq va muvozanatning buzilishi bilan ifodalanadi. Ushbu kasallikning davolashdan keyingi bosqichida bemorlarning hayot sifatini yaxshilash maqsadida samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot bemorlarni kasallikdan keyingi parvarishlashda qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlarni qamrab oladi. Profilaktika choralari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shifokor tomonidan tavsiya etilgan dori

ISSN 3030-3907

vositalarini muntazam qabul qilish; jismoniy faollikni oshirish orqali mushak kuchi va muvozanatni saqlash; logopedik terapiya yordamida nutq va yutish muammolarini bartaraf etish; muvozanatli ovqatlanish va ich qotishi oldini olish; psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali ruhiy holatni yaxshilash. Shuningdek, uy sharoitini moslashtirish va xavfsiz muhit yaratish, ijtimoiy muloqotni kuchaytirish bemorning kundalik hayotini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: parkinson kasalligi, profilaktika, algoritm, nomotor simptomlar, reabilitatsiya, fizioterapiya, mashqlar.

Abstract. This article presents a developed algorithm for the prevention of patients following Parkinson’s disease. Parkinson’s disease is a chronic degenerative condition of the central nervous system, characterized by bradykinesia, muscle rigidity, tremors, and balance impairments. In the post-treatment phase, it is crucial to design effective preventive measures to improve patients' quality of life. The study outlines the main approaches to patient care post-disease. Preventive measures include regular administration of medications prescribed by physicians, increased physical activity to maintain muscle strength and balance, speech therapy to address issues with speech and swallowing, balanced nutrition to prevent constipation, and psychological support to enhance emotional well-being. Additionally, adapting home environments, creating a safe space, and fostering social interactions play a significant role in improving patients' daily lives.

Keywords: parkinson’s disease, prevention, algorithm, non-motor symptoms, rehabilitation, physiotherapy, exercises.

ВВЕДЕНИЕ.

Болезнь Паркинсона (БП) представляет собой хроническое прогрессирующее нейродегенеративное заболевание, обусловленное потерей дофаминергических нейронов компактной части черной субстанции. Согласно данным ВОЗ, к 2020 году число пациентов с БП в мире превысило 10 миллионов человек. Несмотря на достижения современной фармакотерапии (агонисты дофамина, препараты леводопы), существующие методы направлены преимущественно на купирование симптомов и не способны полностью остановить дегенеративный процесс.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью разработки комплексных превентивных стратегий, направленных на замедление инвалидизации и улучшение качества жизни пациентов. В литературе подчеркивается значимость немедикаментозных методов — физической реабилитации, нутритивной поддержки и психологической коррекции, однако отсутствие единого структурированного алгоритма затрудняет их внедрение в клиническую практику.

ISSN 3030-3907

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. В исследование включено 60 пациентов с установленным диагнозом БП (стадии I–III по Хён-Яру). Участники были рандомизированы на две группы:

1. **Контрольная группа (n=30):** получала стандартную медикаментозную терапию.
2. **Основная группа (экспериментальная, n=30):** велась согласно разработанному комплексному алгоритму профилактики.

Разработанный алгоритм включал: Персонализированную физиотерапию: (3 раза в неделю) — упражнения на баланс, йога, скандинавская ходьба.

- **Диетотерапию:** рацион, обогащенный антиоксидантами, и коррекцию времени приема белка относительно приема леводопы.
- **Психологическую поддержку:** когнитивно-поведенческая терапия и медитативные техники.
- **Когнитивный тренинг:** упражнения на логику, чтение и стимуляцию памяти.

Оценка эффективности проводилась через 6 месяцев с использованием шкалы баланса Берга, теста «Timed Up and Go» (TUG), опросников качества жизни и статистического анализа (T-test, ANOVA).

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. Результаты сравнительного анализа продемонстрировали статистически значимое преимущество предложенного алгоритма. В экспериментальной группе индекс качества жизни улучшился на фоне снижения выраженности моторных дефицитов ($p < 0.05$).

Ключевые показатели:

- **Психоэмоциональная сфера:** уровень депрессии и тревоги снизился на 40% эффективнее по сравнению с контролем ($p < 0.01$).
- **Моторная активность:** результаты теста TUG и шкалы Берга подтвердили улучшение координации и устойчивости.
- **Профилактическая ценность:** частота развития вторичных осложнений и темпы прогрессирования симптомов в основной группе оказались на 30% ниже, чем в контрольной.

АЛГОРИТМ КОМПЛЕКСНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ БП

1. **Физическая активность и кинезиотерапия:**
   - Регулярные аэробные нагрузки (не менее 150 мин в неделю).
   - Специализированные упражнения для предотвращения падений.
2. **Нутритивная поддержка:**

ISSN 3030-3907

- Соблюдение "белкового окна" (интервал между приемом белковой пищи и леводопы).
- Включение в рацион полифенолов и омега-3 жирных кислот.

3. **Психологическая и социальная интеграция:**
- Мониторинг аффективных расстройств.
- Вовлечение в группы социальной поддержки для предотвращения изоляции.

4. **Фармакологический мониторинг:**
- Динамическая коррекция доз дофаминергических средств на основе дневников самоконтроля.

5. **Когнитивная стимуляция:**
- Ежедневные нейропсихологические упражнения для сохранения синаптической пластичности.

ОБСУЖДЕНИЕ. Полученные в ходе исследования результаты подтверждают гипотезу о том, что изолированная фармакотерапия препаратами леводопы не является исчерпывающей стратегией при лечении болезни Паркинсона (БП). Интеграция разработанного нами алгоритма позволила достичь **синергетического эффекта**, воздействуя на различные звенья патогенеза.

1. **Нейрофизиологический аспект:** Улучшение показателей по шкале баланса Берга и тесту TUG в основной группе ($p < 0.05$) свидетельствует о высокой эффективности физической реабилитации. Регулярные упражнения способствуют активации нейропластичности и улучшению связей в базальных ганглиях, что частично компенсирует моторный дефицит.

2. **Иммуно-метаболический фактор:** Коррекция нутритивного статуса, в частности соблюдение «белкового окна», оптимизирует абсорбцию леводопы в ЖКТ, предотвращая конкурентное поглощение аминокислот. Это позволило стабилизировать эффект «включения-выключения» у пациентов основной группы.

3. **Психоэмоциональный статус:** Снижение уровней депрессии и тревоги по шкале HADS на 40% более выражено в экспериментальной группе ($p < 0.01$). Это доказывает, что нейровоспалительные процессы, коррелирующие с аффективными расстройствами, могут успешно модулироваться через когнитивно-поведенческие интервенции и психологическую поддержку.

Сравнительный анализ показал, что мультидисциплинарный подход не только замедляет темпы прогрессирования двигательных нарушений, но и

ISSN 3030-3907

создает «буфер» против немоторных осложнений, которые зачастую являются более инвалидизирующими, чем сам тремор или ригидность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

1. **Эффективность алгоритма:** Разработанный комплексный алгоритм профилактики продемонстрировал статистическую и клиническую превосходность над стандартными протоколами ведения пациентов. Стабилизация физического состояния сопровождалась значительным улучшением качества жизни по всем доменам опросника PDQ-39.

2. **Профилактика осложнений:** Применение алгоритма позволяет минимизировать риски развития тяжелых депрессивных состояний, когнитивного снижения и вегетативных дисфункций. Частота падений и связанных с ними травм в основной группе снизилась на 30%.

3. **Клинические рекомендации:** Предложенный алгоритм рекомендуется к обязательному внедрению в практику неврологических стационаров, диспансеров и реабилитационных центров Республики Узбекистан. Данный подход является экономически обоснованным инструментом долгосрочного ведения пациентов, позволяющим замедлить темпы первичной инвалидизации и снизить нагрузку на систему здравоохранения.

4. **Перспективы:** Дальнейшие исследования должны быть сосредоточены на изучении влияния данного алгоритма на динамику специфических биомаркеров (цитокинов IL-6, TNF-\beta) в долгосрочной перспективе (более 2-х лет).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Abdukodirov, E. I., et al. (2023). Dynamic assessment of levels of depression and anxiety impairment in Parkinson's disease. *Movement Disorders*, 38.

2. Abdukodirov, E. I., et al. (2023). Transcranial magnetic stimulation therapy in early and late stages of Parkinson's disease. *EJMMP*, 3(1), 31–36.

3. Abduqodirov, E. I. (2025). Parkinson kasalligida neyrokognitiv va afffektiv buzilishlarning namoyon bo‘lishi. *VAPCA*, 15(10), 289–294.

4. Abduqodirov, E. I. (2025). Parkinson kasalligining klinik shakllarida immunologik ва neyrovizual o‘zgarishlarning kompleks tahlili. *VAPCA*, 12(7), 24–26.

5. Abduqodirov, E. I., Matmurodov, R. J., & Babakulov, Sh. Kh. (2026). Integrated neurocognitive and structural-functional brain changes in Parkinson's disease. *JNSU*, 4(1), 12-19.

6. Abduqodirov, E., et al. (2023). Glial neurotrophiz factor as a differential marker of Parkinson’s disease. *Movement Disorders*, 38(289), 120.

ISSN 3030-3907

7. Abduqodirov, E., et al. (2023). Aspects of early detection of Parkinson's disease in ambulatory settings. *Movement Disorders*, 38(478), 203.
8. Amonov, B., et al. (2024). Analysis of risk factors affecting the development of vascular parkinsonism by gender. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122.
9. Amonov, B., et al. (2021). Sleep disorders as a predictor of Parkinson's disease. *Journal of the Neurological Sciences*, 429.
10. Brochard, V., et al. (2009). Infiltration of CD4+ lymphocytes into the brain contributes to neurodegeneration. *Journal of Clinical Investigation*, 119(1).
11. Isroilovich, A. E., et al. (2022). The role and importance of gliah neurotrophical factors in early diagnosis of Parkinson disease. *Texas Journal of Medical Science*, 5.
12. Jumanazarova, Sh. R., et al. (2025). Clinical and paraclinical aspects of extrapyramidal disorders. *Movement Disorders*, 4(157).
13. Juraev, R., et al. (2019). Initial manifestations of Parkinson's disease in Uzbek nationality. *Journal of the Neurological Sciences*, 405.
14. Khalimova, K. M., et al. (2023). Assessment of indicators of anxiety and depression in patients after COVID-19. *World Bulletin of Public Health*, 20(1).
15. Matmurodov, R. J., & Abduqodirov, E. I. (2024). Transformation of clinical forms of neuropathy in the post-covid period. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122.
16. Matmurodov, R., & Abduqodirov, E. (2020). Depression in various forms of parkinsonism. *Movement Disorders*, 35, S335.
17. Matmurodov, R., & Abduqodirov, E. (2020). Early predictors of Parkinson's disease and prognosis. *Movement Disorders*, 35, S207.
18. Matmurodov, R., et al. (2025). Myofascial pain syndromes in parkinsonism. *Movement Disorders*, 4(S977), 156.
19. Matmurodov, R., et al. (2025). Analysis of statistical data on patients with Parkinson's disease. *Movement Disorders*, 4(1), S801.
20. Matmurodov, R., et al. (2019). Cardiovascular disorders in parkinsonism depending on the form. *Journal of the Neurological Sciences*, 405.
21. Matmurodov, R., et al. (2024). Transformation of clinical forms and stages of PD against background of Covid-19. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122.
22. McGeer, P. L., & McGeer, E. G. (2004). Inflammation and neurodegeneration in Parkinson's disease. *Parkinsonism & Related Disorders*, 10.
23. Muminov, B., et al. (2022). Level of glial neurotrophic factor in blood plasma. *Movement Disorders*, 37, S586.
24. Muminov, B., et al. (2021). Influencing factors on cognitive function in Parkinson's disease. *Journal of the Neurological Sciences*, 429.

ISSN 3030-3907

25. Naimov, O., et al. (2019). Constipation as a predictor of Parkinson's disease. *Journal of the Neurological Sciences*, 405, 302.
26. Naimov, O., et al. (2020). The incidence of non-motor disorders in Parkinson's disease. *Parkinsonism & Related Disorders*, 79, e25.
27. Naimov, O., et al. (2024). Specific features of behavioral disorders in Parkinson's disease. *Parkinsonism & Related Disorders*, 122.
28. Tairova, D. Z., & Abduqodirov, E. I. (2024). Parkinson kasalligida klinik simptomlarni shakllanishida immunologik omillarning roli. *JGEN*, (17).
29. Tansey, M. G., & Goldberg, M. S. (2010). Neuroinflammation in Parkinson's disease. *Neurobiology of Disease*, 37(3).
30. Абдуқодиров, Э. И., et al. (2026). Актуальные проблемы орофасциальной боли. *ОНИИМ*, 85(2), 208–224.
31. Абдуқодиров, Э. И. (2025). Паркинсон касаллигида цитокинлар профили ва терапия омиллари. *ЖГЕН*, (28), 200–205.
32. World Health Organization. (2023). Parkinson disease: A public health priority. *WHO Global Reports*.

ISSN 3030-3907

ADSORBENTLAR TAYYORLASH UCHUN NAVBAHOR BENTONITINING TARKIBI VA STRUKTURASI O‘ZIGA XOSLIGINI O‘RGANISH

Abdikamalova Aziza Baxtiyarovna.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti bosh ilmiy xodimi, Kimyo fanlari doktori, professor aziza.abdik@gmail.com;
Mamadoliyev Ikromjon Ilxomidinovich.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali, dotsent, I.Mamadoliyev@kiut.uz;
Sitora Sirojiddinova Dilshodovna.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali stomatologiya yo‘nalishi 251-guruh talabasi, sitorasirojiddinova01@gmail.com
Xaydarov Dilshod Mamarasulovich
“DM CHEMISTRY SCHOOL” maktabining direktori, kimyo fanlari bo‘yicha (PhD),

Annotatsiya. Navbahor koni (Navoiy viloyati) bentonit gillari (B1 va B2 namunalari) adsorbentlar tayyorlash maqsadida kimyoviy, mineralogik va struktura xususiyatlari bo‘yicha kompleks tadqiq etildi. Rentgenofazali, IQ spektroskopik, SEM, termogravimetrik va azot adsorbsiya tahlillari natijasida gillarda montmorillonit miqdori 54-57% aniqlandi, SiO_2 (59-64%) va Al_2O_3 (15-16%) asosiy komponentlar ekanligi, B1 namunasida Na^+ kationlari ustunlik qilgani (80,6 mgekv/100 g), B2 da esa Ca^{2+} (65,5 mgekv/100 g) ko‘proq ekanligi ma’lum etildi. B1 ning sirt yuzasi marfologiyasi 56-65 m^2/g ga teng, mikrogovaklar ko‘proq bo‘lib, Cu^{2+} va Pb^{2+} ionlarini adsorbsiyalashda yuqori samaradorlik (maks. 120 mg/g) namoyon etdi. kinetik va izoterma modellar farqlarni tasdiqladi va unga mos keladigan adsorbsion tenglamalar bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ishqoriy va ishqoriy er bentonit gil minerali modifikatsiyalanish natijasida og‘ir metallarni tozalashda qo‘llash potentsialini ko‘rsatib, B1 ni optimal sorbent sifatida tavsiya etadi.

Kalit so‘zlar: Ishqoriy va ishqoriy-er bentonit, montmorillonit, adsorbent, termogravimetrik tahlil, struktura xususiyatlari, og‘ir metallar adsorbsiyasi

Аннотация. Бентонитовые глины из месторождения Навбахор (Навоийская область) (образцы B1 и B2) были всесторонне изучены на предмет химических, минералогических и структурных свойств для приготовления адсорбентов. В результате рентгенофазового анализа, ИК-спектроскопии, СЭМ, термогравиметрического анализа и анализа адсорбции азота было установлено, что содержание монтмориллонита в глинах составляет 54-57%,

ISSN 3030-3907

основными компонентами являются SiO_2 (59-64%) и Al_2O_3 (15-16%), в образце B1 преобладают катионы Na^+ (80,6 мгэкв/100 г), а в образце B2 Ca^{2+} (65,5 мгэкв/100 г). Поверхностная морфология образца B1 составляла 56-65 м²/г, в нем было больше микропор, и он продемонстрировал высокую эффективность (макс. 120 мг/г) в адсорбции ионов Cu^{2+} и Pb^{2+}. Кинетические и изотермические модели подтвердили различия и были описаны соответствующими уравнениями адсорбции. Результаты исследования указывают на потенциал щелочных и щелочноземельных бентонитовых глинистых минералов для удаления тяжелых металлов путем модификации и рекомендуют B1 в качестве оптимального сорбента.

Ключевые слова: Щелочной и щелочноземельный бентонит, монтмориллонит, адсорбент, термогравиметрический анализ, структурные свойства, адсорбция тяжелых металлов

Abstract. Bentonite clays from the Navbahor deposit (Navoi region) (samples B1 and B2) were comprehensively studied for chemical, mineralogical and structural properties for the preparation of adsorbents. As a result of X-ray phase, IR spectroscopic, SEM, thermogravimetric and nitrogen adsorption analyses, the content of montmorillonite in the clays was determined to be 54-57%, SiO_2 (59-64%) and Al_2O_3 (15-16%) were the main components, and Na^+ cations predominated in sample B1 (80,6 mgeq/100 g), while Ca^{2+} (65,5 mgeq/100 g) was more abundant in B2. The surface morphology of B1 was 56-65 m²/g, with more micropores, and it demonstrated high efficiency (max. 120 mg/g) in adsorbing Cu^{2+} and Pb^{2+} ions. Kinetic and isotherm models confirmed the differences and were described by the corresponding adsorption equations. The results of the study indicate the potential of alkaline and alkaline earth bentonite clay minerals for heavy metal removal by modification, and recommend B1 as the optimal sorbent.

Keywords: Alkaline and alkaline-earth bentonite, montmorillonite, adsorbent, thermogravimetric analysis, structural properties, heavy metal adsorption

KIRISH.

Hozirgi vaqtda ham sintetik, ham tabiiy materiallar sorbsiy jarayonlarida qo‘llaniladi [1,2]. Tarmoqlangan g‘ovakli tuzilishi va yuqori sorbsion qobiliyati bilan ajralib turadigan gil minerallari katta qiziqish uyg‘otadi. Alyumosilikatlar yuqori yutish qobiliyatiga, atrof-muhit ta’siriga chidamliligiga ega va ularning yuzasida turli xil birikmalarni ushlab turish uchun ishlatilishi mumkin, bu ularni modifikatsiyalash istiqbollarini ochadi [3]. Biroq, ko‘pchilik gillar qo‘shimcha ishlov berishni talab qiladi. Gillarni modifikatsiyalashning mashhur usullaridan biri bu ma’lum sharoitlarda sulfat kislotasi kabi mineral kislotalar ta’sirida gillarni,

ISSN 3030-3907

ayniqsa montmorillonit gillarini faollashtiradigan kislota bilan ishlov berishdir. Ushbu jarayon davomida mikro va mezog‘ovaklar hajmi ortadi.

Tanlangan gillarning kimyoviy va mineralogik tarkibini o‘rganish maskur sorbentlik darajasini aniqlash maqsadida Navbahor konidan (Navoiy viloyati) montmorillonit gillari o‘rganildi. Ushbu kon O‘zbekistondagi boshqa konlarga nisbatan gillari tarkibida montmorillonit [4] ga boy bo‘lishi va juda katta umumiy zahiraga ega ekanligi bilan tanlab olingan. Bu konda avvaldan ishlab turgan gil-tuproq shaxtasi mavjud. Namuna olish faqat shaxta xududida qayta ishlaridan so‘ng amalga oshirildi. Kon yuzasi tozalangandan so‘ng kesimi 10x10 sm qatlamdagi na’munalar olinadi. Gillar qatlam bo‘ylab taxlildan o‘tkazildi. Namuna olish 3-4 m oraliqdagi qatlamdan oshmagan holda olinadi[5]. Karerda ishqoriy (B1) va ishqoriy-yer(B2) bentonitlari uchraydi. B1gil namunasi yashil-kulrang bo‘lib, B1 gillarining namunalari yashil-kulrang, ushlab ko‘rilganda yog‘li va quritganda zich qatlam hosil qiladi, B2 gili to‘q-yashil rangda bo‘lib, yaxshilab ko‘zdan kechirilganda qattiq qatlama ko‘rinishda bo‘lib, tarkibiga dala shipati aralashgan bo‘ladi.

Materiallar va usullar Ushbu bentonit namunalarining tuzilishi va tarkibini aniqlash uchun rentgenofazali, elektron mikroskopik, termik va spektral kabi tahlillar o‘tkazildi[6]. Rentgen diffraktogramma XRD Empyrean PANanalytical rentgen difraktometrida 0,0001 ° minimal skanerlash bosqichining imkoniyati va burchakni o‘rnatishning takrorlanishi <0,0002 ° bilan oralig‘ida olingan. Zamonaviy difraktometr tadqiqot jarayonini avtomatlashtirish, diffraksiya chizmalarini qayta ishlash va polikristalli materiallar uchun turli kristallografik masalalarni hal qilish uchun mo‘ljallangan PDWin va PELDos dasturiy paketlaridan foydalangan holda shaxsiy kompyuter yordamida ma’lumotlarni yozib olish va qayta ishlash imkonini beradi. Sintezlangan material IQ spektrlari Avatar 360 FT-IR Nicolet iS50 Thermo Fisher Scientific spektrometrda 400-4000 sm-1 chastota diapazonida Fure konvertatsiyasi bilan olindi. IQ spektrlarini qayd etish uchun gil namunalari ikki usulda tayyorlandi[7]. Birinchi usul - standart bo‘lib, namunalarni kaliy bromid kukuni bilan chini kelida maydalash va tabletkalar qolipda preslab tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi usul – bunda gilning kukun ko‘rinishdagi namunasidan spektr chiziqlari olishdan avval 10 soat davomida 120°C haroratda quritildi, diffuzion aks ettirish usuli yordamida vakuum qurilmasida 1 sm-1 qiymatda kaliy bromid eritmasi bilan ishlandi. Namunalarning elektron mikroskopik tasvirlari va elementar tarkibi haqidagi ma’lumotlar EVO MA10 SEM skanerlash elektron mikroskopi yordamida olingan. Integratsiyalashgan Pegasus 2000 asbobi kimyoviy tarkibni aniqlash, kristall panjara turini va uning materiallarning o‘tish (1 mkm dan kam) chegaralarida

ISSN 3030-3907

yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, namunani kimyoviy tahlil qilish uchun Al 1200 atom adsorbsion spektrofotometridan foydalangan. Termogravimetrik va differensial termik tahlil Q-1500 D derivatografiyasida 20-1000 °C harorat oralig‘ida havo atmosferasida 5 °C/min tezligi isitish bilan amalga oshirildi. Tabiiy gilning kimyoviy tarkibi analitik kimyo usulida quydagi oksidlar borligi aniqlandi (1 jadval)

Tabiiy bentonit gili namunalarini kimyoviy tarkibi massa % og‘irligida

1-Jadval


Birikmalar	**Tabiiy bentonit gili moddaga nisbatan % tarkibi**	
	B1	B2
SiO2	59,17	64,13
Al2O3	16,18	14,98
Fe2O3	2,71	2,29
FeO	2,28	3,08
CaO	0,9	3,33
MgO	1,5	3,17
Na2O	3,25	1,125
K2O	1,32	0,59
P2O5	0,35	0,42
SO3	0,38	0,54
CO2	0,51	0,32
b/b	15,5	9,65

Ikkala bentonit namunasi, B1 va B2, o‘xshash oksidlarni o‘z ichiga oladi, bu bentonit gillarining odatiy tarkibini aks ettiradi. Biroq, ikkala namuna ham bir biridan ba’zi oksidlarning konsentratsiyasida farq qiladi. Ularda asosiy komponentlar sifatida SiO2 va Al2O3 bor, bu bentonit gillari uchun xosdir. Ikkala namunada ham Fe2O3, FeO, P2O5, SO3 va CO2 ma’lum miqdorda mavjud[8].

B2 (62,31%)da SiO2 miqdori B1 (58,82%) ga nisbatan yuqori. B2 tarkibida CaO (3,3%) miqdori B1 (0,9%) ga qaraganda ancha ko‘proq. Bu ishqoriy-yer bentonitida kalsiy miqdori yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Boshqa oksidli birikmalar B1(15,5%) ko‘rsatgichlari B2(9,5%)ga nisbatan ancha katta. Shunday qilib, ma’lum bir ish uchun ushbu ikkala namunani tanlashda ularning kimyoviy tarkibini, ayniqsa, bentonitning xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kalsiy, magniy va natriy tarkibini hisobga olish kerak bo‘ladi. 1-rasmda O‘rganilayotgan namunalarning mineralogik tarkibi rentgen fazali tahlil (RFT) asosida aniqlandi.

ISSN 3030-3907




1.rasm. 1) B1; 2) B2 Bentonit namunalarining difraktorgrammsi.

B1 uchun montmorillonit 1,781; 1,413; 0,455; 0,169; 0,166; 0,150 nm qiymatlar bilan aniqlanadi. B1 montmorillonit uchun 1,23 nm oraliq bilan d001 refleks qaytgan nurlar asosida identifikatsiya qilingan edi, bu montmorillonit qatlamlarining xarakterli tuzilishi haqida guvohlik beradi. Tabiiy sharoitda montmorillonit qatlamlari orasida suv molekulalari bo‘lishi mumkin va bu 1,23 nm oralig‘i ehtimol, struktura tarkibda mavjudligini aks ettiradi.


B1 va B2 termogrammasi endotermik effektning joylashishi va egriligi bilan farqlanadi(2.rasm).

Olingan derivatogramma 4 ta egri chiziqdan iborat. Dinamik termogravimetrik tahlil (DTGA) egri chiziq(2-egrilik) tahlil shuni ko‘rsatdiki, egrilikning 2 ta cho‘qqisi mavjud bo‘lib ular 63-148 ºC va 159-477 ºC harorati mos keladi.



1)

ISSN 3030-3907




2)


2. rasm 1) B1; 2) B2.Gilmoyalarning termik tahlil natijalari.

Shuningdek, namunalar 2-jadvalda ko‘rsatilgandek, bentonit tarkibidagi kimyoviy bog‘lanishlarni uzish uchun parchalanish tezligi (mg/min) va energiya sarfi miqdori (µV*s/mg) bilan farqlanadi.

B1 namunasining mikrotasvirlarida montmorillonit asosan mikro va ultramikroagregat shakllari ko‘rinishda ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ma’lum oraliqlarda bir-biridan ma’lum masofada joylashgan qirralari va uchlari boshoqsimon bo‘lgan yirik zarrachalar borligini ko‘rish mumkin. B2 namunasida montmorillonit kristallarining xarakterli tuzilishi boshqacha bo‘lib, ular boshqa minerallarga to‘g‘ri keladi. Bunday agregatlar odatda 20 dan 80 mikron oralig‘ida bo‘lib, shakli har xil zichlikdagi quritilgan barglarni eslatadi. Montmorillonit kristallarining aniq morfologik xususiyatlari rentgen fazali va termak tadqiqot natijalari bir biridan farqlanadi (3 va 4 rasm). B1 va B2 namunalarining energiya dispersiv tahlili elementlarning quyidagi ketma-ketligini aniqladi: O, Si, Al, Na, Ca va ularning konsentratsiyasi o‘ziga xos gil namunasiga qarab o‘zgaradi. Montmorillonit minerali asosiy sorbsion aktivligi B1 gil namunasida 54-56 mos%, B2 namuna esa taxminan 54-57 mas% tashkil qiladi.



3.rasm B1Mikrofotosurati.



4.rasm B2

ISSN 3030-3907

Mikrofotosurati.

B1va B2 namuna montmorillonit minerali borligi tasdiqlandi ularning miqdori, B1 uchun 54-56%mass, B2 uchun 54-57mass% ekanligi aniqlandi. Bu o‘rganilgan namunalarda sorbsion aktiv minerallar ko‘pligini tasdiqlaydi;

Natijalar va muhokama Granulometrik tarkibni aniqlash bir necha usullar yordamida amalga oshirildi. Dastlab biz fraksiyalarni to‘liq ajratish uchun (kukunlash)chuktirish usulidan foydalandik. Bu usulda suvda qattiq zarrachalarning bir biri bilan tortishish kuchi ta’sirida har xil tezlikda cho‘kish prinsipiga asoslanadi. Ushbu ishda zarracha o‘lchamlari 100 mkm va 1 mkm dan kichik bo‘lgan gilsimon fraksiyalar ajratib olindi. 100 g gildagi har bir fraksiyaning miqdori og‘irlik bo‘yicha % larda aniqlanadi. Granulometrik tarkibning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Gilning granulometrik %tarkibi*

Nam	≥1	100	50≥	10	5	1
B1	31	28,8	10,	1,	2	8
B2	39	29,1	8,6	0,	1	3

* - o‘lchamlar mkmda keltirilgan.

Loylarning granulometrik tarkibi aks ettirilgan 2-jadvalga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: B1 namunasida yirik zarrachalar miqdori 31,2%, B2 uchun esa bunday zarralar ko‘proq va 39,3% ni tashkil qiladi. Shuning uchun B2 namuna B1 bilan solishtirganda ancha yirikligini ko‘rish mumkin.



5-rasm. Rutkovskiye usuli yordamida gillarning granulometrik tarkibi.

Granulometrik tarkibni keyingi tahlili cho‘kmalarni doimiy o‘lchash usuli (gravimetrik tahlil) usuli bilan amalga oshirildi. Microsoft Excelda kompyuter dasturi yordamida amalga oshiriladi. Birinchi usulda B1 gil 100≥50 mkm o‘lchamdagi zarrachalar miqdori yuqori (29,1% ga nisbatan B2 uchun 28,8%).

ISSN 3030-3907

Ikkinchi usulga ko‘ra, natijalar – 28,7% va 25,3% o‘xshash, ammo kichik farqlarga ega. O‘lchami 50 ≥10 mkm bo‘lgan zarralar uchun gil B2 ikkala usulda ham B1 dan katta bo‘ladi (birinchisida 8,6% va 10,4%, ikkinchisida 28,5% va 20,1%) tengligini ko‘rish mumkin.

Gilsimon namunalar tarkibi va kation almashinuv komplekslari[9] ishda ko‘rsatilgan usulda aniqlanadi. Almashinuv kationlarini aniqlash natijalari 3 jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tabiiy gillarning kation almashinuvi kompleksining tarkibi va holati

Namuna	Na+	K+	Ca2+	Mg2+	Σkation	pH suv ekstrakti	pH tuz ekstrakti	Vxajm, mmolekv/100 g
	mgekv/100 g							
B1	46,3	8,6	11,2	14,5	80,6	7,8	6,7	0,169
B2	12,2	9,7	28,1	15,6	65,5	7,6	6,3	0,108

B1 gilda asosiy kation Na+ (46,3 mgekv/100 g), B2 gilda esa Ca2+ (28,1 mgekv/100 g)hisoblanadi. Bu gilni turli minerologik kelib chiqishi yoki sharoitda shakillanganligini ko‘rsatadi. Masalan, Na+ miqdori yuqori bo‘lgan gil montmorillonit yoki ko‘pincha natriy muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa smektit minerallarining yuqori konsentratsiyasini ko‘rsatishi mumkin.


B1gil(80,6 mgekv/100 g) B2 gilga(65,5 mgecv/100 g) ga nisbatan kattaroq kation almashinuv kompleksiga ega. Bu B1 gilda kation almashinadigan xususiyatlarga ega bo‘lgan ko‘proq qatlamli minerallar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin.

Bu bo‘limda biz ikkala tanlangan namuna ishqoriy B1 bentoniti va ishqoriy-yer B2 bentoniti tekstur xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanamiz. Azot adsorbsiyasidan foydalanib, umumiy g‘ovaklik, g‘ovak hajmi va ularning taqsimlanishi kabi ko‘rsatgichlar aniqlanadi, bu bizga uning adsorbsion faolligini baholash imkonini beradi.


G‘ovaklar hajmi va yuza maydonining kattaligi bo‘yicha taqsimlanishi DFT (Density functional theory) va Barret-Djoyner-Xalenda (BJH) usuli yordamida aniqlandi. Namuna g‘ovakliklarini o‘rtacha diametri BET: Dsr=4V/S formula bilan aniqlanadi.

6-rasmda Olingan izotermalar quyida keltirilgan.

ISSN 3030-3907



A) B1



B) B2

6-rasm. a) B1; C) B2 namunalarda azot adsorbsiyasi izotermalari.

Olingan izotermlar mos keladigan adsorbsion tenglamalar bilan tavsiflanadi, olingan ma’lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Namuna	S1, m2/g	S2, m2/g	Va, sm3/g	Vb, sm3/g	R, Å	D**, Å	D***, Å
B1	56,3	65,4	0,089	0,101	41,48	16,36	6,51
B2	42,7	62,5	0,071	0,082	45,65	18,44	8,43

G‘ildiraklar aylanganda tishlarning kontakt chizig‘i ilashish maydonida siljiydi(13.3- rasm), ilashish maydonining tomonlari ilashish chizig‘ining faol uzunligi (g_a) va tishning eni (b_w) bilan chegaralanadi. Ilashish maydonida goh bir juft, goh ikki juft tishlarning o‘zaro kontakti yuz beradi. Bir juft ilashish zonasining o‘lchami (1’ -2 zonasi) yon qoplanish koeffitsientining miqdoriga bog‘liq bo‘ladi:


$$\varepsilon_a = \frac{g_a}{P_b}$$

va uzliksiz ilashish shartiga ko‘ra $\varepsilon_a \geq 1$ bo‘lishi kerak

To‘g‘ri tishli silindrsimon uzatmalardagi kuchlar.

To‘g‘ri va qiya tishli silindrsimon uzatmalarni mustahkamlikka hisoblash GOST 21354-87 bilan bir andozaga solingan.

Ilashmadagi kuchlar. 14.1- rasmda F_n -ilashish chizig‘i bo‘ylab tishlar sirtiga tik yo‘nalgan umumiy kuchdir.



14.1- rasm. Ilashmadagi kuchlar

Ilashmadagi kuchlarni ilashish qutibiga keltirish qabul qilingan bo‘lib, F_n kuch aylana F_t va radial F_r kuchlarga ajratiladi, bu esa val va tayanchlarni keyinchalik hisoblashda qulaydir.Berilgan T va d bo‘yicha aylanma kuch topiladi.

$$F_t = \frac{2T_1}{d_{w1}} = \frac{2T_1}{d} \qquad 14.1$$

Aylanma kuch yordamida boshqa kuchlar: radial F_r va F_n kuchlar aniqlanadi.

ISSN 3030-3907

$$F_r = F_t tg\alpha_w \quad \text{va} \quad F_n = \frac{F_t}{\cos\alpha_w} \qquad 14.2$$

Valdagi burovchi momentni aniqlash tarkibi

1- holat: Yetakchi valdagi burovchi moment

$$T_{ch} = \frac{F \cdot D_b}{2} \ (N \cdot m) \qquad (9)$$

Reduktorning sekin yuruvchi validagi moment

$$T_s = \frac{T_{ch}}{u_n \cdot \eta_1} \ (N \cdot m) \qquad (10)$$

U_n – uzatmani uzatish soni

η_1 yetakchi valning f.i.k

Bir pog‘onali uzatma uchun

$$T_2 = \frac{T_1}{u_{n \cdot \eta_z}} \ (N \cdot m) \qquad (11)$$

2- holat: Loyihada T_2 yetaklanuvchi moment berilgan

Sekin yuruvchi valning momenti T_1=T_2 ga teng.

Oraliq va tez yuruvchi vallardagi moment

$$T_{or} = \frac{T_2}{u_r \cdot \eta_{Tu}} \ (N \cdot m) \qquad (12)$$

Sekin yuruvchi valdagi moment

$$T_2 = \frac{T_1}{U_r \cdot \eta_{Tu}} \ (N \cdot m) \quad (13)$$

Bu yerda U_r – reduktorning uzatish soni

3-holat: Elektrodvigatel quvvati loyihada berilgan. Elekrodvigatelni aylanishlar soni avval aniqlangan edi.

Elektrodvigatel validagi moment

$$T_i = 9550 \frac{N_1}{n_1} \ (N \cdot m) \qquad (14)$$

Tez yuruvchi valdagi burovchi moment

$$T_1 = T_i \cdot \eta \ (N \cdot m) \qquad (15)$$

Umumiy holda kurs loyihalarni topshiriqlarida berilgan parametrlariga aniqlik kiritib, elektrodvigatel tanlaganimizdan so‘ng keyingi bosqichlarga o‘tib loyihani to‘liq bajarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Tojiboyev, A. Jo‘rayev Mashina detallari. Toshkent “O‘QITUVCHI” 2014 y.

2. R.N. Tojiboyev, M.M. Shukurov Mashina detallarini loyihalash. Toshkent O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti 2013 y.

3. П.Ф. Дунаев, О.П. Леликов Детали машин курсовое проектирование. Москва “Высшая школа” 2010 й

ISSN 3030-3907

4. Soyib Nosirov “Mashina detallari” fanidan kurs loyihasini bajarish. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2011 y.

ISSN 3030-3907

UO‘T 631.313 / 631.316

TUPROQ ZICHLANISHINI KAMAYTIRUVCHI IZ YUMSHATKICH TEKISLAGICHLARINING ENERGIYA TEJAMKOR PARAMETRLARI

Naurizbayev Alliyar Oserbayevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, PhD, dotsent

E-mail: alliyar85@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada keng qamrovli mola-tekislagich iz yumshatkichi parametrlarini maqbullashtirish bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Ko‘p omilli eksperimentlar Xartli-3 usulida o‘tkazildi. MS Excel dasturida olingan regressiya tenglamalarini yechish orqali maqbul parametrlar aniqlandi: agregat tezligi 6-8 km/h bo‘lganda, tekislagichning o‘rnatilish burchagi 35°33'–38°47' va shtangagacha bo‘lgan tik masofa 40,65–41,11 cm ni tashkil etishi lozim. Ushbu ko‘rsatkichlarda tuproq zichligi (1,10–1,11 g/cm³) va energiya sarfi eng maqbul darajada bo‘lishi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: iz yumshatkich, mola-tekislagich, traktor izi, tuproq zichligi, tortishga qarshilik, maqbul parametrlar.

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментальных исследований по оптимизации параметров следорыхлителя-выравнивателя широкозахватного мотыги-выравнивателя. Многофакторные эксперименты проводились по плану Хартли-3. Путем решения полученных уравнений регрессии в MS Excel определены оптимальные параметры: при скорости агрегата 6-8 км/ч угол установки выравнивателя должен составлять 35°33'–38°47', а расстояние по вертикали до штанги – 40,65–41,11 см. Доказано, что при этих показателях плотность почвы (1,10–1,11 г/см³) и тяговое сопротивление находятся на оптимальном уровне.

Ключевые слова: следорыхлитель, мотыга-выравниватель, след трактора, плотность почвы, тяговое сопротивление, оптимальные параметры.

Abstract. The article presents the results of experimental research on optimizing the parameters of the track-loosening leveller of a wide-span clod-crushing leveller. Multi-factor experiments were conducted using the Hartley-3 design. By solving the obtained regression equations in MS Excel, optimal parameters were determined: at a unit speed of 6-8 km/h, the installation angle of the leveller should be 35°33'–38°47', and the vertical distance to the rod should be 40.65–41.11 cm. It is proven that with these indicators, soil density (1.10–1.11 g/cm³) and draft resistance are at an optimal level.

Keywords: track loosener, clod-crushing leveller, tractor track, soil density, draft resistance, optimal parameters.

KIRISH

ISSN 3030-3907

Muammoning dolzarbligi. Zamonaviy qishloq xo‘jaligida ekinlarni yetishtirish va yig‘ishtirib olish jarayonlarida yuqori quvvatli hamda katta massaga ega bo‘lgan mashina-traktor agregatlarining (MTA) qo‘llanilishi tobora ortib bormoqda. Turli xil agregatlar daladan bir mavsumda 5 dan 15 martagacha o‘tishi natijasida deyarli butun maydon traktor g‘ildiraklari tomonidan bir necha bor bosilib, tuproqning haddan tashqari zichlanishiga olib keladi. Zichlangan izlarda tuproqning g‘ovakligi va suv o‘tkazuvchanligi kamayadi, qattiqligi ortadi, havo rejimi yomonlashadi. Natijada, urug‘larning belgilangan chuqurlikka tushishi qiyinlashadi, to‘liq unib chiqishiga to‘sqinlik qilinadi va o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishi sekinlashadi. Oxir-oqibat, bu holat ekinlar hosildorligining sezilarli darajada pasayishiga (donli ekinlarda 8-13% va undan yuqori) hamda yoqilg‘i sarfining ortishiga olib keladi [1, 2]. Shu sababli, yerlarni ekishga tayyorlash jarayonida traktor g‘ildiraklaridan hosil bo‘lgan izlarni samarali yumshatish va tekislash agrosanoat majmuasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Traktor g‘ildiraklari ta’sirida tuproqning zichlanishi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda og‘ir texnikalar ta’sirida 0-30 cm chuqurlikdagi tuproq qatlamida zichlikning keskin ortishi va buni yumshatish uchun no‘l ishlov berish tizimlarida ham chuqur yumshatkichlardan foydalanish zarurligi isbotlangan [3, 4].


O‘zbekiston va MDH davlatlari sharoitida ko‘plab olimlar turli xil iz yumshatkich qurilmalarining (C va S shaklidagi tishlar, diskli va aralash ishchi organlar) konstruksiyalarini ishlab chiqishgan va ularning parametrlarini tadqiq qilishgan [5, 6]. Biroq, mavjud qurilmalarning tahlili ularning qator kamchiliklarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Xususan, ularning aksariyati tuproqni yumshatgandan so‘ng dala yuzasida notekisliklar qoldiradi yoki traktorning pastki tortqilariga bevosita o‘rnatilishi sababli traktorning funksional imkoniyatlarini cheklaydi [7]. Shuningdek, aksariyat iz yumshatkichlar yuqori energiya va material talabchanligiga ega bo‘lib, ular o‘zlashtirgan izlarda ekinlar ildizi chuqur rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi qattiq qatlamlar saqlanib qoladi. Ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladigan an'anaviy mola-tekislagichlar esa ma’nan eskirgan bo‘lib, traktor izlarini sifatli tekislash talablariga to‘la javob bermaydi [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, iz yumshatkichlar bilan jihozlangan keng qamrovli osma mola-tekislagichning konstruksiyasi va tajriba nusxasi ishlab chiqildi [9, 10].

Iz yumshatkich keng qamrovli osma mola-tekislagichning oldingi ko‘ndalang brusiga o‘rnatilgan parallelogramm mexanizmi 1, shtanga 2, yassi kesuvchi panja 3, tekislagichlar 4 va parallelogramm mexanizmining tirgagidan

ISSN 3030-3907

tashkil topgan. Yassi kesuvchi panja ustun va unga o‘rnatilgan iskana hamda pichoqlardan iborat etib ishlangan. Mola-tekislagichning ish jarayonida yassi kesuvchi panja 3 traktor g‘ildiragi hosil qilgan izni belgilangan chuqurlikka yumshatadi, tekislagichlar 4 esa yassi kesuvchi panja tomonidan yumshatilgan zonaning yuza qismini tekislaydi. Natijada butun paykal bo‘ylab urug‘larni sifatli ekilishi va ularni qiyg‘os undirib olinishi, o‘simliklar bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishi hamda ulardan yuqori hosil olinishi uchun qulay va bir xil sharoitlar yaratiladi.



1-rasm. Iz yumshatkichning konstruktiv sxemasi: *1 – parallelogramm mexanizmi; 2 – shtanga; 3 – yassi kesuvchi panja; 4 – tekislagich; 5 – parallelogramm mexanizmining tirgagi; 6 – tekislagichlarni bir-biri bilan bog‘laydigan ko‘ndalang balka.*

Ushbu maqolada iz yumshatkich tekislagichlari parametrlarining talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta’minlaydigan qiymatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

TADQIQOTNING MAQSADI. Keng qamrovli mola-tekislagich uchun samarali iz yumshatkichning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash orqali yerlarni ekishga tayyorlash sifatini hamda iqtisodiy tejamkorlikni oshirishdan iborat.

TADQIQOT METODI

Tajriba sharoitlari va asbob-uskunalar. Iz yumshatkich tekislagichlarining parametrlarini o‘rganish bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar maxsus ishlab chiqilgan dala qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Qurilma ko‘ndalang brus, tekislagich, osish qurilmasi, parallelogramm mexanizmi, yassi kesuvchi panja va shtangadan tashkil topgan. Konstruksiya yassi kesuvchi panjaning qamrov kengligini (B_{ya}), uning tuproqqa botish chuqurligini (H), tekislagichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini (γ_t), tekislagich uzunligini (L_m) va

ISSN 3030-3907

uning pastki qirrasidan shtangagacha bo‘lgan masofani (H_p) o‘zgartirish imkonini beradi.

Tajribalar «New Holland T7060» traktori bilan agregatlangan holda 6,0 va 8,0 km/h tezliklarda o‘tkazildi. Eksperimentlar boshlanishidan oldin tajriba dalasi 16-18 cm chuqurlikda chizellandi. Dastlabki o‘lchovlar natijasida tuproqning namligi qatlamlar bo‘yicha 15,4-18,2 % ni, qattiqligi 0,72-1,87 MPa ni va zichligi 1,08-1,25 g/cm³ ni tashkil etishi aniqlandi.

O‘lchov usullari va baholash mezonlari. Tadqiqot ob’ektining agrotexnik va energetik ko‘rsatkichlarini aniqlashda amaldagi davlat standartlari uslubiyotlaridan foydalanildi [11]:

- **Tuproqning uvalanish sifati:** 0,25 m² maydondan olingan tuproq namunalari 50 mm va 25 mm teshikli elaklardan o‘tkazilib, har bir fraksiya massasi RP-100SH13 tarozisida o‘lchandi.
- **Ishlov berish chuqurligi va notekisliklar:** 1 cm² yuzali maxsus chizg‘ich va reyka yordamida ±0,5 cm aniqlikda o‘lchov ishlari olib borildi.
- **Tortishga qarshilikni o‘lchash:** Yassi kesuvchi panja ustuniga hamda tekislagichning ko‘ndalang balkasiga maxsus tenzodatchiklar yelimlandi. Natijalar DOSM-3-5 namunaviy dinamometri va IP-264B o‘lchash moduli yordamida tarorovka qilinib, yozib olindi.

Eksperimentlarni matematik rejalashtirish. Iz yumshatkich tekislagichining asosiy parametrlarini maqbullashtirish (optimizatsiya) uchun Xartli-3 rejasi asosida ko‘p omilli eksperimentlar o‘tkazildi [12]. Jarayonda quyidagi 3 ta omilning ta’siri o‘rganildi:

1. Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, γ_t (X_1).
2. Tekislagichning pastki qirrasidan shtangagacha bo‘lgan masofa, H_p (X_2).
3. Agregat tezligi, V (X_3).

Tajribalar natijasini baholash mezonlari etib ishlov berilgan zonadagi notekisliklar balandligining o‘rtacha kvadratik chetlanishi (Y_1), tuproq zichligi (Y_2) hamda tekislagichning tortishga qarshiligi (Y_3) belgilandi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Tajriba natijalariga ko‘rsatilgan dastur bo‘yicha ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

1. Tekislagichlar tomonidan ishlov berilgan zona yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi (Y_1, cm):

ISSN 3030-3907

$$Y_1 = 1.013 - 0.216X_1 - 0.073X_2 - 0.238X_3 + 0.215X_1^2 + 0.015X_1X_2 - 0.017X_1X_3 + \\ + 0.040X_2^2 + 0.000X_2X_3 + 0.168X_3^2$$

2. Tekislagichlar tomonidan ishlov berilgan zonadagi tuproqning zichligi (Y_2, g/cm³):

$$Y_2 = 1.083 + 0.104X_1 - 0.016X_2 + 0.000X_3 - 0.013X_1^2 - 0.022X_1X_2 + 0.015X_1X_3 - \\ - 0.037X_2^2 - 0.020X_2X_3 - 0.025X_3^2$$

3. Tekislagichlarning tortishga qarshiligi (Y_3, N):

$$Y_3 = 384.559 - 7.667X_1 + 28.500X_2 + 22.633X_3 + 8.934X_1^2 + 5.725X_1X_2 - \\ - 7.475X_1X_3 - 7.399X_2^2 + 5.725X_2X_3 + 13.901X_3^2$$

1-Jadval

Omillarning o‘zgarish oraliqlari va sathlari

№	Omillarning nomlanishi	O‘lchov birligi	Shartli belgilanish	Variatsiya lanish oralig‘i	Sath (-1)	Sath (0)	Sath (+1)
1	Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi	gradus	X_1	10	20	30	40
2	Tekislagichlarning pastki qirrasidan shtangagacha bo‘lgan tik masofa	cm	X_2	3	38	41	44
3	Agregat tezligi	km/h	X_3	1	6	7	8

Olingan regressiya tenglamalari va ular bo‘yicha qurilgan grafik bog‘lanishlarning tahlili barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini isbotladi:


Birinchi regressiya tenglamasi va grafik bog‘liqliklardan ko‘rinib turibdiki, har uchala harakat tezligida (X_3) ham tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi (X_1) ortishi bilan ular tomonidan ishlov berilgan zona yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi (Y_1) oldin kamaygan, keyin ortgan. Tekislagichlarning pastki qirrasidan shtangagacha

ISSN 3030-3907

bo‘lgan tik masofa (X_2) ortishi bilan esa bu ko‘rsatkich kamaygan (2-rasmga qarang).


Ikkinchi regressiya tenglamasi tahliliga ko‘ra, tekislagichlarning o‘rnatilish burchagi (X_1) ortishi ishlov berilgan zonadagi tuproqning zichligini (Y_2) ortishiga olib kelgan. Shtangagacha bo‘lgan masofa (X_2) ortishi bilan tuproqning zichligi oldin ortgan, keyin kamaygan (3-rasmga qarang).

Uchinchi regressiya tenglamasi shuni ko‘rsatadiki, tekislagichlarning o‘rnatilish burchagi (X_1) ortishi bilan ularning tortishga qarshiligi (Y_3) oldin kamayib, keyin ortgan. Shtangagacha bo‘lgan tik masofaning (X_2) ortishi esa ushbu qarshilikning proporsional ortishiga olib kelgan (4-rasmga qarang).



1, 2 va 3 - mos ravishda harakat tezligi (X_3) 6, 7 va 8 km/h bo‘lganda


2-rasm. Tekislagichlar tomonidan ishlov berilgan zona yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishini X_1 va X_2 ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari.



1, 2 va 3 - mos ravishda harakat tezligi (X_3) 6, 7 va 8 km/h bo‘lganda

3-rasm. Tekislagichlar tomonidan ishlov berilgan zonadagi tuproqning zichligini X_1 va X_2 ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari.

ISSN 3030-3907



1, 2 va 3 - mos ravishda harakat tezligi (X_3) 6, 7 va 8 km/h bo'lganda

4-rasm. Tekislagichning tortishga qarshiligini X_1 va X_2 ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari.

Parametrlarning talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan qiymatlarini aniqlash uchun regressiya tenglamalari MS Excel dasturining «Yechimni qidirish» (Solver) amali bo'yicha 6-8 km/h tezliklarda birgalikda yechildi. Bunda $Y_1 \leq \pm 2$ cm, $Y_2 = 1{,}1 - 1{,}2$ g/cm³ oralig'ida bo'lishi hamda $Y_3 \rightarrow \min$ shartlari qabul qilindi.

2-Jadval

Keng qamrovli mola-tekislagich iz yumshatkichlarining maqbul qiymatlari

Harakat tezligi, V (X_3)	**O'rnatilish burchagi, γ_t (X_1)**	**Shtangagacha masofa, H_p (X_2)**
6 km/h	38°47' (38,77°)	40,65 cm
7 km/h	34°33' (34,55°)	41,11 cm
8 km/h	35°25' (35,43°)	40,99 cm

Olingan natijalar bo'yicha iz yumshatkichlarining tekislagichlari 6-8 km/h ish tezliklarida kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlashi uchun ularning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 35°33' - 38°47' oralig'ida va tekislagichlarning pastki qirrasidan shtangagacha bo'lgan tik masofa 40,65 - 41,11 cm oralig'ida bo'lishi lozim.

XULOSA

O'tkazilgan ko'p omilli tajribalar va olingan regressiya modellarining tahlili shuni ko'rsatadiki, iz yumshatkich tekislagichlari 6-8 km/h ish tezliklarida agrotexnik talablar darajasida sifatli ishlashi hamda kam energiya sarflashi uchun ularning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 35°33' – 38°47' oralig'ida hamda tekislagichlarning pastki qirrasidan shtangagacha bo'lgan tik

ISSN 3030-3907

masofa 40,65 – 41,11 cm oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Omillarning ushbu maqbul qiymatlarida tekislagichlar tomonidan ishlov berilgan zonadagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi ±0,95 – 1,25 cm ni, tuproqning zichligi 1,10 - 1,11 g/cm³ ni hamda tekislagichlarning tortishga qarshiligi 357,4 – 376,4 N ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar yerlarni ekishga tayyorlash jarayonini yuqori sifatda amalga oshirishni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Keller T., Sandin M., Colombi T., Horn R., Or D. Historical increase in agricultural machinery weights enhanced soil stress levels and mutates soil functioning // Soil and Tillage Research 2019. № 194, 104293-p.
2. Batey T. Soil compaction and soil management–a review // Soil use and management 2009. № 25(4), 335-345-p.
3. Ngo-Cong D., et al. Subsoil compaction and mitigation strategies in conservation agriculture // Journal of Soil Science and Plant Nutrition 2021. № 21, 1234-1245-p.
4. Тўхтақўзиев А., Науризбаев А.О. Кенг қамровли мола-текислагич из юмшаткичларининг параметрларини назарий асослаш // Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси 2020. № 4 (261), 26-31-б.
5. Тўхтақўзиев А., Науризбаев А.О. Кенг қамровли мола-текислагич из юмшаткичи текислагичлари параметрларининг мақбул қийматларини аниқлаш // Agro ilm 2021. № 78, 94-95-б.
6. Ferreira C.J., et al. An alternative to mitigate soil compaction and improve crop yield under no-till systems // Soil and Tillage Research 2023. № 232, 105753-p.
7. Savelyev Yu.A. Obosnovanie parametrov sledorixlitelya traktora s kombinirovannimi rabochimi organami // Selskiy mexanizator 2015. № 4, 31-34-b.
8. Kaipov M.U., Murodov N.M. Traktor izlarini yumshatish mashinalarining rivojlanish tendensiyalari // Agro-Ilm 2019. № 3, 45-48-b.
9. Fatxutdinov M.R. Kombinatsiyalashgan ishchi organlarga ega iz yumshatkich parametrlarini asoslash // Mexanizatsiya va elektrifikatsiya 2017. № 2, 17-19-b.
10. Axmedov Sh., Karimov A. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari // Scienceweb academic papers collection 2024. 1-6-b.
11. Аугамбаев М., Иванов А.З., Терехов Ю.И. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента // Тошкент: Ўкитувчи 1993. 336 б.

ISSN 3030-3907

12. Tst 63.04.2001. Испытания сельскохозяйственной техники. Машины и орудия для поверхностной обработки почвы. Программа и методы испытаний // Издание официальное. – Ташкент 2001. 54 с.

ISSN 3030-3907

MAXSAR YOG‘I ASOSIDA TAYYORLANGAN YANGI SURKOV MOYI SINTEZI VA IQ-SPEKTROSKOPIK TAHLILI

Omonkulov Olimjon Tulkinovich
Buxoro davlat texnika universiteti
Axmedov Vohid Nizomovich
Buxoro davlat texnika universiteti
Ikromov Ulug‘bek G‘afur o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti
Isroilov Oltinbek Ixtiyor o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Maxsar yog‘i, grill yog‘i, tiomochevina, kroton aldegid va kalsiystearat asosida sintez qilingan yangi surkov moyi sintez usuli va IQ-spektroskopik tadqiqot usullari orqali o‘rganildi. IQ-spektroskopik usul surkov moyidagi komponentlarning kimyoviy o‘zaro ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: IQ - spektroskopiya, maxsar yog‘i, harorat, grill yog‘i, tiomochevina, polikroton aldegid, kalsiystearat.

Abstract: A new lubricating grease synthesized on the basis of maxsar oil, grill oil, thiourea, crotonaldehyde, and calcium stearate was obtained and studied using synthesis methods and infrared (IR) spectroscopic analysis. The IR spectroscopic method made it possible to determine the chemical interactions among the components of the lubricating grease.

Keywords: IR spectroscopy (Infrared spectroscopy), maxsar oil, temperature, grill oil, thiourea, polycrotonaldehyde, calcium stearate

Аннотация: Новый смазочный материал, синтезированный на основе масла максар, грильного масла, тиомочевины, кротонового альдегида и стеарата кальция, был получен и исследован методами синтеза и ИК-спектроскопического анализа. Метод ИК-спектроскопии позволил определить химическое взаимодействие компонентов в составе смазочного материала.

Ключевые слова: ИК-спектроскопия, масла максар, температура, масло для гриля, тиомочевина, поликротоновый альдегид, стеарат кальция

KIRISH.

Aholining jadal o‘sishi, sanoatlashuv va transport vositalari sonining ortishi natijasida energiya resurslariga bo‘lgan talab keskin ko‘paymoqda. Shu bilan birga, an’anaviy neft asosidagi surkov moylarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Neft zaxiralarining cheklanganligi, chiqindilarning to‘planishi hamda atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi barqaror va ekologik xavfsiz alternativ manbalarni izlashni talab etmoqda. Shu

ISSN 3030-3907

nuqtai nazardan, qayta tiklanuvchi xomashyolarga asoslangan biologik parchalanuvchi surkov moylarini yaratish dolzarb vazifaga aylandi [1].

Maxsar - yog‘li ekin sifatida yuqori agronomik qiymatga ega bo‘lib, uning urug‘idan olinadigan moy kimyoviy tarkibi va fizik-xossalari jihatidan surkov materiallari ishlab chiqarish uchun istiqbolli xomashyo hisoblanadi. Mahsar moyi tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalari uning yaxshi suyuqlik xossalari, past qotish harorati va yuqori moylash qobiliyatini ta’minlaydi. Bu esa uni turli ishqalanish juftliklarida ishlatish imkonini beradi [2].

Maxsar asosida sintez qilingan surkov moylari an’anaviy mineral moylarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan ular biologik parchalanuvchan bo‘lib, tuproq va suv havzalariga tushganda atrof-muhitga kam zarar yetkazadi. Shuningdek, ularning yuqori yog‘lash qobiliyati va tabiiy polyar tuzilishi ishqalanish koeffitsientini kamaytirishga va yeyilishni pasaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, kimyoviy modifikatsiya (eterifikatsiya, epoksidlash, antioksidant qo‘shimchalar qo‘shish) orqali ularning oksidlanish barqarorligi va issiqlikka chidamliligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin [3].

Shu bilan birga, mahsar moyining tabiiy holda oksidlanishga moyilligi va yuqori haroratlarda barqarorligining nisbatan pastligi kabi kamchiliklari mavjud. Biroq zamonaviy qo‘shimchalar va stabilizatorlar qo‘llash orqali bu muammolar samarali hal etilmoqda. Natijada, maxsar asosidagi surkov moylari mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi texnikasi va sanoat uskunalarida ekologik toza va samarali alternativ sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Mahsar moyi asosida sintez qilingan surkov materiallari qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi, biologik parchalanuvchanligi va yuqori moylash xususiyatlari tufayli barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi hamda kelajakda neft asosidagi surkov moylariga samarali o‘rinbosar bo‘lishi mumkin [4].

TADQIQOTNING MAQSADI. mahalliy xomashyolar asosida, jumladan mahsar moyi asosida yuqori moylash qobiliyatiga ega, ishqalanish va yeyilishni kamaytiruvchi, oksidlanishga chidamli hamda ishlash muddati tugagandan so‘ng biologik parchalanuvchi surkov moylarini sintez qilishning samarali usulini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish doirasida maxsar moyining kimyoviy tarkibi va fizik-mexanik xossalarini tahlil qilish, uni kimyoviy modifikatsiya qilish orqali (eterifikatsiya, epoksidlash va funksional qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan) termo-oksidlanish barqarorligini oshirish, ishqalanish koeffitsienti va yeyilish darajasini kamaytirish, shuningdek, olingan surkov moylarining ekologik xavfsizligi va biologik parchalanish qobiliyatini baholash nazarda tutiladi. Natijada, neft asosidagi an’anaviy surkov materiallariga muqobil bo‘la oladigan, qayta tiklanuvchi manbalarga tayangan, atrof-muhitga juda kam zarar yetkazuvchi

ISSN 3030-3907

va sanoat hamda qishloq xo‘jaligi texnikasida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion surkov moylarini yaratish ko‘zda tutiladi.


TAJRIBA QISM. Tadqiqotning ob’ekti sifatida maxsar yog‘i, grill yog‘i, tiomochevina, kalsiy stearat, polikroton aldegidlar tanlab olingan. Ushbu tadqiqotda ko‘p bosqichli termik-reaksion sintez jarayoni amalga oshirildi. Dastlab 300 ml maxsar yog‘i reaksion idishga joylanib, 80 - 85°C harorat oralig‘ida 20 daqiqa davomida doimiy aralashtirish sharoitida termik ishlov berildi. Bu bosqichda tizimning gomogenligi ta’minlandi va asosiy moddaning reaksion qobiliyati faollashtirildi. Keyingi bosqichda reaksion muhitga 100 ml grill yog‘i qo‘shildi va harorat 90°C gacha oshirildi. Aralashtirish jarayoni yana 30 daqiqa davom ettirilib, komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchaytirildi hamda tizimda barqaror reaksion muhit shakllantirildi. Shundan so‘ng reaksion aralashmaga 50 g tiomochevina kiritildi. Harorat 100°C gacha ko‘tarilib, jarayon 20 daqiqa davom ettirildi. Ushbu bosqichda tiomochevinaning funksional guruhlari ishtirokida kimyoviy bog‘lanishlar hosil bo‘lishi uchun sharoit yaratildi. Keyingi jarayonda harorat 120°C gacha oshirildi va reaksion muhitga bosqichma-bosqich quyuq, bir jinsli massa hosil bo‘lguniga qadar kalsiy stearat qo‘shildi. Aralashtirish taxminan 40 daqiqa nazorat ostida olib borildi. Bu bosqich mahsulotning strukturasi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sintezning yakuniy bosqichida reaksion tizimga 50 ml polikroton aldegid qo‘shildi. Harorat 150°C darajada ushlab turilib, 10 daqiqa davomida intensiv aralashtirish amalga oshirildi. Ushbu bosqichda polikondensatsiya hamda qo‘shimcha strukturalanish reaksiyalari tugallanishi ta’minlandi. Reaksiya yakunlangach, sintez qilingan mahsulot tabiiy sharoitda sovutildi va maxsus idishga joylandi. Natijada termik va kimyoviy ishlov bosqichlaridan o‘tgan, quyuq, barqaror tarkibli sintetik mahsulot olindi.

Namunalarning IQ-spektrlari Shimadzu kompaniyasining IR Tracer-100 markali spektrometrida 400-4000 sm^{-1} to‘lqin uzunligi diapazonida olindi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI.

Kimyoviy birikmalar va kompozitsion materiallarning molekular tuzilishini aniqlashda zamonaviy tahlil usullaridan biri sifatida IQ-spektroskopiya keng qo‘llaniladi. Shu sababli maxsar moyi asosida tayyorlangan, shuningdek grill moyi, tiomochevina, polikroton aldegid va kalsiy stearat qo‘shimchalari ishtirokida sintez qilingan surkov moylarining tuzilishi IQ-spektroskopik usulda o‘rganildi va olingan natijalar 1-rasmda keltirildi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Maxsar moyi asosida va grill moyi, tiomochevina, kalsiy stearat, polikroton aldegid qo‘shimchalari ishtirokida sintez qilingan surkov moyining IQ-spektri.

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda 3700 - 400 sm^{-1} oraliqda mahsar yog‘i, grill yog‘i, tiomochevina, polikroton aldegid va kalsiy stearat qo‘shimchalari asosida olingan surkov moylarining IQ-spektrlari keltirilgan bo‘lib, ular triglitserid tabiatli asos moy va funksional qo‘shimchalarning o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Xususan, triglitseridlarga xos karbonil (C=O) guruhlari, uglevodorod zanjirlarining CH-guruhlari, tiomochevinaga tegishli N-H va C=S funksional guruhlari hamda kalsiy stearatga xos karboksilat (-COO-) bog‘larining mavjudligi va intensivligi tahlil qilinib, sintez jarayoni muvaffaqiyatli kechgani hamda yangi surkov kompozitsiyasi shakllangani spektroskopik jihatdan tasdiqlandi. IQ-spektrlarning taqqoslama tahlili shuni ko‘rsatdiki, mahsar yog‘i va grill yog‘i asosidagi surkov kompozitsiyalarida 3000 - 2800 sm^{-1} sohada joylashgan CH_3- va CH_2-guruhlarining valent tebranishlari uglevodorod zanjirlarining saqlanib qolganini va asos moy strukturasi buzilmaganini ko‘rsatadi. 1743 - 1744 sm^{-1} atrofidagi intensiv polosa triglitserid molekulalaridagi karbonil (C=O) guruhlariga xos bo‘lib, modifikatsiya jarayonidan so‘ng ham ushbu funksional guruhning mavjudligi qayd etildi. Bu holat asos moy kimyoviy skeleti saqlangan holda kompozitsion o‘zgarish yuz berganini anglatadi. Tiomochevina ishtirokida sintez qilingan namunalarda 3300 -3200 sm^{-1} diapazonda N-H guruhlariga tegishli keng polosalar hamda 1200 - 1000 sm^{-1} oralig‘ida C - N va C=S bog‘lariga xos tebranishlar aniqlandi, bu esa azot va oltingugurt saqlovchi funksional guruhlar surkov tizimi tarkibiga kiritilganini tasdiqlaydi. Bunday guruhlar metall yuzalar bilan adsorbsion o‘zaro ta’sirga kirishib, yeyilishga qarshi va antifriksion xossalarni yaxshilashi mumkin. Kalsiy stearat qo‘shilgan kompozitsiyalarda 1540 - 1570 sm^{-1} va 1400 - 1450 sm^{-1}

ISSN 3030-3907

sohalarda karboksilat anionining (-COO-) asimmetrik va simmetrik tebranishlari kuzatilib, metall sovun tuzilmasining shakllangani spektroskopik jihatdan isbotlandi. Shuningdek, 720 - 730 sm^{-1} atrofidagi to‘lqin uzunligi zanjirli uglevodorod radikallarining deformatsion tebranishlarini ifodalab, surkov moylarining tuzilmaviy tartiblanish darajasi haqida ma’lumot beradi.

Umuman olganda, IQ-spektroskopik tahlil natijalari sintez jarayonida mahsar yog‘i asosidagi surkov moylariga funksional qo‘shimchalar muvaffaqiyatli integratsiya qilinganini, ular o‘rtasida molekular darajada o‘zaro ta’sir mavjudligini hamda olingan kompozitsiyalar barqaror kimyoviy tuzilishga ega ekanini ko‘rsatdi. Bu esa ishlab chiqilgan surkov moylarining yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Sintez qilingan yangi surkov moyining maxsus qoplama tarkibida qo‘llanilishi natijasida qoplamaning fizik-mexanik xossalarida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday izlanishlar qoplamaning mustahkamligi, adgeziyasi, elastikligi, yeyilishga chidamliligi va uzoq muddatli ekspluatatsion barqarorligini baholash imkonini beradi hamda ishlab chiqilgan surkov moyining amaliy samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlashga xizmat qiladi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsar yog‘i, grill yog‘i, tiomochevina, polikroton aldegid va kalsiy stearat asosida sintez qilingan yangi surkov moyining IQ-spektroskopik tahlillari uning barqaror xususiyatlarga ega ekanligini hamda tarkibiy komponentlar o‘rtasida maqsadli kimyoviy o‘zaro ta’sirlar yuz berganligini tasdiqladi. Olingan natijalar yangi surkov moyining tarkibiy va funksional jihatdan ilmiy asoslanganligini, uning ekspluatatsion sharoitlarda samarali qo‘llanish imkoniyati mavjudligini hamda amaldagi sifat standartlariga muvofiq kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur ish surkov moylarini modifikatsiyalash va funksional qoplamalar uchun yangi avlod materiallarini yaratish yo‘nalishida nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.N. Xamidov, M.M. Mirzaeva, S.X. Ganieva, B.A. Smanov, Alternativnые smazochnые materialы s povыshennoy biorazlagaemostyu na osnove saflorovogo masla, Int. J. Adv. Res. Sci. Eng. Technol. 7(6) (2020).

2. M.Ch. Tultabaev, Primenenie emulsiy na osnove saflorovogo masla v ugolnoy promыshlennosti, Nauchnoe obozrenie texnicheskix issledovaniy (2023).

3. Luisa Ugolini, Roberto Matteo, et al., Technical Performance and Chemical–Physical Property Assessment of Safflower Oil Tested in an Experimental Hydraulic Test Rig, Lubricants, 11(2) (2023).

ISSN 3030-3907

4. S.Nogales-Delgado, J.M. Encinar, A. Martínez, High Oleic Safflower Biolubricant through Double Transesterification: Production, Characterization, and Antioxidant Addition, Arabian Journal of Chemistry 15, 103796 (2022).
5. B.N. Xamidov, M.M. Mirzaeva, Saflorovoe (maxsar) maslo asosida ekologik tozalikka ega smazkalar kompozitsiyasi, International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology 7(6) (2020).

ISSN 3030-3907

TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP) ASOSLARI VA QO‘LLANILISH SOHALARI

Orziqulova Zulfizar Murodjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi
E-mail: zulfizararziqulova5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) yo‘nalishining nazariy asoslari, asosiy tushunchalari hamda amaliy qo‘llanilish sohalari yoritiladi. NLP sun’iy intellekt va kompyuter lingvistikasining integrativ yo‘nalishi sifatida matn va nutqni avtomatik tahlil qilish, tushunish va generatsiya qilish masalalarini hal etishga qaratilgan. Maqolada NLPning tipik vazifalari, jumladan tokenizatsiya, lemmatizatsiya, morfologik va sintaktik tahlil, nomlangan obyektlarni aniqlash, sentiment tahlili, mashina tarjimasi, savol-javob tizimlari hamda matnni qisqartirish kabi yo‘nalishlar umumlashtiriladi. Shuningdek, klassik yondashuvlardan zamonaviy chuqur o‘rganish (deep learning) va transformer arxitekturalarigacha bo‘lgan rivojlanish tendensiyalari hamda ta’lim, tibbiyot, bank-moliya, media monitoring, call-markazlar va davlat xizmatlarida NLP yechimlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida NLP texnologiyalarini joriy etishda ma’lumotlar sifati, til resurslari, etik masalalar va xavfsizlik talablarini hisobga olish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: NLP, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter lingvistika, mashina o‘rganishi, transformer, mashina tarjimasi, sentiment tahlili, chat-bot.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы обработки естественного языка (Natural Language Processing, NLP), ключевые понятия и основные направления практического применения. NLP как междисциплинарная область на стыке искусственного интеллекта и компьютерной лингвистики ориентирована на автоматический анализ, понимание и генерацию текста и речи. Обобщаются типичные задачи NLP: токенизация, лемматизация, морфологический и синтаксический анализ, распознавание именованных сущностей, анализ тональности, машинный перевод, системы вопросов-ответов и автоматическое суммирование текста. Отдельно обсуждаются эволюция методов от классических статистических подходов к глубокому обучению и архитектурам transformer, а также прикладные сценарии в образовании, медицине, финансовом секторе, медиа-мониторинге, контакт-центрах и электронных госуслугах. Делается вывод о том, что эффективность внедрения NLP зависит от качества данных и языковых ресурсов, а также от соблюдения требований этики, приватности и безопасности.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: NLP, обработка естественного языка, компьютерная лингвистика, машинное обучение, transformer, машинный перевод, анализ тональности, чат-бот.

Abstract. This article outlines the fundamentals of Natural Language Processing (NLP), its core concepts, and major application domains. As an interdisciplinary field at the intersection of artificial intelligence and computational linguistics, NLP focuses on the automatic analysis, understanding, and generation of text and speech. The paper summarizes key NLP tasks including tokenization, lemmatization, morphological and syntactic parsing, named entity recognition, sentiment analysis, machine translation, question answering, and text summarization. It also highlights the evolution of methods from traditional statistical approaches to deep learning and transformer-based architectures. Practical use cases are discussed across education, healthcare, finance, media monitoring, customer support, and e-government services. The study emphasizes that successful NLP deployment depends on data quality and language resources, while addressing ethics, privacy, and security considerations.

Keywords: natural language processing, NLP, computational linguistics, machine learning, transformers, machine translation, sentiment analysis, chatbots.

KIRISH

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Axborot hajmining keskin ortishi, internet va raqamli platformalarning kengayishi natijasida matnli va og‘zaki ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlashga bo‘lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Aynan shu jarayonda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) yo‘nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiiy tilni qayta ishlash – bu sun’iy intellekt va kompyuter lingvistikasining integratsiyalashgan sohasi bo‘lib, inson tilini kompyuter tomonidan tushunish, tahlil qilish va generatsiya qilish imkonini beruvchi algoritm va modellarni ishlab chiqishga qaratilgan. NLP texnologiyalari matnni segmentatsiya qilish, morfologik va sintaktik tahlil qilish, semantik munosabatlarni aniqlash, nutqni matnga aylantirish va aksincha, avtomatik tarjima hamda savol-javob tizimlarini yaratishda keng qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunda NLP tizimlari ta’lim, tibbiyot, bank-moliya, davlat boshqaruvi, media monitoring va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohalarida faol joriy etilmoqda. Masalan, chat-botlar va virtual yordamchilar foydalanuvchilar bilan interaktiv muloqot olib boradi, sentiment tahlili ijtimoiy tarmoqlardagi fikr-mulohazalarni baholash imkonini beradi, mashina tarjimasi esa ko‘p tilli kommunikatsiyani osonlashtiradi. Bunday texnologik yutuqlar transformer

ISSN 3030-3907

arxitekturalari va chuqur o‘rganish (deep learning) metodlarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, NLP texnologiyalari nafaqat texnik, balki lingvistik va etik jihatlarni ham qamrab oladi. Til resurslarining yetishmasligi, ma’lumotlar sifati, maxfiylik va axloqiy masalalar NLP tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kam resursli tillar, jumladan o‘zbek tili uchun NLP vositalarini yaratish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – tabiiy tilni qayta ishlashning nazariy asoslarini yoritish, uning asosiy vazifalari va qo‘llanilish sohalarini tahlil qilish hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda umumlashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasidagi ilmiy tadqiqotlar kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellektning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Dastlabki bosqichlarda NLP asosan qoidaviy (rule-based) yondashuvlarga tayangan bo‘lib, tilning morfologik va sintaktik qoidalarini formal modellar asosida ifodalashga qaratilgan edi. Bu davrda tilni avtomatik tahlil qilish grammatik qoidalar va lug‘aviy bazalar orqali amalga oshirilgan. Biroq ushbu yondashuv katta hajmdagi qo‘lda tuzilgan resurslarni talab qilgani sababli keng miqyosda qo‘llashda cheklovlarga duch keldi.

Keyingi bosqichda statistik metodlar rivojlanib, korpus lingvistikasi va ehtimollik modellari NLP tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishiga aylandi. N-gram modellari, yashirin Markov modellar va Bayes klassifikatorlari kabi usullar matnni tahlil qilishda qo‘llanildi. Ushbu davrda mashina tarjimasi, nutqni aniqlash va axborotni qidirish tizimlari sezilarli darajada takomillashdi. Statistik yondashuv til hodisalarini katta hajmdagi ma’lumotlar asosida o‘rganish imkonini berdi, biroq semantik chuqurlikni to‘liq ifodalash masalasi ochiq qolgan edi.

So‘nggi o‘n yillikda chuqur o‘rganish (deep learning) metodlarining rivojlanishi NLP sohasida tub burilish yasadi. Neyron tarmoqlar, ayniqsa rekurrent neyron tarmoqlar (RNN), LSTM modellar va keyinchalik transformer arxitekturalari tilni qayta ishlash samaradorligini sezilarli oshirdi. Transformer modellari, xususan, katta hajmdagi ma’lumotlar asosida kontekstual semantik munosabatlarni aniqlash imkonini berdi. Buning natijasida mashina tarjimasi, savol-javob tizimlari, matn generatsiyasi va sentiment tahlili sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Zamonaviy adabiyotlarda NLPning qo‘llanilish sohalari keng qamrovli tarzda o‘rganilgan. Ta’lim sohasida avtomatik baholash tizimlari, intellektual

ISSN 3030-3907

repetitorlar va adaptiv o‘qitish platformalari ishlab chiqilmoqda. Tibbiyotda klinik matnlarni tahlil qilish, tashxis qo‘yishda yordam beruvchi tizimlar va elektron sog‘liqni saqlash ma’lumotlarini qayta ishlash yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Bank-moliya sektorida esa firibgarlikni aniqlash, mijoz fikrlarini tahlil qilish va riskni baholashda NLP texnologiyalari keng qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda NLPni joriy etishda etik masalalar, ma’lumotlar maxfiyligi va algoritmik tarafkashlik (bias) muammolari ham muhim o‘rin tutishi qayd etiladi. Ayniqsa, kam resursli tillar uchun korpus va annotatsiyalangan ma’lumotlar yetishmasligi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, NLP sohasi qoidaviy modellar davridan boshlab chuqur o‘rganish va transformer asosidagi tizimlargacha evolyutsion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Biroq tilning murakkab semantik va pragmatik xususiyatlarini to‘liq modellashtirish hamda ko‘p tilli tizimlarni yaratish masalasi hali ham ilmiy izlanishlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda asosiy metod sifatida tizimli tahlil (system analysis) metodi qo‘llanildi. Ushbu metod tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilish yo‘nalishlarini yagona kompleks tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv asosida NLP komponentlari — ma’lumotlar (korpuslar), algoritmlar (qoidaviy, statistik va neyron modellar), dasturiy vositalar hamda qo‘llanilish sohalari o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida tahlil qilindi. Har bir elementning funksional vazifasi, samaradorligi va texnologik rivojlanish bosqichlari izchil o‘rganildi.

Mazkur metod orqali NLPning evolyutsion rivojlanish jarayoni (qoidaviy modellardan tortib transformer arxitekturalarigacha) tizimli ravishda umumlashtirildi hamda uning ta’lim, tibbiyot, moliya va boshqa sohalardagi amaliy ahamiyati kompleks baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida NLP texnologiyalarining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida kichik hajmli empirik tajriba o‘tkazildi. Tajriba jarayonida 5 000 ta o‘zbek tilidagi matndan iborat annotatsiyalangan mini-korpus shakllantirildi. Tadqiqot ikki yo‘nalishda olib borildi:

1. Sentiment tahlili (ijobiy, salbiy, neytral klassifikatsiya)
2. Nomlangan obyektlarni aniqlash (Named Entity Recognition – NER)

Ikkita model taqqoslandi:

- An’anaviy usul (Logistic Regression + TF-IDF)

ISSN 3030-3907

- Transformer asosidagi model (BERT arxitekturasi)

1-Jadval

Model turi	Aniqlik (Accuracy)	F1-score	Xatolik darajasi
TF-IDF + Logistic Regression	78 %	0.76	22 %
Transformer (BERT)	91 %	0.89	9 %

Natijalarga ko‘ra, transformer asosidagi model an’anaviy modelga nisbatan 13 foiz punkt yuqori aniqlik ko‘rsatdi. F1-score ko‘rsatkichi ham sezilarli darajada oshdi (0.76 → 0.89). Bu esa kontekstual semantik tahlil chuqur o‘rganish modellari orqali samaraliroq amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

2. Nomlangan obyektlarni aniqlash (NER) natijalari

NER vazifasida quyidagi obyekt turlari belgilandi: shaxs nomlari, joy nomlari va tashkilot nomlari.

2-Jadval

Model turi	Aniqlik (Precision)	Qamrov (Recall)	F1-score
CRF (Conditional Random Fields)	82 %	79 %	0.80
Transformer (BERT-based NER)	93 %	91 %	0.92

Transformer asosidagi modelda F1 ko‘rsatkichi **0.92** ga yetdi, bu esa CRF modeliga nisbatan 12 foiz punkt yuqori natija demakdir.

Tajriba natijalarini statistik jihatdan asoslash maqsadida ikki model – TF-IDF + Logistic Regression va Transformer (BERT) – ko‘rsatkichlari proportsiyalar farqi bo‘yicha taqqoslandi.

1. Statistik parametrlar

- 1-model aniqligi: **78 %** ($p_1 = 0.78$)
- 2-model aniqligi: **91 %** ($p_2 = 0.91$)
- Har bir model uchun test hajmi: $\mathbf{n_1 = n_2 = 1000}$
- Farq: $\mathbf{\Delta = 13}$ **foiz punkt**

Standart xatolik *(SE)* formulasi:

$$SE = \sqrt{\frac{p_1(1-p_1)}{n_1} + \frac{p_2(1-p_2)}{n_2}}$$

Hisob-kitob natijasida:

ISSN 3030-3907

- $SE \approx 0.0136$
- $t \approx 9.52$

2. Statistik ahamiyatlilik

Olingan $t = 9.52$ qiymat kritik qiymatdan ($\alpha = 0.05$ darajada $t \approx 1.96$) ancha yuqori.

Shu sababli:

- $p < 0.001$,
- Natijalar statistik jihatdan ishonchli (significant).

Bu Transformer modelining aniqligi TF-IDF modeliga nisbatan tasodifiy emas, balki haqiqiy ustunlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

3. Effekt kattaligi

Proportsiyalar farqi:

$$d = p_2 - p_1 = 0.13$$

13 % farq NLP tadqiqotlari uchun sezilarli va amaliy ahamiyatga ega ko‘rsatkich hisoblanadi.

